

R.X.Ergashev, Z.S.Shoxo'jayeva, O.A.Amanov

***DEHQON VA FERMER
XO'JALIKLARI IQTISODIYOTI***

(ma`ruza matnlari to`plami)

Qarshi-2016

Tuzuvchilar:

**QarMII “Iqtisodiyot” kafedrası professori,
i.f.d. R.X.Ergashev, dotsent, i.f.n. Z.S. Shoxo‘jayeva,
katta o‘qituvchi O.A.Amanov**

Taqrizchilar:

Erkaeva G.– QDU «Iqtisodiyot va servis» kafedrası mudiri, dotsent, iqtisod fanlari nomzodi

Ravshanov A.D. – QarMII «Iqtisodiyot» kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Mazkur ma‘ruzalar matni «Iqtisodiyot» kafedrasining “09” 01 2016 yil № 08 sonli majlisida, «Iqtisodiyot» fakulteti uslubiy komissiyasining “15 ”01 2016 yil №06 sonli majlisida, “Iqtisodiyot” fakultetining “23” 01 2016 yil № 05 sonli kengashida va QMII Uslubiy Kengashining “03 ” 02 2016 yil № 05 sonli yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilgan va ma‘qullangan.

Ushbu ma‘ruzalar matnida fanning nazariy va amaliy asoslari Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan bo‘lib, unda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali shakllaridan bo‘lgan dehqon va fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy va xuquqiy asoslari, ularni tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solinishi hamda boshqarish bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Ularda yer, suv, mehnat va boshqa resurslardan, mulkchilik munosabatlari, infratuzilma xizmatlaridan foydalanish, mahsulot etishtirish, sotish, sarmoya sarflash, daromadlarni shakllantirish va taqsimlash, boshqa korxonalar va davlat tashkilotlari bilan iqtisodiy aloqa va shu kabi masalalar bayon etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, qabul qilingan qaror va farmonlari hamda har yilgi yil yakunlari bo‘yicha ma‘ruzalaridan foydalanilgan.

Ushbu ma‘ruzalar matni 5230100- «Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligi)» bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari, magistrantlari, ilmiy izlanuvchilari va professor-o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

ANNOTASIYA

Ushbu ma'ruza matnda qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirishning nazariy, uslubiy hamda amaliy asoslari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida yoritilgan; dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan tashkiliy va iqtisodiy islohotlarning mazmun va mohiyati mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov asarlariga va amaliyotdagi meyoriy hujjatlarga asoslangan holda bayon etilgan; dehqon va fermer xo'jaliklarida mavjud bo'lgan moddiy-texnika va mehnat resurslaridan foydalanishning hozirgi holati, dehqon va fermer xo'jaliklarining rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil qilinib, kelajakda ularning samaradorligi yuksalishini ta'minlovchi omillar, yo'llar batafsil ko'rsatilgan. Shuningdek dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda chet el tajribalaridan foydalangan holda amaliyotga tadbiiq etish masalalari ham keng yoritilgan.

АННОТАЦИЯ

В этом текст лекции отражены теоретические, методологические и практические основы формирования свободных рыночных отношений в сельском хозяйстве, основанные на требованиях Национальной программы Подготовки кадров; раскрыты значение и сущность организационных и экономических реформ проведённые для развития дехканских и фермерских хозяйств, основанные на произведениях Президента Республики И.Каримова и текущего законодательства; выявлены состояние пользования материально-техническими ресурсами дехканских и фермерских хозяйств, проведён анализ на основании научного развития и экономической эффективности дехканских и фермерских хозяйств, показаны пути и факторы обеспечивающие в будущем повышение их эффективности. А также рассмотрены задачи по внедрению зарубежного опыта развития дехканских и фермерских хозяйств.

ANNOTATION

In this collection of lectures the oretical, methodological and practical basis for the formation of a free market in agriculture, based on the requirements of national training programs; disclose the value and nature of the institutional and economic reforms carried out for development and farms, based on the works of the President Islam Karimov and the current legislation, the state identified using logistic resources and farms, the analysis on the basis of scientific development and economic efficiency and farms, shows the way and the factors ensuring the future improvement of their efficiency. And also examined the problem by the introduction of foreign experience in the development and farms.

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-Mavzu. «DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI, VAZIFALARI HAMDA O'RGANISH USULLARI

1. Qishloq xo'jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi.....
2. Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish.....
3. Davlatning fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishga oid siyosati.....
4. Fanining maqsadi, vazifalari, predmeti.....

II-Mavzu. FERMER XO'JALIKLARINING HUQUQIY, TASHKILIY VA IQTISODIY ASOSLARI.....

1. Fermer xo'jaliklarining huquqiy asoslari tizimi.....
2. Fermer xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, tartibi hamda asosiy shakllari.....
3. Fermer xo'jaliklarini tashkiliy tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari.....
4. Chet ellardagi fermer xo'jaliklarining mulki, ularning rivojlantirilishi.....
5. Dehqon xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, tartibi hamda asosiy shakllari.....
6. Dehqon xo'jaliklarini tashkiliy tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari.....

III-Mavzu. DEHQON XO'JALIKLARINING HUQUQIY, TASHKILIY VA IQTISODIY ASOSLARI.....

1. Dehqon xo'jaliklarining huquqiy asoslari tizimi.....
2. «Dehqon xo'jaligi» tushunchasi. Dehqon xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, tartibi hamda asosiy shakllari.....
3. Dehqon xo'jaliklarini tashkiliy tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari.....
Dehqon xo'jaligining iqtisodiy negizi. Xo'jalikdagi mulkiy munosabatlar.....
5. Dehqon xo'jaligi mulkining tarkibi. Xo'jalikning o'zini va a'zolarining mablag'lari.....
6. Xo'jalikning mulkini ko'paytirishda davlatning roli. Dehqon xo'jaliklarining mulki, ularning rivojlantirilishi borasida chet el tajribalari.....

IV-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI VA ULARNI TAKOMILLASH TIRILISHI.....

1. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga ko'ra fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.....
2. Davlatning dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish boyicha siyosati va ular faoliyatiga davlat aralashuvining yo'nalishlari.....
3. Xo'jaliklar faoliyatini rivojlantirishga sarflanayotgan investitsiyalar, kreditlar, lizing kreditlari va bojxona to'lovlari.....
4. Dehqon va fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi.....
5. Dehqon va fermer xo'jaliklarini iqtisodiy mustaqilligiga davlat aralashuvini kamaytirish yo'llari.....
6. Fermer xo'jaliklari faoliyatiga davlatning aralashuviga oid chet el tajribalari.....

V-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING DAVLAT VA BOSHQA KORXONA, TASHKILOTLAR BILAN IQTISODIY ALOQALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRILISHI.....

1. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning zarurligi.....
2. Dehqon va fermer xo'jaliklarini erkin faoliyat yurtishi uchun davlat va boshqa korxonalar, tashkilotlar bilan amalga oshiradigan iqtisodiy munosabatlar tizimi va

- tarkibi.....
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yetishtirayotgan mahsulotlarini sotish boyicha tuzayotgan shartnomalari.....
4. Rivojlangan davlatlardagi shartnomaviy munosabatlar.....

VI -Mavzu. QISHLOQ XO'JALIGI VA XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING IQTISODIY VA HUQUQIY SHAROITLARI

1. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga ko'ra qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish.....
2. Qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini tahlil etish.....
3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari.....
4. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va ularning turkumlashtirilishi.....

VII-Mavzu. XO'JALIKLARNING YER-SUV RESURLARI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH

1. Yer va suv resurslarining dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.....
2. Xo'jaliklarni yer resurslari bilan ta'minlashning huquqiy asoslari.....
3. Xo'jaliklarning suv resurslariga bo'lgan talabi.....
4. Yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun haq to'lash. Fermerlarga yer solig'ini to'lashdagi imtiyozlar.....
5. Yerdan, suvdan to'liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....
6. Yer va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalari.....

VIII -Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNAT RESURLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnat va mehnat resurslari.....
2. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish.....
3. Mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanganlik ko'rsatkichlari. Mehnat unumdorligi.....
4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va yuksaltirish yo'llari.....

IX-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING MULKI, ULARNING TARKIBI, SHAKLLANISHI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH YO'LLARI

1. Mulkchilikning huquqiy asoslari. Mulkning dehqon va fermer xo'jaligi iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.....
2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mulklaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mulklaridan foydalanishning hozirgi holati.....
4. Yerga mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish masalasi.....

X-Mavzu. ISHLAB CHIQRISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI

1. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyati.....
2. Investitsion mablag'larni jalb etish manbalari.....
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarini kreditlashtirish. Fermer xo'jaliklarida investitsiyalarni

- sarflash yo'nalishlari.....
4. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlariga investitsiya jalb etish.....
5. Chorvachilik va bog'dorchilikka investitsiya jalb etish.....
6. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni oshirish yo'llari.....

XI-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING MODDIY-TEXNIKA RESURLARI VA ULARNING MABLAG'LAR BILAN TA'MINLANISHI

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlanishida moddiy-texnika resurslarning hamda mablag'larning ahamiyati.....
2. Xo'jaliklarning moddiy-texnika resurslar hamda mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika va mablag' resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, ulardan foydalanish darajasini oshirish yo'llari.....

XII-mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARI MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTINING TASHKILIY VA IQTISODIY OMILLARI

1. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tushunchasi.....
2. Qishloq xo'jaligi moddiy texnika bazasining o'ziga xos xususiyatlari.....
3. Qishloq xo'jaligida lizing va uning ahamiyati. MTP va muqobil MTPlar hamda ularni rivojlantirishning zaruriyati.....
4. Moddiy-texnika ta'minotida o'zaro hamkorlik aloqalari.....

XIII-mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

1. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishda infratuzilma xizmatlarining ahamiyati va zarurligi.....
2. Ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari, ularni baholash, samarali yo'nalishlarini tanlash tartibi.....
3. Xo'jaliklarga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishni yaxshilash va rivojlantirish.....
4. Fermer xo'jaliklariga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishdagi chet el tajribalar.....

XIV-mavzu. QISHLOQ XO'JALIGIDA IJTIMOIIY INFRATUZILMA VA UNI RIVOJLANTIRISH

1. Qishloqni ijtimoiy rivojlantirishning mazmuni va ahamiyati.....
2. Ijtimoiy infratuzilmani tashkil etishning asosiy vazifalari va uni rivojlanishini belgilovchi ko'rsatkichlar.....
3. Madaniy- maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni qishloq aholisini turmush darajasini oshirishdagi roli.....
4. Qishloq joylarida madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida kadrlar tayyorlash va iqtisodiy hamkorliklar.....

XV-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA XARAJATLAR, ULARNING TARKIBI VA KAMAYTIRISH YO'LLARI

1. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotida xarajatlarning ahamiyati.....
2. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi.....
3. Xarajatlarni kamaytirish hamda fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxini aniqlash tartibi va pasaytirish yo'llari.....

XVI -mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA YALPI VA TOVAR MAHSULOTI, ULARNING TAQSIMLANISHI

1. Dehqon va fermer xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti.....
2. Tarmoqning yalpi va tovar mahsulotiga bo'lgan talabi.....
3. Yalpi mahsulotini ko'paytirish yo'llari. Ekstensiv va intensiv yo'llar.....
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori.....
5. Sanoat mahsulotlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'rtasidagi nomutanosibliklar.....
6. Davlat buyurtmalariga o'rnatiladigan baholar. Dotatsiya va subsidiyalar.....

XVII-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA TAYYORLOV TIZIMI VA UNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

1. Tayyorlov tizimining mohiyati, ahamiyati va vazifalari.....
2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va tayyorlov tizimi korxonalari o'rtasidagi O'zaro hisob-kitoblar.....
3. Tayyorlov tizimini rivojlantirish myammolari.....

XVIII-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING FOYDA VA DAROMADLARI, ULARNING SHAKLLANTIRILISHI VA OQILONA TAQSIMLANISHI

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va pul daromadlari, foydalari, ularni shakllantirilishi.....
2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va sof pul tushumi hamda ularni ko'paytirish imkoniyatlari.....
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi daromadini va pul tushumini maqsadga muvofiq taqsimlash.....
4. Xo'jaliklarda foydani ko'paytirish yo'llari.....

XIX-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISH YO'LLARI

1. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligi.....
2. Xo'jaliklar faoliyatini iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlari.....
3. Xo'jaliklarning ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari. Ularning rentabellik darajasi.....
4. Dehqon va fermer xo'jaliklarini iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish yo'llari.....

Glossariylar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati.....

Ilovalar.....

KIRISH

Respublikamiz qishloq xo'jaligida vujudga kelayotgan yangi xo'jalik yuritish shakllari orasida dehqon va fermer xo'jaliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Dehqon va fermer xo'jaliklari xo'jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, qishloq xo'jaligida mulk shakllarining teng huquqlilik va sog'lom raqobat asosida rivojlanib borishiga asoslanadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotiga egalik qilishiga, o'ziga tegishli mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni mustaqil tasarruf etishigi, erga bo'lgan egalik hissiga ko'ra, ya'ni mustaqil xo'jalik yuritishi boyicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos tushadi.

Respublika hukumatining bir qator qarorlarida istiqbolda asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sub'ekt bo'lib qoladigan dehqon va fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil yetishtirildi—7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshqali don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi. Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir.»¹.

Butun dunyo tajribasi ham bozor uchun, ya'ni sotish uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi dehqon, fermer xo'jaliklarining afzalligini ko'rsatmoqda, chunki dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqaruvchi, ya'ni fermerning maqsadi va vazifasi oxirgi natija bilan uzviy bog'langan. Shunday ekan dehqon va fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini, uni bozor sharoitidagi harakatini, mavjud ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish yo'llarini va shu asosda ularni samarali faoliyatlarini o'rganish ob'ektiv zaruriyat bo'lib hisoblanadi. Bu masalalarni hal qilishda «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining ahamiyati katta, chunki bu fan islohotlar natijasida vujudga kelgan dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish qonuniyatlarini, ularni samarali faoliyat yuritish yo'llarini o'rgatadi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, uni erkinlashtirish, modernizatsiya qilish orqali turli shakldagi mulk va tadbirkorlik turlarini erkin faoliyat ko'rsatishiga katta e'tibor berilmoqda. Shuning natijasida respublikada xususiy mulkchilikka asoslangan dehqon va fermer xo'jaliklari rivojlantirilmoqda. Hozirgi davrda fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar olib borilishi natijasida keyingi yillarda qishloq xo'jaligi tubdan o'zgardi, xususiy mulkchilikka asoslangan fermer

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz—mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir// Xalq so'zi. — 16.01.2016 y.

xo'jaliklari o'z mohiyatiga ko'ra qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy shakliga, sohani barqaror va samarali rivojlantirishni ta'minlaydigan yetakchi kuchga aylandi.

Dehqon va fermer xujaliklari faoliyatini tahlil etishda va ularda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini belgilashda ulardagi mulk va yer munosabatlari, mavjud resurslardan unumli foydalanish, mahsulotlar ishlab chiqarish va uni samarali yo'nalishlarga sotishni tashkil etish, sarmoya va infratuzilma xizmatlarini tashkil etish, fermer xo'jaligini boshqa korxonalar va davlat tashkilotlari bilan iqtisodiy aloqalari va shu kabi qator boshqa masalalar o'rganiladi.

Ushbu talablarga javob berish uchun «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ma'ruzalar matni asosan oliy o'quv yurtlarining «Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi)» va «Fermer xo'jaliklarini boshqarish» ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari dehqon va fermer xo'jaliklarining muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, professor-o'qituvchilar va mustaqil izlanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

I-MAVZU. «DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI, VAZIFALARI HAMDA O'RGANISH USULLARI

Reja:

- 1.1.Qishloq xo'jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi.
- 1.2.Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish.
- 1.3.Davlatning fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishga oid siyosati.
- 1.4.Fanining maqsadi, vazifalari, predmeti.
- 1.5.«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi va ularni o'rganish usullari

O'quv maqsadi: *fanning predmeti, vazifalari va o'rganish usullari hamda boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini o'rganishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *qishloq xo'jaligidagi islohatlar, fanning predmeti, fan-texnika taraqqiyoti, moddiy ne'matlar, iqtisodiy va institutsional islohatlar*

1.1. Qishloq xo'jaligida agrar-iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini barpo etish strategiyasida qishloqdagi islohotlar ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan maqsad yer, mahsulot va mulk egalarini shakllantirish hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlar O'zbekiston Prezidenti tomonidan ishlab chiqarilgan bozor islohotlariga o'tishning besh tamoyili asosida, bosqichma-bosqich va davlat rahbarligida olib borilmoqda.

Iqtisodiy islohotlarning mohiyati:

- qishloqda mulkiy munosabatlarni takomillashtirish va haqiqiy yer, mahsulot va mulk egalarini shakllantirish;
- fermer xo'jaliklari va aholiga xizmat ko'rsatuvchi tizim – ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish;
- shartnoma munosabatlarini takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning manfaatdorligini va javobgarligini ta'minlash;
- sanoat va aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash.

Mustaqillik yillarida qishloqda o'tkazilgan islohotlar jarayonini undagi ustuvor vazifalar, yo'nalishlar, amalga oshirilgan iqtisodiy tadbirlarning mohiyatiga ko'ra shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi–respublika mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlanib 1995 yilgacha davom etdi.

Bu bosqich mamlakatda qishloq xo'jaligini barqarorlashtirishni ta'minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki asoslari yaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Birinchi bosqichda quyidagi tadbirlar amalga oshirildi.

1.Ustuvor yo'nalish sifatida shaxsiy tomorqa xo'jaligini rivojlantirish belgilandi. Prezidentning shaxsan rahbarligida hukumat qarorlari asosida shaxsiy tomorqa xo'jaligini rivojlantirish, unga moliyaviy va moddiy resurslar bilan yordam berish

alohida nazoratga olindi. Agar 1989 yilda shaxsiy tomorqa xo'jaliklari ixtiyorida 300 ming gektar yer bo'lsa, 1995 yilga kelib ularning maydoni 600 ming gektardan ortdi. Bu boradagi ishlar o'zining ijobiy natijasini berdi. 1995 yilga kelib shaxsiy tomorqada xo'jaliklar yirik shoxli mollarning 70 foizini o'zida jamlab, jami ishlab chiqarilayotgan go'shtning 80 foizini va sutning 90 foiziga yaqini etishtirildi. Shu bilan birga jami kartoshka va sabzavotning 69 foizi ishlab chiqarilgan. Shaxsiy tomorqa xo'jaligi o'tish davrining inqirozi, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklarini bartaraf etishda, mamlakatimizda ta'minlashda eng samarali vosita bo'ldi.

2. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga muhim ahamiyat berildi. Davlatga qarashli bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalarini mulkini qaytarmaslik sharti bilan jamoa xo'jaliklariga aylantirildi. Natijada 1995 yilgacha 1066 ta davlat xo'jaligi negizida jamoa va ijara xo'jaliklari tashkil etildi.

3. Qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida xususiylashtirish jaaryoni boshlandi. Birinchi navbatda tugallangan texnologik jarayon bilan bog'liq mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sohalar, jumladan 1516 ta chorvachilik fermasi mehnat jamoasi shaxsiy mulki qilib berildi va kichik maydonlardagi bog' va tokzorlar hamda issiqxonalar xususiylashtirildi.

4. Iqtisodiy islohotlar bu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida amalga oshirildi.

Sohani isloh qilishni aniq tadbirlar boyicha olib borilishiga qaramasdan rejali iqtisodiyot elementlari saqlanib qoldi. Bu:

- qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni moliyalashtirish o'zgarishsiz qolib, asosan markazlashgan tizim orqali olib borilishi;
- qishloq xo'jaligida mahsulotlarni tayyorlashning ekin turlarini joylashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini narxi va sotish markazlashgan tarzda olib borilishi;
- moddiy manfaatdorlik tizimini aytarli o'zgarishsiz qolganligi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichi 1995–2000 yillarni qamrab olgan bo'lib, bu bosqich islohotlarning institutsional bazasini, qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar tizimini yaratish bilan xarakterlanadi. Islohotlarni amalga oshirishning bosh maqsadini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizm yaratildi.

1. Qishloqdagi islohotlarning huquqiy asosi yaratildi. Oliy Majlis tomonidan «Yer kodeksi», «Qishloq xo'jaliklari kooperativlari to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» va boshqa qonunlar qabul qilindi.

Qabul qilingan qonunlarni bajarilishini ta'minlash uchun bir qancha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda yer munosabatlarini tartibga solish, qishloq xo'jaligi korxonalarining mol-mulkini a'zolar o'rtasida taqsimlash, fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish tamoyillari va mexanizmlari ishlab chiqildi. Islohotlar qonun va qonunosti hujjatlari asosida amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

2. Qishloqdagi iqtisodiy islohotlarni muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi tashkil etildi. Unga tegishli vakolatlar berildi.

3. Islohotlar huquqiy bazasining yaratilishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga zamin yaratildi. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yurtishning bozor munosabatlariga mos 3 xil shaklli, ya'ni shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari tanlab olindi.

4. Bu bosqichda shirkat xo'jaliklarining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish hisoblanadi, chunki jamoa xo'jaliklarini shirkat xo'jaliklariga aylantirish orqali yer va mulk egasini shakllantirish, mehnatni oila pudrati orqali tashkil etish va qishloq xo'jaligida me'yordan ortiqcha ish kuchlarini qisqartirib, boshqa sohalarga jalb etish vazifalari hal etildi.

5. Qishloq xo'jaligi ishchilari soni mahsulot birligiga mehnat sarfi me'yoriga binoan qisqartirildi. Sohadan 400 mingdan ortiq kishi bo'shatildi va boshqa sohalarga jalb qilindi.

6. Shirkat xo'jaliklarida mehnatni tashkil etish asosan oila pudratining sarf xarajatlari va daromadlarining alohida hisob-kitobi shirkat xo'jaligi moliya-hisob markazida tashkil etildi. Har bir oila pudratchisi o'z mehnat natijalariga o'zi javobgarligi va manfaatdorligini ta'minlash tizimiga o'tildi. Umumiy javobgarlik va manfaatdorlikka amalda barham berildi. Pudratchilarni rag'batlantirish tizimi takomillashtirildi.

7. Xususiylashtirish jarayoni davom ettirildi. Yirik qishloq xo'jaligi korxonalaridagi 600 ta chorvachilik fermalari «Kim oshdi» savdosi orqali xususiy mulkdorlarga sotildi.

8. Shaxsiy tomorqa xo'jaliklari dehqon xo'jaliklari sifatida rasmiy maqom oldi va uning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda 4,7 mln.dan ortiq dehqon xo'jaliklari bo'lib, ularga yuridik shaxs yoki yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari yaratildi.

9. Qishloq xo'jaligida tovar etishtiruvchilar faoliyatini erkinlashtirish bosqichma-bosqich olib borildi, paxta va dondan taiqari boshqa barcha mahsulotlar uchun davlat buyurtmasi bekor qilindi va ularni erkin narxlarda hohlagan bozorda sotish huquqini berilishi xo'jaliklar va pudratchilar ixtiyoridagi erkin tasarruf qiladigan mahsulotlar ortib borishiga olib keldi.

10. Bu bosqichda davlat ehtiyoji uchun mahsulot sotib olishni moliyalashtirishning yangi tizimi yaratildi. Moliya vazirligi huzurida «Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun hisob-kitob jamg'armasi» tashkil etildi, uning asosiy vazifasi davlat buyurtmasiga etishtiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlariga o'z vaqtida bo'nak mablag'lari berish va yakuniy hisob-kitobni tashkil etish hisoblanadi.

11. Yer munosabatlari takomillashtirildi va yerda ishlaydigan dehqonlarga yer har xil muddatlarga birlashtirilib berildi.

Yer solig'i takomillashtirildi. 1.01.1999 yildan avvalgi 10 xil soliq o'rniga yagona yer solig'i joriy etildi.

12. Zarar bilan faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish uchun sanatsiya instituti joriy etildi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida ba'zi korxonalarning iqtisodiy ahvoli tiklandi.

Islohotlarning uchinchi bosqichi 2000 yildan boshlangan bo'lib, bu bosqich:

- qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilar haq huquqlarini himoya qilish ustivorligi;

- qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligini kengaytirilishi va davlat byurtmasi mahsulotlariga baho belgilash tizimini takomillashtirilishi;

- yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini, birinchi navbatda past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi korxonalarni fermer xo'jaliklariga aylantirish asosida qayta tashkil etish boshlanganligi;

- fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tizimi barpo etish tashkil etilganligi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichida past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish jarayoni tashkil etildi.

1. Qayta tashkil etilgan past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi xo'jaliklarga boshqaruv apparati xodimlari qisqartirildi, Yoqig'I moylash materiallari (YOMM) va mineral o'g'it harajatlari kamaydi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda, ayniqsa g'allachilikda hosildorlikning ortishi kuzatilmoqda.

1. Xizmat ko'rsatish sub'ektlarini yangi tamoyillar asosida tashkil etish boshlandi, ularni avvalombor tugatilayotgan xo'jaliklar negizida qayta tashkil etilgan fermer xo'jaliklarini barpo etilmoqda.

Bugungi kunda qishloqlarda 1293 ta mini banklar, 1641 ta muqobil MTPlar, 1504 suv iste'molchilari uyushmalari, 1357 yoqilg'i-moylash materiallari, 915ta mineral o'g'itlar sotish shaxobchalari, 300 konsalting va marketing markazlari, 2591 zooveterinariya xizmati shaxobchalari, 346 qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish shaxobchalari, 115 ta transport xizmati ko'rsatuvchilar va boshqa infratuzilma obyektlari fermer xo'jaliklariga samarali xizmat ko'rsatib kelmoqda.

3. Yangi tashkil etilayotgan xizmat ko'rsatish sub'ektlariga imtiyozlar berildi. Fermer xo'jaliklariga xizmat qiladigan infratuzilma ob'ektlari 2 yilgacha foydadan va mol-mulkidan soliq to'lashdan ozod qilindi.

4. Yangi bosqichda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini erkinlashtirish tamoyillari amalga oshirilmoqda. Paxta yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari 2002 yildan boshlab ishlab chiqarilgan 50% paxta tolasiga markazlashgan holda eksport qilishi uchun shartnoma tuzishga ruxsat berildi.

5. Paxta xom-ashyosiga preyskurant narx qo'yishda jahon narxlari hisobga olinib boshladi. 2002 yil paxta hosilidan boshlab moddiy texnika resurslari narxi o'zgarishini hisobga olib va jahon narxlaridan kelib chiqib preyskurant narxlarni belgilashda yig'im-terim boshlanishidan oldin tajriba tariqasida qayta ko'rib chiqilmoqda.

6. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy huquqlari kengaytirildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan xo'jalik sub'ektlari o'rtasida yuridik tomondan to'g'ri tuzilgan ichki va tashqi konkret shartnomalari muhim ahamiyat kasb etadi. Adliya vazirligi bilan ichki va tashqi shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish mexanizmi monitoringi ishlab chiqildi.

7. Yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 360-sonli qaroriga asosan boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun 300 minimal ish haqi qiymatida imtiyozli kredit berish joriy etildi.

Ushbu bosqichdagi muammolar va hal etilmagan masalalar quyidagilardan iborat:

1. Qayta ishlovchi va ta'minlovchi korxonalarning monopol mavqelari hamon saqlanib qolmoqda. Bu korxonalar o'z xarajatlari kamayishidan va qishloqda tovar ishlab chiqarishning samaradorligi oshirilishidan manfaatdor emaslar, chunki

qilingan har qanday sarf-xarajatlarni o'zlarining narxlarini oshirish hosobiga qoplab foyda oladilar. Shuning uchun Respublika monopoliyadan chiqarish va raqobatini rivojlantirish davlat qo'mitasi ularning xizmatlari qiymatini deklaratsiyasini tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Xizmat ko'rsatish bozori yetarli rivojlanmagan. Hududlarga moddiy-texnika resurslari etkazib berish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish bo'yicha ulgurji bozorlar shakllanmagan. Shuning uchun moddiy-texnika resurslarini sotish bilan shug'ullanuvchi va xizmat ko'rsatuvchi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi muqobil tizimlarni tashkil etishni davlat tomonidan rag'batlantirilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu yo'l bilan moddiy-texnika resurslari va xizmat ko'rsatish, narxlarni pasaytirish mumkin.

3. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalash mexanizmi to'lig'icha hal etilmagan edi. Davlat buyurtmasiga kirmaydigan mahsulot ishlab chiqarishni moliyalashtirish o'z echimini topmaganligi, qishloq xo'jalik korxonalarida erkin moliyaviy mablag' yetishmasligidan bu mahsulotlarni ishlab chiqarishni moliyalash imkoni yo'q edi. Tayyorlov tashkilotlarining kredit yuqori foizlarda tavsiya etilganidan ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarni moliyalashtira olmas edi. Shuning uchun davlat buyurtmasiga kirmaydigan mahsulotlarni moliyalash mexanizmini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

4. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustivor hisoblanadi. Lekin ko'pgina yangi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari rahbarlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida ishlagan dehqonlardir. Ular ishlab chiqarishni, iqtisodiy masalalarni va boshqarishni o'zlari mustaqil tashkil etishga qodir emas edilar. Shu munosabat bilan respublikadagi iqtisodiy va ta'lim tizimining xalqaro institutlarning fermerni tayyorlash va qayta tayyorlashdagi yagona strategiyasini ishlab chiqish yo'lga qo'yildi.


5. Shirkat xo'jaligi rahbarlari va mutaxassislar hamda fermer xo'jaliklarining informatsion ma'lumotlar bilan ta'minlash cheklangan. Maslahat-informatsiya xizmatlari etarli darajada rivojlanmagan. Bu yo'nalish tizimi sifatida shakllanish va rivojlanish kerak.

6. Mahalliy hokimiyat va idoralar vakillari qishloq xo'jaligi korxonalarining moliya xo'jalik faoliyatiga asoslangan holda aralashish hollari ko'p bo'lib, ba'zan iqtisodiy javobgarlikni o'z zimmasiga olmagan holda noto'g'ri topshiriqlar bermoqda. Bu tajribaga barham berish lozim.

7. Qishloq xo'jaligi korxonalari rahbarlari bozor iqtisodiyotining asosiy qonunlari va munosabatlaridan etarli darajada malaka va ma'lumotga ega emasligi xo'jaliklarni millionlab so'm zarar ko'rishiga sabab bo'lmoqda. 2002 yilda qishloq xo'jalik korxonalari ichki va tashqi shartnomalarni noto'g'ri tuzganlari tufayli ko'rgan zarari 30 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ularni doimiy malakasini oshirib borish zarur.

8. Qishloq xo'jaligini isloh qilish boyicha orttirilgan tajribalar asosida iqtisodiyotni erkinlashtirish talablaridan kelib chiqib yer, mulk va shartnoma munosabatlarini, davlat buyurtmasidan ortiqcha etishtirilgan mahsulotlarni sotishni tashkil etishni takomillashtirish maqsadida omaldagi qonunlarni va qonunosti hujjatlarni belgilangan tartibda o'zgartirish zarur.

Mamlakatimiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari yildan-yilga barqaror o'sib borishi kuzatilmoqda (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (foiz hisobida)

O'tgan 2005-2014 yillar davomida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik barqaror o'sish sur'atlari dinamikasi ta'minlandi. Xususan, bu ko'rsatkich 2005 yilda 105,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda 106,9 %ga teng bo'ldi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti salmog'ining 2005 yildagi 26,3 %dan 2014 yilda 15,7 %ga pasayishi ijobiy holdir. Bu, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi.

Demak, qishloq xo'jaligida islohotlarni jadallashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- fermer xo'jaliklarini iqtisodiy barqaror rivojlantirish;
- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash;
- urug'chilik va selektsiya ishlarini rivojlantirish;
- chorvachilikni rivojlantirish boyicha dasturni amalga oshirish;
- meva sabzavotchilikda sifatli va raqobatbardosh mahsulot etishtirish;
- dehqon xo'jaliklarida tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanish;
- qayta ishlash korxonalarini ta'mirlash va modernizatsiyalash.

Islohotlarni amalga oshirishda yo'l qoyilayotgan kamchiliklar va muammolar:

- qishloq xo'jaligida foydalanadigan yer maydonlaridan samarali foydalanish yo'lga qoyilmaganligi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarini samarali joylashtirish rejasini ishlab chiqilmaganligi;
- suv resurslaridan samarali foydalanish joriy qilinmaganligi;

- tayyorlov, xizmat ko'rsatish va ta'minot tizimi korxonalarida shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligi;
- fermer xo'jaliklarida xisob-kitob ishlarining to'liq yuritilmasligi, tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va boshqalar.

1.2. Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etish.

Qishloq xo'jaligi – mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq yurtimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarini esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi mamlakatimizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va kayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi.

2014 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 15,7 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlab kelmoqda. Shu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi iqtisodiyotimizni rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ma'lumki, oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishning asosiy qismi dehqon va fermer xo'jaliklari zimmasiga to'g'ri kelmoqda. Bular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha ish yuritadilar va yetishtirilayotgan mahsulotlar ko'lami katta hajmni tashkil etmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish vositalarining barcha turlari o'zida bo'lishi shart emas, bunday bo'lishiga imkoniyat ham, mablag'i ham yetishmaydi. Demak, bu sohada ham servis xizmati ko'rsatish korxonalarining xizmatidan foydalanishga bo'lgan talab oshib boradi. Servis xizmati turlarini ko'paytirish mahsulot tannarxining arzon bo'lishiga imkoniyat yaratish bilan bir qatorda, qishloqda yangi ish joylarini tashkil qilish imkoniyatini ham vujudga keltiradi.

Qishloqda bandlik masalasi qator muammolarni o'z ichiga oladi. Jumladan, ortiqcha ishchi kuchining mavjudligi qishloqda bandlikni me'yor asosida olib borishga, shu asosda mahsulot tannarxining pasayishiga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga ilg'or texnologiyalarni joriy qilishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligidagi islohotlarning muhim vazifasi mamlakatimiz iqtisodiyotida ish bilan ta'minlanganlik tarkibini o'zgartirishdan iboratdir.

O'zbekistan mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab xukumatimiz tomonidan aholini muntazam ravishda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni ijtimoiy siyosatning ustivor vazifalaridan biri qilib belgiladi. Ushbu siyosat izchillik bilan amalga oshirilib va takomillashtirilib borilmokda. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarida aholini zarur 8 turdagi mahsulotlar bilan ta'minlash va ushbu mahsulotlar narxlarini nazorat qilib turilganligini misol qilib keltirish mumkin. So'ngra aholi tomorqa yerlari hajmining kengaytirilishi, chorvachilik komplekslarini xususiylashtirish, shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga huquqiy maqom berilishi va shu asosda ichki o'zini-o'zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash

siyosatining qo'llanishi ham bu sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarning nechog'lik to'g'ri ekanligidan dalolat beradi (1.2.1–jadval).

1.2.1 - jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan minimal ta'minlanganlik darajasi (tibbiy meyor bo'yicha) (%da)

Mahsulot turlari	2005y.	2010y.	2012 y.	2013y.	2005-2013yillarda o'zgarishi p-p
Bug'doy	99,2	106,0	102,3	104,6	5,4
Kartoshka	64,7	109,0	126,6	136,3	71,6
Sabzavot	123,1	204,1	238,8	257,9	134,8
Meva	47,3	78,4	89,8	97,5	50,2
Uzum	176,3	249,6	291,4	314,4	138,1
Poliz	119,9	211,7	242,9	262,8	142,9
Go'sht	52,5	66,8	73,1	76,9	24,4
Sut	105,9	131,8	149,3	158,6	52,7
Tuxum	25,4	36,3	44,0	48,9	23,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va Makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloq xo'jaligining mamlakat oziq-ovqat xavsizligini ta'minlashda asosiy tarmoqlardan biri ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu yo'nalishda tahlil etilayotgan davrda erishilgan ijobiy natijalarni alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, barcha asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichlari miqdor jixatidan o'sgan. Masalan, sabzavotlar 147,2 kgga, sut yetishtirish 86,6 kgga va tuxum 69 donaga ko'paygan.

Shu bilan bir qatorda milliy oziq-ovqat ta'minotini ta'minlovchi kopmleks choralar ishlab chiqish respublika oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotidagi murakkablik va oziq-ovqat mahsulotlarining xorijdan xarid qilishga bog'liq bilib qolish mumkinligi kabi muammolarga yechimlar topish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

Ularga erishish uchun muhim yo'nalishlar quyidagicha ifodalanadi:

- mamlakat va xududiy oziq-ovqat maxsulotalari fondini oziq-ovqat mahsulotlari va xom ashyoning asosiy turlari bilan to'liq hajmda shakllantirish hamda agrasanoat majmuini eksportga yo'naltirish uchun ishlab chiqarishni yetarli darajada barqaror rivojlanishini rag'batlantirish;

- oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish qobiliyatini oila byudjetidan sarf qilinadigan xarajatlar miqdorini 30-35 foizgacha qisqartirgan holda tibbiy me'yorlar bo'yicha (3500 kkl/kun) iste'mol qilish darajasigacha ko'tarish;

- oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta-tola) eksporti hisobiga yetishmayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va xom ashyo importi uchun zarur valyuta resurslari zaxirasini yaratish va uning tarkiblarini takomillashtirish;

- oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash darajasini barqaror oshirish, import hajmini qisqartirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni

rivojlantirishni ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy chora-tadbirlar qabul qilish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqarorligi va kelajakdagi o'sishi ichki bozordagi oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jalik xom ashyosiga talab va taklifni barqarorlashtirish hamda jahon bozorida faol faoliyatini amalga oshirishga bog'liq. Bunda Davlatning agrar siyosati agrasanoat majmuini jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari quyi majmui tarmoqlarini va mahsulotlarning aniq turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Bu siyosatning ustivor vazifasi – mamlakatni ijtimoiy rivojlantirish va iqtisodiy o'sishi hamda importni ratsional darajaga qisqartirgan holda agrasanoat majmuini eksportga yo'naltirish uchun mos ravishda zarur bo'lgan hajmlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni xom-ashyo bilan ta'minlash bo'yicha samarali agrasanoat ishlab chiqarishini yaratishdir.

Davlat oziq-ovqat siyosatning asosiy yo'nalishlari ustivor vazifasini amalga oshirishda quyidagi vazifalar hal qilinishi lozim:

- agrasanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning dasturiy-me'yoriy xujjatlarini hamda aniq dasturlarni davlat va xududlararo miqyosdagi qisqa va o'rta muddatli tadbirlarga ajratgan holda ishlab chiqish va amalga oshirish;

- oziq-ovqat mahsulotlari va xom-ashyo resurslarini, tovar ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy rag'batlantirish va bozor infrastrukturasi rivojlantirish asosida shakllantirishning samarali mexanizmini joriy kilish, jahon bozorida mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari faoliyatini jadallashtirishni ta'minlash maqsadida tashqi iqtisodiy siyosatni erkinlashtirish;

- narxlar va daromadlar mutanosibligi, takomillashgan solik, kredit, sug'urta va boshqa omillarni ta'minlash uchun qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari o'rtasidagi narxlar munosabatlarini tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish, agrasanoat ishlab shiqarishini indiaktiv rejalashtirish va bashorat qilishning zamonaviy tizimini yaratish;

- yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, yerdan foydalanishda davlat nazoratini kuchaytirish; yirik tovar ishlab chiqarishning buzilgan quvvatlarini tiklash, xo'jalik yuritishning barcha shakllarida huquqiy va iqtisodiy tengligini ta'minlash;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishda agroservis xizmatida, savdo va kreditlashda mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalarning kooperatsiya va integratsiyasini rivojlantirishni rag'batlantirish;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashning samarali, energiya quvvatlari va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni keng qo'llash, agrasanoat majmuini davlat siyosatining yagona ob'ekti sifatida tashkiliy-xuquqiy jihatdan rasmiulashtirish va ajratish, boshqaruv tizimini takomillashtirish;

- agrasanoat ishlab chiqarish va ASMni yuritish tizimini rivojlantirishning xududiy dasturini ishlab chiqish va tadbiq qilish asosida oziq-ovqat mahsulotlari muammolarini yechishda xududlarning ahamiyatini kuchaytirish va hokazo.

Islahotlarning navbatdagi bosqichida davlat boshqaruvi turli shakllar narxlanadigan va narxlanmaydigan va usullardan bevosita va bilvosita foydalangan

holda bozor iqtisodiyotini barpo qilish va rivojlantirishga yordam ko'rsatadi, tovar ishlab chiqaruvchilarning bozor sharoitiga ko'nikishlari va o'zini-o'zi boshqarishlari uchun zamin yaratadi.

Mamlakat oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashda dastlabki qadamlar mahsulot ishlab chiqaruvchilar va davlat boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni faollashtirish hisoblanadi.

Bu jarayon bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga bog'liq holda amalga oshirilishi lozim, biroq u davlat va mahalliy darajadagi qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Birinchi navbatda Davlatning ishtiroki ulgurji oziq-ovqat mahsulotlari bozori infratizimlarining kapital sig'imini yaratishda moliyalashtirish uchun juda zarur: mahsulotlarni saqlash bazalari, unga ishlov berish, saralash va tashish, shuningdek, axborotlar bilan ta'minlash shular jumlasidandir.

Respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish va import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari darajasini pasaytirish uchun quyidagi choralar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur:

- oziq-ovqat ta'minoti Konsepsiyasini, ichki bozorni mahalliy ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan tuldirlashning respublika va xududiy Dasturini ishlab chiqish;

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sishini ta'minlash va ushbu mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlab chiqarish omillaridan (texnologiya, xom-ashyo, materiallar, qishloq xo'jaligi resurslari)dan foydalanish samaradorligini oshirish choralari;

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarayotgan tarmoqlarni ishlab chiqarish-texnologik qurollantirishni tezlashtirish uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha choralar;

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarga egalik qilish uchun valyuta bozorlarini shakllantirish asosi sifatida mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmini oshirish bo'yicha choralar;

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi va agrasanoat majmui tarmoqlarida bozor va tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha choralar;

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy mahalliy qayta ishlovchi uskuna va texnologiyalarni yaratish bo'yicha choralar va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi korxonani qayta tashkil qilish jarayonida qishloqda xususiy mulk sinfi shakllandi. Bundan tashqari, sho'rolar davrida iste'molining 80 foizi import hisobidan ta'minlab kelingan mamlakatimiz o'ta qisqa fursat ichida g'alla mustaqilligiga erisha oldi. Natijada, g'alla yetishtiriladigan maydonlar salkam ikki baravar yoki 703,6 ming gektarga, sug'oroladigan yerlarda esa bevosita 2,8 baravar yoki 875,6 ming gektarga oshdi. Paxta ekin maydonlari 268,1 ming gektarga qisqardi. Sug'oroladigan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish ilmiy asoslangan parametrlarga yaqinlashtirildi: ekin maydonlari tarkibida g'alla ekinining ulushi 40,6 foizga, paxta maydonining ulushi esa 43,6 foizga etkazildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni shakllantirishda dehqon xo'jaliklarining alohida o'rni va nufuzi bor. Ayniqsa, viloyatimizning qishloq xo'jalik mahsulotlarini

yetishtirishda dehqon xo'jaligi asosiy ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Fermer xo'jaliklari bilan solishtirilganda, dehqon xo'jaliklari asosiy qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilaridir. Qashqadaryo viloyatida dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari dinamikasi quyidagi 1.2.2-jadvalda keltirilgan.

1.2.2-jadval

Qashqadaryo viloyati dehqon xo'jaliklarida 2008-2014 yillarda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari dinamikasi

t/r	Mahsulot nomi	O'lch. birligi	Yillar							2014 yilda 2008 yilga nisbatan farqi	
			2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	+,-	%
1.	Don	ming t.	115	75	121	137	127,2	121,5	125,2	10,2	108,8
2.	Kartoshka	ming t.	46,4	54,7	59,3	70,5	70,1	82,1	92,7	46,3	199,8
3.	Sabzavot	ming t.	138	142,7	165,2	203	206,1	242,5	266,0	128	192,7
4.	Meva	ming t.	21,2	22,2	25	29,6	30,0	33,1	36,4	15,2	171,2
5.	Uzum	ming t.	13,6	14,1	14,2	17,7	23,3	24,4	26,3	12,7	193,3
6.	Poliz	ming t.	29,3	33,5	37,9	41,3	42,0	46,3	51,3	22	175,1
7.	Go'sht	ming t.	126,4	139,3	152,6	162,8	173,5	186,8	199,6	73,2	157,9
8.	Sut	ming t.	481	520,6	564,7	603,8	640,7	701,7	751,8	270,8	156,3
9.	Tuxum	mln. dona	112,1	123,3	139,1	151,5	166,0	176,5	204,0	91,9	181,9
10.	Jun	ming t.	3,55	3,82	4,23	4,58	3,97	4,0	0,6	-2,95	16,9
11.	Qorako'l teri	ming dona	68,7	75,1	80,1	88,1	94,4	95,6	125,5	56,8	182,7

Manba: Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Viloyatda dehqon xo'jaliklari tomonidan 2014 yilda 125,2 ming tonna don, 92,7 ming tonna kartoshka, 266 ming tonna sabzavot, 36,4 ming tonna meva, 26,3 ming tonna uzum, 51,3 ming tonna poliz, 199,6 ming tonna go'sht, 751,8 ming tonna sut, 204 mln. dona tuxum, 600 tonna jun, 125,5 ming dona qorako'l teri yetishtirib berilgan. Bu esa 2008 yilga nisbatan don yetishtirish 8,8%ga, kartoshka 99,8 %ga, sabzavot 92,7 %ga, meva 71,2 %ga, uzum 93,3 %ga, poliz 75,1 %ga, go'sht 57,9 %ga, sut 56,3 %ga, tuxum 81,9%ga, qorako'l teri yetishtirish esa 82,7%ga oshgan. Biroq dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan jun mahsulotlarining ko'lami 83 foizga kamayib ketgan.

Keyingi yillarda mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini yaxshilash, urug'chilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, 1990-2014 yillarda don yetishtirish 3,7 barobarga yaqin, kartoshka 5 barobar, sabzavot 2,2 barobardan ortiq, meva 2,6 barobarga, uzum 1,3 barobardan ortiq, go'sht (tirik vaznda) 1,9 barobar, sut 2

barobardan ortiq va tuxum ishlab chiqarish 2,4 barobardan ko'proq oshgani fikrimizning dalilidir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2008-2014 yildagi asosiy natijalariga erishildi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi sifat o'zgarishlari va uni diversifikatsiyalash fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish, qoramollarni aholi va fermer xo'jaliklariga kimoshdi savdolari orqali sotish mexanizmlarini yaratish, imtiyozli maqsadli kreditlar ajratilishi, veterinar xizmatlari ko'lamining kengayishi va sifati oshishi, zarur miqdorda yem-xashak yetkazib berish bilan bog'liqdir.

1.3. Davlatning fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishga oid siyosati.

Fermer xo'jaligini yuritish istagini bildirgan fuqarolar birinchi navbatda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunda belgilab berilgan tartibda uzoq muddatli ijaraga yer uchastkasi ajratishni so'rab tuman hokimi (2004 yildan boshlab tuman hokimi tomonidan yerni ijaraga berish belgilandi) nomiga ariza beradilar. Bunda arizalarni berish va ko'rib chiqish qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ib olish tugagan vaqtga to'g'ri kelishi maqsadga muvofiqdir.

Fuqaroning arizasi va fermer xo'jaligining biznes-rejasi bilan birga tuman hokimiga yuboriladi. Ushbu hujjatlar tuman hokimi tomonidan besh kun muddatda yer uchastkalarini berish masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasiga xulosa berish uchun topshiriladi. Komissiya o'n besh kun muddatda xujjatlar bilan tanishib chiqadi va bo'lajak fermer bilan suhbat o'tkazadi hamda ijaraga yer berish muvofiqligi yoki muvofiq emasligi haqida xulosasini tayyorlaydi. Xulosani yuqoridagi hujjatlar bilan birga tuman hokimiga taqdim etadi.

Tuman hokimi 15 kun muddatda taqdim qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, fermer xo'jaligi yuritish uchun fuqaroga yer uchastkasi berish to'g'risida qaror tayyorlaydi. Tuman hokimining tavsiyasi bilan viloyat hokimiyatida tuzilgan komissiyaga yuboriladi. Komissiya xulosasiga asosan tuman hokimi qaror chiqaradi. Tuman hokimi qaror qabul qilingandan so'ng o'n kun muddat ichida hokimiyatning yer tuzish va yerdan foydalanish xizmati bilan fermer xo'jaligi boshlig'i o'rtasida yer ijarasi shartnomasi tayyorlanib, imzolanishi lozim.

Shartnoma imzolangandan so'ng 10 kun muddatda tuman bosh yer tuzuvchisi va tuman hokimligi tomonidan belgilangan vakil fermer uchun ajratilgan yerni ko'rsatadi va uch nusxadagi dalolatnoma bilan tasdiqlaydi. Fermer xo'jaligi tuman hokimligida davlat royxatidan o'tadi.

Fermer xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur hujjatlar bo'lajak fermerning o'zi yoki shartnoma asosida tuman hokimligining fermer xo'jaligini davlat royxatiga olish to'g'risidagi qarori yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori ariza beruvchi ariza bergan kundan boshlab (etti) ish kunida, tuman hokimligining fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qarori bilan bir paytda qabul qilinadi. Shundan so'ng tuman hokimligi yangi tashkil etilgan

fermerga «Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida»gi guvohnoma va tuman hokimiyati muhri bilan tasdiqlangan «ro'yxatga olingan» belgisiga ega ta'sis xujjatlarini hamda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani topshiradi.

Fermer xo'jaligi tashkil etishning ushbu Qonunda belgilangan tartibi buzilgan yoki xo'jalikning ustavi qonunga muvofiq bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish rad etilishi mumkin.

Davlat ro'yxatiga olish rad etilganligi, shuningdek ro'yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hamda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida (1997 yil, mart) aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda ularning manafaatlarini himoya qiluvchi uyushma faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari belgilab berildi.

1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan aholi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining maqomini aniqlashtirish, ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlashning qonuniy mexanizmlari takomillashtirildi.

Birinchidan, aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari dehqon xo'jaligi sifatida qayta nomlandi va uning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari mustahkamlab qoyildi.

Ikkinchidan, dehqon xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, maqomi, tashkiliy-iqtisodiy asoslari va uning qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ekti sifatidagi xususiyatlari aniq belgilab berildi.

Uchinchidan, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 iyuldagi 300-sonli qarori bilan faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni dehqon xo'jaliklariga o'zgartirish tartibi tasdiqlandi.

To'rtinchidan, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunda ularni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash hamda ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmi belgilab berildi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning borishini tahlil etish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mulkiy va tarkibiy islohotlar;
- yerdan foydalanish borasidagi islohotlar;
- suv va suvdan foydalanish munosabatlaridagi islohotlar;
- moliya-kredit, soliq va sug'urta sohasidagi islohotlar;
- narx-navo tizimidagi islohotlar.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan **mulkiy-tarkibiy islohotlarda** birinchi navbatda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, turli mulk shakllariga, eng avvalo xususiy mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritish shakllarini joriy etishga muhim e'tibor qaratildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridanoq zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklarini bosqichma-bosqich tugatib, fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida yirik tarkibiy islohotlar amalga

oshirildi. Bu islohotlar natijasida 1999-2007 yillarda jami 2102 ta istiqbolsiz shirkat xo'jaligi bosqichma-bosqich tugatilib, ularning negizida 158738 ta fermer xo'jaligi tashkil etilgan edi.

Puxta o'ylangan dastur asosida 2008-2010 yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra fermer xo'jaliklarining yer maydonlari hajmi optimallashtirildi.

Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2012 yil yakuniga ko'ra, respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 217 095 tadan (2007 y.) 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'lmoqda. 66134 ta fermer xo'jaligining 35896 tasi paxtachilikka, 5329 — chorvachilikka, 16964 — bog'dorchilik va uzumchilikka, 3647—sabzavotchilik va polizchilikka, 4298 tasi esa boshqa sohalarga ixtisoslashgan. 2014 yilning 1 yanvar holati bo'yicha respublikamizda fermer xo'jaliklari soni 73449 tani tashkil etib, ularga ajratilgan yer maydoni 3101,7 ming gadan iboratdir. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan ekin maydoni 42,2 gani, ishlovchilar soni esa 18 kishini tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2015 yilning 1 yanvar holati bo'yicha fermer xo'jaliklarining soni 7139 tani tashkil etib, ularga birlashtirilgan yer maydoni 762398 gaga yetdi. Bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan maydon 106,8 ga bo'lib, unda ishlovchilar soni 101845 kishini tashkil etdi, (1-ilova).

Viloyatda dehqon xo'jaliklarining soni 2015 yilning 1 yanvar holati bo'yicha esa 445037 tani tashkil etib, ularga birlashtirilgan yer maydonlari 91213 gaga teng bo'ldi. Yuridik shaxs maqomini olgan dehqon xo'jaliklari soni 28329 tani tashkil etib, umumiy ko'rsatkichga nisbatan 6 foizni tashkil etmoqda. Yalpi qishloq xo'jaligida dehqon xo'jaliklarining ulushi esa 60 foizga teng bo'lmoqda, (2-ilova).

Respublikamiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan **yer va suv islohotlari** yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish, yer ijarasi va yer solig'i munosabatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Agar 1998 yilda qabul qilingan **«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga muvofiq «fuqarolarga fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalari 50 yilgacha bo'lgan, lekin 10 yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga berilishi»** ko'zda tutilgan bo'lsa, 2004 yilda yangi tahrirda qabul qilingan **«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga muvofiq «fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari tanlov asosida ijaraga 50 yilgacha bo'lgan, lekin 30 yildan kam bo'lmagan muddatga birlashtirilishi»** belgilab berildi.

O'tkazilgan yer islohotlari natijasida:

- 2004 yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yer uchastkalaridan foydalanishning ijara shakli joriy qilindi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarga yer uchastkalari faqat tuman hokimi tomonidan ijaraga berilishi belgilab qo'yildi;

- o'z mablag'i hisobidan yer maydonlarini o'zlashtirishni rag'batlantirish tizimi belgilab berildi;

- yer ijarasi huquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi.

Yer-suv islohotlari doirasida amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlardan biri - yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturini amalga oshirishdir. Qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini muttasil yuksaltirish vazifasi birinchi navbatda sug'oriladigan yerlarning unumdorligi va irrigatsion-meliorativ holatiga bog'liq. Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga ko'ra o'rtacha sho'rlangan yerlarda ekinlarning hosildorligi sho'rlanmagan yerlarga nisbatan 50-60 % ga, o'ta sho'rlangan yerlarda esa 90-100 % ga past bo'lishi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga qaraganda 2001 yilda respublika bo'yicha jami 4 252,6 ming gektar sug'oriladigan yerlarning 2 324,6 ming gektari yoki 54,7 % ini u yoki bu darajada sho'rlangan yerlar tashkil etgan. Jumladan, uning 1212,9 ming gektarini yoki 28,5 foizini kam sho'rlangan yerlar, 893,3 ming gektarini yoki 21,0 foizini o'rtacha sho'rlangan yerlar va 218,4 ming gektarini yoki 5,1 foizini kuchli sho'rlangan yerlar tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyatida esa jami 514487 ga sug'oriladigan maydon bo'lib, shundan 272035 ga yoki 52,9 foizi sho'rlanmagan yerlar, kuchsiz sho'rlangan yerlar esa 180563 gektarni, sho'rlangan yerlar 62239 gani yoki jami sug'oriladigan yerlarga nisbatan 12,1 foizni tashkil etmoqda. Jumladan o'rtacha sho'rlangan yer maydoni 48911 gektarni, kuchli va juda kuchli sho'rlangan yerlar 13328 gektarni tashkil etgan, (3-ilova).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktabrdagi «**Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi Farmoni bilan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish, melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilandi.

Mazkur Farmonga muvofiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini moliyalashtirishga davlat budjetidan mablag'lar ajratilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Bu borada ayniqsa qulay moliya-kredit va soliq mexanizmlarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Islohotlar davomida fermer xo'jaliklarini **moliya-kredit va soliq mexanizmlari** orqali qo'llab-quvvatlashning samarali tizimiga asos solindi:

- davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yo'lga qo'yildi;
- fermer xo'jaliklari uchun yerlarning unumdorligiga bog'liq bo'lgan yagona yer solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlar joriy etildi;
- fermerlarga texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida yetkazib berish tartibi joriy etildi;
- fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yaratildi;

- ball boniteti past bo'lgan yerlarda paxta va g'alla yetishtiradigan fermer xo'jaliklarining zararini qoplash maqsadida ularga moliyaviy yordam berish tizimi joriy etildi;
- irrigatsiya va melioratsiya tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyotga tatbiq qilindi.

Tijorat banklari va budjetdan tashqari jamg'armalarning kredit siyosatida dehqon (yuridik shaxs maqomidagi) va fermer xo'jaliklari uchun bir qator imtiyozlar belgilangan bo'lib, ularni quyidagilarda ko'rish mumkin:

- tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalangani uchun imtiyozli foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;
- "Mikrokreditbank"ning mablag'lari hisobidan beriladigan, eng kam ish haqining 200 barobarigacha bo'lgan boshlang'ich sarmoya uchun mikrokreditlar yillik 5 foizli stavkada, biznesni kengaytirish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun eng kam ish haqining 500 barobarigacha mikrokreditlar Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi;
- yangi tashkil etilgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 150 barobari, fermer xo'jaliklariga esa 300 barobari miqdorida boshlang'ich sarmoya uchun yillik 5 foizli imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yildi;
- davlat ehtiyoji uchun don va paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga beriladigan avans mablag'larining oldindan 3 foizli imtiyozli stavka bilan kredit tarzida berilishi yo'lga qo'yildi.

Soliqqa tortish va soliq to'lash mexanizmini soddalashtirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining Farmoni bilan fermer xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan to'qqizta soliq turi o'rniga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi korxonalari uchun yagona yer solig'i joriy qilingan bo'lib, u har tomonlama qulaylikka ega. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qishloq xo'jaligi sohasida **bir qator soliq va bojxona imtiyozlari** qo'llanadi:

- yangidan tashkil etilgan, paxta, g'alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa mahsulotlar yetishtiradigan fermer xo'jaliklari 2 yil muddatga, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari 5 yil muddatga yagona yer solig'i to'lashdan ozod etildi;
- fermer o'z hisobidan o'zlashtirgan yer uchun besh yil davomida yagona yer solig'i to'lashdan ozod qilindi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi 304-sonli qaroriga asosan, xorijiy texnikalari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari hamda chet el texnikalar uchun ehtiyot qismlar olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 martdagi 308-sonli qaroriga muvofiq, chet ellardan chorva mollari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlaridan ozod etilgan.

- Agrar sohada amalga oshirilayotgan **narx islohoti** qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 avgustdagi «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi PF-3114-sonli farmoniga asosan, davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xomashyosining narxini jahon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq, 2009 yilda davlat budjeti parametrlarida eksportga sotiladigan paxta tolasi bo'yicha 20 foizlik qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lashdan paxta tozalash korxonalari ozod etildi, natijada shu miqdorda fermerlarga paxta uchun to'lanadigan xarid narxlari oshirildi. Shu orqali davlatimiz tomonidan paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini va tayyorlov korxonalarini rag'batlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, paxta tolasining ichki narxlarini jahon bozoridagi narxlarga tenglashtirish choralari ko'rilmogda. Shu bilan birga, bugungi kunda jahon bozorida paxta tolasi narxlarining birmuncha yuqori ekanini inobatga olgan holda, narx bo'yicha yuzaga kelgan ijobiy farqning 25 foizini fermer xo'jaliklariga to'lab berish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmogda. 2015 yilda respublikamizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir. Shuningdek, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. 2015 yilda 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi.

Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxlarini esa mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda, shartnoma asosida belgilanmogda.

1.4. «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy va institutsional islohotlar natijasida xo'jalik yuritishda inson omilining tashabbuskorligi va tadbirkorligiga, haqiqiy mulk egaligi hissiga tayanadigan ishlab chiqarishni boshqarish tizimi yuksak ahamiyat kasb etib bormogda.

Shundan kelib chiqqan holda **«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining predmeti**–fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil etishning huquqiy – iqtisodiy asosini, ishlab chiqarish faoliyati va unga xizmat qiluvchi infratuzilma, iqtisodiy qonunlarni tatbiq etish, moddiy ta'minot va korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni va ish yuritishda mehnat unumdorligini oshirishni o'rganishdan iborat.

Fanning ob'ekti – fermer va dehqon xo'jaliklari va uning ishlab chiqarishiga bevosita o'z hissasini qo'shadigan barcha korxonalar faoliyatidir.

«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining maqsadi–qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishni ko'paytirish va unga xizmat qiluvchi tarmoqlar

o'rtasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash; mehnat jarayonlarini bozor munosabatlarida rivojlantirish; mehnat unumdorligini oshirish; yer – suv hamda asosiy vositalaradan samarali foydalanishdan iborat

«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fani qishloq xo'jaligi umumiy iqtisodiy qonuniyatlarining muayyan bir xo'jalik sharoitida amal qilishi xususiyatlarini hamda xo'jalik amaliyotida ulardan foydalanish usullarini o'rgatadi.

«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fani iqtisodiy fan bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlar singari u ham cheklangan resurslar sharoitida moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida insonlarning hatti-xarakatini tadqiq etadi. Uning asosida ikkita muhim omil yotadi:

- jamiyatning moddiy ehtiyojlari cheksiz;
- iqtisodiy resurslar, ya'ni tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan vositalar chegaralangandir.

«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fani moddiy resurslar cheklangan sharoitida bozor iqtisodiyoti xususiyatlariga mos bo'lgan 5 ta fundamental savollarga javob berishi lozim bo'ladi:

1. Qanday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish iste'molchilarning moddiy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga imkon beradi?

2. Mavjud resurslardan qancha qismini jalb etgan holda, qanday hajmda mahsulot ishlab chiqargan ma'kul?

3. Bu mahsulotlarni yaratishda qanday ishlab chiqarish tizimi va texnologiyasidan foydalaniladi?

4. Mahsulot kim uchun ishlab chiqariladi, uning iste'molchilari kimlar?

5. Xo'jalik iste'molchilar talabi, resurslar bozori va ishlab chiqarish texnologiyasida yuz beradigan doimiy o'zgarishlarga moslashib boradimi?

Aynan mana shu savollarga javob topish «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining asosiy vazifalarini shakllantiradi.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bozor iqtisodiyoti tabiatiga mos keluvchi ishlab chiqarish va mulkchilik munosabatlarining xo'jalikda amal qilishi xususiyatlarini aniqlash;

- qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fermer va dehqon xo'jaliklarining maqsadga muvofiq ishlab chiqarish hajmi, ixtisoslashuvi va tarmoq tarkibini asoslash;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va uning texnologiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar samaradorligini texnik-iqtisodiy baholash usullarini o'rganish;

- ishlab chiqarishning cheklangan resurslaridan foydalanish tizimini optimallashtirish;

- ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx va bahoning shakllanish tamoyillarini tadqiq etish;

- moddiy-texnik resurslar ta'minoti va mahsulotlarni sotishning eng samarali tizimlarini aniqlash;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida talab va taklif funksiyalarining amal qilish mexanizmlarini o'rganish;

- boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun zarur bo'ladigan iqtisodiy axborotlarni shakllantirish, qayta ishlash va tizimga solish va boshqalar.

1.5. «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligi va ularni o'rganish usullari

«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fani o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni hal etishda bir qator fanlar yutuqlariga tayanadi. Bu fanlar tizimi:

- tabiiy fanlar;
- ijtimoiy-iqtisodiy fanlar;
- texnikaviy-texnologik fanlarga bo'linadi.

Tabiiy fanlar jumlasiga – «Biologiya», «Zoologiya», «Fizika», «Kimyo», «Matematika» va boshqa fanlar kiradi va ular bizni o'rab turgan tabiat (borliq) to'g'risidagi asosiy bilimlarni beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga «Sotsiologiya», «Psixologiya», «Mehnat iqtisodi», «Iqtisodiy nazariya», «Marketing», «Menejment», «Statistika», «Tarmoqlar iqtisodiyoti (sh.j. «Qishloq xo'jaligi iqtisodi)», «Moliya», «Buxgalteriya hisobi», «Iqtisodiy-matematik modellar» va boshqa fanlar kirib, ular «Fermer va dehqon xo'jaligi iqtisodi» fanini o'rganishda muhim baza bo'lib xizmat qiladi.

Texnikaviy-texnologik fanlarga «Tuproqshunoslik», «Dehqonchilik», «O'simlikshunoslik», «Chorvachilik», «Agrokimyo», «Melioratsiya», «Traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalari», «Mexanizatsiya va elektrlashtirish», «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash» kabi bir qator fanlar kirib, ular mehnat qurollari va mehnat predmetlarining ayrim xususiyatlari, quvvati, unumdorligi, tabiiy-biologik va boshqa xususiyatlari hamda ularni ishlatish tartibi to'g'risida axborot beradi. Bu ma'lumotlarsiz ulardan samarali foydalanishni tashkil etib bo'lmaydi.

Bizni o'rab turgan borliqni o'rganish usullari fanning uslubiyotini tashkil etadi. Boshqa fanlar kabi «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining uslubiy asosini ilmiy tafakkurning dialektika usuli tashkil etadi. Dialektik usul hamma hodisalar va jarayonlar doimiy o'zgarishda va o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi deb tushuntiradi. Dialektik usul rivojlanish jarayonini oddiy o'sish jarayoni deb emas, balki oddiylikdan murakkablikka, miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'sib o'tuvchi murakkab jarayon deb baholaydi.

«Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanini o'rganish – iqtisodiy jarayonlarni kuzatish va zarur ma'lumotlarni yig'ishdan boshlanadi. Iqtisodchilar avvalo ma'lum iqtisodiy muammoga taalluqli dalillarni aniqlaydilar va to'playdilar. Dalillarni tahlil qilish orqali iqtisodiy xulosa yoki iqtisodiy nazariya yaratiladi. Iqtisodiy xatti-harakatlarni o'rganishda iqtisodiy tadqiqot nazariyadan ayrim dalillarga va aksincha dalillardan umumiy nazariyaga qarab harakatlanishi mumkin.

Iqtisodiy tadqiqot ayrim dalillardan iqtisodiy nazariyaga qarab harakat qilganda **induktiv** usulni, nazariyadan ayrim dalillarga qarab harakat qilganda **deduktiv** usulni ifoda qiladi.

Tahlil usulidan foydalanishda hodisalarni mayda bo'laklarga, alohida-alohida dalillarga ajratib o'rganilsa, **sintez** usulida hodisalarni, ayrim dalillarni birlashtirish, birgalikda, o'zaro bog'liqlikda o'rganish orqali umumlashtiriladi va xulosa qilinib,

turli nazariyalar yaratiladi. Ammo, bundan xatoga yo'l qo'ymaslik uchun alohida olingan tasodifan qo'lga kiritilgan dalillardan emas, balki o'rganilayotgan ob'ektga tegishli barcha dalillar yig'indisidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dalillarni yig'ish – borliqni ilmiy anglashning boshlanishi xolos. Fermer va dehqon xo'jaliklari tabiiy-iqlim uy shart-sharoitlar texnik-texnologik ta'minlanganlik, ishlab chiqarishni tashkil etilishi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlik jihatidan turli darajada rivojlanish xususiyatlariga ega.

Shu tufayli alohida olingan xo'jalikning ma'lumotlari boshqa sharoitlarda joylashgan dehqon va fermer xo'jaliklari uchun mos kelmasligi mumkin. Buning uchun turli ma'lumotlar va dalillarni chuqur tahlil etish asosida nazariy umumlashtirish lozim bo'ladi.

Dalillarni keng qamrovli tahlil etish uchun iqtisodiy tadqiqotning turli usullaridan foydalaniladi. Ularning ichida eng ko'p **statistik, iqtisodiy-matematik, monografik, tajriba** usullaridan foydalaniladi.

Statistik, ya'ni dinamika qarorlari, o'rtacha sonlar, guruhlashtirish analitik, korelyatsion, dispersion va regression tahlil usullari dinamik qatorlar, o'rtacha sonlar, guruhlashtirish usullari orqali xo'jalikda sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlar qanday sifat o'zgarishlariga olib kelishi, ayrim omillar va dalillar o'rtasida qanday aloqa va bog'lanishlar borligi anqlanadi.

Monografik usul orqali biron voqea yoki dalil unga ta'sir etuvchi har bir jarayon o'rganilishi ta'minlanadi.

Hisob-analitik usul biron tadbirni belgilashda yoki xo'jalikning istiqboli bilan bog'liq tadbirlarni ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

Tajriba usuli normativ asosda belgilangan me'yoriy tadbirni yoki biron-bir nazariyani keng miqiyosda qo'llashdan oldin kichik doirada sinab ko'rishdir. Agar bu sinov natijalari amalda o'zini oqlasa, xuddi shu sharoit bo'lgan joylarda ularni keng qo'llashga tavsiya etishdir. Chunki amaliyot –haqiqat mezonidir. Ma'lumki, biron bir natija, masalan, xo'jalikning foydalilik darajasi juda ko'p omillarga bog'liq.

Ayrim hollarda turli-tuman omillar bir-birlariga qarama-qarshi ta'sir etishi mumkin. Bunday holda iqtisodiy-matematik usul qo'llanilgan holda hamma omillar ta'sirini miqdor jihatdan hisobga olish imkoniyatini beradigan modellardan foydalaniladi. Masalan, xo'jalikda foydani maksimallashtirish va xarajatlarni minimallashtirish uchun qishloq xo'jalik ishlarini traktor mashinalari boyicha optimal taqsimlash kerak.

Nazorat uchun savollar:

1. Fermer va dehqon xo'jaliklarini mamlakat oziq-ovqat programmasini hal etishdagi o'rni va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Fermer xo'jaligi nimma uchun ustuvor deb tan olindi?
3. «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining maqsadi nima?
4. «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti» fanining predmeti va o'rganish usullarini nimalar tashkil etadi?
6. Fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishda fanning vazifasi nimalardan iborat?

II-MAVZU. FERMER XO'JALIKLARINING HUQUQIY, TASHKILIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Reja:

- 2.1.Fermer xo'jaliklarining huquqiy asoslari tizimi.
- 2.2.Fermer xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, tartibi hamda asosiy shakllari.
- 2.3.Fermer xo'jaliklarini tashkiliy tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari.
- 2.4.Chet ellardagi fermer xo'jaliklarining mulki, ularning rivojlantirilishi.

O'quv maqsadi: *fermer xo'jaliklarini tashkil etish taomoyillari, ularning xususiyatlari, ishlab chiqarish yo'nalishlari va mulkiy munosabatlariga oid nazariy bilimlarni shakllantirishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *Tadbirkorlik, iqtisodiy negizi, shakllari, jamoa xo'jaliklari, jamoa mulki, shirkatlar, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, qo'shma korxonalar, qo'shma mulklar, xususiy korxonalar, xususiy mulk.*

2.1. Fermer xo'jaliklarining huquqiy asoslari tizimi

Respublika iqtisodiyot tarmoqlarida bozor munosabatlari shakllangan bir paytda qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning turli shakllari sinovdan o'tkazildi va doimiy ravishda takomillashtirib borildi. Fermerga bo'lgan hukumatning e'tibori tez orada o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Mamlakatimizga chetdan olib keltiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori keskin kamayib, uning o'rniga mahalliy mahsulotlar egalladi. Chunki, Davlat mulkni xususiylashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida yer munosabatlarini isloh qilishga alohida e'tibor berildi. Yer xalqimizning asosiy milliy boyligi bo'lib, xalqni oziq-ovqat va sanoatni xomashyo bilan ta'minlashda muhim xizmat qilmoqda. Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyoti ko'p jihatdan yerdan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Konstitutsiyasi» va «Yer kodeksi»ga binoan yer davlat mulki bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlatning chiqargan qonunlari asosida har bir O'zbekiston fuqarosi yerdan foydalanish huquqiga ega. Bozor munosabatlarini erkinlashtirish jarayonida yerdan foydalanishning quyidagi tizimlari qabul qilindi:

1. Shirkat xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi yerlari doimiy foydalanish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadlarida beriladi;

2. Dehqon xo'jaliklari yerdan meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanadilar;

3. Fermer xo'jaliklariga yer 50 yilgacha muddatga ijaraga beriladi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloholarni chuqurlashtirish va xususiylashtirish jarayonini muvaffaqiyatli oxiriga etkazish maqsadida 30 aprel 1998 yilda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun qabul qilinishi agrar islohotlarni jadallashtirish uchun huquqiy negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu tizimda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda istiqbolli sub'ektlardan biri bo'lgan fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer

uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligining a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir. Fermer xo'jaligini tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar mazkur qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Fermer xo'jaligi yuridik shaxsning barcha huquqlariga ega bo'ladi. Fermer tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga va boshqa shakllardagi xo'jalik yurituvchi korxonalar bilan teng huquqlarga ega.

Fermer xo'jaligi faoliyati qonun hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshirilib, ular: fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini yer uchastkasi to'g'risidagi nizomga asosan tashkil etish; yetishtirilayotgan mahsulotga mustaqil baho belgilash; yetishtirgan mahsulotini iste'molchilarga o'z xohishi bo'yicha realizatsiya qilish; xarid etilgan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers bitimlari tuzish; tadbirkorlikni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuritish; qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish, sotish va erkin savdoga mo'ljallangan aktsiyalarni sotib olish; kreditlar olish, sug'urta va boshqa hollarni ta'minlagan holda imtiyozli kreditlashga jalb etish; ijaraga berilgan yer uchastkasini kredit olish uchun garovga qo'yish; kichik va xususiy korxonalar uchun belgilangan imtiyozlardan foydalanish; xodimlarni ishga yollash va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish huquqlariga ega.

Qonun hujjatlarida fermer xo'jaligining boshqa huquqlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi kooperativi umumiy majlisining qarori bilan belgilangan ixtisoslashuvga muvofiq o'z faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning qonunlarda ta'qiqlanmagan har qanday turli qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan ham shug'ullanadi. Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotini sifatli, me'yoriy standartlarga mos, ekologiya, sanitariya qoidalarini asosida ishlab chiqishdan iborat. Fermer xo'jaligi faoliyatining huquqiy asoslari uning nizomida belgilab qo'yiladi.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq munosabatlar «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonun va boshqa qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasidagi fermer xo'jaligi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqa qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalarini qo'llaniladi.

Yer bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlarni O'zbekiston Respublikasining yer kodeksidan foydalaniladi. Unda yer kodeksining quyidagi asosiy prinsiplari: eng muhim tabiiy resurs, qishloq xo'jaligining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish; yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash; qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning, eng avvalo sug'oriladigan yerlarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borishning hamda ulardan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash; qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini

amalga oshirishni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash; yerga va tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash; yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish; yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash; yerlarning holati haqidagi axborotning to'liq bo'lishini hamda undan erkin foydalanishga yo'l qoyilishini ta'minlash.


Umuman yer kodeksida yuqoridagi prinsiplardan kelib chiqqan holda fermer xo'jaligining yer bilan bo'ladigan barcha munosabatlari aniq ko'rsatib berilgan.

Fermer o'z faoliyatida «Yer kodeksi»dan va me'yoriy hujjatlar to'plamidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Bu hujjatlardan foydalanish tartiblari Vazirlar Mahkamasining Qarori va O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

Fermer o'zining ish faoliyatini, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonun bo'yicha amalga oshiradi.

Qonunning 8-moddasida fermer xo'jaligining ustavi to'g'risida bo'lib, ustavning mohiyati, mazmuni, fermer xo'jaligini boshqarish, ishlab chiqarishni tashkil etish, fermerning huquq va majburiyatlari, xo'jalikni qayta tashkil etish yoki tugatish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligining namunaviy ustavi» tasdiqlangan. Ushbu hujjat orqali har bir fermer o'zining, sharoiti, ixtisosligini hisobga olgan holda fermer xo'jaligining ustavini qabul qiladi.

Qonunning 23-moddasida ishlovchilarni mehnatga jalb qilish, haq to'lash, sug'urta badallarini to'lash kabi umumiy qoidalar belgilangan. Ularni qanday rasmiylashtirish va amalga oshirish bo'yicha Mehnat kodeksidan hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan «Fermer xo'jaligi xodimlarini yollash to'g'risidagi namunaviy shartnoma» tasdiqlangan hujjatdan foydalaniladi.



2.1.1-chizma. Fermer xo'jaligida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi

Fermer xo'jaligi tomonidan etishtirilgan mahsulotlarni sotish, moddiy ta'minot va servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlari «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunda belgilangan bo'lib, uni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi», «Moddiy-texnika resurslari etkazib berishga namunaviy shartnoma», «Xizmatlar ko'rsatishga (ishlarni bajarishga) namunaviy shartnoma» hujjatlarida aks ettirilgan.

Fermer – xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida qo'llanadigan me'yoriy hujjatlardan foydalanishda *birinchi navbatda* qonunlarni hayotga tadbiq etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan yoki Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan qonun osti hujjatlarini o'rganib chiqishlari va tegishli moddaning asl mohiyatini bilib olishi lozim. Undan keyin o'zining huquq va majburiyatlarini talab qilishlari mumkin.

2.2. “Fermer xo'jaligi” tushunchasi. Fermer xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, tartibi hamda asosiy shakllari

Fermer xo'jaligi –ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Fermer xo'jaligining maqsadi - tovar qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish yo'li bilan daromad (foyda) olish, o'zining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir.

Fermer xo'jaligining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ajratilgan yer va suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash;
- tuproq unumdorligini saqlash va oshirish hama yerlarni muhofaza qilish;
- mustaqil ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish, shuningdek xizmatlar ko'rsatish;
- veterinariya qoidalariga rioya qilgan holda chorva mollarining mahsuldorligini oshirishdan iboratdir.

Fermer xo'jaligining faoliyatiga - qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, shuningdek bozorlarda, shu jumladan o'z savdo shahobchalari orqali sotish; tijorat faoliyati va marketinng tadqiqotlarini tashkil qilish; yuridik va jismoniy shaxslarga pulli xizmatlar ko'rsatish; tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish; faoliyatning qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turlairni amalga oshirish kiradi.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

1. Ariza.
2. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy yig'ilishining yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi oliy boshqaruv organi yoki ish beruvchi (ma'muriyati)ning fermer xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.
3. Notarial tasdiqlangan Ustavning ikkita asl nusxasi (bugungi kunda shart emas).

4. Davlat boji yoki ro'yxatdan o'tish to'lovi to'langanligi to'g'risida bank to'lov hujjati (eng kam ish haqining ikki barobari miqdorida).

5. Vakolatli shahar (tuman) hokimiyati organlari tomonidan berilgan xo'jalik nomini tasdiqlovchi hujjat.

6. Hokimiyat qarori bilan tashkil etilgan tanlov komissiyasining yer uchastkasi berish haqidagi qarori, ishlab chiqarishini tashkil etishning biznes-rejasi nusxalari.

7. Muhr va shtampning uch nusxadagi eskizi.

Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning shakllaridan biri sifatida o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarga egadir.

Fermer xo'jaligini yuritishdan ko'zda tutilgan maqsad, fermer manfaati tomonidan turib yondoshsak ichki iste'mol va tovar mahsuloti ishlab chiqarish, shuningdek boshqa ko'p qirrali faoliyati orqali o'zi va oilasining moddiy farovonligini ta'minlashdan iboratdir.

Fermer xo'jaligining xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. ***Ijtimoiy-psixologik jihatdan*** - jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini - oila va unga xos bo'lgan axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarga hamda shaxsiy manfaatdorlik, xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlik erkinligiga tayanuvchi aholining ijtimoiy qatlamidir.

2. ***Tashkiliy-huquqiy jihatdan*** - yuridik shaxs maqomiga (o'z balansi, hisob raqami, muhri va boshqalarga) ega bo'lishi shart.

3. ***Mehnat munosabatlari jihatidan*** - xo'jalikda a'zolar mehnati bilan birgalikda yollanma mehnatdan foydalanishi mumkin.

4. ***Ishlab chiqarish yo'nalishi jihatidan*** - ishlab chiqarish qisman ichki iste'molga va asosan bozorga yo'naltirilgan tovar xo'jaligi hisoblanadi.

5. ***Mulkiy munosabatlar jihatidan*** - ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik; yer maydoni uzoq muddatli ijaraga (eng kamida 30 yildan uzog'i bilan 50 yilgacha) beriladi, ijara muddatida ijara huquqini meros qilib qoldirish mumkin.

6. ***Xo'jalik yuritish uchun ajratiladigan yer maydoni hajmi jihatidan*** - xo'jalik yuritish uchun ajratiladigan yer maydoni hajmining quyi chegarasi:

- g'alla va paxta etishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar uchun kamida 30 gektar;

- bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavot-polizchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarga kamida 5 gektar;

- chorvachilikda kamida shartli 30 bosh chorva moli bo'lgan taqdirda har bir shartli bosh mol uchun viloyatlar va hududlarga qarab 0,3 –0,45 gektardan (lalmi yerlarda 2 gektar) yer ajratib beriladi.

Fermer xo'jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-xarajat birligi evaziga mahsulot etishtirishni har tomonlama ko'paytirishdan iborat.

Fermer xo'jaligi mustaqil xo'jalik yuritish sub'ekti sifatida o'ziga xos bo'lgan ma'lum bir tamoyillarga tayanadi:

1. Fermer xo'jaligi ixtiyoriylik asosida tuziladi, ya'ni, fermer xo'jaligi a'zolari o'z xohishlari, manfaatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib xo'jalikni tashkil etadilar.

Ular ishlab chiqarish yo'nalishlarini belgilash va o'zlashtirish, boshqa xo'jaliklar va davlat organlari bilan munosabatlarni ham mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Qisqacha qilib aytganda fermerlar to'liq tanlov va tadbirkorlik erkinligiga tayanadilar.

2. Fermer xo'jaligida mulk egaligi huquqi alohida xususiyatga ega. Fermer xo'jaligidagi mol-mulk shu xo'jalik a'zolarining xususiy mulki bo'lganligi tufayli, ular bu mulkni yaxshi saqlanishi va ko'payib borishidan manfaatdordirlar. Bu esa fermerlarda mulkdan oqilona foydalanish ko'nikmasini hosil qiladi. Yer maydonining 50 yilgacha muddat bilan ijara, ijara muddatida ijara huquqini meros qilib qoldirish bilan berilishi esa yer resurslaridan unumli foydalanish, tuproq tarkibi va hosildorligini muttasil oshirib borishga rag'bat yaratadi.

3. Fermer alohida statusga ega shaxs sifatida yuzaga chiqadi, ya'ni bunda o'z mehnati bilan ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi mehnatkash, yuqori foyda olishni ko'zlab o'z mol-mulkini tavakkalchilik asosida ishlab chiqarishga jalb etgan tadbirkor va ma'lum bir intellektual qobiliyatga ega bo'lgan boshqaruvchi bir shaxs timsolida mujassamlanadi.

4. Fermer xo'jaligida mehnatning xarakteri ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Agrar ishlab chiqarishning doimiy ravishda jonli organizmlar bilan bog'liq holda yuritilishi, bu sohada ishlab chiqarishga haqiqiy javobgarlik hissi bilan yondashuvchi, uning natijalaridan bevosita manfaatdor shaxslar mehnat qilishi lozimligini ko'rsatadi. Fermer faqat uning o'zi va oilasining farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan erkin, ijodiy mehnatdagina o'zining qobiliyatlari va mahoratini to'raligicha namoyon eta oladi.

5. Fermer xo'jaligini asosini jamiyatining boshlang'ich bo'g'ini- oila tashkil etadi. Oilaviy xo'jalikda o'zgacha ijtimoiy va ma'naviy muhit mavjud bo'lib, bu yerda har bir shaxsning manfaati butun oila manfaati bilan qo'shib ketadi. Bunda mehnat jamoasi vakillarining bir-biriga bo'lgan ishonchi yuqoriligi sababli, har bir kishi umumiy oila farovonligi yo'lida vijdonan va sifatli mehnat qiladi, mehnat va uning natijalarini qadrlashga o'rganadi, o'zaro yordam va shaxsiy javobgarlik xislatlariga moslashadi.

Fermer xo'jaligi o'ziga xos ma'naviy va ahloqiy qadriyatlar davomchisi hamdir. Fermerning oilaviy turmushida o'zi yashayotgan yerdagi mahalliy aholining urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlari bevosita o'z ifodasini topadi. Xo'jalik yuritishning bu shakli o'ziga xos mehnat va tarbiya maktabi ham bo'lib, bunda minglab yillardan beri ajdodlarimiz tomonidan to'plangan mehnat tajribalari va ko'nikmalari, yerga va tabiatga muhabbat hissi hamda eng yaxshi milliy an'analar mustahkamlanib avlodlardan-avlodga o'tkazib boriladi.

6. Fermer xo'jaligi qisman bozorga yo'naltirilgan mayda tovar xo'jaligi sifatida bozor konyukturasiga tez moslashuvchan bo'ladi. Bunday xo'jaliklar bozor holatidagi o'zgarishni ham tezda ilg'ab, bozordagi iste'molchilar talabiga mos taklif bilan chiqishga intiladi. Fermerning mahsulotiga o'rnatiladigan baho bozorda, xaridorlar tomonidan o'rnatilishi tufayli, uning uchun mahsulot sifatini xaridorlar didiga moslashdan boshqa iloj qolmaydi. Bu holatlar bir tomondan aholini zarur mahsulotlar bilan o'z vaqtida, kerakli miqdorda va sifatda ta'minlash imkonini

yaratsa, ikkinchi tomondan bozorlar mo'l-ko'lichiligi sharoitida baholarning asta-sekin arzonlashib borishiga sabab bo'ladi.

7. Fermer xo'jaligi respublikamiz qishloq xo'jaligida endigina shakllanib kelayotgan tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi kuchli rag'batlardan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan shu xususiy tadbirkorlik faoliyatini jonlantirish orqali ishlab chiqarishda yuksak natijalarga erishish mo'ljallangan.

8. Har qanday iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish samadorligini yuksaltirishning eng muhim shartlaridan biri-bu turli mulk shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligi va ular o'rtasida vujudga keladigan sog'lom raqobatdir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sog'lom raqobat kurashi vujudga kelishi uchun jamiyatda mulk shakllarining xilma-xilligini ta'minlash zarur.

Fermerlikni tashkiliy jihatdan mustahkamlashda, sohaning iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qonunchilik va meyoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish bir tomondan fermer xo'jaliklarining o'zini-o'zi boshqarish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, ularning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilash imkonini bersa, ikkinchi tomondan fermerlarning olgan majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish borasidagi mas'uliyatini oshiradi.

2.3. Fermer xo'jaliklarini tashkiliy tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari

Fermer xo'jaliklarining asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi farmonida belgilab berilgan: fermer xo'jaliklari zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida barpo etiladi; fermer xo'jaligi yuridik shaxs sifatida, asosan xususiy korxona shaklida, keyinchalik ular turli shakldagi kooperatsiyalarga birlashish huquqi bilan barpo qilinadi; yer maydonlari fermerlarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatga, ijara muddati davomida meros qilib qoldirish huquqi bilan ijaraga foydalanish uchun beriladi; fermer xo'jaliklariga beriladigan yer maydonlari shirkat xo'jaliklarining balansidan chiqariladi; etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish hamda moddiy-texnika resurslari va xizmatlarni olish uchun shartnomalarni faqat fermer xo'jaliklarning o'zlari tayyorlov, qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzadilar.

Yer uchastkalari berilganda fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o'rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qoyiladi.

Fermer xo'jaligi shu xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi va fermer xo'jaligiga tegishli aloqador mol-mulk ajratib beradi va ustavini tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaligi tashkil etish uchun uning boshlig'i belgilangan tartibda yer uchastkasi olish kerak.

Qashqadaryo viloyatida 2010-2014 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 2011 yilda 1826255 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2012 yilda 2439542,4 mln. so'mni, 2013 yilda 2618358,6 mln.so'mni, 2014 yilda esa 3078819,3 mln.so'mni tashkil etdi. Shu jumladan fermer xo'jaliklarining yalpi hududiy qishloq xo'jaligi mahsulotlaridagi ulushi 2014 yilda 37,7 foizni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 4,7 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. O'simlikchilik mahsulotlarini yetishtirishda fermer xo'jaliklarining ulushi 2014 yilda 95,0 foizni, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda esa 5,0 foizga ulushga egadir. Fermer xo'jaliklarining soni 7139 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2009 yilga nisbatan 4,1 marta kamayganligini ko'rish mumkin. Fermer xo'jaliklarida o'rtacha ishlovchilar soni 2014 yilda 14 kishini va o'rtacha yer maydoni 106,8 gani tashkil etmoqda, (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Qashqadaryo viloyati fermer xo'jaliklari faoliyatining rivojlanish ko'rsatkichlari

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lch. birligi	Yillar						2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi, (punktga)
			2009	2010	2011	2012	2013	2014	
1.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi	%	38,7	38,3	40,6	41,9	42,4	37,7	-1,02 punktga kamaydi
	Jumladan: o'simlikchilikda	%	98,2	98,1	97,7	97,4	95,2	95,0	-1,03 punktga kamaydi
	chorvachilikda	%	1,8	1,9	2,3	2,6	4,8	5,0	+2,8 punktga ko'paydi
2.	Fermer xo'jaliklari soni	birlik	29364	29785	8599	7168	7139	7139	4,1 marta qisqardi
3.	Fermer xo'jaligida ishlovchilar soni	kishi	155151	155949	155932	155932	101845	101845	1,52 marta qisqardi
	Fermer xo'jaliklariga ajratilgan yer maydoni	ga	707200	717086	717086	772099	744409	762398	1,07 marta ko'paydi
5.	O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydoni	ga	24,1	24,1	66,0	107,7	104,3	106,8	4,4 marta ko'paygan
6.	O'rtacha bir fermer xo'jaligida ishlovchilar soni	kishi	5,3	5,2	18,1	21,7	14,3	14,3	2,7 marta ko'paygan

Manba: Qashqadaryo viloyat ststistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Tahlillarning ko'rsatishicha, 2009-2014 yillarda viloyat fermer xo'jaliklari soni 76,0 foizga qisqargani holda, ularning yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2009 yilda 38,7 foizni tashkil etgan holda, 2014 yilda bu ko'rsatkich 37,7 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich o'simlikchilikda 2009 yilda 98,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib 95,0 foizga, chorvachilikda ushbu ko'rsatkich mutanosib ravishda 1,8 foiz va 5,0 foizni tashkil etdi. Shuningdek, respublika miqyosidagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslaganda ham, viloyat fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanayotganini kuzatish mumkin.

Qishloq xo'jaligi yerlarining uzoq muddatli ijara mulki qilib berilishi va qishloqda bozor munosabatlarining joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini shakllantirish hamda rivojlantirishning eng muhim omili va asosi bo'ldi. Buning natijasida yerga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga haqiqiy egalik tuyg'usi mustahkamlandi. Mamlakatda fermerlik harakati qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga hamda agrar soha va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlar, ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Shu o'rinda, dastlab fermerlik harakatini tashkil etish va boshqarish tizimida amal qilgan Fermer xo'jaliklari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini isloh qilish va uning mahsuldorligini oshirish jarayoniga hamda fermerlik oldida turgan vazifalarni tezkorlik bilan hal qilishda sust faoliyat olib borganligini qayd etish o'rinli. Shu sababli, 2012 yil 22 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4478 sonli Farmoni bilan O'zbekiston Fermerlari kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarning fermerlar kengashlari tashkil etildi.

2.4. Fermer xo'jaliklarining mulki, ularning rivojlantirilishi borasida chet el tajribalari

Fermer xo'jaligi o'z mulkidan, mehnat resurslaridan oqilona foydalangan holda ixtisoslashishi bo'yicha shartnomalar asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash, xizmatlar ko'rsatish, mahsulotlarni sotish, shuning natijasida olgan pul daromadlarini taqsimlash, ishchi-xizmatchilarini rag'batlantirish hamda ijtimoiy himoyalash, faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarni ko'rsatadi. Uning iqtisodiy negizini oila a'zolarining mol-mulki, mahsulotlari tashkil etadi va xo'jalik faoliyatini «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonun asosida yuritadi. Fermer xo'jaligi o'z mulki, ijaraga olgan yerlardan, mashina, texnikalardan samarali foydalangan holda talab etilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash hamda sotish bilan shug'ullanadi. Tadbirkorlikning bu shakli iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda salmoqli o'rinni egallaydi. AQSH, Fransiya, Gollandiya davlatlarida ular juda yaxshi rivojlangan.

Gollandiyada jahonga tarqalgan chiroyli, nafis gullarning Urug'larini yetishtirish bilan shug'ullanadigan fermerlar o'z faoliyatlarni olimlar bilan chambarchas bog'laganlar. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda har qanday korxonani samarali faoliyat ko'rsatishiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun bo'lajak

boshqaruvchilarni tayyorlashga harakat qilinadi. Shu maqsadda, AQSH maktablarida 10 ga to'lgan o'quvchilardan boshlab barcha sub'ektlar faoliyatini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni bosqichma-bosqich o'qitishni yo'lga qo'yadilar. Ular maktabda olgan bilimlarini kelajakda institut va universitetlarda yanada teranlashtirib boradilar. Malakali, uddaburon boshqaruvchilarni tayyorlashda korxonalar ham katta rol' oynaydi. Shu maqsadda, korxonalarning rahbarlari, egalari bilim maskanlariga borishib iqtidorli, bilimli talabalarni tanlab olib, ularni tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtiradilar. Ularni o'qishni bitirganlaridan keyin ish bilan ta'minlaydilar. Yosh mutaxassislar shu korxona oldidagi burchini bajarishga harakat qiladilar. Bundan tomonlar har tomonlama manfaatdor. Yuqorida keltirilgan va ma'ruzada aytiladigan ayrim chet el tajribalarini Respublika qishloq xo'jaligidagi kichik korxona hisoblangan fermer xo'jaliklarining serqirrali faoliyatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun birinchidan, fermerlarning o'zlari barkamol, yetuk, bilimdon, tadbirkor rahbar bo'lishlari kerak. Ikkinchidan esa, korxonalar, tashkilotlar, olimlar, mutaxassislar o'zlarining xizmatlarini fermerlarga ko'rsatish maqsadida ular bilan aloqalarni rivojlantirishlari zarur. Xullas, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro manfaatli tarzda rivojlantirishga erishishlari shart. Shundagina kichik korxona hisoblangan fermer xo'jaliklarining yonida boshqalarning iqtisodiyoti rivojlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fermer xo'jaligi deb nimaga aytiladi?
2. Fermer xo'jaligining vazifasi nimadan iborat.
3. Fermer xo'jaligini tashkil etishning qanday tamoyillari mavjud?
4. Fermer xo'jaliklari qanday tartibda tashkil etiladi?
5. Fermer xo'jaligining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari nimalardan iborat?
6. Chet ellardagi fermer xo'jaliklarining mulki va ularning rivojlantirilishi qanday amalga oshiriladi?

III-Mavzu. DEHQON XO'JALIKLARINING HUQUQIY, TASHKILIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Reja:

3.1. Dehqon xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, tartibi hamda asosiy shakllari.

3.2. Dehqon xo'jaliklarini tashkiliy tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari.

O'quv maqsadi: *dehqon xo'jaliklarining huquqiy asoslari tizimi, tashkil etish tamoyillari, ishlab chiqarish yo'nalishlari, mulkiy munosabatlari va iqtisodiy negizini takomillashtirishga oid nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *dehqon xo'jaligi, xuququy me'yorlar, yollanma mehnat, ishlab chiqarish hajmi, tashkil etish tartiblari, tadbirkorlik faoliyati*

3.1. Dehqon xo'jaligini tashkil etish tamoyillari, tartibi hamda asosiy shakllari.

Dehqon xo'jaliklari shaxsiy yordamchi xo'jaliklari zaminida vujudga kelgan xo'jalik yuritish shaklidir. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllaridan biri bo'lgan aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari 30-yillardan boshlab vujudga kela boshlagan. O'sha davrda qishloq xo'jaligining asosini tashkil etgan jamoa xo'jaliklari (kolxozlar) va davlat xo'jaliklari (sovxozlar) qishloq aholisining oziq-ovqatga bo'lgan talabini to'liq qondira olmas edi. Shuni e'tiborga olib, qishloq aholisi uchun cheklangan miqdordagi tomorqa uchastkasi va chorva hayvonlariga ega bo'lgan shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritishga imkon berildi.

1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan aholi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining maqomini aniqlashtirish, ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlashning qonuniy mexanizmlari takomillashtirildi.

Birinchidan, aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari dehqon xo'jaligi sifatida qayta nomlandi va uning tashkiliy, iqtisodiy va xuquqiy asoslari mustahkamlab qoyildi.

Ikkinchidan, dehqon xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, maqomi, tashkiliy-iqtisodiy asoslari va uning qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ekti sifatidagi xususiyatlari aniq belgilab berildi.

Uchinchidan, Vazirlar mahkamasining 1998 yil 15 iyuldagi 300-sonli qarori bilan faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni dehqon xo'jaliklariga o'zgartirish tartibi tasdiqlandi.

To'rtinchidan, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» gi qonunda ularni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash hamda ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» gi Qonunining 1-moddasida dehqon xo'jaligiga qoyidagicha ta'rif berilgan:

«Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulot yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo'jaligida faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas».

Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida bir qator afzalliklarga ega:

- ishlab chiqarish hajmining kichikligi bozordagi talab va taklif nisbatiga tez moslashish hamda ko'p mablag' sarflamay o'z faoliyati yo'nalishlarini qayta shakllantirish imkonini beradi;

- oila mehnatiga tayanish uy bekalari, qariyalar va bolalar mehnatidan ham unumli foydalanish hamda asrlar davomida shakllanib kelgan dehqonchilik madaniyatini avlodlardan avlodga o'tkazib borishga sharoit yaratadi;

- xususiy mulk egaligi hamda yerni meros qilib qoldirish xuquqi bilan umrbod egalikka berilishi mulkdan oqilona foydalanishga yo'l ochadi.

Dehqon xo'jaligi ichki iste'mol va mayda tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish bilan bog'liq hamda xo'jalik a'zolarining shaxsiy mehnatiga asoslangan faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilishi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Dehqon xo'jaliklarining xo'jalik faoliyatiga, shu jumladan, ular tomonidan agrotexnika usullarni, yetishtiriladigan mahsulot turlarini tanlashda, uning narxini va uni realizatsiya qilish yo'nalishlarini aniqlashda davlat organlari va tashkilotlarining hamda boshqa organlar va tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining aralashuviga yo'l qoyilmaydi.

Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanishga haqli.

Dehqon xo'jaligi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega (3.1.1-jadval).

3.1.1-jadval

Dehqon xo'jaligi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega

1	Ijtimoiy-psixologik jihatdan	Jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini-oila va unga xos bo'lgan qadriyatlarga hamda shaxsiy manfaatdorlik, xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlik erkinligiga tayanuvchi aholining ijtimoiy qatlami
2	Tashkiliy-xuquqiy jihatdan	A'zolarining istagiga ko'ra: - yuridik shaxs maqomida; - yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllaridan biri
3	Mehnat munosabatlari jihatdan	Oilaning shaxsiy mehnatiga tayanadi, yollanma mehnatdan doimiy foydalanish mumkin emas.
4	Ishlab chiqarish	Oilaning ichki iste'moli va qisman bozorga

	yo'nalishi jihatidan	mo'ljallangan oilaviy munda tovar xo'jaligi
5	Mulkiy munosabatlar jihatidan	• ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik; • yer maydoni meros qilib qoldirish xuquqi bilan umrbod egalik qilishga
6	Xo'jalik yuritish uchun ajratiladigan yer maydoni hajmi jihatidan	Yer maydonining yuqori chegarasi: - sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha; - sug'orilmaydigan (lalmi) yerlarda 0,5 gektargacha; - cho'l va sahro mintaqasida sug'orilmaydigan yerlarda 1 gektargacha

Dehqon xo'jaligi ixtiyoriylik asosida qishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining ish beruvchisiga (ma'muriyatiga) hamda tuman hokimiga yozma murojaatiga asosan tashkil etiladi. Arizada so'ralayotgan yer uchastkasining joylashgan manzili, maydoni, dehqon xo'jaligining tarkibi hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun yer uchastkasidan belgilangan maqsadda foydalanishning yo'nalishlari ko'rsatiladi.

Dehqon xo'jaligi milliy iqtisodiyotning oddiy bo'g'ini sifatida asosan moddiy va xizmat ko'rsatish sohalaridan tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda dehqon xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyati, norasmiy xo'jalik pozitsiyasiga asosan uy xo'jaligida jamlangan. Shu bilan birga, ba'zi bir uy xo'jaliklari boshqa turdagi, ya'ni uy xo'jaligi doirasidan tashqaridagi yo'nalishlarda faoliyat yuritishi mumkin. Bular uy xo'jaliklar tomonidan mebel, uy xo'jaligi buyumlari ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, transport vositalarini va jihozlarni ta'mirlash, qurilish faoliyati, tikuvchilik, savdo va hokazo faoliyat yo'nalishlaridir.

Shaxsiy yordamchi xo'jalik tarkibiga xo'jalik binolari, mol, parranda, asal-ari, ko'p yillik mevali daraxtlar, tomorqa uchastkasi va mayda qishloq xo'jaligi inventari kiradi. Shaxsiy yordamchi xo'jalik xarakterini va uning rivojlanish darajasini to'raligicha ijtimoiy ishlab chiqarish belgilab beradi.

Dehqon xo'jaligi milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishda resurslarni tejamli foydalanadigan xo'jalik shakli sifatida xarakterlanadi. Dehqon xo'jaligining bu xarakteri oilaning pul xarajatlarini kamaytiradi va bu bilan oila byudjetini mustahkamlaydi. Dehqon xo'jaligida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning tashkil etilishi, davlatni ijtimoiy ishlab chiqarish sektorida ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini va shu bilan birga aholiga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytiradi.

Dehqon xo'jaligi va uy xo'jalikda ishlab chiqarish faoliyati organik jihatdan bir biriga mos keladi. Dehqon xo'jaligi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotni ma'lum qismi uy xo'jaligi tomonidan qayta iste'mol qilinadi. Shu bilan birga dehqon xo'jaligi mahsulotlarning ma'lum qismini uy xo'jaligidagi qora mol va parranda uchun oziqayem sifatida foydalanadi. Shuning uchun dehqon xo'jaligi bilan uy xo'jaligi ishlab chiqarish jarayoni texnologik jihatdan bir biriga bog'liq hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi sub'ektlari uchun mehnat jarayoni ketma-ket uy xo'jaligida keyinchalik dehqon xo'jaligi faoliyatini shakllantirgan holda davom etishini ifoda etadi. Shuning uchun dehqon va uy xo'jaliklari iqtisodiy jihatdan bir biriga

bog'liqdir. Mahsulot sotishdan tushgan daromadlar nafaqat dehqon xo'jaligini ishlab chiqarishni kengaytirishga, shu bilan birga oilani uy xo'jalik jihozlari bilan ta'minlashga sarf etiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi, muassasasi va tashkiloti yuqori boshqaruv organining, ish beruvchisining (ma'muriyatining) qarori asosida yer uchastkalari berish masalalarini ko'rish boyicha tuman komissiyasining xulosasini inobatga olgan holda tuman hokimi dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Tuman hokimining dehqon xo'jaligini tashkil etish to'rg'isidagi qarori tumanning moliyaviy, bank, soliq va boshqa tuzilmalari uchun majburiy hujjatdir.

Faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni dehqon xo'jaligi maqomiga o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 iyuldagi 300-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni dehqon xo'jaliklariga o'zgartirish tartibi»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Fuqaro ixtiyoriy ravishda shaxsiy yordamchi xo'jalikni dehqon xo'jaligiga o'zgartirishni so'rab, qishloq xo'jalik korxonalari, muassasa va tashkilotlarning ish beruvchisiga (ma'muriyatiga) hamda tuman hokimiga ariza taqdim etadi.

Yer uchastkasi konturi va maydoni ko'rsatilgan ariza va qishloq xo'jaligi korxonasi umumiy majlisining qarori asosida hamda yer uchastkalari berish masalalarini ko'rish boyicha tuman komissiyasi xulosasini e'tiborga olgan holda tuman hokimi shaxsiy yordamchi xo'jalikni dehqon xo'jaligiga o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Dehqon xo'jaligining boshlig'ini davlat ro'yxatiga olish dehqon xo'jaligi boshlig'ining doimiy yashash joyidagi tuman hokimligi tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hujjatlar bilan birgalikda ariza berilgan paytdan e'tiboran uch kun ichida amalga oshiriladi. Dehqon xo'jaligi boshlig'iga yer uchastkasiga umrbod egalik kilish xuquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ruyxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi.

Agar davlat ruyxatiga olish belgilangan muddatda amalga oshirilmagan yoki dehqon xo'jaligi boshlig'i asossiz deb hisoblaydigan sabablarga ko'ra rad etilgan bo'lsa, xo'jalik boshlig'i sudga murojaat kilishi mumkin.

Posyolka, qishloq va ovul fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari har bir dehqon xo'jaligini xo'jalik kitobiga kiritib, unda dehqon xo'jaligining tarkibi, xo'jalik boshlig'i yoxud uning vazifasini bajaruvchi shaxs, shuningdek xo'jalikning tashkiliy-xuquqiy shakli (yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan) to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib qoyadi.

Huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari tuman hokimligida davlat ro'yxatidan o'tadilar. Buning uchun Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 avgustdagi qaroriga muvofiq ushbu toifadagi xo'jaliklar tuman hokimligiga quyidagi xujjatlarni taqdim etishi lozim:

1. Ariza
2. Qishloq xo'jaligi korxonasi oliy boshqaruv organi yoki ish beruvchisi (ma'muriyati)ning dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.
3. Notarial tasdiqlangan Ustavning ikkita asl nusxasi.

4. Vakolatli shahar (tuman) hokimiyati organlari tomonidan berilgan xo'jalik nomini tasdiqlovchi hujjat.

5. Hokimiyat qarori bilan tashkil etilgan tanlov komissiyasining yer uchastkasi berish haqidagi qarori.

6. Muhr va shtampning uch nusxadagi eskizi.

Huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lmagan dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun beriladigan arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Qishloq xo'jaligi korxonasi boshqaruv organi yoki ish beruvchisi (ma'muriyati)ning dehqon xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.

2. Pasport nusxasi.

Dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur hujjatlar bo'lajak fermerning o'zi yoki shartnoma asosida tuman hokimligining fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qarori yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori ariza beruvchi ariza bergan kundan boshlab 7 (etti) ish kunida, tuman hokimligining dehqon xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qarori bilan bir paytda qabul qilinadi.

Shundan so'ng tuman hokimligi yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaligiga «Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida»gi guvohnoma va tuman hokimiyati muhri bilan tasdiqlangan «ro'yxatga olingan» belgisiga esa ta'sis hujjatlarini hamda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani topshiradi. Ushbu tartib huquqiy shaxs maqomida tashkil etiladigan dehqon xo'jaliklariga taalluqlidir. Dehqon xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi tadbirkorlik faoliyatining sub'ekti sifatida qonun bilan mustahkamlab qoyilgan bir qator huquqlarga ega:

- o'ziga berilgan tomorqa yer uchastkasida dehqon xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish;

- yetishtirilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotga mustaqil ravishda baho belgilash;

- o'zi yetishtirgan mahsulotni, shu jumladan bu mahsulotni iste'molchilarga o'z xohishi bo'yicha realizatsiya qilish huquqini tasarruf etish;

- xarid etiladigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers bitimlari tuzish;

- tadbirkorlikdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;

- qishloq, xo'jaligi mahsuloti etishtiruvchilarga sotish uchun va erkin savdoga mo'ljallangan aktsiyalarni sotib olish;

- o'z mol-mulkini, shuningdek tomorqa yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish xuquqini, shu jumladan kam oshdi savdosi asosida sotib olingan huquqni garovga quyish.

Shu bilan birga dehqon xo'jaligi o'z zimmasiga muayyan bir majburiyatlarni ham oladi:

- tomorqa yer uchastkasidan qat'iy belgilangan mahsadda foydalanish;

- tabiiy ob'ekt bo'lmish yerga zarar etkazmaslik;

- tomorqa yer uchastkasini asrash, uning unumdorligini sakhash va oshirish yuzasidan sarf-xarajatlar qilish;

- yangi berilgan tomorqa yer uchastkasidan, agar qonun xujjatlarida boshqa muddat belgilangan bulmasa, bir yil ichida foydalanishga kirishish;

- agrotexnika talablariga, belgilangan rejim, saqlash vazifasi va servitutlarga rioya etish;

- dehqon xo'jaligining majburiyatlari va qarzlarini bo'yicha to'la javobgar bo'lish;

- xo'jalik a'zolari uchun xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash.

Agrar islohotlar boshlanishi davrida 1989 yil 15 avgustda O'zbekiston hukumati qabul qilgan 258-sonli qarori hamda O'zbekiston Prezidentining 1990 yil may va 1991 yil yanvar oylaridagi farmonlari shaxsiy yordamchi xo'jaliklar, qolaversa dehqon xo'jaliklar rivojlanishida tub burilish yasadi va ular foydalanishida yer uchastkalari maydoni 500 ming gektarni tashkil etdi. 2011 yilda esa ro'yxatdagi 6,2 mln shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning 73,8% i, ya'ni 4,575 mln. tasi dehqon xo'jaligi sifatida qaytadan ro'yxatga olingan (4.2.1-jadval).

4.2.1 – jadval

O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida dehqon xo'jaliklari soni (1998-2014 yillar)

Ko'rsatkichlar	1998 y	2014 y	2014 yilda 1998 yilga nisbatan o'zgarishi (+;-)	2014 yilda 1998 yilga nisbatan o'zgarishi, %da
Dehqon xo'jaliklari soni, mln.birlik	3,89	4,72	0,83	121,3
Shu jumladan:				
Qashqadaryo viloyati bo'yicha (birlik)	312870	445037	132167	142,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlash-tirish va Makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlari va Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ko'rinib turibdiki, dehqon xo'jaliklari soni 2014 yilda 1998 yilga nisbatan respublika bo'yicha 121,3 %ga, viloyat bo'yicha esa 142,2 %ga ko'paygan, demakki, 2012-2015 yillarda bu o'zgarish yana 22-25 % gacha ko'tarilishi kerak, chunki, dehqon xo'jaliklari istiqbolda yanada ko'payishiga umid bor. Chunki, 2014 yilda bu ko'rsatkichlar keyingi o'n yilga nisbatan deyarli ikki barobarga oshgan. 2014 yilda mavjud bo'lgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarning ixtiyoridagi 768,2 ming ga yer maydonidan 60,88 %i, ya'ni 467,7 ming gektari dehqon xo'jaliklari ixtiyoriga berildi.

Dehqon xo'jaliklarining rivojlanishi, mavjud shakllangan holatdan kelib chiqqan holda, davom ettirildi. 2005-2014 yillar davomida ularning yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishdagi ulushi 61,7%dan 64,0 % ga o'sishini, ishlab chiqarishdagi mavqei mustahkamlanib borayotganligini ijobiy jarayon tarzida ta'kidlash mumkin. Dehqon xo'jaliklari faoliyatidagi yana bir muhim o'zgarish shundan iboratki, ular soni 4,5 milliondan 4,7 million, ya'ni, qariyb 172 mingga ko'paydi va ekin maydonlari 441,9 mingdan 470,4 ming gektarga yoki 28,5 ming gektarga ortdi. Ularning respublikada qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan jami ekin maydonlaridagi ulushi 12,1% dan 12,9% ga oshdi. Shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunda dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligida yetakchi o'rinlardan birini

egallab, mamlakatimiz miqyosida bevosita qishloq xo'jaligi va qishloq hayoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal etishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklarining faoliyat yuritganlari soni 33264 taga yetib, ulushi 2012 yilga nisbatan 7 foizdan ortgan.


Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotni realizatsiya qilish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan ixtiyoriylik asosida xo'jalik shartnomalari tuzish huquqiga ega. Taraflar shartnoma majburiyatlari buzilgan takdirda, qonun xujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Dehqon xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotga bozordagi talab va taklif nisbatidan kelib chiqib mustaqil ravishda baho belgilaydi.

Dehqon xo'jaliklari ixtiyoriylik asosida, shu jumladan ulushli (pay) asosda mahsulot egishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo'jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo'sinidagi va boshqa xil xizmat ko'rsatish boyicha kooperativlarga, jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga va boshqa birlashmalarga birlashib kirish huquqiga ega.

3.2. Dehqon xo'jaliklarining tashkiliy tarkibi va ishlab chiqarish yo'nalishlari


Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, dehqon xo'jaliklarini rivojlanishi qishloq aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va daromad olish manbai bo'lsa, qayta ishlovchi korxonalar uchun xomashyo etkazib berishda, davlat uchun aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda va agrar tarmoqni barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda dehqon xo'jaliklari aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq aholisi bandligi va daromadlarini oshirish kabi qator muhim iqtisodiy-ijtimoiy vazifalarni bajarmoqda. Fikrimizcha, dehqon xo'jaligining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalariga alohida e'tibor qaratish lozim (4.3.1-rasm).



3.2.1-chizma. Dehqon xo'jaligining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalari

Dehqon xo'jaliklarida asosan qo'l mehnati talab etiladigan mahsulotlar yetishtiriladi va bular asosan oziq-ovqat mahsulotlaridir. Masalan, meva, sabzavot, uzum, kartoshka va h.k. Bundan esa dehqon xo'jaligining asosiy vazifasi kelib chiqadi. Eng avvalo dehqon xo'jaligining vazifasi o'z oilasini, so'ng aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdir. Shundan kelib chiqqan holda, dehqon xo'jaliklarining hissasi qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy hajmiga nisbatan juda katta.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublika bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmida dehqon xo'jaliklarining hissasi 2013 yilda 64,0 % ni tashkil etgan. Azaldan asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda yetakchi o'ringa ega bo'lgan dehqon xo'jaliklarida 2013 yilda go'shtning 94,6%, sutning 95,7%, tuxumning 54,8 %, junning 86,9%, qorako'l terilarning 75,6% ular tomonidan ishlab chiqarilgan. Shuningdek, 2014 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, dehqon xo'jaliklari hissasiga yirik shoxli qoramollarning 94,5%, qo'y va echkilarning 83,4 % to'g'ri kelib, go'sht, sut, tuxum, jun, qorako'l terilari yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining yuqori natijalari asosiy natijalarga erishilayotganligidan dalolatdir. Dehqon xo'jaliklariga biriktirilgan yer maydonlari yildan-yilga ko'payib, bu o'zgarishlar strukturasi quyidagi ko'rinishga egadir (3.2.2-rasm).



3.2.2-rasm. Dehqon xo'jaliklariga biriktirilgan yer maydonlari diagrammasi

Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, respublikamiz bo'yicha 2012 yil jami 467,7 ming gektar yer dehqon xo'jaliklariga berkitilgan bo'lib, 2000 yilga nisbatan 119,7 ming gektarga, ya'ni 134,4 % ga ko'paygan. Qashqadaryo viloyatida esa 2000 yilda 69,2 ming ga, 2005 yilda 70,3 ming ga, 2008 yilda esa 73,7 ming ga, 2010 yilda 87,9 ming ga, 2012 yilda esa 91,2 ming ga yer maydoni berkitilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2012 yilda 2000 yilga nisbatan 131,8 %ga oshgan. 2014 yilda esa respublika bo'yicha dehqon xo'jaliklariga ajratilgan yer maydoni 472,5 ming gektarni, viloyat bo'yicha esa 95,6 ming gektarni tashkil etgan. Demak, dehqon xo'jaliklari soni ortishi bilan ularga ajratilgan yer maydonlari ham kengayib borgan.

Dehqon xo'jaliklari barqaror rivojlanishida ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, mikromoliyalashni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Xorijiy davlatlar amaliyotida mikromoliyalashga kichik biznesni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash vositasi sifatida yondashib kelinmoqda, bunda:

- kichik tadbirkorlik sub'ektlarining boshlang'ich kapitalga bo'lgan ehtiyoji;
- kredit olishda garov ta'minotiga ega bo'lmagan tadbirkorlar sonining ko'pligi;
- hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishsizlik, bank kreditlari foiz stavkalarining yuqoriligi, kredit resurslarining etishmasligi;
- kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi kabi xususiyatlar hisobga olinadi.

Dehqon xo'jaliklarini moliyaviy mablag'lar manbalari bilan ta'minlash tahlillariga ko'ra, ularga aksariyat holatlarda boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga, chorvachilikni rivojlantirishga, ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirishga qisqa va o'rta muddatli mikro kreditlar ajratilmoqda. Bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari uchun kreditlardan foydalanish manbalari va miqdori birmuncha yuqori hisoblanadi.

3.3. Dehqon xo'jaligining iqtisodiy negizi. Xo'jalikdagi mulkiy munosabatlar

Dehqon xo'jaligi oila a'zolarining birgalikdagi mehnatiga asoslanadi va qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaradi. Dehqon xo'jaligi o'z mahsulotini bozorga olib chiqib yoki o'z oilasini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turib ham davlatga, ham jamiyatga juda katta foyda keltiradi. Endilikda dehqon xo'jaligida ishlayotgan barcha oila a'zolarining mehnat faoliyati ish stajiga qo'shiladi. Hatto keyinchalik nafaqa olish huquqi ham qonunlashtirildi. Bu tadbir orqali ularning moddiy manfaati kafolatlanadi.

Davlat esa bosh islohotchi sifatida dehqon xo'jaliklari bilan iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar orqali o'z manfaatini ko'zda tutadi. Chunki turli yig'imlar, soliqlar orqali davlatning ham manfaatini ikki yoqlama ko'rish mumkin. Davlat rag'batlantiruvchi, islohotlarni amalga oshiruvchi, ham soliqlar orqali «aylanma oborot» da ishtirok etuvchidir.

Dehqon xo'jaliklarining tashkil etilishi, ularning faoliyati va tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar 1998 yilda qabul qilingan «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni, «Yer Kodeksi» va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 iyuldagi 300-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Faoliyat ko'rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni dehqon xo'jaliklariga o'zgartirish tartibi»ga muvofiq amalga oshirilib, tartibga solib turiladi. Dehqon xo'jaliklari a'zolari, ya'ni birga yashayotgan va faoliyat yuritayotgan oila boshlig'i, uning xotini yoki eri, bolalari, shuningdek, farzandlikka olingan bolalari yoki tarbiya qilishga olgan bolalari, uning ota – onalari, shu bilan birga mehnatga qobiliyatli boshqa qarindoshlari ham yuqoridagi qonun hujjatlari asosida faoliyat yuritishadi.

Dehqon xo'jaligi, umuman boshqa turdagi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatida huquqiy va jismoniy shaxslar bilan munosabatlar xo'jalik nomidan uning boshlig'i orqali amalga oshiriladi. Shu sababdan ham Qonunda

dehqon xo'jaligi boshlig'i kim bo'lishi alohida ta'kidlangan. Qonunning moddalarida aytilganidek, tomorqa yer uchastkasiga ega oilaning boshlig'i yoki oilaning muomala layoqatiga ega a'zolaridan biri dehqon xo'jaligi boshlig'i bo'lishi mumkin va u huquqiy yoki jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarda dehqon xo'jaligi nomidan faoliyat ko'rsatadi. Agar dehqon xo'jaligi boshlig'i mehnat qobiliyatini yo'qotsa, undan tashqari uzoq vaqt xo'jalikda bo'lmagan taqdirda, u o'zining majburiyatlarini bajarish vakolatini xo'jalik a'zolaridan biriga berishga haqlidir. Agar dehqon xo'jaligi boshlig'i vafot etsa, unda tomorqa yer uchastkasiga egalik qilish huquqini xo'jalik a'zolari o'zaro kelishgan holda, dehqon xo'jaligining faoliyatini davom ettirishni xohlagan xo'jalik a'zolaridan biriga o'tkazadi.

Dehqon xo'jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish kuchlaridan oqilona foydalanishga erishish ham shu asosda eng kam sarf-xarajat birligi evaziga mahsulot yetishtirishni har tomonlama ko'paytirishdan iborat. Shuningdek, yer resurslaridan unumli foydalanish, mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga hissa qo'shish, o'zi joylashgan hududlarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish kabi bir qatorda vazifalarni echishda hamda dehqon xo'jaliklari o'z hissalarini qo'shishlari lozim.

Dehqon xo'jaliklarida asosiy turdagi ekin turlarining hosildorligi respublikadagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 1,2-1,5 marta yuqoriligi diqqatga sazovordir. Paxta va g'allani hisobga olmasak (bu ekin turlari bo'yicha fermer xo'jaliklari yaxshi ko'rsatkichga ega), boshqa ekin turlari bo'yicha yuqori hosildorlikka erishilgan. Xususan, kartoshka bo'yicha 2005-2013 yillar mobaynida 2,3 barobar, sabzavot ekinlari bo'yicha hosildorlik 1,25 marta, poliz, meva-sabzavot bo'yicha hosildorlik 1,4 barobar oshgan. Bunday ko'rsatkichga erishilishiga asosiy sabab, dehqon xo'jaliklari haqiqiy mulk egasi bo'lib, egalik hissining va o'z yeri, yetishtirayotgan mahsulotiga ishonchining ortib borishi deb o'ylaymiz.

Qashqadaryo viloyatida ham dehqon xo'jaliklari samarali faoliyat yuritmoqda, buni quyidagi 3.3.1-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rish mumkin.

3.3.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tarkibi (yuridik maqomga ega bo'lganlar)

Ko'rsatkichlar	o'/b	2011y	2012y	2013y	2014y	2014 y. 2011 y-ga nisbatan o'zg.% his.
Umumiy soni:	birlik	24554	24377	24292	21300	86,7
1.Shundan: kichik biznes	birlik	20767	20529	20430	17492	84,2
A) kichik korxonalar	birlik	1302	1618	1409	1335	102,5
B) mikrofirmalar	birlik	19465	18911	19021	16157	83,0
2. Boshqalar	birlik	3787	3848	3862	3808	100,5
3. Fermer xo'jaliklari	birlik	8599	7168	7139	7139	83,02
4. Dehqon xo'jaliklari	birlik	31041	33400	27813	28329	91,3

Manba: Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3.3.1-jadvalda biz Qashqadaryo viloyatining 2011-2014 yillarda kichik biznes korxonalarining o'zgarish ko'rsatkichlarini keltirdik. Bunda fermer xo'jaliklari soni 2012-2014 yillarda 7139 tani, yuridik maqomga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklarining soni esa 28329 tani tashkil etgan.

Dehqon xo'jaliklari yirik xo'jaliklarda foydalanish o'ta mushkul bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini xo'jalik muomalasiga kiritish va ishga solish borasida nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Ularda xo'jalik doirasida murakkab iqtisodiy vaziyatga moslashish, tadbirkorlik, tashabbuskorliklarini namoyon etish imkoniyatlari boshqa xo'jaliklarga nisbatan katta. Bularning barchasi iqtisodiy qiyin sharoitda xo'jalikning ushbu toifasi ahamiyatining sezilarli darajada o'sishini belgilab berdi. Boshqa bir tomondan mamlakat iqtisodiy tizimining bozor tavsiyasiga ega ekanligi ham, bu tipdagi xo'jaliklarning rivojlanishini rag'batlantirdi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligida dehqon xo'jaligi boshqa mulk shakllariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- mulk egasi ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita bog'lanish huquqiga ega bo'lib, ulardan qay shaklda foydalanishni o'zi hal qiladi va amalga oshiradi;
- ishlab chiqarish faoliyatida to'la mustaqillikka ega bo'ladi, hohlagan mahsulotni qancha yetishtirishini o'zi belgilaydi;
- doimo iqtisodiy va qonuniy javobgarlikda bo'ladi. Qonunga xilof har bir ish, ortiqcha sarflangan har bir so'm mulk egasini o'z mulkidan ajralishiga olib kelishini yaxshi anglaydi.

3.3.2-jadval

O'zbekiston va jahon mamlakatlari dehqon xo'jaliklarining asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi ulushi (%da)

Mahsulot nomi	O'zbekiston	Rossiya	Germaniya	Daniya	AQSH	Yaponiya
Paxta	10-12	-	-	-	0,7-1,5	-
Bug'doy	14-16	-	2	1,7-2,5	0,7-1,2	40
Meva, uzum	82-88	98-100	88-90	65-67	96-98	90,2
Sabzavot	86	95-98	30-35	42-47	55-57	82
Chorvachilik mahsulotlari	88-92	82-87	78-84	86-88	82	74-78

Manba: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va Makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yaponiya yiliga 12,7 mln. tonna don yetishtirib, shundan 40,2 % i dehqonlar, qolgani esa fermer va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari hissasigi to'g'ri keladi. Yiliga 11,9 mln tonna guruch yetishtirib, shundan 6-8 % dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda esa guruch yetishtirishda dehqon xo'jaliklari hissasiga 34-36%i to'g'ri keladi.

Shuningdek, Yaponiya dunyoda kartoshka yetishtiruvchi, eksport qiluvchi 32 mamlakat ichida 16-o'rinda turadi, lekin yetishtirayotgan 3,4 mln tonna kartoshkaning aksariyat qismini (68% ini) o'z aholisi iste'moli uchun yetishtiradi. Kartoshkaning 49 % ini dehqonlar yetishtirib beradi. Sabzavotlar ishlab chiqarish va yig'im – terimi bo'yicha Yaponiya dunyoda 7-o'rinda turadi. 16 mln tonna

sabzavotdan 82 % ini dehqon xo'jaligi yetishtirib beradi. Ayniqsa, meva yetishtirishda Yaponiya ko'proq dehqon xo'jaliklariga tayanadi. Yiliga 5,2 tonna meva yig'sa, bu yig'imning 90,2 % i dehqonlar, qolgani esa qishloq xo'jaligining boshqa korxonalariga to'g'ri keladi.

AQShda bug'doy yetishtirishda dehqon xo'jaligining ulushi bor-yo'g'i 0,7 – 1,2%, qolgani esa oliy ma'lumotli fermerlar zimmasiga yuklanadi. Dehqon xo'jaligi zimmasiga ko'proq apelsin, greypfrut, qulupnay, malina va hokazolar ishlab chiqarish yuklangan.

Germaniyaning dehqon xo'jaligi asosan bog'dorchilik bilan shug'ullanadi. Shuningdek, qand lavlagi, meva, xmel yetishtirishda dehqon xo'jaligi oldingi o'rinda turadi. Germaniyaning ayrim tumanlarida parrandachilikka ixtisoslashgan dehqon xo'jaliklari borligi qayd etilgan. Germaniyada 2000 yilda 108 mln bosh, 2009 yildsa esa 123,5 mln bosh parranda hisobga olingan bo'lib, ularni parvarishlash uchun 490 ming dehqon xo'jaligi yo'naltirilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Dehqon xo'jaligi deb qanday xo'jalikka aytiladi?
2. Dehqon xo'jaligining vazifasi nimadan iborat?
3. Dehqon xo'jaligini tashkil etishning qanday tamoyillari mavjud?
4. Dehqon xo'jaligining tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari nimalardan iborat?
5. Dehqon xo'jaliklari qanday tartibda tashkil etiladi?
6. Dehqon xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash qanday yo'lga qo'yilgan?
7. Dunyo mamlakatlarida dehqon xo'jaliklarini qishloq xo'jaligida tutgan o'rni haqida so'zlab bering.

IV -Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRILISHI

Reja:

4.1. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga ko'ra fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

4.2. Davlatning fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha siyosati.

4.3. Xo'jaliklar faoliyatiga davlat aralashuvining yo'nalishlari.

Fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid etish uchun ajratilayotgan davlat transhlari.

Xo'jaliklar faoliyatini rivojlantirishga sarflayotgan investitsiyalar, kreditlar, lizing kreditlari, bojxona to'lovlari.

Qishloq xo'jaligi korxonalari va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar

O'quv maqsadi: *dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab quvvatlash, ular faoliyatiga sarflanayotgan investitsiyalar, lizing va kreditlar hamda xo'jaliklarni mustaqil faoliyatini ta'minlashda davlat aralashuvini kamaytirish bo'yicha nazariy va maliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *qo'llab quvvatlash usullari, dotasiya, subsidiya va subvensiya, tartibga solish me'yori, sanatsiya, iqtisodiy usullari*

4.1. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga ko'ra fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash

Mamlakatimizda qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish, agrosanoat majmuida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, qishloq aholisining hayot darajasi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini oshirish mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab e'tiborimiz markazida bo'lib kelayotgan ustuvor masala hisoblanadi. Shunga ko'ra, 2009 yil yurtimizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb nomlanib, bu borada maxsus davlat dasturi qabul qilingan edi. Prezidentimiz I.Karimov 2009 yilning 5 dekabridagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida mazkur dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar to'g'risida batafsil to'xtab o'tdi.

Ma'lumki, «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi 105 ta bandni o'z ichiga oluvchi 9 ta bo'limdan iborat.

Dasturning I-bo'limida *Qishloqda yashovchilarning manfaatlarini yanada to'liqroq ta'minlash uchun qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlashdan* iborat bo'lib, bunda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

✓ «Yer Kodeksi», «Ma'muriy javobgarlik Kodeksi», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi va «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi amaldagi qonunlarga fermer xo'jaliklariga berilgan yer maydonlari

hajmini optimallashtirishni, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashni hamda yersuv resurslaridan foydalanish boyicha javobgarlikni oshirishni ko'zda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi.

✓ Qishloq joylarda loyihalashtirish va qurilish tizimini tubdan takomillashtirishni ko'zda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari loyihasini ishlab chiqildi:

- aholi turar joylarini me'moriy bosh reja (Genplan) asosida qurildi;
- uy-joylarni zamonaviy qurilish materiallaridan foydalangan holda tipovoy loyihalar asosida qurildi;
- qishloq joylarda uy-joy qurilishini loyihalashtiruvchi, hududiy filiallarga ega bo'lgan mahsus loyiha tashkilotlari tuzildi;
- qishloq qurilishini moliyalashtiruvchi hududiy filiallarga ega maxsus Bank xizmatlari tashkil etildi;
- qishloq joylarda uy-joy quradigan, remont ishlarini bajaradigan, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini quradigan tashkilotlar tashkil etildi.

Dasturning VI-bo'limida *Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi imtiyozlar berish, qishloqda shakllanadigan yangi mulkiy munosabatlarni, o'rta tabaqa – mulkdorlarning, tadbirkorlarning va ishbilarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilishdan iboratdir, bunda:*

- fermer xo'jaliklarini investitsiyalar jalb etish, mahsulotlarni qayta ishlash va zamonoviy mini texnologiyalar olib kirish va yangi ish o'rinlari barpo etish sohalarida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqildi (moliyaviy mablag'-22,0 mlrd. so'm sarflangan).

- «Qishloq joylarda ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi tayyorlandi;

- fermerlarga xizmat ko'rsatish tizimi takomillashtirildi;
- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni texnika bilan ta'minlandi, jami 7547 dona, shundan 5902 donasi lizing asosida, 1208 tasi tijorat banklari kreditlari hisobidan, 437 tasi korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan;
- sun'iy qochirish usulining ulushini 20% ga yetkazildi, 700 bosh zotdor qoramollarni chetdan olib kirish evaziga zotli chorva mollari yaratish ishlarini kuchaytirish va zooveterinariya xizmati sifati yaxshilandi;
- ozuqa ekinlari maydonini 324,6 ming gektarga etkazish orqali chorvachilikning ozuqa bazasi kengaytirildi.

VII-bo'limda esa *Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boyicha 2008-2012 yillarga mo'ljallangan Davlat Dasturi asosida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boyicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali tuproqning unumdorligini tubdan oshirishdan iborat bo'lib, quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:*

- suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, fermer xo'jaliklari uyushmalarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, jumladan ularga 130 ta ekskavatorlar, 30 ta

buldozerlar va melioratsiya mashinalari yetkazib berildi, (213,4 mlrd. so'm mablag'sarflangan)

- 12234 km magistral, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlar va 2828 km yopiq, gorizontaal va vertikal drenajlar qurildi, qayta tiklandi va ta'mirlandi, (142,5 mln. dollar mablag' sarflangan);

- 3006 ta tik drenaj va sug'orish quduqlari tiklandi, ta'mirlandi va qayta qurildi;

- irrigatsiya inshootlari (kanallar, suv omborlari, gidrotexnik inshootlar) ta'mirlandi;

- 68 ta meliorativ nasos stantsiyalari, 458 ta kuzatish tarmoqlari, 4472 ta gidrotexnik qurilmalar, 5250 ta gidropostlar, 2710 ta nasos agregatlari ta'mirlandi va qayta tiklandi;

- 4639 km kanallar, 305 mln. kub metr suv omborlari qurildi va qayta ta'mirlandi;

- 2009-2020 yillarga mo'ljallangan tomchilab sug'orish dasturi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

VIII-bo'limda *Qishloqda zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan sanoat ishlab chiqarishni, sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlaydigan ixcham korxonalarni qurishni va yaratishni jadal rivojlantirish; servis va xizmat ko'rsatish sohasini yangi sifat darajasiga ko'tarish orqali qishloq aholisini, avvalo yoshlarni ish bilan ta'minlash, aholining daromadlarini va turmush darajasini oshirishdan iborat bo'lib, bunda quyidagi ishlar amalga oshirildi:*

- qishloq joylarida 65 ming yangi ish o'rinlari bilan ta'minlovchi mehnat sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari rivojlantirildi; (202,0 mlrd. so'm mablag' sarflandi) shundan:

- chorvachilik, parrandachilik komplekslari va issiqxona xo'jaligiga (35 ming ish o'rni);

- sut va go'shtni qayta ishlash sohasiga (8 ming ish o'rni);

- mebel, poyafzal va tikuv sexlariga (9 ming ish o'rni);

- oziq-ovqat va qandolatchilik sexlariga (6 ming ish o'rni);

- mahalliy xomashyodan qurilish materiallari sexlariga (7 ming ish o'rni);

- doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ko'rgazma va yarmarkalar tashkil qilishga (kichik texnologiya, mahsulotlarni sotish boyicha);

- 70 ming ish o'rni bilan ta'minlaydigan kasanachilik va xalq hunarmandchiligi tashkil qilindi;

- har bir qishloq tumanida kamida 50 ta kam ta'minlangan oilalarni qoramol bilan ta'minlash evaziga 7000 yangi ish o'rinlari yaratish.

Respublikamizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» dasturi doirasida yerlarning unumdorligini oshirish, uning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha keyingi yillarda salmoqli natijalarga erishildi.

Jumladan, 2009 yilning o'zida dastur doirasida 10 ming kilometrdan ortiq zovurlar, salkam 1000 kilometrlik drenaj tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash ishlari bajarildi, 250 ta drenaj quduqlar, 15 ta melioratsiya nasos stantsiyalari va inshootlari qurildi hamda ko'plab suv inshootlari rekonstruksiya qilindi, 50 kilometr uzunlikdagi yangi kanallar va boshqa ob'ektlar qurilishi yakuniga etkazildi. O'tgan yili, yani 2008 yilda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni amalga

o'shish uchun 130 milliard so'm mablag' yo'naltirildi va uning hajmi yildan-yilga oshib, bu ko'rsatkich 2012 yilda 200 milliard so'mni tashkil etdi.

Natijada 240 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini, fermer xo'jaliklarining daromadini oshirish imkonini berdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ulkan loyihalarni amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki va Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya va bir qator arab mamlakatlarining moliya institutlari tomonidan ajratilgan sarmoyalar katta hissa bo'lib qo'shildi.

Qashqadaryo viloyatida Davlat dasturi bo'yicha meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish hamda tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari 2012 yilning 30 noyabr holatiga 743,7 km uzunlikda zovur qurish, rekonstruksiya qilish hamda zovurlarni tozalash ishlari amalga oshirilib, 14255,78 mln.so'm mablag' o'zlashtirildi hamda 11400 gektar maydonning meliorativ holati barqarorlanishiga erishildi.

Qurish va rekonstruksiya qilish loyihalari bo'yicha 14 ta loyihadan 13 tasida qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. 11 oylik rejaga nisbatan 100% ga, ya'ni 76,27 km uzunlikda yangi zovur qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilib, 9108,276 mln.so'm mablag' o'zlashtirildi.

Meliorativ obyektlarni tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari 21 ta loyiha bo'yicha amalga oshirilib, 666,8 km uzunlikda zovurlar tozalandi va 5147,5 mln.so'mlik mablag' o'zlashtirildi. Tizimli ta'mirlash-tiklash bo'yicha 11 oylik reja 100 % ga bajarildi. Bundan tashqari Qarshi va Kasbi tumanlaridagi 40 dona tik meliorativ quduqlarni ta'mirlash ishlari 100% ga bajarildi.

Suv xo'jaligi obyektlarida kuzgi-qishki mavsumda irrigatsiya tadbirlarining bajarilish holati quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (5.1.1-jadval).

5.1.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2012-2013 yillar kuzgi-qishki mavsumda irrigatsiya tadbirlarining bajarilish holati

t/r.	Ish turlari nomi	O'lcho v birligi	Umumiy uzunligi va soni	2012-2013 yillar kuzgi- qishki tadbirlar		
				Reja	Amalda	foiz
1	Magistral va xo'jaliklararo irrigatsiya tarmoqlarini tozalash va ta'mirlash	km	2256,07	258,14	105,5	41
2	Xo'jaliklararo irrigatsiya tarmoqlaridagi gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash	dona	1954	334	117	35
3	Xo'jaliklararo irrigatsiya tarmoqlaridagi gidropostlarni ta'mirlash	dona	1698	322	138	43
1. NSE va ABsi hisobidagi						
1	Nasos agregatlarini ta'mirlash	dona	209	109	30	28
2	Sug'orish quduqlarini ta'mirlash	dona	1174	63	20	32
2. KMK FB hisobidagi						
3	KMK bosh o'zani PK-15-:-202	km	78,4	12,24	5,4	44

	yer snaryadlarida loyqadan tozalash					
4	Gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash	dona	6	6	2	33
5	Gidropostlarni ta'mirlash	dona	5	5	2	40
6	Nasos agregatlarini ta'mirlash	dona	85	71	72	101
3. SIU, fermer xo'jaliklari hisobidagi						
1	Ichki sug'orish tarmoqlarini tozalash	km	20449,58	12353,8	4851,1	39
	shu jumladan					
	a) Mexanizm bilan	km		377,8	150,3	40
	b) Qo'l kuchi bilan	km		11976	4700,8	39
2	Xo'jalik ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlaridagi gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash	dona	13153	3766	1347	36
3	Xo'jalik ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlaridagi gidropostlarni ta'mirlash	dona	15131	3639	1384	38
4	Xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlaridagi fermerlarning suv olish quloqlarini jihozlash	dona	11069	2506	967	39
5	Ichki xo'jalik nasos agregatlari ta'mirlash	dona	977	160	76	48

Manba: Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi barcha tadbirlar va dasturlarda belgilangan vazifalar dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini barqaror rivojlanishi hamda qishloq aholisining turmush darajasini oshirishga ko'maklashadi.

4.2. Davlatning dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish boyicha siyosati va ular faoliyatiga davlat aralashuvining yo'nalishlari

Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruriyatini dastavval mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri - qishloq xo'jaligi va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qaramoq maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlimiy sharoitlarga bog'liqligi bu tarmoqda baholar va fermer xo'jaligi daromadining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qulay ob-havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi bahoning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko'proq sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba'zan baholarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida fermerlar katta zarar ko'radi. Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo'lsa, fermerlar xonavayron bo'lishi turgan gap. Yoki ikkinchi bir yili ob-havoning noqulay kelishi (qurg'oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin kamayib ketishiga va natijada narxlarning haddan tashqari qimmatlab ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda fermerlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko'rsalar iste'molchilar

narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Ko'rinib turibdiki, har ikkala holda ham fermer ko'proq zarar ko'radi va bu holat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini, davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari biologik jarayonlar bilan bog'liqligi tufayli tez buziluvchan bo'ladi. Ularni uzoq muddatda saqlash yoki olis masofalarga teshish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan farqli ravishda sanoat, savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalari o'z mahsulotlariga baho belgilashda ancha qulay mavqega ega. Chunki, ularni iste'molchi so'rayotgan narx qoniqtirmasa, toki bozorda qulay vaziyat vujudga kelgunga qadar tovarlarini sotmay saqlab turish mumkin. Qishloq xo'jaligi korxonalari esa sabzavot, meva yoki sut kabi tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishi kutib, uzoq vaqt ushlab tura olmaydilar. Bu xil mahsulotlar ma'lum muddat o'tgandan so'ng o'zining iste'mol qiymatini yo'qotishi mumkinligi sababli fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo'ladilar.

Ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi korxonalar respublikamizda ko'pchilikni tashkil etadi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o'zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida sof raqobat hukm suradi. Bir turdagi mahsulotni juda ko'p sonli ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarganligi sababli bozorda vujudga keladigan shu mahsulot narxini alohida olgan korxona o'zgartira olmaydi.

Odatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning o'zgarishi unchalik katta bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab elastik (yoki juda past elastiklikka ega) emas. Qishloq xo'jaligi korxonalari xarid qiladigan sanoat mahsulotlari (texnika, mineral o'g'it, yoqilg'i va h.k.) narxi esa ko'p hollarda tez sur'atlarda o'sadi. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samarasini pasaytiradi yoki umuman zararli qilib qo'yadi. Bunday holat hech bir mamlakat manfaatiga mos kelmaydi.

Aksincha, qishloq xo'jaligiga moddiy-texnika resurslari etkazib beruvchi hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar hududlar miqyosida kamchilikni tashkil etib, ba'zan monopol mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari bilan bu tarmoq uchun zarur bo'lgan sanoat tovarlari yoki xizmatlar baholari o'rtasida yirik nomutanosiblik (baholar pariteti) vujudga keladi. Bunday vaziyatda davlat qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchlari uchun noqulay bo'lgan baholar nomutanosibligini bartaraf etish va moddiy texnika ta'minoti hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning monopol mavqeini cheklash choralari ko'rishga majbur bo'ladi.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligida juda muhim bo'lgan ijtimoiy zarur mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ahamiyati katta. Bu omil ham davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi davlat tomonidan tartibga solib turilishini toqazo etadi.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati qishloq xo'jaligida kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital

aylanishi qishloq xo'jaligiga nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko'p foyda keltirishi tufayli qishloq xujaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi. Ko'pchilik fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun dastlabki kapital hajmi yetarli bo'lmaydi. Bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari garovga qo'yiladigan mol-mulk yetishmasligi oqibatida chegaralangan. Ko'p hollarda bunday kreditlar qisqa muddatli bo'lib, ko'proq aylanma mablag'larga sarflanadi.

Ammo, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan-texnika yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag'lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg'iz fermer xo'jaliklarining mablag'lari hisobidan amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun davlat byudjeti hisobidan maxsus mablag'lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Va nihoyat, fermer xo'jaliklarining ijtimoiy rivojlanishi, ya'ni ular uchun yo'llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta'minoti, ijtimoiy madaniy ob'ektlar qurish kabi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat homiyligisiz yechib bo'lmaydi.

Hozirgi paytda dunyo davlatlari qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun har yili o'rta hisobda 350 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' saflamoqda. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turishni talab qiladigan yana bir omil ularning daromadlari miqdori bilan bog'liq. Dehqon va fermer xo'jaliklari daromadlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi korxonalarga nisbatan orqada qolish tendentsiyasiga ega. Bu holat dehqon va fermer xo'jaligi mahsulotlariga bahoning pasayib ketmasligini ta'minlash vazifasini keltirib chiqaradi.

Albatta dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solib turish to'g'risida gap borganda ularning faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvi haqida emas, balki davlatning o'z qo'lidagi ma'muriy, iqtisodiy va institutsional dastaklar bilan dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi haqida gap borayotganini unutmaslik lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashdagi vazifalaridan biri ularning boshqa xo'jalik yuritish sub'ektlari bilan teng sharoitlarida faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi huquqiy – me'yoriy asoslarni yaratishdir. Bu qishloq fuqarolarining tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishiga shart-sharoitlar yaratish va bundan ularning manfaatdorligini oshirishni, fermerlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilishni hamda tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlash choralarini nazarda tutadi.

Davlat fermer mahsulotlariga barqaror talab va taklifning shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talabni shakllantirish uchun aholining daromadlarini o'stirish va qayta taqsimlash, iste'mol uchun zarur bo'lgan ba'zi mahsulotlarning baholarini tartibga solish kabi tadbirlar qo'llaniladi. Davlat iste'mol uchun zarur bo'lgan hamda startegik ahamiyatga ega bir qator mahsulotlarga davlat buyurtmalarini shakllantirish orqali ham ularning mahsulotlariga barqaror talabni yuzaga keltirishga hissa qo'shadi.

Davlatning yana bir muhim vazifasi fermer xo'jaliklarini samarali faoliyat yuritishga yetaklovchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdir. Buning uchun

qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining ochiqligini hamda adolatli raqobat muhitini yaratish, nosog'lom raqobat va monopoliyaga qarshi kurashning samarali vositalarini qo'llash choralari amalga oshiriladi.

Davlat fermer xo'jaliklarining jahon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bozorlarida teng huquqli sub'ekt sifatida qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bermog'i lozim. Buning uchun davlat:

a) fermer xo'jaliklarining eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishga rag'batini oshirish;

b) mahalliy bozorlarda fermerlarni tashqi eksportyorlar raqobatidan yetarlilik darajasida himoyalash (proteksionizm) vositalarini ishga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri fermerlarga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishga ko'maklashishdir. Bu vazifani amalga oshirish dehqon va fermer xo'jaliklariga moddiy-texnik resurslar etkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashuvchi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalari va yaramarkalar, axborot maslahat markazlari hamda ular manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Davlatning fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari **ma'lum bir tamoyillarga tayanib** amalga oshiriladi. Bu tamoyillarni quyidagi tavsiflash mumkin:

- fermer xo'jaligining mohiyati, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda uning tutgan o'rni va ahamiyatini ilmiy tushunish;

- zaruriyat va yetarlilik darajasidagi proteksionizm siyosati;

- fermer xo'jaliklarini maqsadli-dasturiy tartibga solish;

- davlat homiyligining doimiy kafolatlanishi;

- qo'llab-quvvatlash tadbirlarining tabaqalangan holda qo'llanilishi;

- davlat aralashuvining rag'batlantiruvchi yo'nalishga egaligi;

- davlat aralashuvining ijtimoiy yo'naltirilganligi.

Davlatning fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi faoliyati ma'lum bir **shakllar hamda usullar asosida** olib boriladi. Davlat fermer xo'jaliklari faoliyatiga **ma'muriy, iqtisodiy yoki institutsional usullar** yordamida **bevosita yoki bilvosita** ta'sir o'tkazadi (5.2.1-chizma).

Davlat o'zining real hokimiyati kuchidan foydalangan hamda fermer xo'jaliklari faoliyatini ma'muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi. Erkin bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda davlatning ma'muriy usullar yordamida tartibga solish darajasi kamayib boradi. Ammo, uning ahamiyati saqlanib qoladi. Negaki, xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash monopoliyani cheklash, qonun ustivorligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlab turish kabi muhim tadbirlarni faqatgina kuchli davlat hokimiyati va ma'muriy usullar orqaligini ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiy va institutsional usullar orqali fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash ko'proq ahamiyat kasb etib boraveradi. Chunki, ular fermerning ichki xo'jalik faoliyati hamda xo'jalik qarorlari qabul qilish erkinligini cheklamaydi.

Aksincha, tadbirkorlik va tanlov erkinligi, shaxsiy manfaatdorlik va sog'lom raqobat muhitida fermer xo'jaliklarining samaradorligini yuksaltirishda davlatning rag'batlantiruvchi rolini yuzaga chiqaradi.

Davlat fermer xo'jaliklari faoliyatini respublikada amalda bo'lgan qonunchilik doirasida tartibga solib turadi. Bu birinchi navbatda fermer xo'jaligini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi qoidalarini belgilash, ularda yerdan foydalanish, mehnat, mol-mulk va boshqa munosabatlarni tartibga solish hamda buxgalteriya, soliq va statistik hisobotlarni yuritish tartiblarini joriy etishni nazarda tutadi.

4.3. Xo'jaliklar faoliyatini rivojlantirishga sarflanayotgan investitsiyalar, kreditlar, lizing kreditlari va bojxona to'lovlari

Fermer xo'jaliklarini moliya-kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash birinchi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo'llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq fermer xo'jaliklari quyidagi manbalardan kreditlar olishi mumkin:

1. Tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan.
2. Nobyudjet fondlar va jamg'armalarning mablag'lari hisobidan.

Xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari hisobidan (tijorat banklarining loyihalari orqali).

Tijorat banklarining kredit siyosatida dehqon (yuridik shaxs maqomidagi) va fermer xo'jaliklari uchun qulay sharoitlar belgilangan. Masalan, Adliya Vazirligi tomonidan 2000 yil 7 martda 907-son bilan ro'yxatga olingan «Fermer xo'jaliklari hamda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi»ga muvofiq aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladigan qisqa muddatli kreditlar kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun 1 yilgacha muddatga berilsa, dehqon va fermerlar uchun u kamida 2 yil qilib belgilangan. Shuningdek, qisqa muddatli kreditlarni qaytarish muddati kichik va o'rta biznesning boshqa sub'ektlari uchun 12 oydan oshmaydigan (fors-major holatidan tashqari) qilib belgilangan bo'lsa, dehqon va fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga yo'naltirilgan qisqa muddatli kreditlar uchun bu muddat uzog'i bilan 30 oy qilib belgilangan.

Tijorat banklarining kichik va o'rta biznesni, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirishda faol qatnashishini rag'batlantirish maqsadida 2000 yil 19 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 195-sonli «Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Bu qarorning ijobiy ahamiyati shundaki, bunga qadar ko'pchilik fermer xo'jaliklari tijorat banklarida kredit uchun foiz stavkalari balandligidan kredit olishga imkoniyati cheklangan edi.

Ushbu qarorda bu muammoni hal etish maqsadida tijorat banklarida kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash uchun «imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi»ni shakllantirish hamda uning hisobidan kredit berish tartiblari belgilab berildi. Qarorga muvofiq har yili tijorat banklari foydasining 25 foizi imtiyozli jamg'armani shakllantirishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, tijorat banklarini ushbu jamg'armani barpo etishdan manfaatdorligini oshirish maqsadida jamg'arma

mablag'lari hisobiga kredit berishdan olingan daromadlar, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar uning resurslarini ko'paytirishga maqsadli yo'naltirilgan taqdirda 5 yil muddatga daromad solig'idan ozod etiladi.

Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan berilgan kreditlardan foydalanganlik uchun imtiyozli foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Keyingi yillarda kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kengayayotgani tufayli kreditlashning yangi tizimi sifatida mikrokreditlash vujudga keldi. 2000 yil 29 fevralda 903-son bilan ro'yxatga olingan «Fermer xo'jaliklari va o'z faoliyatini yuridik shaxs maqomida yurituvchi kichik biznesning boshqa sub'ektlarini milliy va xorijiy valyutada mikrokreditlash tartibi» to'g'risidagi Nizomga ko'ra mikrokredit sifatida fermerlar va o'z faoliyatini yuridik shaxs maqomida amalga oshirayotgan boshqa kichik biznes sub'ektlari uchun milliy yoki xorijiy valyutada qarz berilayotgan kunda birjadan tashqari valyuta bozoridagi kurs bo'yicha 10000 (o'n ming) AQSH dollariga teng qiymatdagi kredit berish tushuniladi. Mikrokreditlar fermer xo'jaliklariga 3 yilgacha muddatga beriladi.

Mikrokreditlarni naqd pul shaklida, milliy valyutada berish umumiy kredit so'mmasining 50 foizigacha miqdorda, faqat fermer xo'jaliklariga aholidan chorva mollari, parranda va ko'chatlar xarid qilish uchun 1,5 yilgacha (18 oy) muddat bilan amalga oshiriladi.

Mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalari Markaziy bankning rasmiy qayta moliyalash stavkasidan oshiq bo'lmagan hajmda mijoz va bank o'rtasidagi kredit shartnomasiga asosan o'zaro kelishuv asosida belgilanadi. Agar mikrokredit tijorat banklarining maxsus mikrokreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilayotgan bo'lsa, imtiyozli foiz stavkalari belgilanadi.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini kredit bilan ta'minlashda byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati ortib bormoqda. Respublikamizda «Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi», Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash «Biznes-fondi» va Mehnat Vazirligining «Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi» fermer xo'jaliklarini kreditlash bilan shug'ullanadi. Byudjetdan tashqari jamg'armalar fermer xo'jaliklarini o'z mablag'lari hisobidan tijorat banklari orqali moliyalashtiradilar. Uning tartibi Adliya Vazirligi tomonidan 1074-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash tartibi to'g'risidagi Nizom» bilan amaliyotga joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 sentyabrdagi 366-sonli «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori bilan kichik va o'rta biznes, dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etishni rag'batlantirishni kuchaytirish maqsadida byudjetdan tashqari jamg'armalarga davlat tomonidan bir qator vazifalar va imtiyozlar belgilab berildi.

Birinchidan, «Biznes-fond»ning davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hisobiga shakllantiriladigan kredit resurslarining kamida 50 foizi,

shuningdek, «Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi» mablag'larining kamida 50 foizi har yili mikrofirmalar va kichik korxonalar, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarining dastlabki (boshlang'ich) sarmoyasini shakllantirish uchun tijorat banklarida maqsadli kredit liniyalari ochishga yo'naltirilishi lozimligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Ikkinchidan, fermer xo'jaliklariga dastlabki sarmoya uchun ajratiladigan mikrokredit Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining oltidan bir qismi miqdoridagi imtiyozli foiz stavkasi bo'yicha 3 yilgacha muddatda eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorigacha deb belgilandi. Bunda foizlar to'lashni 12 oyga kechiktirish va asosiy qarzni kredit olgandan keyin 18-24 oy o'tgach qaytarishni boshlash shartlari ko'zda tutiladi.

Uchinchidan, Moliya Vazirligi va Davlat Mulki Qo'mitasining davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirishdan tushgan, 2001 yil 1 iyul holatiga ko'ra «Biznes-fond»ga yo'naltirilgan mablag'larni qaytarish muddati dastlabki sarmoya sifatida kreditlash maqsadlariga yo'naltirish sharti bilan 2006 yilgacha uzaytirildi (2006 yildan boshlab 5 yil muddat ichida qaytariladi).

To'rtinchidan, «Biznes-fond» va «Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi»ning kredit resurslarini kengaytirish maqsadida 2002 yil 1 yanvardan boshlab 2005 yil 31 dekabrigacha bo'lgan davrga ularning daromadlariga soliq stavkasi amaldagi stavkaning 50 foiz miqdorida belgilandi hamda soliqdan bo'shab qolgan mablag'lar kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan fermer xo'jaliklariga beriladigan kreditlar uchun imtiyozli foiz stavkasi kreditlanayotgan loyihalarning xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi miqdorda belgilanadi: dastlabki sarmoyani shakllantirishga Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida; fermer xo'jaligini rivojlantirish va kengaytirish, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish uchun Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi miqdorida.

«Biznes-fond» kredit liniyalari hisobidan fermer xo'jaliklariga kreditlar loyiha qoplanish muddatidan kelib chiqqan holda 2 yildan 5 yilgacha imtiyozli davrni ko'zda tutgan holda 10 yilgacha bo'lgan muddatga, «Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi»ning kredit liniyalari hisobidan esa 3 yil muddatgacha uzaytirish huquqisiz beriladi.

«Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi»ning kredit resurslarini kengaytirish hamda uning manbalarini aniqlashtirish maqsadida 2001 yil 10 sentyabrda Vazirlar Mahkamasining 366-sonli qarori bilan jamg'armaga mo'ljallangan kim oshdi savdosida yer uchastkalarini fuqarolarning merosga qoldiradigan umrbod egalik qilishlari uchun sotishdan olinadigan tushumning 5,5 foizi, dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'i so'mmasining 5 foizi va fermer xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ining 2,5 foizi miqdoridagi mablag'lar va uni undirish tartibi aniq belgilab berildi. Ushbu qarorning ahamiyati shundaki, u «Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi» kredit resurslarini to'ldirishga yaqindan yordam beradi.

Fermer xo'jaliklari rivojlanib borishi, ularning soni va ishlab chiqarishdagi salmog'i ortib borishi bilan kredit resurslariga bo'lgan talab ham kuchayib borishi tabiiy. Shunday ekan, tijorat banklari hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning fermerlikni rivojlantirishga yo'naltirayotgan kredit resurslarini ko'paytirishni har tomonlama rag'batlantirmoq lozim. Shuningdek, ko'p hollarda fermer xo'jaliklarida kreditni tavakkalchilikdan (riskdan) himoya qilish uchun talab etiladigan garovga quyishda yetarli mol-mulki bo'lmasligini e'tiborga olib, kredit tavakkalchiligini sug'urtalovchi institutsional tuzilmalarni keng rivojlantirmoq maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan paxta va don mahsulotlarining xarid narxlarini ko'tarishga jiddiy e'tibor bilan qaralmoqda. Jumladan, respublikamiz Prezidentining 2002 yil 20 avgustdagi «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi farmoni bilan paxta ekadigan xo'jaliklarning yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishga rag'batini oshirish hamda narx belgilashda bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan jahon amaliyotida qabul qilingan me'yor va tamoyillarni keng joriy etish maqsadida paxta xomashyosiga ichki xarid narxlari, eksportga va respublika iste'molchilariga etkazib berilayotgan paxta tolasining ulgurji narxlari jahon bozorida shakllanayotgan paxta narxi konyunkturasiga muvofiq belgilanishi tartibi joriy etildi. Buning natijasida fermer xo'jaliklarining davlat buyurtmalari boyicha etkazib berayotgan paxta xomashyosi narxlari sezilarli darajada oshdi.

Davlatning fermer xo'jaliklari rivojlanishiga ko'maklashuvchi *institutsional infratuzilmalarni qo'llab-quvvatlashi* muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani amalga oshirish fermer xo'jaliklariga moddiy-texnik resurslar etkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashuvchi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalari va yarmarkalar, axborot-maslahat markazlari hamda fermerlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va ularni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Davlat bu yo'l bilan fermerlikning rivojini bilvosita qo'llab-quvvatlaydi.

Davlat tomonidan fermer xo'jaliklarining faoliyatini tartibga solib turish zarurati ma'lum organlar bo'lishini taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'i va undagi korxonalar faoliyati quyidagi davlat va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tartibga solinib turiladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish hamda ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish O'zbekiston Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan amalga oshiriladi. Albatta, bu uyushma dehqon va fermerlarning ixtiyoriy uyushmasi bo'lib, asosiy maqsadi ularga iqtisodiy masalalarda (bozordagi mahsulotning u yoki bu turiga talab, ularning narxi kabi) axborot berishdir. Dehqon va fermerlarga axborot berish yo'li bilan ularning ishlab chiqarishni nimaga yo'naltirish kerak, qaysi mahsulot turlarini ekish maqsadga muvofiq, yetishtirilgan mahsulotni qaysi bozorda va qay vaqtda sotish samarali ekanligi to'g'risida qaror qabul qilishiga ta'sir etiladi. «O'zmevasabzavot-holding» kompaniyasi, «O'zbekqorako'l», «O'zbek ipagi», «O'zbaliq» kabi uyushmalar ham dehqon va

fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turishda ishtirok etadilar.

4.4. Dehqon va fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi

Fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ularning faoliyatini tartibga solib turishni takomillashtirish davlatning istiqboldagi agrar siyosatini amalga oshirish yo'nalishlariga uzviy bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi hukumatining agrar siyosatida istiqbolda qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi asosiy sub'ekt – fermer xo'jaliklarini har tomonlama rivojlantirish ko'zda tutilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi farmonida istiqbolda fermer xo'jaliklarini har tomonlama rivojlantirish qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishning ustivor yo'nalishi sifatida belgilandi.

Respublikada fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashni quyidagi yo'llar bilan takomillashtirish ko'zda tutilmoqda:

- fermer xo'jaliklarining to'liq iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydigan va fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantiradigan huquqiy shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashning bozor tamoyillariga javob beradigan uslub va shakllarini takomillashtirish, moliyaviy mablag'lardan foydalanishda fermer xo'jaliklarining mustaqilligini, barcha xarajatlarni qishloq xo'jaligini sotishdan tushadigan o'z daromadlari hisobiga qoplashni ta'minlaydigan ishonchli tizimni shakllantirish;

- bozor sharoitida biznesni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash tizimini yaratish;

- qishloqda fermer xo'jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini jadal rivojlantirish;

- fermer xo'jaliklarining boshqa korxona va tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlariga rioya etilishini nazorat etish;

- fermerlarning tadbirkorlik erkinligi va huquqlarini har tomonlama muhofaza etish, qonunda ko'rsatilgan xuquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik va ichki faoliyatiga aralashuvning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik;

- fermerlarning barqaror daromad olishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o'rtasidagi mutanosiblik, ya'ni «baholar pariteti»ni saqlab borish;

- ularni ilg'or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;

- mahsulotlarini sotishning eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turish jarayoni doimo takomillashtirilib boriladi.

Ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning serqirraligi va murakkab tizimdan iboratligi fermer xo'jaligining samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini (ob-havo, tabiiy iqlim sharoiti va x.k.) boshqarish fermerning imkoniyatlar doirasidan tashqarida bo'lib, ularni oldindan rejalashtirib yoki oldini olib bo'lmaydi. Ammo, bu omillarning qo'lay yoki noqulay sharoitlarda kelishi xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoiti, (jonli organizmlar jug'rofiy muhit va obqhavoga bog'liqligi ular faoliyatini rag'batlantirish va sug'urtalash kabi bir qator himoya vositalarini yaratishni talab qiladi.

Fermer manfaati tomonidan yondoshsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg'oqchilik tufayli bekorga sovrilishi mumkin. Bunday paytlarda fermerning ko'rgan zararini qisman bo'lsada qoplamaslik kelgusi yil hosiliga ham tahdid soladi. Ob-havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo'jaligi tarmog'ida balki, butun mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zahiralar bo'lishi maqsadga muvofiq. Hosil mo'l bo'lgan yillarda davlat oziq-ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlash va ob-havo noqulay kelib tanqislik vujudga kelgan yillari bu zahiralar talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg'or davlatlarida qo'llanib kelinadi va o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

4.5. Dehqon va fermer xo'jaliklarini iqtisodiy mustaqilligiga davlat aralashuvini kamaytirish yo'llari

O'zbekiston qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining boshqa xo'jalik yuritish shakllari bilan teng sharoitlarda va sog'lom raqobat asosida mustahkam huquqiy-me'yoriy baza yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Bosh Qomusi, «Fuqarolik Kodeksi», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar, respublika Prezidentning bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, fermer xo'jaliklari faoliyatining mulkiy daxlsizligi va tadbirkorlik erkinligini ta'minlashga hamda qo'llab-quvvatlash vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining boshqa xo'jalik yuritish shakllari bilan teng sharoitlarda va sog'lom raqobat asosida faoliyat yuritishi uchun mustahkam huquqiy-me'yoriy baza yaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Fuqarolik Kodeksi», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar, respublika Prezidentining bir qator farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida dehqon va fermer xo'jaliklariga berilgan kafolatlar, ularning huquqlarini himoya qilish hamda rag'batlantirish choralari belgilab berilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunining 29-moddasida: «Davlat qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish va uni realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklarini huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi», - deb e'tirof etilgan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, respublikamizda fermer xo'jaliklarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 39-bandiga muvofiq: «Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq rejali tartibda, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatli organning qaroriga binoan yiliga ko'pi bilan bir marta amalga oshirilishi mumkin».

Bundan tashqari, qonunda o'tkazilayotgan tekshirishlarning tadbirkorlar faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi, tekshirish predmetiga oid bo'lmagan ma'lumotlar va hujjatlar so'rashning ta'qiqlanishi, nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolat doirasiga kirmaydigan talablarni bajarmaslik huquqi va boshqa bir qator kafolatlar mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 avgustdagi 347-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori bilan tadbirkorlik sub'ektlarini, jumladan fermer xo'jaliklarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qoyishning engillashtirilgan tartibi joriy etildi. Unga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olish «bir yo'la» tamoyili asosida, ularni avtomatik tarzda hisobga qoyish bilan amalga oshiriladi. Qarorga muvofiq tuman hokimiyatlari tarkibida davlat ro'yxatiga olish bo'yicha maxsus xizmat tashkil etilgan bo'lib, uning xodimlari tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlarni tayyorlash, ularni yo'l fondi, mehnat, bandlik va ijtimoiy ta'minot bo'limi, soliq hamda statistika organlarida hisobga qo'yish ishlarini amalga oshirdilar.

Fermer xo'jaligini yer ijarasi bilan bog'liq barcha hujjatlar tayyor bo'lgan taqdirda davlat ro'yxatiga olishning umumiy muddati (ichki ishlar bo'limidan muhr hamda burchak shtampini tayyorlashga ruxsat olishni ham qo'shib hisoblaganda) 12 kundan oshmasligi lozim.

Fermer xo'jaliklari qonunda belgilab berilgan tartibda hisob va hisobot ishlarini yuritadilar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 23 fevraldagi 65-sonli «Kichik va o'rta biznes korxonalari uchun hisobotlar yuritilishini qisqartirish hamda soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2000 yilning I-choragidan fermer xo'jaliklari uchun maksimal qisqartirilgan va soddalashtirilgan hisobot shakli hamda uni taqdim etish belgilab berilgan.

Fermer xo'jaliklarin tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning *iqtisodiy usullariga* quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- moliya-kredit tizimi orqali qullab-quvvatlash;
- tabaqalangan va imtiyozli soliq tizimidan foydalanish;
- baholar paritetini saqlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va boshqalar.

Davlatning fermer xo'jaliklari faoliyatini *iqtisodiy dastaklar orqali qo'llab-quvvatlash* choralari *bevosita va bilvosita* shakllarda amalga oshiriladi. *Bevosita qo'llab-quvvatlash* fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan beriladigan iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan tashkil topadi.

Bevosita qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'ridan-to'g'ri fermer xo'jaliklariga yo'naltirilgan bo'ladi va ularning moddiy ahvolini yaxshilash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday chora-tadbirlar sirasiga soliqlar to'lashda engilliklar berish, imtiyozli shartlar va foizlarda kreditlar berish, davlat buyurtmasi boyicha xarid qilinadigan mahsulotlarga kafillangan baholar belgilash, eksport-import operatsiyalarida qulay tariflar va to'lovlar o'rnatish kabi iqtisodiy dastaklar kiradi.

Ba'zan davlat fermer xo'jaliklariga qulay shart-sharoitlar yaratish va ularning samaradorligini oshirish maqsadida *bilvosita qo'llab-quvvatlash* choralari ishga soladi. Bilvosita qo'llab-quvvatlashda davlat ma'lum bir sohalarida to'g'ridan-to'g'ri fermerlarga imtiyozlar yaratmasdan, balki ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar korxonalariga imtiyozlar yaratadi. Bundan asosiy maqsad ushbu korxonalarning fermerlarga etkazib berayotgan tovar-moddiy qiymatliklar hamda xizmatlarining narxini sezilarli darajada pasaytirish va oqibat natijada fermer xo'jaliklariga qulay iqtisodiy sharoitlar yaratib berishdir. Garchi bilvosita qo'llab-quvvatlash choralari ob'ekti bevosita fermer xo'jaliklari bo'lmasada, ular fermerlar uchun muhim ahamiyatga ega.

4.6. Fermer xo'jaliklari faoliyatiga davlatning aralashuviga oid bo'lgan chet el tajribalari

Erkin bozor tarafdorlari agrar sohaga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarga (qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida sof raqobat imkoniyatlarining mavjudligi, agrar ishlab chiqarishga xos bo'lgan tabiiy – biotexnologik omillar fermerdan mustaqil qarorlar qabul qilishni talab etishi va boshq.) tayanib, bu tarmoqda erkin bozor munosabatlari amal qilishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud degan g'oyani ilgari suradilar. Ularning fikricha bozorning o'z-o'zini tartibga sola olish xususiyati, agrar iqtisodiyotga davlat aralashuvini talab etmaydi va bunga zaruriyat ham yo'q. Mustaqil xo'jalik yuritish va tadbirkorlik erkinligi esa bozor sharoitida fermer xo'jaliklarining yuksak sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelishi kerak.

Ammo, respublikamiz bozor munosabatlariga to'la boshlaganidan beri o'tgan davr saboqlari hamda ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalari qishloq xo'jaligini davlatning faol aralashuvisiz rivojlantirib bo'lmasligini ko'rsatmoqda mutaxassislarning fikricha «...bozor mexanizmi agrar sohada ham hamma masalalarni hal qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiyotning agrar sektori bozor sharoitida alohida o'rin tutadi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasdan turib sohalararo raqobatga bardosh bera olmaydi»²

Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruriyatini dastavval mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri-qishloq xo'jaligi va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qaramoq maqsadga muvofiqdir.

Amerikalik iqtisodchi-olimlar K.R.Makkonnel va S.L.Bryu davlatning agrar sohaga faol aralashuvi zaruriyatini quyidagi muammolar bilan bog'laydilar:

² R.H.Husanov, M.Qosimov, «Dehqon xajaligini yuritishning ilmiy va amaliy asoslari», T.:«Cho'lpon», 2000, 74 b.

- qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabning noelastikligi;
- texnik rivojlanish natijasida fermerlar mahsulotlarining talabdan oshiqcha ishlab chiqarilishi;
- qishloq xo'jalik resurslarining nisbatan immobillik xususiyati;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida sof raqobat kurashi xukm surgan holda, unga resurslar etkazib beruvchi bozorlarda monopoliya elementlarining mavjudligi.

Masalan, AQSH da fermerlarni qo'llab-quvvatlash boyicha davlat dasturlari 1930 yillardan beri amalga oshirib kelinadi va ular o'z ichiga quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- fermer mahsulotlari bahosi, ishlab chiqarish hajmi va daromadlar;
- tuproq va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda atrof-muhitini muhofaza qilish;
- qishloq xo'jaligida oid Ilmiy-tadqiqotlar;
- fermerlarni kredit bilan ta'minlash tizimi;
- fermerlar ishlab chiqarishni turli Tabiiy ofat va favqulotda holatlardan sug'urtalash.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlimiy sharoitlarga bog'liqligi, bu tarmoqda baholar va fermer xo'jaligi daromadining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar respublikamizda ko'pchilikni tashkil etadi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o'zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida sof raqobat hukm suradi.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash zaruriyati qishloq xo'jaligida kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo'jaligiga nisbatan bir necha marta yuqoridir.

Nazorat uchun savollar:

1. Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turish deganda nimani tushunasiz?
2. Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turishni qanday omillar taqozo etadi?
3. Fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlash zaruriyati davlat oldiga qanday vazifalarni qoyadi?
4. Davlat tomonidan fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash qanday usullar va shakllarda olib boriladi?
5. Fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Fermer xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turishning mohiyati, zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari nimada?

V-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING DAVLAT VA BOSHQA KORXONA, TASHKILOTLAR BILAN IQTISODIY ALOQALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRILISHI

Reja:

- 5.1. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning zarurligi
- 5.2. Dehqon va fermer xo'jaliklarini erkin faoliyat yurtishi uchun davlat va boshqa korxonalar, tashkilotlar bilan amalga oshiradigan iqtisodiy munosabatlar tizimi va tarkibi
- 5.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yetishtirayotgan mahsulotlarini sotish boyicha tuzayotgan shartnomalari
- 5.4. Rivojlangan davlatlardagi shartnomaviy munosabatlar.

O'quv maqsadi: *dehqon va fermer xo'jaliklarining davlat va boshqa korxona, tashkilotlar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarining hozirgi holatini tahlil qilish va shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish va nazariy bilimlarni o'rganishdan iboratdir.*

Tayanch iboralar: *qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori, tabiiy-biotexnologik omillar, bozor mexanizmi, tadbirkorlik erkinligi, davlat tomonidan qo'llab quvvatlash zaruriyati, shartnoma, kontraktatsiya shartnomasi, xuquqiy himoyalash, bevosita va bilvosita ta'sir omillari*

5.1. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning zarurligi

Iqtisodiy aloqalar asosida eng avvalo iqtisodiy manfaat yotadi. Iqtisodiy aloqalar tomonlarning iqtisodiy manfaatlariga mos kelgan holdagina rivojlanadi va aksincha. Iqtisodiy aloqalar xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmlari orqali tartibga solib turiladi. Xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmlariga ob'ektiv iqtisodiy qonunlar talabi echilishida talab qilinadigan iqtisodiy dastak va usullar (rejalashtirish, baho, soliq, moliyalashtirish va kreditlash, shartnomaviy munosabatlar va h.k.) kiradi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarning iqtisodiy aloqalari quyidagi ob'ektlar o'rtasida sodir bo'ladi.

▪ Dehqon va fermer xo'jaliklarning o'zaro iqtisodiy aloqalari. Bunda dehqon va fermer xo'jaliklarning bir-biri bilan bo'ladigan aloqalar (oldi-sotdi, o'zaro yordam, bir-biriga pullik yoki boshqa shartlar asosida yordam ko'rsatishlari) kiradi. Bu juda muhimdir. Chunki dehqon va fermer xo'jaliklari bir-birini qo'llab-quvvatlamasdan faoliyat ko'rsatishlari qiyin. Ular birgalikda texnika, ishchi kuchi, xizmat ko'rsatuvchi soha xizmatlaridan foydalanadilar. Masalan, bir texnikadan turli shartlar asosida ikki va undan ko'p dehqon va fermer foydalanadi. Bu ularga resurslarni tejash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

▪ Dehqon va fermer xo'jaliklarning yirik qishloq xo'jaligi korxonalari bilan (shirkatlar, o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari, chorvachilik fermalari va

x.z.) aloqalari. Bu turdagi xo'jaliklar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirmay turib hozirgi sharoitda dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yaxshi natijalar bermaydi. Bu borada ayniqsa yirik xo'jaliklarning xizmat ko'rsatish tizimidan, texnikasidan foydalanish har ikki tomonga katta samara keltirishi mumkin.

▪ Dehqon va fermer xo'jaliklarning boshqa tarmoq (sanoat, ayniqsa qayta ishlash sanoati, urug'lik, mineral o'g'itlar, texnika bilan ta'minlovchi tarmoqlar korxonalari va x.k) bilan iqtisodiy aloqalari. Bu aloqalarning ham rivojlangan darajasi ko'p jihatdan dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlanish darajasini aniqlaydi. Ular bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalarda eng asosiy rolni shartnoma va unda ko'rsatilgan narx tashkil etadi. Shartnomalar sharti har ikki tomon uchun manfaatli bo'lishi maqsadga muvofiq.

▪ Dehqon va fermer xo'jaliklarining o'z ishchi xodimlari bilan iqtisodiy aloqalari (munosabatlari) ham ularning yaxshi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

▪ Dehqon va fermer xo'jaliklarining davlat organlari bilan iqtisodiy aloqalari(munosabatlari) ham katta ahamiyatga ega. Eng avvalo soliq organlari, nafaqa ta'minoti tizimi, ekologiya bilan shug'ullanuvchi organlar, bank, moliya, sug'urta tizimlari bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalar juda muhimdir. Bu davlat tashkilotlariga har bir dehqon va fermer xo'jaligi ma'lum ajratmalar qiladi. Ularning miqdori, to'lash muddatlari dehqon va fermer xo'jaliklari rivojiga salbiy, ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki bozor sharoitida xo'jalik yuritish sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar asosan shartnomalar orqali tartibga solinadi. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni quyidagi qonunchilik hujjatlari tartibga solib turadi:

1. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksi».
2. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi «2004 - 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 476-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 sentyabrdagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 sentyabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi mashsulotlari etishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida NIZOM»ga muvofiq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari asosan uchta turdagi shartnomalarni tuzadi:

- kontraktatsiya shartnomalari;
- moddiy-texnika resurslari etkazib berish bo'yicha shartnomalar;
- xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar.

Kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha xo'jalik bunday mahsulotlarni qayta ishlash yoki sotish uchun xarid qiluvchi shaxsga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda berish majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa muayyan narx bo'yicha kelishilgan muddatlarda haq to'lab ushbu mahsulotlarni sotib olish majburiyatini oladi.

Moddiy-texnika resurslari (ehtiyot qismlar, urug'lik, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'it va boshqalar) **yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha** etkazib beruvchi tashkilot xo'jalikka o'zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika resurslarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda foydalanish uchun kelishilgan muddatda yetkazib berish majburiyatini oladi, xo'jalik esa moddiy-texnika resurslarini qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) **yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha** bajaruvchi tashkilot xo'jalik buyurtmasiga binoan mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish, servis, agrokimyo, agrotexnika xizmatlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash majburiyatini oladi, xo'jalik esa ushbu ishlar (xizmatlar)ni qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatini oladi.

Tuziladigan shartnomalarda quyidagi shartlar mustahkamlanib qo'yilishi shart:

- shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (hajmi), sifati, narxi (turlari bo'yicha);
- shartnomaning umumiy so'mmasi;
- tomonlarning huquqlari va o'zaro majburiyatlari;
- mahsulotlarni etkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) punktlari va davrlari (muddatlari);
- idishga, markirovka qilishga, o'rash-joylashga qo'yiladigan talablar;
- hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to'lov, pochta va yuklab jo'natish rekvizitlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;
- nizolarni, fors-major holatlarni hal etish tartibi, tomonlarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joy.

Shartnoma munosabatlarini tartibga solish sohasida mahalliy davlat hokimiyati organlari quyidagi vakolatlarga ega:

- davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish shartnomalarini, shuningdek, kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish ishlarini muvofiqlashtirib borish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi shartnoma munosabatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish chora-tadbirlarini ko'rish.

Qonunchilikda qishloq xo'jaligi korxonalari bilan shartnomalar tuzish va ularni royxatdan o'tkazishning aniq muddatlari belgilab berilgan. Xususan, qishloq xo'jaligi korxonalarining tayyorlov, moddiy-texnika ta'minoti va xizmat ko'rsatuvchi

tashkilotlar bilan shartnomalarini tuzish hamda ro'yxatdan o'tkazish 7 bosqichda amalga oshiriladi (5.1.1-jadval).

Qishloq xo'jaligi korxonalari agrotexnika tadbirlari boshlanishidan bir oy oldin shartnoma tuzish bo'yicha tayyorgarlik ishlarini olib borishlari lozim. Shartnoma loyihasini ko'rib chiqish, ro'yxatdan o'tkazish va xo'jaliklarga berish ishlari 15 ish kunidan oshib ketmasligi lozim. Shartnoma qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish daftarlari yuritiladi, ularda quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi:

- shartnomaning ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami;
- shartnoma tuzilgan sana;
- shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan sana;
- shartnomaning tomonlari;
- shartnoma so'mmasi;
- ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomani olgan shaxsning imzosi va sana.

5.1.1-jadval

QXMLari etishtiruvchilar va tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari

Bosqichlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
1-bosqich	Shartnomalar tuzishga tayyorgarlik ko'rish	Agrotexnika tadbirlari boshlanishidan bir oy oldin	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
2-bosqich	Shartnomalarni ko'rib chiqish va imzolash	7 kun mobaynida	Qishloq xo'jaligi korxonalari
3-bosqich	Shartnomalarni royxatdan o'tkazish uchun berish	3 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
4-bosqich	Shartnomalarni royxatdan o'tkazish	3 ish kuni mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
5-bosqich	Shartnomalarni royxatdan o'tkazgandan keyin tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlarga berish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 1 kun mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
6-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarni xo'jaliklarga berish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 2 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
7-bosqich	Shartnomalarni saqlash	Barcha shartnoma shartlari bajarilgandan keyin 3 yil mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar, qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari, qishloq xo'jaligi korxonalari

5.2. Dehqon va fermer xo'jaliklarini erkin faoliyat yurtishi uchun davlat va boshqa korxonalar, tashkilotlar bilan amalga oshiradigan iqtisodiy munosabatlar tizimi va tarkibi

Fermer xo'jaliklarning boshqa tarmoqlar (sanoat, ayniqsa, qayta ishlash, urug'lik, mineral o'g'itar, texnika bilan ta'minlovchi tarmoqlar korxonalari va h.k.) bilan iqtisodiy aloqalari shartnoma asosida olib boriladi.

Fermer xo'jaliklari yollanma ishchi xodimlari bilan iqtisodiy aloqalarini mehnat shartnomasi asosida olib boradi.

Fermer xo'jaliklarning boshqa korxona va tashkilotlar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlari shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaliklari paxta, g'alla, meva, sabzavot, poliz, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishdan iste'molchiga yetkazib berish jarayonlarida turli tayyorlovchi, qayta ishlovchi va servis xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Fermer xo'jaliklarining tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va qayta ishlash korxonalari bilan tuzayotgan shartnomalarida tomonlarning xuquq va majburiyatlari bir tomonlama, ya'ni tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar foydasiga hal etiladi.

Tomonlar o'rtasida shartnomaning kelishuv shartlariga O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi» da: **«Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi»**- deb izoh berilgan.

Shartnomani tuzish ikki bosqichni: birinchi tomon taklif etishi (oferta deyiladi) va ikkinchi tomon ushbu taklifni qabul qilishi yoki qabul qilmasligi (aksept deyiladi) bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Shartnomalar erkin tuziladi. Uni majburiy tarzda tuzish qonunchilik xujjatlariga asosan ta'qiqlanadi va jinoyat hisoblanadi.

Shartnoma bitta mahsulot yoki xizmat turiga tuzilishi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda bir necha mahsulot yoki xizmat turlariga shartnomalar tuzishga to'g'ri keladi. Bunday shartnomalar aralash shartnomalar turiga kiradi.

Shartnomalarning kirish qismida:

- shartnomaning to'liq nomi (matni, har xil talqin qilinmasligi uchun) va raqami;
- imzo chekilgan yil, oy va kun, yani tomonlarning imzo chekkan vaqti, eng muhimi shartnoma muddati, ya'ni uning kuchga kirgan vaqti va uning oxirgi muddati;
- imzo chekilgan joy;
- tomonlarning manzilgohlari, to'liq nomlari, ularning huquqiy maqomi;
- shartnomalar matnining qisqa va tushunarli bo'lishi uchun taraflar nomlanishi zarur.

Shartnomaning mazmunida uning maqsadi, umumiy so'mmasi, miqdoriga ta'rif beriladi va ular o'zaro kelishilgan holda ushbu bo'limda batafsil aks ettiriadi.

Shartnomalarning huquq va majburiyatlari qismida shartnoma shartlarini buzgan tomonga nisbatan qo'llaniladigan choralar aks ettiriladi va ular tomonlarning o'z majburiyatlarini belgilangan muddat va miqdorlarda bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.


Shartnomaning «Boshqa shartlar» bo'limida-shartnomaning kuchga kirish vaqti avvaldan kelshilganligini inobatga olib ushbu vaqt o'zgarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida » 2003 yil 24 martdagi PF–3236–son, «2004–2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi » 2003 yil 27 oktyabrdagi PF – 3342–sonli farmonlariga asosan fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qishloqda fermer xo'jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchining tayyorlov, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan ishlab chiqarish munosabatlarida ustuvor mavqei belgilandi.

Tahlillarning ko'rsatishicha infratuzilma sub'yektlari nafaqat fermer xo'jaliklari bilan iqtisodiy va huquqiy aloqalarga kirishadi, balki o'zaro ham munosabatda bo'lishadi. Misol uchun moliyaviy ta'minot xizmat turlari fermer xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan ta'minlashga qaratilgan chora – tadbirlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda qishloq xo'jaligi infratuzilmasini ham moliyaviy jihatdan ta'minlab turadi va o'zaro iqtisodiy aloqaga kirishadi. Buni biz boshqa xizmat ko'rsatish sub'yektlari faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin, ya'ni moddiy ta'minot, informatsion ta'minot va reklama xizmat turlarida va hokazo (6.2.1-rasm).

Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi sub'yektlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar quyidagilardan iborat:

- shartnomaviy munosabatlar;
- soliq tizimidagi munosabatlar;
- moliyalashtirish va investitsiya jalb qilish sohasidagi munosabatlar;
- sug'urta tizimidagi munosabatlar;
- moddiy – texnik ta'minot tizimidagi munosabatlar.



5.2.1-rasm. Qishloq xo'jalik korxonalari bilan tuziladigan shartnomalar

Fermer xo'jaligining mahsulotni realizatsiya qilish boyicha tayyorlov tashkilotlari va boshqa korxonalar bilan munosabatlari shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Xo'jaliklar yil boshidan bo'lg'usi hosil uchun paxta tozalash zavodi bilan shartnoma tuzadi. Bundan tashqari xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan paxta xom-

ashyosidan chiqqan chigitni ham erkin narx asosida sotishi yoki yog'-ekstratsiya zavodiga qayta ishlash uchun jo'natishi mumkin.

Fermerlarning qolgan tayyorlov tashkilotlari va qayta ishlash korxonalari (konserva zavodi, sut zavodi va h.k.z.) hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar («Agrokimyoservis», MTPlar, Neft mahsulotlari omborlari va boshq.) bilan aloqalari ham xuddi shunga o'xshash tartibda shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Ammo, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning joylarda ozchilikni tashkil etishi tufayli ular monopol mavqega ega bo'lib, fermerlarning tanlov erkinligini yo'qqa chiqarmoqda. Texnik xizmat ko'rsatish va moddiy texnika ta'minoti sohalarida bo'lgani kabi mahsulotlarni tayyorlash va qayta ishlash shug'ullanuvchi korxonalar ham ozchilikni tashkil qilib, o'z mahsulotlarida yakka hokimliklarni (monopoliya mavqeini) qo'lga kiritib olganlar. Shuning uchun, har bir tuman miqyosida qayta ishlash korxonalari tarmoqini ko'paytirish bo'yicha jiddiy tadbirlarni amalga oshirish zarur. Mahsulotlarni qayta ishlovchi yangi sexlarni ishga tushirish yoki mavjud korxonalarning bir necha joyda mahsulot qabul qiluvchi shaxobchalar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Mahsulotni xom-ashyo sifatida sotishdan yil davomida ter to'kib mehnat qilgan fermer emas, balki arzimagan haq evaziga uni xarid etib, qayta ishlab sotadigan korxonalar katta foyda ko'radi.

Keyingi yillarda ko'pchilik qayta ishlash va tayyorlov korxonalari hamda xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar davlat tasarrufidan chiqarilib, ochiq hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Ammo ularning aksionerlari ko'pincha shu korxonalarning a'zolaridan iborat bo'lmoqda. Shuningdek aksiyalarning ko'pchilik qismi davlatga tegishli. Fikrimizcha qayta ishlash va tayyorlov korxonalarning yakka hokimligini tugatish va xo'jaliklarning ularga bog'liqligini bartaraf etish uchun, bunday korxonalar aksiyalarining katta qismini birinchi navbatda shu korxonalarga mahsulot yetkazib beruvchi xo'jaliklarga sotish kerak (hech bo'lmaganda nazorat paketi miqdorida) chiqarilgan ishlovchi shaxslar egalik qilishi korxonada ishlovchi shaxslar yoki boshqa qishlo xo'jaligi korxonalari o'zlari mahsulot stadigan qayta ishlash yoki tayyorlov korxonalarning aksiyalariga ega bo'lsa, ular ham shu korxonalar foydasining bir qismiga sherik sifatida ularni rivojlantirishdan manfaatdor bo'ladi, ham boshqarishda sezilarli ta'sir ko'rsatib qishloq xo'jaligi mahsulotlarining arzon baholarda sotib olinishiga chek qo'yiladi.

Qashqadaryo viloyatida fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash korxonalari tomonidan tuzilgan shartnoma asosida sotib oladilar. 2012 yilda viloyat bo'yicha jami 95680 tonnaga shartnoma tuzilib, bu mahsulotlarning qiymati 15309 ming so'mni tashkil etdi, (6.2.1-jadval). Asosiy turdagi mahsulotlar – meva, uzum, sabzavot va pomidor mahsulotlari bo'lib, qayta ishlash korxonalari tomonidan sharbat, har xil konservalar va tomat ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishgan. Demak, qayta ishlash korxonalari tomonidan tayyorlangan tayyor mahsulotlarning qiymati yetishtirilgan mahsulot qiymatiga nisbatan 1,5-2,0 martaga oshishi ayni haqiqatdir.

Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va xo'jalik yuritishning huquqiy asoslarini o'rganish, qonun va me'yoriy hujjatlarning

mazmun - mohiyati, o'zgarishlar va ma'lumotlarni fermer xo'jaliklariga va qishloq xo'jaligi infratuzilma sub'yektlariga ham tushunarli tarzda etkazish lozim.

Fermer xo'jaliklari juda ko'p hollarda shartnoma tuzishda va ularni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Masalan, shartnomani o'qimasdan imzo chekish, haqiqatda esa o'zi haq bo'lgan holda esa huquqiy bilimining zaifligi uchun murosaga borishga to'g'ri keladi.

Demak, huquqiy bazani yaratish va rivojlantirishda, o'quv markazlarini tashkil qilish hamda ularni malakali kadrlar, o'quv – uslubiy ta'minot bilan ta'minlash, fermer xo'jaligi va infratuzilma tarmog'ining xodimlari uchun seminar va trening mashg'ulotlari o'tkazish, informatsion bazani yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shartnomalarda tomonlarning o'z majburiyatlari yuzasidan mulkiy javobgarligi quyidagicha bo'ladi:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment va turlarda, muddatlarda topshirishdan asossiz bo'yin tovlagan xo'jalik tayyorlovchiga topshirilmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarima miqdori o'tgan davr (oy, chorak, yil)da mahsulotning shakllangan o'rtachak narxidan kelib chiqib, xarid narxlariga belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, zararning mahsulot yetkazib berilmaganligi tufayli yuzaga kelgan, jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi.


2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment, turlar va muddatlarda qabul qilib olish rad etilgan har bir holat uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan shakllangan o'rtacha narxdan kelib chiqib, qabul qilinmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Bundan tashqari, mahsulotni qabul qilishni rad etilganligi tufayli xo'jalik ko'rgan zararni jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi va h.o.

Qishloq xo'jaligi infratuzilma sub'yektlari o'rtasidagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarida ko'p uchraydigan muammolardan biri – ular o'rtasida tuzilgan shartnomalarning bir tomonlama ko'rinishda tuzilganligi (xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar foydasiga) va imzolanganligi, natijada tuzilgan shartnoma shartlari sifatsiz bajarilamayotganligi ma'lumdir.

Qashqadaryo viloyatida fermer xo'jaliklari va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasidagi tuzilgan shartnomalarning bajarilish holati ko'p belgilangan ish miqdori bilan haqiqatda bajarilgan ishlar miqdoriga mos bo'lmay kelmoqda. Misol uchun, 2014 yilda viloyat tumanlarida faoliyat ko'rsatayotgan fermer va dehqon xo'jaliklari va suvdan foydalanuvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar 6717,0 mln.so'mni tashkil etib, 2014 yilning 31 dekabr holati bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun 4340,6 mln.so'm yoki 53 foiz mablag' undirilgan xolos

5.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yetishtirayotgan mahsulotlarini sotish bo'yicha tuzayotgan shartnomalari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha tuzilgan shartnoma – kontraktatsiya shartnomasi deyiladi (5.3.1-rasm).



5.3.1-rasm. Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari xarid qilish shartnomalari

Fermer xo'jaliklari tayyorlov korxonalari bilan kontraktatsiya shartnomalarini tuzishda eng avvalo o'z huquq va majburiyatlarini bilishlari shart. Bunda *fermer xo'jaliklarining huquqlariga* quyidagilar kiradi:

1. Shartnomada nazarda tutilgan hollarda tayyorlov tashkilotidan urug' va ekish materiallari bilan ta'minlanishini talab qilish;
2. Mahsulotni topshirishda, uning sifatini aniqlashda qatnashish va tayyorlov tashkilotidan mahsulot uchun tegishli to'lovni talab qilish;
3. Tayyorlov tashkilotidan mahsulot yetishtirish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda avans to'lanishini talab qilish;
4. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan amaldagi davlat standartlari va shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
5. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan mahsulot xo'jalik hisobidan tashilganda transport xarajatlarini qoplanishini talab qilish;
6. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish.

Fermer xo'jaligining majburiyatlariga:

1. Mahsulotning muayyan turlarini tayyorlovchi tashkilotga shartnomada belgilangan miqdorlarda va assortimentda hamda muddatlarda tegishli sifat bilan yetkazib berish;

2. Ilova qilinayotgan hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va mahsulotni topshirishda qo'yiladigan boshqa talablarga (idishga joylash, qadoqlash, qoramollarni tamg'alash va boshqalarga) rioya etish;

3. Mahsulotni tayyorlov tashkilotiga topshirish uchun o'z vaqtida tayyorlash.

Agarda shartnomani bajarishda tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar yuzaga kelsa, avvalo tomonlar o'rtasida muhokama etilishi va teng yo'l bilan hal etilishi lozim. Bunda:

- xo'jalik sudi raisi nomiga da'vo ariza;
- shartnoma (nusxasi);
- to'lov varaqasi (nushasi);
- aloqa xati yuborilganligi to'g'risidagi pochta kvitantsiyasi;
- solishtirma dalolatnomasi;
- davlat boji (hisob raqamiga mablag' bo'lmasa, kafolat xati va bank mahlumotnomasi, alohida da'vogarning iltimosnomasi);

Fuqarolik kodeksida shartnoma munosabatlarini tartibga solinishi:

- bitimlar, shartnomalar va ularning turlari hamda shakllarini belgilaydi;
- majburiyat va uni bajarilishini ta'minlashni belgilaydi;
- shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilaydi;
- shartnomalar tuzish, o'zgartirish va bekor qilish shartlarini belgilaydi.

«Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning mohiyati:

- xo'jalik shartnomasi sub'ektlariga yuridik xizmat ko'rsatish va xo'jalik shartnomalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi belgilandi;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlari belgilandi;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solindi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlari:

- davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish shartnomalarini, shuningdek kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish ishlarini muvofiqlashtirib boradi.
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi shartnoma munosabatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish choralarini ko'radi.

Tuzilgan shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining amaldagi miqdori xo'jaliklar bilan tayyorlov tashkilotlari o'rtasida mahsulot yetkazib berish yakunlari bo'yicha tuziladigan qiyosiy dalolatnoma asosida belgilanadi.

Shartnoma bo'yicha tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga muvofiq belgilanadi.

O'zR Prezidentining 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish-ning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF 3226-sonli Farmoni asosida:

- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar mustaqilligi kengaytirilib, ularning huquqiy muhofazasini ta'minlash belgilandi.
- qishloq va suv xo'jaligi vazirligini taqsimotchilik vazifalaridan ozod qilish hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlariga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan voz kechishini nazarda tutib, uning asosiy vazifalari belgilab berildi.

Shartnoma ijrosini ta'minlash va ular yuzasidan mansabdor shaxslarning javobgarligi:

- boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi;
- xo'jalikka mahsulot yetkazib berish uchun berilgan bunak pulini qaytaradi;
- qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan jarima to'laydi.

5.4. Rivojlangan davlatlardagi shartnomaviy munosabatlar

Bugungi kunda qishloq va suv xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish borasida yetarli darajadagi huquqiy va meyoriy asoslar yaratilgan bo'lib, ushbu hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasining «Fuqorolik kodeksi», «Fermar xo'jaligi to'g'risidagi qonuni», «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 sentabrdagi 383-sonli «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori kabi ko'plab qonun va qonun osti hujjatlarini kiritish mumkin.

Agrar tarmoqda shartnoma munosabatlarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4 sentabr 2003 yildagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarorining 1-ilovasida keltirilgan «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida» Nizom asosida olib boriladi. Mazkur Nizomda shartnomalarga oid umumiy qoidalar, shartnoma tuzish tartiblari, shartnomani ro'yxatdan o'tkazish, tomonlarning huquq va majburiyatlari, baho belgilash va hisob-kitoblar, shartnoma shartlarini bajarish, shartnoma shartlarini bajarish monitoringini olib borish kabi holatlar bayon etilgan.

Ayni paytda shartnoma tomonlar o'rtasida ixtiyoriy ravishda o'z manfaatlari, maqsadlarini ro'yobga chiqarishni ko'zlab tuziladigan huquqiy hujjat bo'lib, mohiyati jihatidan tomonlarning teng huquqliligini, erkinligini, shartnoma shartlari oldidagi mas'uliyat va majburiyatlarini o'zida aks ettiradi. Ammo tahlillarimizning ko'rsatishicha, suvdan foydalanish yuzasidan qishloq xo'jaligi korxonalari va SIU lar o'rtasida shartnomalar tuzish jarayonida tomonlarning erkinligi masalasida bir qator nisbiyliklar mavjud. Masalan, boshqa sohalarda va boshqa sharoitlarda mahsulot sotish yoki xizmatlardan foydalanish borasida shartnomalar tuzishda tomonlar o'rtasida

tanlash imkoniyati mavjud bo'lib, bu ularning iqtisodiy erkinligini ta'minlaydi. Lekin fermer yoki dehqon xo'jaligida bunday imkoniyat yo'q, chunki ularga xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan SIU lar soni ko'p bo'lishi mumkin emas.

Viloyatimizda SIU larni tashkil etish tamoyillariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "geografik tamoyil" aniq fermer yoki dehqon xo'jaligi uchun faqatgina bitta SIU xizmat ko'rsatishi mumkinligiga olib keladi. Aniq fermer xo'jaligi dalasiga suv yetkazib beradigan irrigatsiya tarmog'i yagona bo'lib, ayni paytda bitta irrigatsiya tarmog'i ikkita SIU ga tegishli bo'lishi ham mumkin emas. Bu holat fermer xo'jaligining dalasiga ekinlarni sug'orish uchun suv yetkazib berish borasidagi shartnomalarning tuzilishi, amal qilishi va iqtisodiy mohiyatini bir qadar o'zgartiradi. Demak, bu vaziyatlarda bozor sharoitida shakllanadigan shartnoma munosabatlariga xos bo'lgan umumiy tamoyillarga tayanish qiyinlashadi.

Mazkur muammoning yaqqol kuzatiladigan va SIU lar faoliyatiga salbiy ta'sir etishining sabablaridan biri oqibatida bugungi kunda fermer xo'jaliklari aksariyat hollarda SIU lar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lamasdan yoki to'lovlarni kechiktirib kelayotganligidir. Natijada SIU lar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish imkoniyatlarining pasayishi kuzatiladi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 148 ta SIU faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular tomonidan 457,7 ming gektar maydonda suv ta'minotini va inshootlarning texnik holatini hamda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ishlar olib borildi.

SIU lar va suv iste'molchilari o'rtasida shartnoma munosabatlarini takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- shartnoma munosabatlarini takomillashtirishda, shartnoma shartlarining bajarilishi ustidan davlat nazorati (xo'jalik sudlari ishlarini faollashtirish nazarda tutilmoqda) bilan birga jamoat tashkilotlari nazoratini ham yo'lga qo'yishi;

- qishloq xo'jaligi korxonalari bilan SIU lar o'rtasida tuziladigan shartnomalar, eng avvalo, qishloq xo'jaligi tarmog'ining xususiyatlarini hisobga olishi;

- agrar munosabatlar rivojlanishining hozirgi bosqichida agarda qishloq xo'jaligi korxonalari monopolist tashkilotlar bilan xizmatlardan foydalanish yuzasidan shartnomalar tuzib zarar ko'radigan bo'lsa, davlat tashkilotlarining ham yordami kerak bo'ladi;

- suv iste'molchilarining huquqshunosga ega bo'lishini ta'minlash lozim. Masalaning ikkinchi tomoni, huquqshunosga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalari bilan ishlayotganligini bilgan xizmat ko'rsatuvchi tashkilot shartnoma shartlarini "hurmat qilishga" majbur bo'ladi;

- ko'pincha amalda dehqonlar xo'jalik yuritish subyektlari bilan tuzilgan shartnomalar shartlari buzilganligini bilishsa ham sudlarga murojaat qilishmaydi. Chunki shartnoma shartlari buzilishi holatlari tegishli ravishda rasmiylashtirib borilmaydi. Masalan, suv o'z vaqtdan kechikib yetkazib berilganligi boisdan hosilning kamayishini yoki mahsulot sifati pasayishini har bir dehqon yaxshi biladi. Lekin suvning agroteknik muddatlardan kechikib yoki meyorlardan kam yetkazilishi o'z vaqtida hujjatlarda tegishli ravishda qayd etilmaydi. Natijada sudlarga murojaat qilish uchun huquqiy asoslar yetarli bo'lmaydi.

Umuman olganda, bozor sharoitida shartnoma munosabatlariga rioya etish xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy barqarorligi, dalada ishlovchi

xodimlarning yetarli darajada daromad olishlari, xo'jalik rivojlanib borishining iqtisodiy va huquqiy garovidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligi sohasida tuziladigan shartnomalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
2. Kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi qanday?
3. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday qonun hujjatlarini bilasiz?
4. Shartnoma shartlari buzilganda fermer kimga murojaat qilishi lozim?
5. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy majburiyatlar va ularni bajarilishini ta'minlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
6. Shartnoma ijrosini ta'minlash va ular yuzasidan mansabdor shaxslarning qanday javobgarligi bor?
7. Shartnoma majburiyatlarini bajarish tizimini takomillashtirish?
8. Fermer xo'jaliklari va xizmat ko'rsatish korxonalari o'rtasida tuziladigan shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish masalasiga o'z takliflaringizni ayting.

VI-Mavzu. QISHLOQ XO'JALIGI VA XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING IQTISODIY VA HUQUQIY SHAROITLARI

Reja:

- 6.1. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga ko'ra qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish
- 6.2. Qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari faoliyatini tahlil etish
- 6.3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari
- 6.4. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va ularning turkumlashtirilishi

O'quv maqsadi: *Davlat dasturida belgilangan asosiy vazifalarining mazmun, mohiyatini tushuntirish hamda qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini tahlil qilish orqali xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishgi oid masalalarni nazariy va amaliy jihatdan yoritishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, shartnoma munosabatlari, iqtisodiy munosabatlar.*

6.1. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga ko'ra qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratdilar: «Qishloqda uy-joy qurish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishni jadallashtirish dasturining 2010 yilning muhim ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritilishiga to'liq asos bor. Yurtimizda 2009 yilning «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb elon qilinishi, shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturining amalga oshirilishi qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiy va kommunal obyektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo'ldi. Bularning barchasi qishloq aholisi turmush darajasini tubdan oshirish va shahar sharoitiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi».

Qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish asosida qishloqda turmush sifatini oshirish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturida belgilab berilgan muhim chora-tadbirlar quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan (6.1.1-jadval)

**«Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturida belgilab berilgan
muhim chora-tadbirlarning bajarilishi**

T/r	Dastur bo'limlari va ularda belgilangan muhim chora-tadbirlar	Moliyaviy mablag'lar hajmi
<i>II-bo'lim. Qishloqda uy-joy va ijtimoiy soha ob'ektlarini qurishni loyihalashtirish, qishloq aholi punktlarini me'moriy rejalashtirishni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish</i>		
2.1.	- joylarning tabiiy-iqlimiy rel'efi va ijtimoiy-demografik xususiyatlariga mos keluvchi, mahalliy qurilish va noruda materiallari zaxiralaridan kelib chiqib, mavjud qurilish bazasini jalb etishni nazarda tutuvchi ijtimoiy-madaniy va sanitariya-maishiy sohalarga mo'ljallangan ob'ektlar qurildi; - qishloq aholi punktlari va hududlarni rivojlantirishning bosh rejalari va yangi tipovoy loyihalarini bosqichma-bosqich ishlab chiqildi va joriy etildi; - tayanch «Qishloqqurilishloyiha» ixtisoslashgan loyiha-izlanish instituti tashkil qilindi; - hududlarda alohida aholi punktlarini eksperimental namunaviy qurish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi (Qashqadaryo, Andijon viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida); - qishloq aholi punktlarini qurish bo'yicha beshta rag'batlantiruvchi mukofot bilan «Eng yaxshi qishloq», «Eng yaxshi viloyat» tanlovlari o'tkazildi.	350 mln. so'm
<i>III-bo'lim. Qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish asosida qishloqda turmush sifatini oshirish ishlari amalga oshirildi</i>		
3.1.	Qishloq aholisini yashash joylarini yaxshilash maqsadida: - qishloq joylarda 2009-2015 yillarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurish bo'yicha dastur ishlab chiqildi; - joriy yilda qishloqda 7100 ming kv.m. maydonga teng uy-joyni qurib bitkazildi; - qishloq qurilishi bo'yicha mintaqalarda bo'limlarga ega bo'lgan maxsus tijorat banki tashkil qilindi; - 500 ming kv.m. maydonga teng bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylarni kreditlashtirish asosida kapital remont qilindi; - 2009 yilda aholisi 5000 dan ziyod bo'lgan aholi punktlari, 2010 yilda aholisi 2000 dan ziyod bo'lgan aholi punktlari yoppasiga inventarizatsiyadan o'tkazilib, aholi va yuridik shaxslarning kelajakda suv, elektr energiyasiga ehtiyoji aniqlandi; - uy-joy qurish uchun qo'shimcha yer maydonlari mavjudligi va aholi punktlarini obodonlashtirish bo'yicha qo'shimcha ishchi kuchiga talab aniqlab chiqildi; - namunaviy uy-joy qurish uchun qishloq aholisiga Markaziy Bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foiziga teng bo'lgan,	494,2 mlrd. so'm;

	soddalashtirilgan kreditlarni kamida 10 yil muddatga yangi tashkil qilingan maxsus banklardan ajratish tashkil qilindi.	23,3 mln. dollar
	- yosh oilalarga, fermer xo'jaligi xodimlariga uy-joy fondini qurishga uzoq muddatli imtiyozli kredit ajratish mexanizmi ishga tushirildi. - viloyatlarda va Qoraqalpog'iston Respublikasida uy-joylarni qurish, remont va rekonstruktsiya qilish ishlarini bajaruvchi maxsus pudrat tashkilotlari tashkil qilindi va ularni barcha turdagi soliqlardan, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlardan ozod qilindi.	
3.2.	Qishloqda avtomobil yo'llarini rivojlantirish va transport xizmatini yaxshilashda: - 1913,9 km.ga teng bo'lgan avtomobil yo'llari remont qilindi; - mavjud marshrutlarni rivojlantirish va qo'shimcha 67 avtobus marshrutini ochish orqali qishloq aholisiga xizmat ko'rsatuvchi avtomobil xizmati, sifati va darajasi oshirildi.	45 mlrd. so'm
3.3.	Qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash: - qishloq joylarda uzunligi 1836 km.ga teng bo'lgan yangi suv o'tkazgich quvurlari va suv tarmoqlari qurib bitkazildi; - 304 aholi punktlaridagi suv bilan ta'minlash ob'ektlari ta'mirlandi; - xalqaro moliya institutlarining kreditlari va qarz mablag'lari hisobiga suv ta'minotini yaxshilash boyicha investitsion loyihalar amalga oshirildi; «Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida suv ta'minoti tizimini takomillashtirish» loyihasi doirasida suv o'tkazgich quvirlari qurib bitkazildi: Jumladan: Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumanida – 15,2 km, Beruniy tumani – 61,2 km; Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanida – 14 km, "Xiva-Yangiariq" suv tarmog'i barpo etildi – 18 km. «Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida suv ta'minoti va qishloq aholi punktlari sanitariyasi» loyihasi doirasida suv o'tkazish quvurlari qurildi. Jumladan: - Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida – 53 km, Koson tumanida – 98 km; - Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida – 63 km, Nurota tumanida – 32 km. - Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Qumqo'rg'on, Muzrobd, Angor, Sherobod, Bandaxon va Qiziriq tumanlarida suv tarmoqlari rekonstruktsiya qilindi va qayta tiklandi; - 2010-2015 yillarga mo'ljallangan qishloq hududlarini barqaror suv bilan ta'minlash loyihasi ishlab chiqildi.	36260 mln. so'm 20545 mln. so'm 7,5 mln. dollar 10,8 mln. dollar 625 mln. so'm.
3.4.	Qishloqda xizmat ko'rsatish sohasini, servisni yangi sifat	32,9 mlrd.

	darajasiga ko'tarish maqsadida. - qishloq joylarda 2009 yilda 452 ta chakana savdo, 126 ta ovqatlanish, 1856 ta maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari, qurilish hisobidan 140 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi; - aholisi 500 kishidan ortiq har bir qishloq aholi punktida 2009-2015 yillarda kamida bittadan minibank tashkil etishga erishildi; - aholisi 5 mingdan ortiq aholi punktlarida axborot-resurs markazlari ochildi (elektron biblioteka fondi, «Ziyonet» tarmog'i va boshqa videoproeksion apparatlar). - ijtimoiy ob'ektlarni telefonlashtirish (3363 ta maktab, 2388 maktabgacha tarbiya ob'ektlari, 1249 ta vrachlik punktlari, 93 ta kollej, 70 ta kasalxona), pochta xizmatlarini rivojlantirildi.	so'm; 5 mln. dollar 1 ta axborot- resurs markaziga - 200 mln. so'm
3.5.	Aholi yashash punktlarini obodonlashtirish: - qishloq tumanlarining obodonlashtirish bo'limlarining moddiy-texnika bazasi kuchaytirildi va natijada traktorlar va boshqa maxsus transport texnikasi bilan ta'minlanildi; - qurilish materiallari korxonalarini qurish, sement, gips, ohak ishlab chiqarish korxonalari qurish, bir yilda 81 mln. g'isht ishlab chiqaradigan kichik zavodlar, bir yilda 1630 mln. krovel (yopg'ich) materiallari ishlovchi korxonalar qurildi; - 84 ta dehqon bozorlari obodonlashtirildi.	37,2 mlrd. so'm

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga, jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy arxitektura va dizayn asosda barpo etiladigan, barcha qulayliklar va kommunikatsiya tizimlariga ega bo'lgan shinam uy-joylar barpo etishga, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisining 13,4 mln. nafari yoki 48,4 foiz qismi qishloqda, 14,3 mln. nafari yoki 51,6 foiz qismi shaharda istiqomat qiladi. Shunday ekan, qishloqda yashayotgan aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish millionlab vatandoshlarimizning farovonligini yuksaltirishga, ularda ertangi kunga bo'lgan ishonch va hayotdan qoniqish hislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-sonli «Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini inobatga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalarini» hamda 2009 yil 7 apreldagi 148-sonli «Qishloq aholi punktlarini bosh rejalar va hududlarni me'moriy rejalashtirishni tashkil etish loyihalari bilan o'z vaqtida ta'minlash, ushbu hududlarni shaharsozlik jihatdan kompleks rivojlantirishni amalga oshirish to'g'risida»gi farmoyishiga muvofiq qishloq aholi punktlarini zamonaviy bosh rejalar bilan ta'minlash va xududlarni me'moriy rejalashtirishni tashkil etish loyihalarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Qishloqlarda zamonaviy uy-joylar va infratuzilmalar barpo etish uzoq muddatga mo'ljallangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yirik dastur bo'lib, uni

hayotga tatbiq etish uchun katta mablagʻ talab etiladi. Qishloq qurilishiga sarflanadigan mablagʻlarning manbalari quyidagilardan iborat:

- qishloq aholisining oʻz mablagʻlari;
- «Qishloq qurilish bank» ochiq turdagi aksiyadorlik tijorat bankining kredit resurslari;
- davlat budjetidan shu maqsadlarga ajratilayotgan mablagʻlar;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari.

2010 yilgi Investitsiya dasturi doirasida faqat uy-joy qurilishi uchun «Qishloq qurilish bank» orqali aholiga 250 milliard soʻmdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi. Bu 2009 yilda ushbu maqsadlar uchun yoʻnaltirilgan mablagʻ miqdoridan 4 marta koʻp demakdir. Ayni vaqtda yakka tartibda uy quruvchilarning oʻzlari ham 118 milliard soʻmga yaqin mablagʻ sarf etishi kutilmoqda

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 25 mayda qabul qilingan «Tasdiqlangan namunaviy loyihalar boʻyicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat banki tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 148-sonli qaroriga binoan yakka tartibda uy-joy qurishga uzoq muddatli ipoteka krediti berishning asosiy shartlari quyidagicha belgilangan:

- ipoteka kreditlari olti oydan iborat imtiyozli davr bilan 15 yilgacha muddatga beriladi;

- ipoteka krediti miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda belgilanadi;

- ipoteka kreditidan foydalanish uchun bank tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank kredit komissiyasi (qoʻmitasi) tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan kundagi qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi miqdorida foizlar undiriladi;

- foizlar qarz oluvchi tomonidan uning olgan ipoteka krediti toʻliq toʻlangungacha kredit boʻyicha qarzlarning amaldagi qoldigʻiga hisoblab qoʻshiladi.

Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va halq farovonligini taʼminlashga erishish maqsad qilib qoʻyilgan. Hukumatimiz tomonidan infratuzilmalarni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan yirik davlat dasturlari natijasida hududlarda bir qator diqqatga sazovor ishlar qilindi.

Xususan, respublika boʻyicha jami 964,2 km gaz tarmoqlarida qurilish va rekonstruksiya ishlari toʻliq yakunlanib, foydalanishga topshirildi, 2,3 ming km suv tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilgan, 366 ta (19 mlrd. soʻmlik) qishloq aholi punktlarida suv obektlarining qurib foydalanishga topshirilgan.

2009 yilda davlat budjeti mablagʻlari hisobidan 182 ta zamonaviy litsey va kollejlarda hamda 697 ta maktablarda qurilish ishlari toʻliq yakunlangan. Bundan tashqari, mahalliy budjet va homiylik mablagʻlari hisobidan hududlarda jami 1,5 mingga yaqin maktab va maktabgacha taʼlim muassasalarini (17,7 mlrd. soʻmlik), 246 ta kasalxona va qishloq vrachlik punktlari (6 mlrd. soʻmlik), 84 ta sport obektlari (8,2 mlrd. soʻmlik) toʻliq taʼmirdan chiqarilib, foydalanishga topshirilgan.

Hududlarda 2100 ta koʻp xonadonli uylar toʻliq kapital taʼmirlanib, mazkur ishlarga mahalliy budjet manbalari hisobidan 24,2 mlrd. soʻmlik mablagʻ sarflangan.

Qishloqlarimiz taraqqiyotini yuksaltirish, ularni zamonaviy arxitektura talablari asosida qayta qurish, ijtimoiy infratuzilmalarni va kommunikatsiya tizimlarini keng ko'lamda barpo etish qishloq aholisining farovonligini yuksaltirish, ular uchun munosib turmush tarzini shakllantirishga qaratilgandir.

6.2. Qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari faoliyatini tahlil etish

O'zbekistonda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma shoxobchalarini tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Infratuzilma qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligining o'sishining muhim omili hisoblanadi. Sanoatlashtirish, kimyolashtirish, melioratsiya va ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillarini tez sur'atda o'sishiga nafaqat ishlab chiqarish mablag'larining miqdoran o'sishi hisobiga, balki xizmat tizimini tashkil etilishi hisobiga erishiladi. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 – yanvar 8 – sonli Qaroriga asosan respublikada 5ta qishloq xo'jaligi infratuzilmasi ob'ektlarining turlari (MMTP, SIU, YOMM, mineral o'g'itlarini sotish shoxobchalari, minibank) tashkil etilgan edi. Hozirgi kunga kelib, ushbu xizmat ko'rsatuvchi ob'ektlarning 10ta turi mavjud, lekin istiqbolda ushbu turlar kengayib, qishloq xo'jaligi infratuzilma turlarini 23 taga etkazildi.

Fermer xo'jaliklariga samarali xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasida bugungi kunda respublikada 1641 ta MMTP, 1504 ta SIU, 1357 ta YOMM va 915 ta mineral o'g'it sotish shoxobchalari, 1293 ta minibank, 346 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, 25910 ta zotli mollar sotish va zooveterinariya xizmatlari, 341 ta axborot ta'minoti va konsalting shoxobchasi, 115 ta transport xizmati ko'rsatish, 143 ta tara idishlar tayyorlash va qadoqlash bo'yicha shoxobchalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Qashqadaryo viloyatida esa fermer xo'jaliklariga samarali xizmat ko'rsatib kelayotgan infratuzilma obyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, quyidagi 6.2.1-jadvalda viloyatda fermer xo'jaliklariga aylantirilgan, istiqbolsiz, past rentabelli shirkat xo'jaliklari hududida 2005 yilda 151 ta muqobil MTP, 134 ta SIU, 136 ta yonilg'i-moylash materiallari sotish shoxobchasi, 106 ta mineral o'g'it sotish shoxobchalari va 106 ta minibank tashkil etilgan edi. 2014 yilga kelib ushbu infratuzilma obyektlarining soni MMTP bo'yicha 1,6 martaga, SIU-1,15 martaga, YOMM sotish shoxobchalari-1,5 martaga, mineral o'g'it sotish shoxobchalari-1,4 martaga va minibanklar soni 1,4 martaga oshganligi bilan birga boshqa xizmat turlari, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, zooveterinariya xizmati, axborot ta'minoti va konsalting xizmati, transport xizmati, tara idishlarini tayyorlash va qadoqlash kabi xizmatlarni ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari tashkil etilib, faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

6.2.1 - jadval

Qashqadaryo viloyati hududlarida tuzilgan infratuzilma obyektlari

№	Infratuzilma obyektlari (tuzilgan)	Yillar									2014 yilda 2005 yilga nisb. o'zg. marta
		2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2014	
1	MMTP	151	192	197	197	184	184	184	184	184	1,2
2	SIU	134	167	170	170	181	181	142	147	148	1,1
3	YOMM sotish shoxobchasi	136	167	185	185	185	185	185	185	186	1,4
4	Mineral o'g'itlar sotish shoxobchasi	106	132	126	126	126	126	126	126	128	1,2
5	Minibanklar	106	134	139	139	139	139	121	121	125	1,2
6	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish va tayyorlash shoxobchasi	28	54	53	53	53	53	53	53	55	2,0
7	Zooveterinariya xizmati va zotli mollarni sotish shoxobchasi	60	72	155	155	259	259	259	259	262	4,4
8	Axborot ta'minoti va konsalting xizmati	14	26	34	34	34	34	35	35	36	2,6
9	Transport xizmatlari ko'rsatish shoxobchasi	-	6	6	6	6	6	6	6	6	-
10	Tara idishlarni tayyorlash va qadoqlash shoxobchasi	-	3	3	3	3	3	3	3	3	-

Manba: Qashqadaryo viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ma'lumki, fermer xo'jaliklariga agrotexnik xizmat ko'rsatishni yaxshilash, qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish samarasini oshirish maqsadida respublikamizda muqobil mashina – traktor parklari tuzildi. Viloyatda faoliyat ko'rsatib kelayotgan muqobil MTPlarda jami 5745ta turli rusumdagi traktorlar mavjud bo'lib, shundan 566 tasini haydov traktorlari va 2479 tasini chopiq traktorlari tashkil etadi.

Endilikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta tayyorlash shaxobchalarini, transport xizmati ko'rsatish, tara idishlari tayyorlash va qadoqlash shaxobchalari, yog'moy mahsulotlarini sotish shoxobchalari hamda agrofimalarni tashkil etishga ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Fermer xo'jaliklarini mineral o'g'it va yoqilg'i moylash materiallari bilan ta'minlaydigan infratuzilma shoxobchalari tashkil etilgandan boshlab, yer va mulk solig'idan, suv iste'molchilar uyushmasi qo'shimcha qiymat solig'idan, daromad va mulk solig'idan 3 yil muddatga amal qilinishi o'z navbatida xizmat ko'rsatish darajasining oshishiga hamda ularning iqtisodiy barqarorlikka erishishiga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda xizmat ko'rsatish sohalari ob'ektlari bozor munosabatlari tamoyillari asosida tashkil etila boshlandi.

Bu yo`nalishdagi harakatni astoydil qo`llab-quvvatlash borasida joylarda bir qator ishlar qilinmoqda. Xukumatimizning tegishli qarorlarida ko`zda tutilgan fermerlarga dala boshida xizmat ko`rsatishga mo`ljallangan keng ko`lamli infratizilma majmui vujudga keltirilmoqda. Ular birinchi navbatda yangi fermer xo`jaliklari tashkil etilayotgan hududlarda barpo etilmoqda. Fermerlarga ko`plab minibanklar, muqobil MTPlar, suv iste'molchilari uyushmalari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari va mineral o`g`it sotish shoxobchalari xizmat ko`rsatmoqdalar. Buning natijasida fermerlar bank amaliyotlarini qishloqning o`zida bajarmoqdalar, tuman markazlariga borib yurmay, mineral o`g`it va yoqilg'i-moylash mahsulotlarini ham shu yerning o`zida ochilgan shoxobchalardan olmoqdalar.

Qishloq xo`jaligining boshqa sohalardan farqli ravishda o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`lib, shunga muvofiq ravishda xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish infratizilmasi tarmoqlarini tashkil etishda mavjud quyidagi shart-sharoitlar hisobga olinishi kerak, albatta.

- qishloq xo`jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo`lib, uni boshqa joyga ko`chirish imkoni yo`q va shuning uchun ishlab chiqarish infrastrukturasini ob`ektlarini xo`jaliklarga qulay joylarda tashkil etish lozim bo`ladi;

- qishloq xo`jaligida mavso'miy xususiyatidan kelib chiqqan holda, ya'ni ekin ekish sug`orish, o`g`itlash, agrotexnika, hosilni uig`ib olish va yerlarni keyingi yil mavso'mga tayyorlash ishlarining o`z vaqtida bajarilishi uchun, shunga mos ravishda xizmat ko`rsatuvchi infrastruktura tarmoqlari faoliyatida ham mavso'miylik xususiyati mavjud;

- tabiiy-biologik sharoitning ta`siri natijasida, ob-havo iqlimining o`zgarib turishi (qurg`oqchilik yoki yog`ingarchilik va boshqa, shu kabi holatlar) natijasida ayrim ishlab chiqarish infrastruktura xizmatlariga bo`lgan talab turli hudud va davrlarda turlicha bo`ladi va ular o`zgarib turadi;

- qishloq xo`jaligida etishtiriladigan mahsulotlarning asosiy qismi yilning kuz faslida pishib etiladi. Lekin mahsulotlar bilan iste'molchilarni yil davomida uzluksiz ta'minlash maqsadida ularni saqlash uchun mo`ljallangan omborxona va sovtgichlar quvvatlarini tashkil etishda bu omil e`tiborga olinishi kerak va hokazo.

Biroq ishlab chiqarish infrastruktura tarmoqlari rivojining hozirgi holatini tahlili, ularning samarali faoliyat ko`rsatishi uchun quyidagilarni e`tiborga olish lozimligini taqozo etmoqda:

- ayni paytda ishlab chiqarish infrastrukturasining ko`plab ob`ektlari monopolistik sharoitda xizmat ko`rsatayotganligini e`tiborga olgan holda, ular faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilib va tartibga solib turish lozimligi;

- ishlab chiqarish infrastrukturasini ob`ektlarining, ular xizmatidan foydalanuvchi sohalarga qulay joylashganligi va ko`rsatiladigan xizmatlarning narxi arzon hamda sifat ko`rsatkichlari yuqori bo`lishligi;

- ishlab chiqarish infratizilmasi ob`ektlarining xizmat ko`rsatish faoliyatini kengaytirish uchun moliyaviy mablag`lar bilan ta'minlash darajasini to`g`ri tashkil etish zarurligi;

- qishloq joylarida muqobil xizmat turlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni vujudga keltirish zarurligi.

Shunday qilib qishloq xo`jaligi va unga xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish infratizilmasi tarmoqlarining o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olgan holda hamda

mavjud muammolarni hal etish orqali ular xizmatini bozor talablaridan kelib chiqib tashkil etish lozim. Hayotiy tajribalar shuni ko'rsatayotiki, bugungi kunda ishlab chiqarish infratizilmasi tizimidagi, jumladan, qishloq xo'jaligi texnikalari, meliorativ qurilmalarning aksariyati ishga yaroqsiz holatga kelib qolganligi, agro-kimyo, elektr energiyasidan foydalanish va texnika xizmatlari narxining keskin oshib ketganligi, shuningdek, mahsulotlarni saqlash quvvatlarining yetishmasligi va mavjudlarining talab darajasida emasligi, ushbu sohadagi kamchiliklarni tubdan bartaraf etish va ular faoliyatini rivojlantirishni talab etadi.

Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda eng muhim omil ularni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashni yaxshilashdir. Buning uchun davlat fermer xo'jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirib borish lozim bo'ladi.

Davlat fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika ta'minotini qo'llab-quvvatlash mexanizmida raqobat muhitini, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi muhim ahamiyatga ega. Huquqiy jihatdan qishloq infratizilmasini rivojlantirishga doir qonun, me'yoriy xujjatlar, dasturlar qabul qilish hamda ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'radi. Fermer xo'jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashda davlati tomonidan xo'jaliklarni imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, moddiy-texnika ta'minoti korxonani subsidiyalashtirish, ushbu soha mutaxasislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Bu tizim bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq ravishda takomillashtirilib boriladi.

6.3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyot tarmoqlarining boshqa sohalariga singari o'be'ktiv iqtisodiy qonunlar asosida rivojlanadi. Ammo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish ularni mahsulot etishtirish xarakteri jihatidan iqtisodiyot tarmoqlarini boshqa sohalaridan farq qiladi.

1. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyot tarmoqlarining boshqa sohalaridan birinchi farqi shundaki, unda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hamda mehnat predmeti hisoblanadi.

Masalan: 1. Yer, xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ularning joylashgan o'rnini ko'rsatsa, qishloq xo'jaligida yersiz ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi. Yerdan ozuqa asosiy ishlab chiqarish vositlarini hohlagancha ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin. Yer esa cheklangan bo'lib, uni ko'paytirish va kamaytirish yoki yangidan yaratish mumkin emas. Yerning bu xususiyati esa undan unumli foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

2. Qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish fondlari sifatida jonli organizm, o'simlik va hayvonlardan foydalaniladi, shuning uchun takror ishlab chiqarishning iqtisodli jarayonlari doimo uzluksiz yangilab boradigai ishlab chiqarishlarni, o'zaro uzviy ravishda tabiiy takror ishlab chiqarish protsesslari bilan o'simliklarning va hayvonlarning, ya'ni ularning o'sish va rivojlanishi bilan chambarchas bog'langan bo'ladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun faqatgina texnikalarni, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning yaxshi bilibgina cheklanib qolmasdan, ishlab chiqarishning texnologiyasi o'simliklar va hayvonlarning o'sishi va rivojlanishining

biologik qonuniyatlari hamda tuproqlarni, qishloq xo'jaligini yurgizish tizimlari nimalarga asoslanganligini ham yaxshi bilish kerak.

3. Qishloq xo'jaligida asosan dehqonchilikda ishlab chiqarish vaqti bilan ish davri o'rtasini katta o'zlash mavjudligidir. Bu esa ishlab chiqarishni mavso'miyligini keltirib chiqaradi. Hozirgi mavjud sharoitda insonlarni tabiatga nisbatan ta'sir kuchining o'sishi bilan bu mavso'miylilik nisbatli pasaytirilib bormoqda, lekin mavso'miylilikni to'la tugatib bo'lmaydi.

4. Qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlaridan farqi uning maydonining kattaligidir. Bu esa energetik resurslarga ketgan harajatlarning xo'jalik ichida va xo'jalikdan tashqaridan tashiladigan yuklar oshishiga olib keladi. Bu qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatini bartaraf etib bo'lmaydi.

5. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining bir qismi (mol, urug', em hashak va boshqalar) ayni vaqtda takror ishlab chiqarish protsessida ishlab chiqarish vositasi vazifasini bajaradi.

6. Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda agrolometorologik sharoitlar katta rol o'ynaydi. Bu esa ekilayotgan ekinlarni hosildorligini va hayvonlarni mahsuldorligini har xil bo'lishiga olib keladi.

7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish vaqtining uzunligidir.

Ko'pchilik ekinlardan olinadigan hosil yoki hayvonlardan olinadigan nasl uchun 6 oydan 1 yilgacha vaqt kerak bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishi boshqa sohalarga nisbatan sekin aylanishiga olib keladi. Buning natijasida Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tovarligiga foyda hamda boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni kamayishiga olib keladi.

8. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning mulkchilikning turli shakli xususiy mulk, davlat mulki va aralash mulklarga asoslanganligidir.

6.4. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va ularning turkumlashtirilishi

Fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish uchun ularga xizmat ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratizilmasi tizimini tashkil etish hamda jadal rivojlantirishni davrning o'zi talab qilmoqda. O'zbekistonda agrar islohotlarning muhim strategik yo'nalishlaridan biri qishloqda infratizilma asoslarini shakllantirish va uning muassasalari faoliyatini takomillashtirishdir. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda infrastrukturasi uning o'rnini alohida ajralib turadi. Zero, bozor infrastrukturasini ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchilar o'rtasida keng miqyosda sodir bo'ladigan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, ularga ko'p qirrali xizmatlar ko'rsatuvchi hamda shu bilan bir qatorda ishchi kuchlarni oqilona takror ishlab chiqarishda muhim rol o'ynatadigan turli muassasalar majmuidir. Bu muassasalar faoliyatini rivojlantirish o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarishdan toki uni iste'molchiga etkazish tizimini yaratish, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka keng imkoniyatlar ochib berish, xuquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini muttasil ko'paytirish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni talab va taklif doirasida tashkil etish, ya'ni ish o'rinlarini barpo etish,

haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirish kabi qator bozor iqtisodiyotiga mos myammolarni hal etishda keng imkoniyatlar ochib beradi.

Biroq shuni aytish lozimki, respublikamizda, ayniqsa uning agrasanoat majmuida infratuzilma tarmoqlari etarli darajada rivojlanmaganligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste'molchilar talabini to'la qondirishgacha bo'lgan oraliqda nomutanosibliklar vujudga kelishiga, ishlab chiqarish sarflarining o'sishi va mahsulot nobudgarchiligining ko'payishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorliginiing pasayishiga va yil davomida iste'mol darajasining turliligiga olib keladi. Shuning uchun ham qishloq infratuzilmasi tizimi rivojini bosqichma-bosqich samarali amalga oshirmasdan turib, qishloqda dehqonlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun qonunlar doirasida ishlab chiqarishni kengaytirish aholi daromadini oshirish va mamlakatimizning ulkan eksport salohiyatidan foydalanish kabi masalalarning echimini topish qiyindir.

Shu bois hozirgi davr talabiga ko'ra, bozor infrastrukturasini tarmoqlarini, xususan, agrasanoat majmuida tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish dolzarb myammolardan biri hisoblanadi.

Infratuzilmalarning soha va tarmoqlar belgisiga qarab guruhlarga bo'linishi agrosanoat majmuida ko'pchilik turdagi infratuzilmalar, sohalararo xarakterga ega bo'ladilar. Bunga – transport, aloqa vositalari, elektr ta'minoti kabi infratuzilmalarni kiritish mumkin. Bu infratuzilma bo'g'inlari bir necha turdagi sohalar, masalan, o'simlikchilik, chorvachilik sohalariga xizmat ko'rsatishi mumkin. Ammo bir qator infratuzilma bo'g'inlari faqat bir tarmoqqa xizmat ko'rsatishi mumkin: masalan, agrokimyo xizmati, texnika-ta'mirlash xizmati, veterinariya xizmati, urug' tayyorlash punkti va hokazo bo'g'inlar bir yoki bir necha ekin yoki chorva mollari turiga xizmat ko'rsatadi.

Nazorat uchun savollar:

1. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» Davlat dasurida belgilangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalar faoliyatining asosiy vazifalarini ayting?
2. Qishloqda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha bajarilgan ishlarni izohlab bering?
3. Qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari faoliyatini tahlil eting?
4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
5. Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va ularning turkumlanishini ayting?
6. Xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma sohalarini faoliyatini takomillashtirish masalasiga qanday fikr va takliflaringiz bor?

VII-Mavzu. XO'JALIKLARNING YER-SUV RESURSLARI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH

Reja:

- 7.1. Yer va suv resurslarining dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati
- 7.2. Xo'jaliklarni yer resurslari bilan ta'minlashning huquqiy asoslari
- 7.3. Xo'jaliklarning suv resurslariga bo'lgan talabi
- 7.4. Yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun haq to'lash. Fermerlarga yer solig'ini to'lashdagi imtiyozlar
- 7.5. Yerdan, suvdan to'liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar
- 7.6. Yer va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalari

O'quv maqsadi: *respublikamizning yer fondidan foydalanish, tuproq unumdorligin oshirish va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishga qaratilgan nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *yer resurslari, suv resurslari, yer monitoringi, yer kadastri, suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, yer me'yorlari*

7.1. Yer va suv resurslarining dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyatining asosini yer-suv va mehnat resurslari tashkil etadi.

Yer qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yaratishda bevosita ishtirok etuvchi ishlab chiqarishning asosiy vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Yerdan foydalanish jarayonida fuqarolar, korxona va tashkilotlar, davlat idoralari ma'lum bir munosabatga kirishdilar. Bu yerga egalik qilish va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar bo'lib, ularning yig'indisi birgalikda jamiyatning yer munosabatlari tizimini tashkil etadi. Bu munosabatlar qonunlar bilan tartibga solinib, yerdan foydalanishning huquqiy asoslarini tashkil etadi.

Respublikada dehqon va fermer xo'jaliklari tashkil etish uchun yer resurslari ajratish O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Fermer va dehqon xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) yerlari shu xo'jalik a'zolarining umumiy yig'ilishi qarori asosida tuman hokimi qarori bilan beriladi. Bunda quyidagi tamoyillarga amal qilish ko'zda tutilishi lozim:

- xo'jalikning yer, suv, mehnat va moddiy resurslardan to'g'ri foydalanishini ta'minlash, tuproq unumdorligini oshirish;
- yer, suv, atmosfera va boshqa tabiiy resurslarni eroziya, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan ifloslanishlardan muhofaza qilish;
- yerni berishda mehnat iste'moli balansi, turli qishloq xo'jalik mahsulotlari bozor konyukturasi hamda yerdan foydalanishda agroekologik shartlardan kelib chiqib, xo'jalik ishlab chiqarishi ixtisoslashuviga tarkibiy munosabatlarning mosligi;
- suvdan foydalanish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali tashkil etish uchun tashkiliy sharoitlarni yaratish;

- xo'jalikning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari, yerdan foydalanishning ekologik xususiyatlarini hisobga olish;

- yerning agroekologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda yer uchastkasini ajratish va yer solig'i (ijara to'lovlari) ni belgilash;

- yerning bir butunligini, bir jinsligini, ekologik muvozanat va xavfsizligi hamda uchastkaning bitta sug'orish shahobchasidan foydalanishini ta'minlash;

- mavjud sug'oriladigan yerlarni saqlash, ularning kichik uchastkalarga bo'linishiga yo'l qo'ymaslik, chunki u holda qishloq xo'jaligi texnikasini qo'llash va sug'orish ishlarini bajarishda noqulayliklar tug'iladi.

Yer resurslari – bu quruqlik yuzasining jami yig'indisi bo'lib, uning tarkibiga boshqa tabiiy ob'ektlar kiritiladi. Bular: o'rmonlar, o'simlik va boshqa tirik organizmlar, suv ob'ektlari. Yer resurslarning suv ob'ektlari o'z ichiga ko'llar, ko'lmak va hovuzlar, ariqlarni qamrab oladi. Okean, dengizlar va daryolar esa suv resurslari tarkibiga kiradi.

Har bir davlatning yer-suv resurslari tabiat va jamiyatda yashash manbaidir, shuningdek, yer va suv bir-birining mavjudligini taqozo qiladi.

Yer resurslari boshqa resurslardek o'z xususiyatlariga ega.

Birinchidan, yer – tabiat mahsuli, in'omi hisoblanib, u inson mehnati bilan yaratilmaydi. Inson faqatgina yerga mehnatini yo'naltirib, yo yerning ahvolini yaxshiladi, yoki umuman yomon ahvolga solishi mumkin. Lekin inson o'z xohishi bilan yer resurslarini hosil qilolmaydi.

Ikkichidan, yer chegaralangan tabiiy resursdir. Inson xohlagancha yerni ko'paytirib, yoki kamaytira olmaydi. Shu sababli, bosh maqsad yerdan samarali va to'g'ri foydalanishdir. Bir mamlakat yer miqdori uning chegaralari bilan aniqlansa, umuman xududlar sifatida esa yer miqdori quruqlik yuzasi bilan belgilanadi.

Yer resurslari jismoniy nuqtai nazardan murakkab majmua hisoblanadi. Bu majmua turli omillar (kimyoviy, fizika, biologik) birlashmasi bilan xarakterlanadi. Yer resurslari turli yer uchastkalaridan iborat bo'lib, ular bir-biridan tuproq turlari, relefi, miqdori va boshqa xarakteristikasi bilan farqlanadi.

Uchinchidan, yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Shuningdek, yer har doim ishlab chiqarishdagi eng asosiy omil sifatidagi o'rnini yo'qotmaydi. Undan mablag'ni ko'paytirish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalar orqali qishloq xo'jalikdagi yerlardan unumli va samarali foydalanish, shuningdek sanoat va uy-joy qurilishi maqsadida ishlatish mumkin. Shu bilan birga, texnika taraqqiyoti yuksak cho'qqilarga ko'tarilganiga qaramay yerni boshqa ishlab chiqarish omillari bilan almashtirib bo'lmaydi.

7.2. Xo'jaliklarni yer resurslari bilan ta'minlashning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga muvofiq fermerlarga yer uchastkalarini uzoq muddatli ijaraga berish tartibi boyicha beriladi.

Yer uchastkalari fermer xo'jaliklariga tanlov asosida ijaraga berilib, ijara muddati qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Fermer xo'jaliklariga quyidagi yerlardan ijaraga beriladi:

- zaxira yerlaridan;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi yerlaridan;

- qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlaridan;

- qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlaridan beriladi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalariga, oliy o'quv yurtlariga, akademik litseylariga, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablariga o'quv-tajriba, nav sinash maqsadlari uchun berilgan yerlar hamda suv fondi yerlari fermer xo'jaliklariga berilmaydi.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi xo'jalikning biznes rejasi nazarda tutilgan kamida 30 shartli bosh chorva mollarini boqish shartlari bilan tashkil etiladi. Bunda shartli ravishda har bir bosh mol hisobiga quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi: korxonalar (sigirlar, nasl olinadigan novoslar, bo'rdoqiga boqiladigan novvoslar) va otlar uchun 1 ga, yosh qoramollar uchun – 0,6; qoy va echkilar uchun – 0,1; cho'chqalar uchun 0,3 hamda parrandalar uchun – 0,025.

Fermer xo'jaligi beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami har bir shartli bosh chorva moliga hisoblanadi;

Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda – kamida 0,30 gektarni;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlardagi sug'oriladigan yerlarda – kamida 0,45 gektarni;

- sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda – kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Yer uchastkasi fermer xo'jaligiga imkoni boricha yagona mavze boyicha, konturlar yaxlitligi saqlab qolingan holda beriladi, uchastka chegaralari sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, yo'llar va boshqa topografik elementlar boyicha belgilanadi. Fermer xo'jaligiga berilayotgan yer uchastkasi boshqa yerdan foydalanuvchilarning yerlardan foydalanishi uchun noqulayliklar vujudga keltirmasligi kerak.


Fermer xo'jaliklariga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan qat'iy maqsadga muvofiq holda foydalaniladi, ular xususiylashtirilishi va oldi-sotdi, garov hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi mumkin emas.

Fermer xo'jaliklariga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlari, ekinlaridan qishloq xo'jaligi ekinlari shartnomasida nazarda tutilmagan belgilangan maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanilishi amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Nizomda nazarda tutilgan barcha kelib chiqadigan oqibatlari bilan birgalikda ijara shartnomasining qo'pol ravishda buzilishi hisoblanadi.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi qayta tashkil etilganda bo'linishi mumkin, agar uni bo'lish vaqtida yangi tashkil etilgan yer uchastkalari «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va ushbu Nizomda nazarda tutilgan eng kam o'lchamlardan kam bo'lmasa.

Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalarini ijaraga berish boyicha materiallar yer tuzish xizmati organlari tomonidan davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tayyorlanadi.

Yer uchastkalari berish qoidaga ko'ra, fermer xo'jaligini tashkil etish va yer uchastkasini ijaraga olish to'g'risidagi barcha hujjatlar qishloq xo'jaligi ekinlari yig'ishtirish bo'lingan muddatda rasmiylashtirilgan holda amalga oshiriladi (7.2.1-rasm).



7.2.1-rasm. Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasini ajratish tizimi

Yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlarda va zaxiradagi yerlardan yer uchastkalari berish tartibi - tuman hokimi yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki)

zaxiradagi yerlardan yer uchastkalari ajratish to'g'risida, shuningdek ushbu yerlarni fermer xo'jaliklariga berish boyicha tanlov o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Hokimning tanlov o'tkazish to'g'risidagi qarori mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari boshqaruvi (ma'muriyati) binolarida osib qoyilishi kerak. E'londa quyidagilar ko'rsatilishi lozim: yer uchastkasining o'lchami, joylashgan joyi, sifati va boshqa tavsiflari, tashkil etilayotgan fermer xo'jaligining mo'ljallanayotgan ixtisoslashuvi, tanlovning, o'tkazilish vaqti va joyi. Tanlov uni o'tkazish to'g'risidagi qarorlar qilingan vaqtdan boshlab bir oy mobaynida o'tkazilishi kerak.

Yer uchastkalari berish to'g'risidagi ariza tashkil etilayotgan xo'jalikning biznes-rejasi yoki faoliyat dasturi ilova qilingan holda tanlov e'lon qilingan boshlab bir oy mobaynida tuman hokimiga beriladi. Ariza beruvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, uning turar joyi, so'ralayotgan yer uchastkasi joylashgan joy, uning maydoni, qishloq xo'jaligi korxonasining nomi, mo'ljallanayotgan ixtisoslashuv, chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaligi tashkil etishda-boqilishi mo'ljallanayotgan mollarning turlari boyicha bosh soni, yer uchastkasini ijaraga olish muddati ko'rsatiladi. Fuqarolarning arizasi maxsus daftarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tuman hokimi arizani yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga beradi, komissiya fermer xo'jaligiga yer uchastkalari berish bo'yicha tanlov o'tkazadi.

Komissiya qarori bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va tuman hokimiga beriladi. Tuman hokimi komissiya qarori asosida uch kun mobaynida fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida qaror chiqaradi va ushbu qarorni hamda tanlov komissiyasi ishi natijalarini viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasiga tasdiqlash uchun yuboradi.

Viloyat hokimi boshchilik qiladigan viloyat taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va tuman hokimining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarorini tasdiqlash (yoki tasdiqlashni rad etish) haqida qaror qabul qiladi.

Fermer xo'jaligining yer uchastkasiga egalik qilish hamda undan foydalanishdagi huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi. Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalaniladi. Ular xususiylashtirilishi, oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash ob'ekti bo'lishi va ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olishda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qoyilishi mumkin.

Yer uchastkasining o'lchami va chegaralari faqat fermer xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan o'zgartiriladi. Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddatiga meros bo'yicha o'tadi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin fermer xo'jaligi ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etgan taqdirda, ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqi uning merosxo'rida bo'ladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi taraflar o'rtasidagi nizolar chiqqanda sud tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinadi.

Fermer xo'jaligi tugatilgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinishi lozim.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasidan foydalanganlik uchun haq mahalliy byudjetga to'lanadigan har yilgi ijara haqi tariqasida yer uchastkasining sifatiga, joylashgan yeri va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, yerning kadastr bahosini inobatga olgan holda belgilanadigan yagona yer solig'i stavkasi miqdorida undiriladi.

Davlat royxatiga olingan paytdan e'tibordan ikki yil mobaunida fermer xo'jaligi yer uchastkasidan foydalanganlik uchun ijara haqi to'lashdan ozod etiladi.

Fermer xo'jaligi loyiha asosida yerni o'zlashtirsa besh yil davomida o'zlashtirilgan yer uchun yagona yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

7.3. Xo'jaliklarning suv resurslariga bo'lgan talabi

O'zbekiston Respublikasi qurg'oqchilik zonasida joylashgan bo'lib yoz oylari havosi haddan tashqari issiq bo'ladi. Tuproqdagi suv namnlari parlanib tuproq tarkibidan chiqib ketadi. Ekilgan ekinlar suvsizlikdan qurib, nobud bo'ladi. Bu esa sug'orib dehqonchilik qilish usulidan foydalanishni taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasi territoriyasidan ikki daryo-Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. Bu daryolarning yillik suv o'tkazish quvvati 121690 mln. m³ ni tashkil etib, ularning suvlaridan O'zbekiston (63020 mln. m³), Qirg'iziston (5140 mln. m³), Tojikiston (13230 mln. m³), Qozog'iston (25010 mln. m³) suv iste'mol qiladilar. Bu suv zaxiralari qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishga (85,6 %) sanoat va maishiy xizmatlarga 14,4 % suv foydalanildi. O'zbekiston Respublikasida yiliga 72,4 km³ suv foydalanilib 61 km³ oqova suvlar, 11,3 km³ yer osti suvlarini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi yillik ob-havo haroratiga qarab suv zaxiralari ham o'zgaradi. Eng kam suvli yillari suv zaxirasi suvga bo'lgan talabni 67 %ni qoplay oladi xolos. Bu esa qishloq xo'jaligida ekinlar etarli suv bilan ta'minlanmaslik oqibatida hosildorligi pasayadi, har hil kasalliklar bilan kasallanish darajasi ortadi, mahsulot sifati yomonlashadi. Kelajakda O'zbekistonda suvga bo'lgan talab orta borib suvga bo'lgan talabni qondirish muammolari qiyinlasha boradi.

O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuniga asosan suvga doir munosabatlarni tartibga solish, qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, suvni bug'lanish, ifloslanib ketish va kamayib ketishdan saqlash, suvning zararli ta'sirini oldini olish va bartaraf qilish, suv ob'ektlarining holatini yaxshilash, shuningdek suv ta'minoti korxonalarini bilan suv iste'molchilari o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini yaxshilashdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini suv bilan samarali ta'minlash sug'oriladigan dehqonchilikni yanada rivojlantirishning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va tahlillar natijalarining ko'rsatishicha, sug'oriladigan dehqonchilik bugungi kunda mamlakatimiz xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv manbalaridan olinadigan butun suv miqdorining 90-92 foizini tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida 2014 yilda iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta'minlashda manbalardan 5439,8 mln.m³ suv olingan bo'lsa, shundan qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun 5140,0 mln.m³ (94,4%), sanoatga 17,7 mln.m³ (0,3%), kommunal xo'jaligiga 206,4 mln.m³ (3,8%), energetikaga 575,0 mln.m³ (10,6%), baliqchilikka 5,5 mln. m³ (0,1%)

suv amalda sarf qilingan. Bu ko'rsatkichlarni 2005 yil bilan taqqoslaganimizda manbalaridan olinayotgan suv miqdori 9,1 foizga, qishloq xo'jaligiga sarflangan suv miqdori esa 13,41 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin. Biroq, suv resurslari 2011 yilda tanqis bo'lganligini jadval tahlillaridan ham ko'rish mumkin. Ta'kidlash joizki, viloyatning sug'oriladigan yerlarini suv bilan ta'minlash uchun ichki va tashqi suv resurslari manbalari cheklangan. Shuning uchun ulardan faqat suv tanqisligi yillarida emas, balki suv ko'p bo'lgan yillarda ham tejamli foydalanish o'ta dolzarb masala hisoblanadi. 2012 yilda suv manbalaridan jami amalda 6398,2 mln.m3 miqdorida suv olingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin. 2013-2014 yillarda manbalardan 5,3-5,7 mlrd.m3 suv olinib, uning 93-94 foizi qishloq xo'jaligiga, 0,3-0,4 foizi esa sanoatga, 3,8-4,5 foizi esa kommunal xo'jaligiga sarflangan.

Viloyatda jami manbalardan olingan suv miqdorining sug'oriladigan maydonlarga, ya'ni paxta va g'alla ekinlariga taqsimlanishini ko'rib chiqamiz (7.3.1-jadval).

7.3.1-jadval

Qashqadaryo viloyatida manbalardan olinadigan suv resurslarining ekin turlariga taqsimlanishi

Manbalar			O'lc. birl.	Amudaryo +TSO	Zaraf- shon	Qashqa- daryo	Jami sug'oriladigan maydon
Ko'rsatkichlar							
2005 yil	Sug'oriladigan maydon		ming ga	324,3	43,5	132,7	500,5
	shu jumladan	paxta	ming ga	119,8	15,4	28,3	163,5
		g'alla	ming ga	98,7	12,7	30,7	142,1
2006 yil	Sug'oriladigan maydon		ming ga	334,1	48,9	128,5	511,5
	shu jumladan	paxta	ming ga	123,0	17,5	32,4	172,9
		g'alla	ming ga	98,6	14,3	29,1	142,0
2007 yil	Sug'oriladigan maydon		ming ga	334,7	56,9	129	520,6
	shu jumladan	paxta	ming ga	130,7	20,8	32,6	184,1
		g'alla	ming ga	100,3	17,7	31,9	149,9
2008 yil	Sug'oriladigan maydon		ming ga	336,0	48,8	129,4	514,2
	shu jumladan	paxta	ming ga	128,3	17,9	29,7	175,9
		g'alla	ming ga	101,3	14,3	36,5	152,1
2009 yil	Sug'oriladigan maydon		ming ga	383,3	49,9	80,3	513,5
	shu jumladan	paxta	ming ga	120,9	15,6	24,5	161,0
		g'alla	ming ga	99,3	13,6	32,1	145,0
2010 yil	Sug'oriladigan maydon		ming ga	335,9	49,8	129,0	514,7
	shu jumladan	paxta	ming ga	124,0	17,2	33,0	174,2
		g'alla	ming ga	98,7	13,8	32,5	145,0
2020	Sug'oriladigan maydon		ming ga	336,6	49,6	129,6	515,8

	shu jumladan	paxta	ming ga	119,9	14,5	26,0	160,4
		g'alla	ming ga	99,0	13,8	32,1	144,9
2012 yil	Sug'oriladigan maydon		ming ga	363,3	49,6	129,7	515,7
	shu jumladan	paxta	ming ga	119,7	14,1	26,6	160,4
		g'alla	ming ga	99,5	13,7	31,8	145,0
	Sug'oriladigan maydon		ming ga	336,3	49,5	129,7	515,5
2013 yil	shu jumladan	paxta	ming ga	119,7	14,0	26,7	160,4
		g'alla	ming ga	102,6	14,5	32,2	149,3
	Sug'oriladigan maydon		ming ga	336,0	49,6	129,7	515,3
2014 yil	shu jumladan	paxta	ming ga	118,8	14,5	27,1	160,4
		g'alla	ming ga	98,6	14,0	32,4	145,0
	Sug'oriladigan maydon		ming ga	336,0	49,6	129,7	515,3

Manba: Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, 2005 yilda Amudaryo havzasidan va Tallimarjon suv omboridan olingan suv 324,3 ming ga yerga sarflangan bo'lsa, 2011 yilda 336,6 ming gaga, 2012 yilda 363,3 ming gaga, 2013-2014 yillarda esa 336,0 ming gaga sarflangan. Lekin Zarafshon suv manbalaridan olinayotgan suv 2014 yilda 2005 yilga nisbatan 114,0 foizga ko'paygan. Qashqadaryo daryosi manbasidan olingan suv hisobiga 2005 yilda 132,7 ming ga yer sug'orilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2014 yilda 129,7 ming gani tashkil etgan. Demak 2013-2014 yillarda Qashqadaryo daryosi orqali sug'orilgan maydon 2005 yilga nisbatan 2 foizga yoki 3 ming gaga kamayganligini jadval tahlillari orqali ko'rish mumkin.

Butun dunyoda bo'lganidek mamlakatimizda ham suv resurslariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli mavjud suv zaxiralaridan samarali foydalanishga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Suv xo'jaligini boshqarish tizimida ham islohotlar amalga oshirildi. Mavjud suv resurslardan foydalanish havza boshqaruv tizimiga o'tkazildi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida suvdan foydalanish tizimi Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) orqali amalga oshirilishi yo'lga qoyildi.

SFUDan foydalanish tizimining yo'lga qoyilishi 2000 yildan boshlab Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklari tarqatilib Fermer xo'jaliklariga aulantirish jarayonida tashkil etila boshlandi. Fermer xo'jaliklarini suv bilan ta'minlashda asosiy korxona bo'linma SFUlar hisoblanadi.

SFUlar nima? Ular bugungi kunda qanday vazifalarni bajaradi va uning boshqaruv tizimi qanday tartibda amalga oshiriladi?

Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) - bir yoki undan ortiq suvdan foydalanuvchilarning hoxish istagi bilan tuziladigan nodavlat-notijorat tashkilotdir. Suvdan foydalanuvchilar shirkat, Fermer va dehqon xo'jaliklari bo'lib, adolatli suv taqsimoti hamda irrigatsiya va zovut tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo'lga


qo'uish orqali uyushma hududida sug'orma dehqonchilikni rivojlantiradilar. Foydalanganlik uchun SFUning moliyaviy faoliyatini ta'minlaudi.

SFU a'zoliciga uyushma xizmat ko'rsatadigan Yer egaligi huquqini qo'lga kiritgan yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Uyushma a'zolarining bevosita o'zlari yoki ularning vakolatlari SFU faoliyatini demokratik tamoyillar asosida boshqaradilar. Bu quyidagi tuzilmada aks ettirilgan (7.3.1–rasm).

SFUning oliy boshqaruv organi umumiy uig'ilish qarori bo'lib, barcha uyushma a'zolar yoki suvdan foydalanuvchilar, vakillari qatnashadi. Ularning har-biri bir ovozga ega hisoblanadi.

SFUning tashkiliy tuzilmasi



7.3.1-rasm. Suv iste'molchilari uyushmalarining tashkiliy tuzilmasi

Umumiy uig'ilish vakolatiga SFU faoliyatiga bog'liq bo'lgan ichki hujjatlarni tasdiqlash, ishchi va xizmatchilarning ish haqlarini belgilash, badal to'lovlari hamda joriy va uzoq muddatli ish rejaralarini tasdiqlanadi.


Respublikamizda SFUlarni tashkil etishdan maqsad suvdan to'g'ri foydalanishni va uyushma xizmat doirasidagi irrigatsiya – melioratsiya tarmoqlarini me'yorda ishlashini ta'minlash, suvning hisob-kitobini uyrgizish, odilona suv taqsimotini o'rganish, SFU a'zolari bo'lgan suvdan foydalanuvchilarning xuquqlarini himoya qilish vazifalarini bajarishdan iboratdir.

Suvdan foydalanuvchilar-fermer, dehqon xo'jaliklari, tomorqa egalari va boshqalar bo'lib, adolatli suv taqsimoti hamda irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'uish orqali uyushma xududida sug'orma

dehqonchilikni rivojlantiradilar va buning uchun o'zlarining moliyaviy va texnik imkoniyatlarini birlashtiradilar.

SFU larni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 yanvardagi 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Respublikamizdagi mavjud suv xo'jalik tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar hamda ularning xududiy bo'linmalari negizida Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tuzildi (7.3.2-rasm).



7.3.2-rasm. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshqaruv tuzilmasi

Havza boshqarmasining vazifasi iqtisodiyot tarmoqlari hamda qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot etishtirish uchun suv bilan ta'minlash va suv xo'jaliklariga servis xizmati ko'rsatishdan iborat.

Havza boshqarmasi o'z funktsiyalariga ega bo'lib, suvdan foydalanish bashoratini umumlashtiradi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga suv limitlari bo'yicha takliflar kiritib tasdiqlangan limitlar asosida viloyatlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari, irrigatsiya tizimlari boshqarmalari, magistral kanal (tizim) lar, suv xo'jaligi ob'ektlari, irrigatsiya tizimlari, viloyat va tumanlar bo'yicha suv olish limitlarini belgilab beradi. Shuningdek, suv xo'jaligi va suvdan foydalanuvchilar o'rtasidagi hisob-kitob ishlarini yuritadi, suv resurslari balansini tuzadi, suv kadastrlarini yuritadi. Suv o'lchash vositalari ta'minoti, aloqa avtomatika, telemexanikaning zamonaviy tizimlarini joriy etadi; tizimlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va ularni amalga oshiradi; havza suv xo'jaligini istiqbolli rivojlantirish strategik rejalarni tuzadi; investitsiyalar kiritadi; irrigatsiya tizimlari va inshootlarini jihozlash va rekonstruktsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, suv resurslarining byudjet mablag'larini belgilab beradi va hokazo.

Endilikda SFUlar faoliyatini yo'lga qoyish boyicha respublikada muayyan qonunchilik bazasi yaratildi (biroq aynan SFUlar to'g'risida, ya'ni uni tashkiliy, iqtisodiy asoslarini ko'rsatuvchi qonun ishlab chiqilgan emas). 2009 yilning 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Ushbu Qonunning 2-moddasiga asosan suvdan foydalanuvchilar uyushmasi o'rniga **suv iste'molchilari uyushmasi**³ bilan o'zgartirish kerakligi belgilab berildi.

Suv iste'molchilari uyushmasi – bu yuridik shaxs bo'lgan suv iste'molchilari tomonidan suvga doir munosabatlar sohasidagi o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosida tashkil etiladigan nodavlat, notijorat tashkilot bo'lib, o'z faoliyatini fermer va dehqon xo'jaliklari hamda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan shartnoma asosida suv etkazib berish xizmatlari uchun to'langan mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

7.4. Yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun haq to'lash. Fermerlarga yer solig'ini to'lashdagi imtiyozlar

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli qarorining 21-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi.

Qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqib yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i stavkasi 2014 yil darajasida qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatiga nisbatan 6 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

Bunda, jamoat imoratlari va hovlilari bilan band bo'lgan yerlar bo'yicha baholash 2,0 koeffitsiyentini qo'llagan holda amalga oshiriladi.

Belgilangan mezonlarga muvofiq, yagona yer solig'i to'lovchilari jumlasiga kiruvchi baliqchilik xo'jaliklari yagona yer solig'ini sug'oriladigan yerlarning tuman bo'yicha o'rtacha normativ qiymatidan kelib chiqib to'laydi.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig'i stavkasi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'ining bazaviy stavkasi bo'yicha yer uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-bonitet)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsiyentidan kelib chiqib aniqlanadi.

Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$ECc = EY_M \times C6c \times TK$$

Bunda, ECc – yagona yer solig'ining summasi, so'm;

EY_M – yer uchastkasining maydoni, gektar;

C6c – 1 gektar uchun soliqning bazaviy stavkasi, so'm;

TK – tuzatish koeffitsiyenti.

Shuningdek, yagona yer solig'i bir yilda uch marta to'lanadi:

Yillik to'lanadigan soliq so'mmasining 20 foizi-1 iyulgacha; 1 sentyabrgacha 30 foizi; 1 dekabrgacha bo'lgan muddatda – soliqning qolgan 50 foizi to'lanadi.

Yer haqi, uni hisoblash va to'lash tartibi quyidagilardan iborat:

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2009 yil, 31 dekabr, № 52.

- dehqon va fermer xo'jaliklariga yer ajratib berishni rasmiylashtirish yer tuzish xizmati organlari tomonidan mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

- fermer xo'jaliklari yerdan foydalanganlik uchun ijara xaqi tariqasida yer uchastkasining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, uning kadastr bahosini inobatga olgan holda, dehqon xo'jaliklari esa meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik xuquqi asosida berilgan tomorqa yer uchastkasidan foydalanganlik uchun har yili 15 dekabrga qadar yagona yer solig'i to'laydilar.

- yer solig'ini to'lashda yerlarning sifati ham hisobiga olinadi. Agarda xo'jalikning yeri yomon (ball boniteti 40 ballgacha) bo'lsa, stavkalarga 0,75 o'rtacha (ball boniteti 41 ball dan 70 ballgacha) bo'lsa, 1,0 va yaxshi (ball boniteti 70 ball dan yuqori) bo'lsa, 1,25 koeffitsienti qo'llaniladi.

- yer uchastkalarining ma'muriy va sanoat markazlariga nisbatan joylashishiga qarab soliq stavkalari Toshkent shahri atrofida 20 kilometrlik doirada-1,3, Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyatlar markazi atrofida 15 kilometrlik doirada – 1,15, boshqa shaharlar atrofida 5 kilometrlik doirada – 1,1 koeffitsientga mos yer solig'i undiriladi.

- fermer va dehqon xo'jaliklari yerdan belgilangan maqsadda va oqilona foydalangan holda qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirishda yuqori samaradorlikka erishishni ko'zlashi lozim. Aks holda fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik ekinlaridan olingan hosildorlik normativ kadarstr bahosidan muttasil (uch yil mobaynida) past bo'lganda yerdan foydalanish xuquqi bekor qilinishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, birinchi marta tomorqa yer uchastkasi olgan dehqon xo'jaligi va yangi tashkil etilgan fermer xo'jaligi hamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridan o'zgartirilgan dehqon xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin ikki yil mobaynida yer uchastkasidan foydalanganlik uchun yer solig'idan ozod qilinadi.

Soliqqa tortish va soliq to'lash mexanizmini soddalashtirish maqsadida mamlakatimiz Prezidentining Farmoni bilan fermer xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan to'qqizta soliq turi o'rniga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi korxonalari uchun yagona yer solig'i joriy qilingan bo'lib, u har tomonlama qulaylikka ega. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qishloq xo'jaligi sohasida bir qator soliq va bojxona imtiyozlari qo'llanadi:

- yangidan tashkil etilgan, paxta, g'alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa mahsulotlar yetishtiradigan fermer xo'jaliklari 2 yil muddatga, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari 5 yil muddatga yagona yer solig'i to'lashdan ozod etildi;

- fermer o'z hisobidan o'zlashtirgan yer uchun besh yil davomida yagona yer solig'i to'lashdan ozod qilindi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi 304-sonli qaroriga asosan, xorijiy texnikalari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari hamda chet el texnikalar uchun ehtiyot qismlar olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 martdagi 308-sonli qaroriga muvofiq, chet ellardan chorva mollari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlaridan ozod etilgan.

Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini imtiyozli shartlar bo'yicha lizing asosida harid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 10 yil muddat ichida to'lash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda lizingdan foydalangani uchun yillik foiz to'lovlari Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydigan qilib belgilandi.

Suv fondi ham davlat tasarrufida bo'lib, fermer va dehqon xo'jaliklarini yuritish uchun vakolatli organlari tomonidan suvdan foydalanish limiti ajratiladi. Suvdan foydalanganligi uchun to'lanadigan soliq miqdorini tuman davlat soliq inspeksiyasi hisoblab, soliq to'lovchilarga har yili 1 maygacha to'lov xabarnomasini taqdim qiladi. Berilgan suvning sarfini hisobga olish hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash tartibi hamda mazkur soliq boyicha imtiyozlar qonun xujjatlari bilan belgilanadi. Suv ob'ektlari (daryo, ko'l, suv omborlari, kanallari va shu kabilari)ga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xo'jalik faoliyati yuritish va qurilish ishlari olib borish ta'qiqlanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, suv uchun badal to'lovlari qoniqarsiz tarzda amalga oshirilayotgan ekan, bozor iqtisodiyoti sharoitida suv uchun to'lovni bozor prinsiplariga asoslangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli bo'lgan irrigatsiya tizimlari hududlarida sug'orish ishlari asosan nasoslar orqali yoki oqin suvlari orqali amalga oshirilayotganligini e'tiborga olgan holda, suv uchun narx belgilash tavsiya qilinadi. Bunda shartnomada ko'rsatilishi kerak bo'ladigan pul mablag'lari xo'jaliklarning o'simlik turiga qarab meyor asosida belgilanishi shart. Suv iste'molchilari uyushmalarining ijtimoiy fondga to'lovlari (25%), ko'rsatilgan xizmat uchun shartnomada belgilangan summaning 20 foizi miqdori qo'shib hisoblanganda va bu qiymat olingan suv miqdoriga taqsimlanib, 1 m³ suvning tannarxini hisoblash formulasi taklifini beramiz. Bu ko'rsatkichni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$T_H = \frac{III_H + C_T + K}{C_M}$$

Bu yerda: T_H - 1 m³ suvning tannarxi, so'm;

III_H - shartnomada ko'rsatilgan xarajatlar miqdori, ming so'm;

C_T - ijtimoiy fondga to'lovlar, ming so'm;

K - ko'rsatilgan xizmat uchun ustama haq (nasossiz sug'orilganda-20 foiz, nasoslar yordamida-80 foiz), so'm;

C_M - yetkazib berilgan suv miqdori, ming m³.

Ushbu formula orqali 1 m³ suv uchun to'lovlarni aniqlashda viloyatda 2008 yilda SIU tomonidan 3681,5 mln. so'mlik qiymatga ega bo'lgan xizmatlar bajarilganligi va viloyatning 512 ming gektar sug'oriladigan yerlariga 4528 mln.m³ suv sarf qilinishini inobatga oladigan bo'lsak, 1 m³ suvning tannarxi quyidagicha aniqlash mumkin:

$$T_H = \frac{3681500 + 303723,75 + 736300}{4528000} = 1,04 \text{ so'm}$$

Bizga ma'lumki, Qarshi magistral kanali irrigatsiya tizimlari boshqarmasi (ITB) va Mirishkor ITBlari asosan Amudaryodan nasoslar yordamida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun suv oladi. Bunda elektroenergiya xarajatlarining keskin

oshib ketishi ushbu tizimlardagi suv iste'molchilariga 1 m³ suvning tannarxini hisoblashda namoyon bo'ladi. Ya'ni, ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnoma qiymatining 80 foizi miqdorida ustama haq belgilanib, elektroenergiya xarajatlarini qoplash imkoniyatiga ega bo'linadi. Shuningdek, 1 m³ suvning tannarxini quyidagicha aniqlaymiz:

$$T_H = \frac{3681500 + 303723,75 + 2945200}{4528000} = 1,53 \text{ so'm}$$

Demak, suv resurslaridan samarali foydalanish uchun SIU suv iste'molchilariga suvni taqsimlashda eng avvalo, suv olish nuqtalarini suv o'lchash vositalari bilan jihozlashlari shart. Buning uchun esa, davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishga tushirish maqsadga muvofiq bo'ladi. SIU larning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda lizinglar orqali kerakli vositalar bilan ta'minlansa, suvdan foydalanishda behudaga yo'qotishlar bo'lmaydi va SIU ixtiyorida bo'lgan sug'orish inshootlari uyushma a'zolarining mulki hisoblanib, uni ishchi holatida saqlash ularning zimmasida bo'ladi. Shuningdek, fermerlarga berilayotgan imtiyozli kreditlar maqsadli bo'lib, asosan YOMM, urug'lik, kimyoviy va biolaboratoriya vositalari, MTP xizmati, ish haqi va soliqlarga yo'naltirilgan bo'lib, SIU xizmati uchun to'lov alohida aks ettirilmaganligini hisobga oladigan bo'lsak, uyushmaning moliyaviy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun berilayotgan imtiyozli kreditlarda bugungi kun suv tanqisligini e'tiborga olib, kreditda SIU xizmatlari alohida qayd etilsa, bu uyushmaning moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi va kelgusida davlat budjetidan sug'orish tarmoqlari, inshootlari uchun ajratiladigan mablag'lar tejalishiga olib keladi.

7.5. Yerdan, suvdan to'liq va samarali foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Yer, suv qishloq xo'jaligining eng asosiy ishlab chiqarish vositalari ekan, ulardan dehqon va fermer xo'jaliklari qanday foydalanilishayotganini bilish zarur. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) **Umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsienti (foizi).** Uning darajasini aniqlash uchun dehqon va fermer xo'jaliklarida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga taqsimlash lozim. Buni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$EFK = \frac{\Phi E}{\Phi ME}; \text{ yoki } \frac{\Phi E}{\Phi ME} \times 100:$$

Bunda: EFK—umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsienti, (foizi);

ΦE — dehqon va fermer xo'jaliklarida foydalanilgan yer maydoni, ga;

ΦME – foydalanilishi mumkin bo'lgan yer maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich koeffitsientda yoki foizda aniqlanishi mumkin. Uni aniqlash natijasida yerdan foydalanishning to'liqlik darajasi aniqlanadi. Uni haqiqiy darajasi, ya'ni koeffitsienti 1 dan yoki 100 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bu ko'rsatkichni aniqlash natijasida dehqon va fermer xo'jaliklarida qancha yerdan foydalanilgan va qanchasidan foydalanilmaganligi bilinadi. Shundan so'ng bunday holning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

b) **Suvdan foydalanish koeffitsienti.** Butun tizim bo'yicha suv resurslaridan foydalanish koeffitsientini hisoblashda eng oxirgi yer uchastkasigacha yetib borgan

suv miqdorini manbalardan olingan suv miqdoriga nisbati orqali aniqlanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi va uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin bo'ladi:

$$C\Phi K = \frac{\mathcal{O}O\mathcal{B}EC}{MOC} \text{ yoki } C\Phi K = \frac{\mathcal{O}O\mathcal{B}EC}{MOC} * 100\%$$

Bu yerda: $C\Phi K$ - suvdan foydalanish koeffitsiyenti;

$\mathcal{O}O\mathcal{B}EC$ - eng oxirgi yer uchastkagacha yetib borgan suv miqdori, m³

MOC - manbalardan olingan suv miqdori, m³

Buni aniqlash natijasida suvdan foydalanish darajasi belgilanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlashda ekinlarga suv berish me'yoriga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki unga rioya qilinsa, albatta, suvdan foydalanish darajasi yuqori bo'ladi. Demak, uning darajasi, ya'ni koeffitsienti 1 dan yoki 100 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim. Agarda yuqori bo'lsa, unda ekin maydonlari sifatli sug'orilgan bo'lmaydi.

v) **Foydalanish mumkin bo'lgan yerlardan bir yilda necha marta foydalanilganlik darajasi.** Uni aniqlash uchun dehqon va fermer xo'jaliklarining haqiqatda urug', chigit ekilgan maydonni mavjud ekin ekilgan yer maydoniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EFS = \frac{Y\mathcal{O}M}{\Phi M}$$

Bunda: EFS-yerdan foydalanish soni, ya'ni 1 ga maydondan necha marta foydalanilganlik soni;

$Y\mathcal{O}M$ - dehqon va fermer xo'jaliklarining bir yil mobaynida urug', chigit ekilgan maydoni, ga;

ΦM - foydalanilgan yer maydoni, ga;

Bu ko'rsatkich yordamida bir maydonga necha marta ekin ekib, foydalanilganlik darajasi, ya'ni soni aniqlanadi. Demak, uning soni birdan ko'p bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mavjud bo'lgan yerlardan bir necha marta ekin ekib, hosil olishga intilish lozim.

g) **Yer (ekin) maydonlarining mahsuldorligi, hosildorligi.** Bu ko'rsatkich asosan ekin turlari hamda umumiy maydon boyicha, natural hamda qiymat ko'rinishlarida aniqlanadi, ya'ni ular dehqon va fermer xo'jaliklarining 1 gektar foydalanilgan maydondan qanday mahsulotlarni qancha miqdorda (kg, sen, tonna) hamda necha so'mlik mahsulot yoki foyda olinganligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EX = \frac{RX}{\mathcal{O}M};$$

Bunda: EX- 1 ga ekin maydonidan olingan hosil miqdori, s;

RX - ekin ekilgan maydondan olingan yalpi hosil miqdori, s. yoki tonnada;

$\mathcal{O}M$ - ekin ekilgan haqiqiy maydon, ga.

Bu ko'rsatkich yordamida 1 gektar ekin ekilgan maydondan qancha miqdorda hosil olinganligi ekin turlari boyicha alohida-alohida aniqlanadi. Uning miqdori qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Bu ko'rsatkich u yoki bu ekin ekilgan maydonning mahsuldorligini isbotlaydi. Jami ekin maydonlari mahsuldorligini aniqlash uchun ko'rsatkichni quyidagi qiymat ko'rsatkichlarida aniqlash, buning uchun har bir ekinning yalpi hosil qiymatini aniqlab olish lozim. So'ngra ularning yig'indisini aniqlash kerak.

$$EM = \frac{ЯМК}{ЭМ} : \frac{ЯД}{ЭМ} : \frac{СФ}{ЭМ}$$

Bunda: EM- foydalanilgan yerlarning mahsuldorligi. Ya'ni, bir gektar ekin ekilgan yoki yaylov, pichanzor maydondan necha so'mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad hamda sof foyda olinganligi aniqlanadi;

ЯМК- olingan yalpi mahsulot qiymati, so'mda;

ЭМ- ekinlar ekilgan maydon, ga;

ЯД- olingan yalpi daromad summasi;

СФ- olingan sof foyda summasi.

d) **Suvdan foydalanish samaradorligi.** Bu ko'rsatkich yordamida har bir metr kub suv evaziga olingan yalpi mahsulot miqdori, qiymat, daromad va sof foyda so'mmasi quyidagi tenglik yordamida aniqlanadi:

$$SFS = \frac{ЯХ}{ФСМ} : \frac{ЯМК}{ФСМ} : \frac{ЯДК}{ФСМ} : \frac{СФ}{ФСМ}$$

Bunda: SFS-suvdan foydalanish samaradorligi;

ФСМ-foydalanilgan suv miqdori. Bu natura hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Bunda 1 m³ suvdan foydalanish natijasida qancha miqdorda paxta, g'alla va boshqa mahsulotlar yetishtirilganligi hamda necha so'mlik yalpi mahsulot va yalpi daromad, sof foyda olinganligi aniqlanadi.

e) **Sug'orish tizimidan foydalanish koeffitsienti.** Uning darajasini aniqlash uchun shu tizimning oxirida ekinlarni sug'orish maqsadida berilgan suv miqdorini shu tizim boshida olingan suv miqdoriga taqsimlash zarur. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$STFK = \frac{СТОЭБС}{СТБОСМ};$$

Bunda: STFK – sug'orish tizimidan foydalanish koeffitsienti;

СТОЭБС – sug'orish tizimining oxirida ekinlarga berilgan suv miqdori;

СТБОСМ – sug'orish tizimining boshida olingan suv miqdori.

Binobarin, viloyatimiz tumanlari bo'yicha xo'jaliklararo sug'orish tizimlarining foydalanish darajasini tahlil qiladigan bo'lsak, xo'jaliklararo sug'orish tizimlaridan foydalanish koeffitsiyentining past ko'rsatkichga ega ekanligini ko'ramiz. Jumladan, viloyat bo'yicha bu ko'rsatkich 2005-2012 yillarda 0,80 ga teng bo'lgan bo'lsa, Kasbi tumanida 0,79, Nishon tumanida 0,83, Kitob tumanida esa 0,79 va G'uzor tumanida 0,80ga teng bo'lgan.

Hozirgi kunda respublikamizda mavjud sug'orish tizimlarining o'rtacha foydalanish koeffitsiyenti 0,64 ni tashkil etmoqda. Buxoro, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa bu ko'rsatkich o'rtacha 0,76 ni tashkil etib, respublikada sug'orish tizimlaridan foydalanish holatining eng yuqoriligidan dalolat bermoqda.

i) **Suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi.** Uning darajasini aniqlashda haqiqatda sarflangan suv miqdorini meyor asosida berilishi kerak bo'lgan suv miqdoriga taqsimlash zarur. Bunda meyor - o'simliklarning ilmiy asoslangan sug'orish meyorlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi va u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$CPTД = \frac{ХССМ}{МБСМ} * 100\%$$

Bu yerda: $CPTD$ - suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, foizda;

$XCCM$ - haqiqatda sarflangan suv miqdori, m^3 ;

$MBCM$ - meyor asosida berilishi kerak bo'lgan suv miqdori, m^3 .

Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi ekinlarini kafolatli suv bilan ta'minlash suv resurslarini yaratish uchun xizmat qiladigan 13 ta katta-kichik suv omborlari mavjud bo'lib, bu suv omborlari asosan, ekinzorlarni sug'orish, energetika va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida qurilgandir. Mavjud suv omborlarining loyihaviy suv sig'ish hajmi 2539,9 mln. m^3 ni tashkil etsa, foydali suv yig'ish hajmi 2308,1 mln. m^3 ni tashkil etadi. Viloyatning 512-515 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlarini sug'orish uchun esa 5-6 ming mlrd. m^3 suv kerak bo'ladi. Viloyat hududida yig'ilgan bu suv resurslari qishloq xo'jaligini rivojlantirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yer uchastkasi-o'z chegaralarlangan belgisi, maydoni, joylashish joyi, xuquqiy strukturasiga (yer egasi, yerdan foydalanuvchisi va boshqalar) ega bo'lgan yer sathining qismi.

Shartli kadastrli gektar-hosildorligi paxta boyicha gektariga 8 sentnerni tashkil qiluvchi, boniteti 20 balli past sifat yerning mahsuldorlik me'yori.

Tuproq bonitirovkasi-qishloq xo'jalik ekinlari o'sishini va ball bonitetlarda (100 balli tizim boyicha) ifodalanish uchun, ularni ahamiyatliroq tabiiy xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyalash.

Yalpi mahsulot-maydon birligidan chiqqan jami dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qiymatda ifodalanishi.

Sof daromad-yalpi mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar o'rtasidagi farq.

Kadastrli hisoblangan hosildorlik-100 ballik baholash shkalasi boyicha 1 ball bahoga qabul qilingan s/ga hosildan kelib chiqib, qishloq xo'jalik ekinlarining hisoblangan hosildorligi.

1 gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan sof daromad quyidagicha aniqlanadi:

$$CHD_n = \frac{VP_n \cdot R_n}{100}$$

Bunda: CHD_n -1 ga sug'oriladigan yerning me'yoriy sof daromadi;

VP_n – 1 ga sug'oriladigan yerning me'yoriy yalpi mahsuloti;

R_n – har xil sifatli yerlardan olingan daromad me'yori.

Asosiy ekinlarni birga qo'shish boyicha me'yoriy yalpi hosilni hisoblash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- baholanayotgan ob'ekt, ekin maydoni, tarkibi, sotish baholarining o'rtachasi;
- umumiy ekin maydoni va undagi ekinlar boyicha baholar hisoblanib, quyidagi tartibga belgilanadi:

$$\frac{X \cdot R + Z - R + K \cdot R}{(X + Z + K)} ;$$

Bunda: X – 1 ga yerdan olingan paxtaning qiymati;

Z – 1 ga yerdan olingan donning qiymati;

K – 1 ga yerdan olingan ozuqa ekinining qiymati;
R – ekinlarning foiz (%) hisobidagi solishtirma miqdori.
Sug'oriladigan 1 ga yerning me'yoriy bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$TSn = \frac{CHDn \cdot K}{P};$$

Bunda: TSn – 1 ga sug'oriadigan yerning me'yoriy bahosi;
CHDn – 1 ga sug'oriladigan yerdan olinadigan me'yoriy sof foyda;
P – kapitalga quyadigan bank ssuda foizi;
K – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini intensivlash darajasini hisobga oluvchi koeffitsient.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda sug'orishning quyidagi usullari, turlari mavjud:

1. Yer ustidan, yuzasidan sug'orish.
2. Yomg'irlatib sug'orish.
3. Tuproq ostidan, ichidan sug'orish.
4. Tomchilatib sug'orish.
5. Purkab, mayda dispersli, aerosol, tumanlatib sug'orish.

7.5.1 - jadval

G'o'zani har xil sug'orish usullarining iqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Oddiy usul	Tomchilatib sug'orish usuli	Polietilen plyonka bilan mulchalab sug'orish texnologiyasi	Diskret usuli	Qator oralatib sug'orish usuli
Mavso'miy suv me'yori, ming m ³ /ga	5,5	2,75	3,0	5,0	4,5
Sug'orishlar soni, marta	5	10	7	5	6
Suv iqtisodi, %	-	50	25-30	10	18
Hosildorlik, s/ga	35	40	45	37	35

Manba: Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishning yo'llaridan biri bu sug'orishning subirrigatsiya usulidan foydalanish hisoblanadi. Ushbu usul orqali sug'orilganda har bir gektar yerga suv sarfi 1,2 – 1,5 marta iqtisod qilinadi, (7.5.2 - jadval).

7.5.2 - jadval

G'o'zani subirrigatsiya usuli bilan sug'orishning samaradorligi

Viloyatlar	Suv sarfi, m ³ /ga		
	Oddiy usulda sug'orish	Subirrigatsiya usulida sug'orish	Nazoratga nisbatan daryo suvi iqtisodi, m ³ /ga

Farg'ona	4150	3070	+1080
Qashqadaryo	5250	3350	+1900
Samarqand	1864	886	+978
Xorazm	3614	2707	+907

Manba: O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanish unumdorligini uch xil yo'l bilan aniqlash maqsadga muvofiqdir:

1. Tuproq unumdorligi-namlik sig'imi, suv o'tkazuvchanligi, mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik tarkibi, ozuqa moddalarining umumiy zaxirasi bilan o'lchanadi.

2. Tuproqning tarkibiy unumdorligi-yerga vaqtincha dam berish, daraxt barglari, yovvoyi o'tlar tanalari, ildiz chirishi, dukkakli ekinlar ekish bilan tuproq ozuqasi boyitiladi.

3. Tuproqning sun'iy unumdorligi-kishilarning o'z mehnati va qo'shimcha kapital sarflashi yo'li bilan ozuqani ko'paytirish tushuniladi.

Yerlarning me'yoriy bahosi quyidagicha hisoblanadi:

- xo'jalikning ichki miqyosida; tuproq sifati (boniteti) bir xilda teng bo'lgan ekin yerlari va boshqa qishloq xo'jalik yerlarining alohida uchastkalari: bu holda yerning me'yoriy bahosi xo'jalik ichidagi masalalarni yechish, dehqon va fermer xo'jaliklariga, qurilishga sug'oriladigan yerlarni rekonstruksiyalashga va boshqa maqsadlarga yer ajratish uchun aniqlanadi;

- umumiy miqyosida: qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi korxonalarning yer maydoni yoki qishloq xo'jalik yerlarning asosiy turlari. Bu holda, yerning me'yoriy bahosi, yerga soliq solish stavkasi miqdorini hisoblab chiqish, banklardan yer uchastkalarini garovga qo'uib kredit olish uchun aniqlanadi. Davlat rejalarani tuzish maqsadida yerning me'yoriy bahosini hisoblashning xududiy birligi tuman miqyosida yer uchastkalari, viloyat miqyosida esa ma'muriy tumanlar hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning 99 foiz dehqon va fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shunday ekan, fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishda ishlab chiqarish resurslarini o'z vaqtida yetkazib berish sifatli mahsulot ishlab chiqarish garovidir.

Izlanishlar natijasida viloyat fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish resurslaridan, qishloq xo'jalik texnikalar bilan ta'minlash darajasi, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda mineral va mahaliy o'g'itlarning meyor darajasida berilmayotganligi, fermer xo'jaligi rahbarlarining bozor qonunlari haqida, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligi ekinlari agrotexnikasi to'g'risidagi yetarli bilimlarga ega emasligi holatlari mavjud.

Bundan kelib chiqib, fermer xo'jaliklarini ichki imkoniyatlarini va resurslar yetkazib berishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini e'tiborga olib, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- fermer xo'jaliklarining yer maydonlaridan samarali foydalanish va unumdorligini oshirishda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini amalga oshirish;
- fermer xo'jaliklarining shaxsiy qishloq xo'jalik texnikasi va qishloq xo'jaligi mashinalarga ega bo'lishini ta'minlash maqsadda lizing munosabatlarini yanada takomillashtirish hamda imtiyozli kreditlar ajratish;
- fermer xo'jaliklarida barcha hududlarning tabiiy iqlim sharoiti va o'ziga xos bo'lgan xususiyatlardan kelib chiqib, unumdor navdagi urug'lik tayyorlash;
- barcha turdagi mineral o'g'itlardan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalarning yetarli bo'lishini ta'minlash;
- fermer xo'jaligida mahalliy o'g'itlardan foydalanishni tashkil etish va mahalliy o'g'itlardan foydalanish tizimini ishlab chiqish;
- fermer xo'jaliklari rahbarlarini bozor haqidagi, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish agrotexnikasi va qishloq xo'jalik iqtisodiyoti to'g'risida bilim va malakaga ega bo'lishini ta'minlash uchun ularni o'qitish va qayta tayyorlash markazlarining ishini yanada takomillashtirish va ularning faoliyatini nazorat qilish chora-tadbirlari ishlab chiqish lozim.

Fermer xo'jaliklarini yanada rivojlantirish hukumat tomonidan qabul qilinayotgan iqtisodiy islohotlarni amaliyotga keng joriy qilish orqali fermer faoliyatini yanada rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Viloyatning so'ngi 4 yilida qishloq xo'jaligida foydalanilgan yer maydonlarining o'zgarishlari quyidagi 7.5.3-jadvalda keltirilgan.

7.5.3-jadval

Qashqadaryo viloyatining yer fondi tarkibi

(ming gektar)

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 y. 2010 y-ga nisb.o'zg. % his.
Mavjud umumiy yer maydoni	2856,8	2856,8	2856,8	2856,8	2856,8	100
Jami k/x korxona va tashkilotlari egalik qilgan xamda vaktincha foydalanadigan yer maydoni	2461,7	2461,7	2461,7	2461,7	2461,7	100
<i>shundan:</i>						
Haydaladigan yerlar	677,3	679,7	679,7	679,7	679,7	100,4
<i>Shu jumladan:</i>						
Sug'oriladigan yerlar	532,8	532,8	532,8	532,8	532,8	100
<i>shundan:</i> Paxta ekilgan maydon	168,2	162,2	162,6	162,6	162,6	96,7
G'alla ekilgan maydon	249,5	166,9	167,8	167,8	167,8	67,3
Ko'p yillik daraxtzorlar	34,5	34,5	36,7	37,0	37,1	107,5
<i>shundan:</i> Bog'lar	15,6	15,6	17,7	17,9	18,0	115,4
Tokzorlar	9,8	9,8	9,9	9,9	10,0	102,0
Tutzorlar	8,9	8,9	8,9	9,0	8,9	100

Ko'chatzorlar	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	100
Bo'z yerlar	22,2	22,2	22,2	22,2	22,2	100
Yaylovlar	1455,8	1455,8	1455,6	1415,4	1415,3	97,2
Bundan tashkari aholi tomorqa yerlari (ekin yerlari)	73,8	79,1	79,1	79,2	79,5	107,7

Manba: Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatning jami sug'oriladigan yerlarining 30,5 foiziga paxta ekilgan, g'alla ekilgan maydon esa 167,8 ming gektarni tashkil etib, jami sug'oriladigan yerlarning 31,5 foizini tashkil etadi. Demak, viloyatning sug'oriladigan yerlari 532,8 ming gektardan tashkil topib, paxta maydoni 2014 yilda 2010 yilga nisbatan 3,3 foizga, g'alla maydoni esa 32,7 foizga kamayganligini jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. Biroq viloyatning sug'oriladigan yerlarida bog'zorlar, tokzorlar egallagan maydon tahlil qilinadigan yillarda 100-115 foizga oshganligini, tutzorlar va ko'chatzorlar egallagan maydon esa o'zgarishsiz qolganligini ko'rish mumkin.

7.6. Yer va suv resurslaridan foydalanish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribalari

Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligidagi ilg'or tajriba va yutuqlarni o'rganish respublikamiz qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish jarayonida katta ahamiyatga ega. Chunki birinchidan, rivojlangan davlatlarda fermer xo'jaliklarining faoliyati, ekin ekishdan boshlab hosilni o'rib-yig'ib olishgacha bo'lgan davrda yaratilayotgan mavjud sharoit, ikkinchidan, tovar mahsuloti ishlab chiqarish, mahsulot qabul qilish, tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar; uchunchidan, yuqoridagi ikkala jarayonda ham davlatning tutgan o'rni, ichki va tashqi bozorga raqobatbardosh sifatli mahsulot chiqarishga qaratilgan marketing tadqiqotlarini olib borish, belgilangan kvota asosida mahsulotni eksport qilish, soliq, sug'urta va kredit masalalarida davlatning iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganish, bu tajribalardan mamlakatimiz sharoitidan kelib chiqqan holda foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bir qator Evropa mamlakatlaridagi fermer xo'jaliklarining mavjud yer maydonlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu mintaqada AQSH fermer xo'jaliklariga nisbatan agrar ishlab chiqarishda kichik xo'jaliklar katta ulushga ega.

Masalan, Shvetsiya qishloq xo'jaligi o'z aholisining go'sht va go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabini 109%, sariyog' bilan 120%ga ta'minlaydi. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 79 gani tashkil qiladi va o'rtacha 30 bosh yirik shoxli qoramol parvarish qilinadi. Barcha fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish, maishiy xizmat va boshqa turli servis xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan kooperativlarga kooperatsiya asosida a'zo bo'lib kirgan.

Shvetsiya qishloq xo'jaligida yerlarni ijara asosida xo'jalik yuritish shakli keng tarqalgan. Agarda 1961 yilda jami qishloq xo'jaligida foydalanilgan maydonning 43,8 foizi ijaraga olingan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 73,3 foizni tashkil etmoqda, 30

foizga yaqin fermer xo'jaliklari o'zlariga yana qo'shimcha yerlarni ijaraga olib ish yuritmoqdalar.

Niderlandiya dunyo boyicha qishloq xo'jaligida 1 ga maydon hisobidan eng yuqori unumdorlikka erishayotgan davlat hisoblanadi, jumladan, 1 ga yer maydonidan kartoshka etishtirishga sarflanadigan kishi-soat miqdori 300 dan 45 kishi-soatgacha kamaydi. Ammo, Niderlandiya yirik fermer xo'jaliklari ko'p bo'lgan mamlakatlar safidan o'rin olgani yo'q. Fermer xo'jaliklarining katta qismi 10 ga atrofida yerga ega bo'lib, jami 121 ming fermer xo'jaligiga 2 mln.ga qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar birlashtirilgan.

Mamlakatda yetishtirilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotining 60 foizi eksportga, shu jumladan uning 80 % Evropa ittifoqi, 20% esa dunyoning boshqa davlatlariga yuboriladi. Fermer xo'jaliklarining usti yopiq joylarda gul yetishtirish va sabzavotchilik tarmoqlarida har yili 1,0 %gacha o'sish kuzatilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotida agrar sektorning ulushi yalpi ichki mahsulotda 4 foizni tashkil etsa, jami valyuta tushumining 25 foizi agrar sektor ulushiga to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgan yillarning dastlabki kunlaridan boshlab suv xo'jaligi tizimini boshqarish va suv resurslaridan samarali foydalanish boyicha o'ziga xos va tanlangan agroiqtisodiy siyosatlariga mos islohotlarni amalga oshira boshladilar. Masalan, Qozog'iston Respublikasi Markaziy Osiyo hududida qishloq va suv xo'jaligi boyicha bozor iqtisodiyotiga birinchilardan bo'lib o'tgan davlat hisoblanadi. Suv xo'jaligi sohasida 1993 yildan boshlab, suv uchun haq to'lash «Sug'orish uchun suv etkazib berish to'g'risida»gi shartnoma asosida amalga oshirildi. Suvni ruxsatsiz va me'yordan ortiq darajada olganlik uchun belgilangan tartibda jarima to'lovlari undirib olindi.

Qirg'iziston Respublikasida esa 1999 yildan boshlab barcha toifadagi suvdan foydalanuvchilar uchun suv etkazib berish boyicha ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lash joriy qilingan edi. Unga asosan suvdan foydalanuvchilar tuman suv xo'jaligi bilan suv etkazib berish shartnomalari asosida, ya'ni hukumat tomonidan tashkil etilgan suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) bilan suvni a'zolarga taqsim etish va suv uchun haq to'lash tizimiga o'tdilar.

Tojikiston va Turkmaniston Respublikalarida yerdan foydalanish shaklining asosiy qismini yirik jamoa xo'jaliklari tashkil etib, suvdan foydalanish tizimi faqatgina Turkmaniston Respublikasida isloh qilingan. Bunda xo'jalik ichidagi tarmoq jamoa xo'jaligiga tegishli bo'lib, ularga texnik xizmat ko'rsatish davlat suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan yerdan foydalanuvchilarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatining 3 foizli chegirmalari hisobidan amalga oshirilgan.

Umuman olganda Markaziy Osiyo davlatlarida suv xo'jaligi tizimini boshqarish va suv resurslaridan foydalanish masalalari bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etildi. Ya'ni qishloq va suv xo'jaligi tizimida ko'p ukldali iqtisodiyotni shakllantirishda keng ko'lamdagi tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Biroq, ushbu tadbirlar bilangina cheklanib qolmasdan, suv tanqisligi kutilayotgan bugungi kunda suv resurslaridan samarali foydalanish boyicha ilg'or jahon tajribalarini kengroq o'rganish va ularni hududimizga va urf-odatlarimizga mos keladigan yutuqlarini amaliyotga joriy qilish imkoniyatlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Isroil davlatining bugungi kundagi taraqqiyoti, ayniqsa qishloq xo'jaligidagi ilg'or tajribalari, ya'ni sug'orishning zamonaviy usullaridan tomchilatib sug'orishning

afzalliklari haqida to'xtalgan edik. Binobarin, bugungi kunda viloyatimiz qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi tomonidan sug'orishning ushbu usulidan foydalanish tajribasi fermer xo'jaliklarning dalalarida tadbiq etilishi suvdan oqilona va samarali foydalanish hamda suvdan foydalanishning pullik xizmatiga o'tishni taqozo etadi.

Yuqorida keltirilgan davlatlarning qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish bosqichlarini tahlil natijalari respublikamiz fermer xo'jaliklarida quyidagi yo'nalishlarning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini bozor tamoyillari asosida takomillashtirishni taqozo qiladi: qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilar, tayyorlov, qayta ishlash, sotish, xizmat ko'rsatish infratuzilma sub'ektlari va sanoat korxonalari o'rtasida o'zaro ixtiyoriylik, moddiy manfaatdorlik va iqtisodiy hamkorlik asosida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish; qishloqda kichik korxonalarni rivojlantirishning davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirilishi; qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat ehtiyojlari uchun xaroid rejalari belgilashda nafaqat ichki bozor, balki jahon bozoridagi talak va taklifni hisobga olgan holda rejalashtirish; tarmoqni moliyalashtirish va kreditlash tizimini takomillashtirish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va tovar ishlab chiqaruvchilar moddiy manfaatdorligini oshirishga erishish; narxlar o'zgaruvchanligi ustidan monitoring olib borish hamda ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash; qishloq xo'jaligi ekinlari turini mustaqil tanlash va joylashtirish erkinligini ta'minlash; fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishni iqtisodiy rag'batlantirish asosida innovatsion faollikni rivojlantirish; qishloq xo'jaligidagi dolzarb yo'nalishlar boyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirishni takomillashtirish va boshqalar.

I. Nazorat uchun savollar:

1. Yer va suv resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, yer va suv resurslari qishloq xo'jaligining asosiy vositasi ekanligi.
2. Yer va suvlarning tarkibi, ularni xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Yer kadastri, uning tarkibi, amalga oshirilishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Yer monitoringi, uning mazmuni haqida-chi?
5. Yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda samaradorligini oshirishning qanday yo'llari bor?
6. Yer-suv resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi qanday aniqlanadi?
7. Suvdan iste'molchilari uyushmasi (SIU) haqida tushuncha bering?
8. Yer-suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning qanday yo'llari bor?

VIII -Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Reja:

- 8.1. Dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnat va mehnat resurslari
- 8.2. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish
- 8.3. Mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanganlik ko'rsatkichlari. Mehnat unumdorligi
- 8.4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va yuksaltirish yo'llari

O'quv maqsadi: *dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatida mehnat resurslaridan foydalanish, mehnat resurslariga bo'lgan talab, mehnatga haq to'lash va uni rag'batlantirish hamda mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *mehnati resurslari, mehnat bozori, mehnat birjasi, mehnat unumdorligi, mehnat balans, ishsizlik*

8.1. Dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnat va mehnat resurslari

Mehnati-bu insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, uning jarayonida moddiy va ma'naviy qiymatliklar yaratiladi.

Mehnati resurslari mamlakat aholisining bir qismi bo'lib, u iqtisodiyot tarmoqlarida ishlash uchun jismoniy imkoniyatlar bilim va amaliy tajriba yig'indisiga ega bo'ladi. Ular o'zlariga aholining 16 dan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar va 16 dan 60 yoshgacha bo'lgan mehnatga qobiliyatli erkaklarni shuningdek mehnatga yaroqlilik yoshidan katta yoki kichik iqtisodiyot tarmoqlarida haqiqatan band bo'lganlarni (ishlaydigan pensionerlar va maktab o'quvchilari) qamrab oladi.

Mehnati resurslaridan jamiyatning asosiy va mahsuldor kuchi sifatida oqilona foydalanilganda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mahsulotlarining o'sishini va ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida ishsizlik ishlab chiqarishning pasayishi, mehnatning yuqori ishlab chiqarish vositalarini va mehnatni tejaydigan texnologiyalarni mahsulot ishlab chiqarishda tuzilmaviy o'zgarishi, (sermehnati chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining keskin qisqarishi), mulkchilik shaklining va xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarishi, ish haqining pastligi va mehnat sharoitining yomonligidan, odamlarning o'z arizasi bilan bo'shab ketishi, demografik jarayonlar (migratsiya, tug'ilish, o'lim) va boshqalar bilan paydo bo'ladi.

Mehnati resurslari tuzilmasi – bu turli toifadagi ishchilarning ularning umumiy miqdoriga foizli nisbati. Qishloq xo'jaligi korxona xodimlari tuzilmasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band ishchilar ulushi 85-90 %, shu jumladan doimiylar 70-75 %, shundan traktorchi mashinistlar 3-4 %, mavso'miy va vaqtinchalik 5-6 %, rahbarlar va mutaxassislar ulushiga 2-3 % to'g'ri keladi. Tuzilma ko'plab omillar bilan aniqlanadi: korxonaning o'lchami va ixtisoslashganligi; uning integratsiyalangan jarayonlarida qatnashuvi, tabiiy sharoitlar va boshqalar. U yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi ish staji, malakasi kabi qator belgilar bilan hisoblanishi mumkin.

Fermer xo'jaligida a'zolar va yollanma ishchilarning mehnat qilishi O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi», «Fuqarolik kodeksi» va «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonun asosida tartibga solinadi. Fermer xo'jaligida ishlovchiga ham qonunda ko'rsatilgan huquq va majburiyatlar, imtiyozlar tadbiq etiladi.

Fermer xo'jaligida mehnat resurslari oila a'zolari va mehnat shartnomasi asosida olingan mehnat resurslari hisoblanadi. «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonunning 23-moddasida fermer xo'jaligida mehnatni fermer xo'jaligi ish beruvchi va uning xodimlari o'rtasida mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnoma bilan tartibga solinadi. Fermer xo'jaligining boshlig'i 18 yoshga to'lgan, qishloq xo'jaligida tegishli malakaga va ish tajribasiga ega shaxs hisoblanadi. Fermer xo'jaligi boshlig'i va xodimlari davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug'artasi bo'yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda asosida amalga oshiriladi.

Dehqon xo'jaligida mehnat resurslari oila a'zolari hisoblanadi. «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» gi qonunlarga muvofiq dehqon xo'jaligi boshlig'i 16 yoshga to'lgan, tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan, muomalaga layoqatli, mazkur xo'jaliklarning a'zolaridan biri bo'lishi mumkin. Agarda dehqon xo'jaligi 1 gektarga loyiq yeri bo'lib, oila a'zolarining mehnati yetishmaganda, yuridik maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari shartnoma asosida ishchi kuchini yollashi mumkin. Ish haqi dehqon xo'jaligida kelishilgan narxda lekin eng kam ish haqidan kam bo'lmagan holda belgilanadi.

Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Fermer xo'jaligi va uning xodimlari o'rtasidagi mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi.
- Fermer xo'jaligida ish tartibi xo'jalik boshlig'i tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnat faoliyati hisobini olib borish xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi.
- Fermer xo'jaligi xodimlarining mehnatiga haq to'lash taraflarning kelishuviga ko'ra pul hamda natura tarzida qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Bozor islohotlari sharoitida mehnat resurslarining ish bilan bandligini ta'minlash muammolari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqaligina ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish va aholi farovonligini ta'minlash mumkin. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, ishlashni xohlovchilarning hammasini ish bilan ta'minlabgina qolmasdan, eng maqbul, ijtimoiy yo'naltirilgan ish bilan bandlikni vujudga keltirish uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida mukammal mehnat bozorini shakllantirish, ishga joylashishga muhtoj bo'lgan shaxslarni to'la hisobga olish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.⁴

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faol aholi tarkibida ish bilan band aholi soni yil sayin ko'payib bormoqda. Bunday o'sish tendensiyasi mamlakatimizning barcha hududlariga xos xususiyatga aylanmoqda (8.1.1-jadval).

8.1.1-jadval

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. - 264-b.

**O‘zbekiston Respublikasida ish bilan band bo‘lgan aholi soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)***

Hududlar	Y i l l a r					2012 yilda 2008 yilga nisbatan o‘zgarishi	
	2008	2009	2010	2011	2012	farqi	foiz
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	561,1	566,1	580,8	590,0	600,2	39,1	107,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	1176,4	129,1	112,3
Buxoro	729,1	748,5	768,1	784,7	804,5	75,4	110,3
Jizzax	360,6	396,6	381,6	392,4	403,0	42,4	111,8
Qashqadaryo	908,7	934,9	971,7	1003,8	1036,6	127,9	114,1
Navoiy	396,7	404,6	408,0	413,4	418,6	21,9	105,5
Namangan	763,3	790,1	815,3	841,7	872,2	108,9	114,3
Samarqand	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	1314,5	162,5	114,1
Sirdaryo	304,1	318,9	320,0	327,5	334,8	30,7	110,1
Surxondaryo	722,5	744,6	784,5	817,8	843,0	120,5	116,7
Toshkent	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	1215,5	118	110,8
Farg‘ona	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	1398,8	118,7	109,3
Xorazm	571,1	583,0	606,7	625,2	643,4	72,3	112,7
Toshkent sh.	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	1162,3	21,5	101,9
Respublika bo‘yicha	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	12223,8	1188,4	110,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Mehnat resurslari balansiga ko‘ra, ish bilan band aholi tarkibi iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar, iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar va mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslardan iborat.

2008-2012 yillar davomida iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo‘lganlar soni – 15 foizga, norasmiy sektorda band bo‘lganlar soni – 3,7 foizga, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar soni esa 4,8 foizga ko‘paygan. Biroq olib borilgan tahlillar ish bilan band bo‘lganlar tarkibida o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Xususan, 2012 yilda iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo‘lganlar ulushi 62,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2012 yilga kelib bu raqam 64,6 foizga yetgan yoki 2,4 bandga ortgan. Vaholanki, bu davrda iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo‘lganlar ulushining 34,9 foizdan 32,7 foizga, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar ulushining esa 2,9 foizdan 2,7 foizga kamaygan.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo‘lgan aholi tarkibida kichik korxona va fermer xo‘jaliklarida ish bilan band bo‘lganlar, yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan shaxs sifatida rasman ro‘yxatga olingan fuqarolar, dehqon xo‘jaliklarida ish bilan band bo‘lganlar soni ortgan, aksincha, yirik biznesda band bo‘lganlar soni kamaygan (8.1.2-jadval).

8.1.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band bo‘lgan aholi tarkibining o‘zgarishi, ming kishi

Hududlar	Y i l l a r					2012 yilda 2008 yilga nisb. o'zg.	
	2008	2009	2010	2011	2012	farqi	foiz
Iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band bo'lganlar soni	6867,0	7022,8	7264,9	7787,4	7899,4	1032,4	115,0
<i>Shundan:</i>							
Iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lganlar soni (yirik biznesda)	2589,4	2599,5	2541,3	2779,8	2523,1	-66,3	97,4
Kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar soni	2162,3	2206,9	2016,8	2338,4	2401,1	238,8	111,0
Yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxs sifatida rasman ro'yxatga olingan fuqarolar soni	147,4	375,6	628,8	698,4	735,3	587,9	498,8
Dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar soni	1525,5	1615,0	1630,2	1745,0	1792,1	266,6	117,5
Boshqa tashkilot va muassasalarda ish bilan band bo'lganlar soni	442,4	225,8	447,8	225,8	447,8	5,4	101,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

8.1.2-jadval ma'lumotlarining tahlili mamlakatimiz bo'yicha 2008-2012 yillar davomida rasmiy sektorda band bo'lganlar tarkibida yirik biznesda band bo'lganlar sonining 2,6 foizga kamayganini, qolgan tarmoqlarda esa ortganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ko'rilayotgan davrda yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxs sifatida rasman ro'yxatga olingan fuqarolar ulushining 2,1 foizdan 9,3 foizga, dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar ulushining 22,2 foizdan 22,7 foizga ortganini, aksincha yirik biznesda band bo'lganlar ulushining 37,7 foizdan 31,9 foizga, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar ulushining 31,5 foizdan 30,4 foizga, boshqa tashkilot va muassasalarda ish bilan band bo'lganlar ulushining esa 6,4 foizdan 5,7 foizga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Bandlikning sohalar bo'yicha tarkibida ham ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Xususan, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1991 yilda mazkur sohada ishlovchilar soni jami ish bilan band bo'lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 25 foizga tushdi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish, transport va qurilish sohalarida ish bilan band bo'lganlar soni o'sib, 36 foizdan 52 foizga yetdi.

8.1.3-jadval

**Respublika qishloq xo‘jaligida ishchi kuchi resurslaridan foydalanishning
asosiy ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	O‘lch birl.	2005y	2006y	2007y	2008y	2009y	2010y	2011y	2012y	2013y
Umumiy bandlikda qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar ulushi	%	29,1	28,3	27,9	27,7	26,7	26,9	27,2	27,2	26,9
Qishloq xo‘jaligida o‘rtacha yillik band bo‘lganlar soni	ming kishi	2967,4	2963,5	2998,2	3052,9	3029,7	3126,8	3239,4	3330,0	3369,3
Qishloq xo‘jaligida 1ta ishlovchi tomonidan yaratilgan qo‘shilgan qiymat (2012yil bahosida)	ming so‘m/ kishi	4854,6	4987,1	4989,1	4535,0	4664,0	4745,1	4850,1	5076,0	9156,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va Makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Kichik korxona va fermer xo‘jaliklarida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ortib, 2008 yildagi 2162,3 ming kishidan 2014 yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,0 foizga ko‘paydi. Bu ko‘rsatkichni respublika hududlari bo‘yicha tahlil qilish uning bir meyorda kechmaganini ko‘rsatadi. Jumladan, o‘tgan besh yil davomida kichik korxona va fermer xo‘jaliklarida ish bilan band bo‘lgan aholi sonining o‘sish sur‘ati Toshkent shahri, Farg‘ona, Surxondaryo, Sirdaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo‘lgan. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan davrda mazkur sohada ish bilan band bo‘lganlar soni Xorazm (9,0 foiz) va Namangan (4,3 foiz) viloyatida kamaygan.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste‘mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, har bir oila daromadini ko‘paytirishda hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini hal etishga zamin yaratadi.

2008-2014 yillarda respublika bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan, lekin litsenziyaga ega tadbirkorlikda band bo‘lganlar soni 147,4 ming kishidan 735,3 ming kishiga yoki 4,99 marta ko‘paygan.

Bugungi kunda dehqon xo‘jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xo‘jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslashuvchanligi;
- xo‘jalik a‘zolarining ma‘lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;
- mehnatni tashkil qilish va xo‘jalikni boshqarishdagi qulayliklar.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi soni 1525,5 ming kishidan 1792,1 ming kishiga yoki 17,5 foizga ortgan.

Shunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko'maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi.

8.2. Mehnat resurslariga bo'lgan talab. Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirish

Mehnat bozori qishloq xo'jaligida fuqarolarning mehnat qilish qobiliyati taklifi hamda ularni ishga olish (sotib olish), ya'ni ish bilan ta'minlovchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini amalga oshiradigan manzil (xudud).

Mehnat birjasi – ishchi – xizmatchi va korxona o'rtasida ish kuchini sotish, sotib olish boyicha kelishuvni amalga oshiradigan vositachi vazifasini o'taydigan muassasa.

Mehnat bozorining asosiy maqsadi aholini ta'minlash bo'lib, aholining malakasi, mutaxassisligi, ma'lumoti va ishbilarmonligiga qarab, uni u yoki bu xududlarda ishga joylashtirishdan iborat.

Mehnat resurslari balansi - mehnat resurslarining sonini rejalashtirilgan bajariladigan ishlar uchun uning bajargan ishiga to'g'ri kelishidir.

Erkin bozor iqtisodi sharoitida o'z mehnatini taklif etayotgan fuqaro mehnat bozoriga chiqadi. U yerda mavjud bo'lgan takliflarni o'rganib, o'zining intellektual qobiliyatini, mehnatini taklif etadi. Ular bir-biriga mos kelganda shartnomalar tuzilib, ishga yollanadi. O'zbekiston Respublikasida ham shunday tartib joriy etilmoqda. Bu vazifani qishloq hududlarida tuman hokimiyati tarkibidagi Mehnat birjasi yoki aholini ish bilan ta'minlash bo'limi amalga oshirmoqda.

Demak, mehnat bozorida o'zlarining mehnat qilish qobiliyatini (intellektini) taklif etuvchilar bir tomondan, ularning shu imkoniyatlarini iste'mol etuvchi, ya'ni ishga yollovchi sub'ektlar ikkinchi tomondan uchrashib, mehnat almashuv (mehnat oldi-sotdisi) jarayonini amalga oshiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining nazariy asoslari shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit, ingliz iqtisodchisi D.Rikardo, Nobel' mukofoti lauriyati, amerikalik iqtisodchi Paul' A.Samuel'son va boshqa olimlar tomonidan etarli darajada asoslangan. Yaratilgan nazariyani hayotga tatbiq etish yo'llari ham hal etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat shu bozorda erkin sotilishi lozim. Shundagina u qiymatga ega bo'ladi, ya'ni tovar shaklida ayirboshlanadi.

Demak, mehnat bozori erkin raqobat asosida amalga oshirilishi zarur. Bu bozorda mehnat munosabatlari-yu, iqtisodiy, ijtimoiy qonunlar talab va taklif iqtisodiy qonunlari talablari asosida amalga oshirilishi lozim. Mehnat bozorida inson o'zini emas, balki mehnat qilish (jismoniy, aqliy) qobiliyatini taklif etadi. Iste'molchi, ya'ni mehnatni oluvchi shu qobiliyatni sotib oladi. Demak, oldi-sotdi jarayonidagi iqtisodiy munosabat predmeti insonning mehnat qilish qobiliyati hisoblanadi. Insonning mehnat qilish qobiliyatiga to'lanayotgan ish haqi shu mehnatning qiymati, ya'ni bahosi ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasida erkin bozor iqtisodi bosqichma-bosqich shakllanishi munosabati bilan mehnat va u bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar ham asta-sekin hal

etilmoqda. Dastavval tumanlarda mavjud bo'lgan mehnat resurslari bo'limi negizida hokimiyat tarkibida Mehnat birjasi tashkil etildi. Mehnat birjalariga qishloq xo'jaligidagi mehnat bozorini tashkil etish, uni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Ular faoliyatini «Birjalar to'g'risida»gi qonun, o'z Ustavi hamda yuqori tashkilotlarning me'yoriy hujjatlari asosida yuritmoqdalar.

Fermer xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda avvalo ishchining salt ishlashiga yo'l quymaslik, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ish va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash, ish haqini o'z vaqtida ta'minlash, moddiy va ma'naviy qiziquvchanligini oshirish va har bir ishlovchini pirovard natijaga bog'lagan holda fikrini o'zgartirish, musobaqa va rag'batlantirishni yaxshi yo'lga quyishdan iboratdir.

Mehnati resurslari bilan ta'minlanish darajasi mavjud resurslarining yillik ish vaqti fondini, ishlab chiqarishning ish kuchiga bo'lgan talabiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Fermer xo'jaligining ish kuchiga bo'lgan talabi, texnologik xarirta bo'yicha bajariladigan ish hajmiga qarab aniqlanadi. Qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlar kishi-kuni, kishi soati hisobida belgilanadi. O'zbekiston sharoitidagi ko'p yillik metrologik ko'zatlarda, yilning 282 kun dehqonchilik ishlarini bajarish mumkin. Ishlovchining yillik ish vaqti fondini aniqlash uchun yilning ishga yaroqli kunidan dam olish (52 kun), bayram (19 kun) ta'til kunlari chiqarib tashlash kerak 282 - 52 - 19 kunni tashkil etadi.

Xo'jalik faoliyatini yuritishda fermer qo'shimcha ish kuchini jalb etib, shartnoma asosida ishlaydigan ishchilar mehnatga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda, taraflarning kelishuviga binoan pul va natura shaklida amalga oshiriladi. Shu bilan birga ellanma ishchilar fermer xo'jaligi roziligi bilan pul e'ki boshqa xil ulushni kiritishga ham qo'shgan ulushiga munosib ravishda xo'jalik daromadi (foyda) taqsimotida qatnashishi mumkin.

Fermer xo'jaligi a'zolari hamda shartnoma asosida ishlätgan ishlovchilar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi huzuridagi «Nafaqa» jamg'armasiga badallar to'langan taqdirda, mehnat daftarchasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan holda mehnat stajiga qo'shiladi va pirovard natijada nafaqa olishlari mumkin.

Ish haqi to'lash ishbay va vaqtbay asosida bo'lib, ishbay usulida 6 razryadli tarif stavkasidan foydalaniladi. Fermer xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan traktorchi-mashinistlarga quyidagi tarif stavkasi boyicha ish haqi beriladi (8.2.1- jadval)

8.2.1- jadval

Fermer xo'jaliklarida kunlik mehnatga haq to'lash tarif stavkalari

	Razryadlar					
	I	II	III	IV	V	VI
Traktorchi-mashinistlar:						
Mahsulotlar uchun hisoblanadigan rassenkalar: 1-guruh	496-04	545-80	600-71	660-34	723-37	789-38
II-guruh (Qoraqalpog'iston Respub.) mahsulot olguncha avans hisobida	604-74	665-40	732-35	805-04	881-89	962-36
2-guruh	462-83	509-26	560-49	616-13	674-94	736-53
II-guruh (Qoraqalp.Respub.) Chorvachilikda hamda qo'l kuchi bilan	563-76	620-32	682-72	750-49	822-13	897-15

bajariladigan ishlarda:						
Mahsulotlar uchun hisoblanadigan rassenkalar	461-53	507-83	558-93	614-40	673-05	734-47
Mahsulot olguncha avans hisobida	431-34	474-61	522-36	574-21	629-02	686-42

Chorvachilikda hamda qo‘l kuchi bilan bajariladigan ishlarda mahsulot olguncha avans hisoblanganda kunlik tarif stavkalar ishchilar uchun belgilangan razryadlar bo‘yicha stavka miqdorini 25,4 kunga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi, boshqa turdagi ishlarda kunlik tarif stavkalarini aniqlashda, bu miqdor tarmoq koeffitsiyentlariga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi.

Fermer xo‘jaligi rahbari mehnat haqi fondini yil boshida ekin ekiladigan maydonlarning texnologik kartasi asosida hisoblab, mehnat resurslariga beriladigan ish haqini rejalashtiradi. Fermer ish haqini to‘lash tartibini ishchi bilan kelishilgan holda oylik maoshning hammasini yoki bir qismini hosil yig‘ishtirilgandan so‘ng olishi ham mumkin. Fermer ish haqi fondidan soliq to‘lovlarini chegirib qolgan qismini to‘lab berish majburiyatini oladi. Har bir ishchi bilan mehnat shartnomasi tuzilganda Fermer faoliyatiga va mulkiga zarar keltirmaslik va havfsizlik, tijorat sirlarini sotmaslik, har bir so‘mlik harajat uchun kurashish ishlari kelishib olinadi.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida aholining o‘rtacha soni 2013 yilda 2863,3 ming kishini tashkil etib, mehnatga layoqatli kishilar esa jami aholining 57,6 foizini, яъни 1649,2 минг кишини, ish bilan band aholi soni 1072,3 ming kishni tashkil etib, mehnatga layoqatli aholi sonira nisbatan 65 foizni tashkil etgan. 2014 yilda esa o‘rtacha aholi soni 2928 ming kishini tashkil etib, shundan mehnatga layoqatlilar soni 1696,6 ming kishidan iboratdir. Bu o‘rtacha aholi soniga nisbatan 57,7 foizga tengdir, shuningdek, o‘rtacha ish bilan band bo‘lganlar soni 2014 yilda 1108,5 ming kishini tashkil etib, bu ko‘rsatkich mehnatga layoqatli aholiga nisbatan 65,6 foizga teng. 2015 yil 1 yanvar holati bo‘yicha ish qidiruvchi sifatida ro‘yxatga olinganlar soni 30166 kishini tashkil etmoqda.

8.3. Mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanganlik ko‘rsatkichlari. **Mehnat unumdorligi**

Mehnat resurslari dehqon va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda ishlab chiqarish resurslarining eng faol omili sifatida katta ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonida ongli ravishda qatnashib, ko‘proq, sifatliroq mahsulotlarni talabni qondiradigan miqdorda yetishtirishga, ish va xizmatlarni bajarishga harakat qiladi. Shunday ekan, ulardan yil davomida to‘liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

a) Mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti. Uni aniqlash uchun ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda qatnashgan mehnat resurslari miqdorini (kishi) dehqon va fermer xo‘jaliklarida shartnoma (buyruq) boyicha mavjud bo‘lgan mehnat resurslari miqdoriga taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MK = \frac{\sum IMp}{\sum MMp}.$$

Bunda: MK – mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsienti;

$\sum IIMp$ – haqiqatda ishlagan jami mehnat resurslari, kishi;

$\sum MMp$ – mavjud bo'lgan jami mehnat resurslari, kishi.

Bu ko'rsatkichning darajasi birga yaqin bo'lgani yaxshi. Shunda u mavjud mehnat resurslaridan foydalanish yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

b) Mehnat resurslarining dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatida qatnashishi (1 oyda, 1 yilda). Uning miqdorini dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatida jami sarflangan vaqtni sarflangan mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash, bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin.:

$$MrXqk = \frac{\sum Mpc\theta}{\sum IIMp}.$$

Bunda: $MrXqk$ – mehnat resurslarining ma'lum bir muddatda o'rtacha ishlagan ish vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

$\sum Mpc\theta$ – mehnat resurslarining jami sarflangan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu ko'rsatkichning mutlaq (absolyut) miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqti fondidan yuqori bo'lmaydi. Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqti fondi belgilanadi. Uning miqdorini bir yildagi kalendar' kunlar miqdoridan barcha turdagi bayram (agar u qonun bo'yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta'til (otpuska) kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikada yillik ish vaqti fondi 276-286 kun miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi hisoblanadi. O'smirlar uchun bu fond ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zarur ishlarni bajaruvchilar uchun ham o'rnatilgan.

v) Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatida belgilangan ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsienti ham aniqlanadi. U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishi-kuni, kishi-soatini) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo'lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$I_{vfk} = \frac{MpII\theta}{MpIIH}.$$

Bunda: I_{vfk} – ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsienti;

$MpII\theta$ – mehnat resurslari hisoblangan bir kishining bir yilda ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

$MpIIH$ – bir kishi uchun qonunda belgilangan, ishlashi lozim bo'lgan vaqt, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu koeffitsientning miqdori birdan oshmasligi kerak. Agar u qanchalik kam bo'lsa, bu mehnat resursi foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan dalolat beradi.

g) Dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnatning mavso'miylik koeffitsienti. Uning miqdorini bir yil, bir oy mobaynida eng ko'p ish kunini shu davrdagi eng kam ish kuni miqdoriga taqsimlash natijasida hisoblash mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$Mm = \frac{\sum II\kappa}{KII\theta}.$$

Bunda: M_m – mehnatning mavso' miylik koeffitsienti;

E_{IIK} – bir yildagi yoki oydagi eng ko'p ish kuni;

K_{IIe} – bir yilda yoki oydagi eng kam ish kuni.

Uning miqdori ham 1-1,2 atrofida bo'lgani maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda uning miqdori 2-2,3 ga teng bo'lmoqda. Bu mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonida bir me'yorda qatnashmayotganligidan dalolat beradi. Bu holni yumshatish zarur. Buning uchun kam mehnat sarflanadigan oylarda ishlab chiqarishning boshqa sohalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani har bir korxona o'zi ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishi mumkin.

d) Dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnatning unumdorlik darajasi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami ish vaqti miqdorini shu davrda ishlab chiqilgan mahsulot miqdoriga, qiymatiga hamda bajarilgan ish hajmiga taqsimlash zarur. Bu mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabi.

Amaliyotda esa u haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash natijasida aniqlanmoqda. Bunday usulda ular bir-birlarini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Ularni aniqlash uchun ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$M_u = \frac{C_e}{E_m} \text{ yoki } \frac{E_m}{C_e}$$

Bunda: M_u – mehnatning unumdorlik darajasi, kishi-kuni, soati, so'm;

S_v – mahsulot etishtirish, xizmat ko'rsatish uchun sarflangan ish vaqti, kishi-kuni, soatda;

E_m – sarflangan vaqt ichida etishtirilgan mahsulot, ts, so'm.

Bu ko'rsatkich yetishtirilayotgan bir birlikdagi (tsen, tonna, so'm) mahsulot uchun qancha vaqt sarflanganligini yoki sarflangan bir birlikdagi vaqt evaziga qancha mahsulot yetishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Mahsulot birligiga sarflangan jonli mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat evaziga etishtirilgan mahsulot birligi ko'paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligida ayrim ish, mahsulot turlari, davrlari hamda xo'jalik miqyosida natura hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko'rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Shunda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'zgarishining ta'siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi.

Shunga asoslangan holda kelajakda dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va sarflanishi zarur bo'lgan mehnatning unumdorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni ishlab chiqish kerakligi belgilanadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar:

1) moddiy-texnika omillari (texnika jarayoni, tabiat resurslarining xarakteri, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish va boshqalar);

2) shaxsiy omillar; (xodimlarning ixtisosligi, malakasi, tadbirkorligi);

3) ijtimoiy mehnatning qanday tashkil qilinganligini ko'rsatuvchi omillar (ixtisoslashtirish, kooperatsiyalashtirish, ishlab chiqarishni kombinatsiyalashtirish, korxonalarda mehnatni bozor sharoitlarida shakllantirish);

4) tabiiy omillar (ob-havo sharoiti, suv issiqlik temperaturasi va boshqalar) gruppasiga bo'lish mumkin.

Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar xo'jalik jarayonlarida (ta'minot, ishlab chiqarish, sotish) ishlab chiqarish munosbatlarni shakllanishiga qarab bevosita va bilvosita omillarga ajratildi. Shunga muvofiq-bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarga tabiiy-iqlim sharoitlari va ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat munosabatlarida nomayon bo'ladigan omillar kiradi. Bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar esa tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, ya'ni xo'jalik jarayonlarining ta'minot va sotish bosqichlarida nomayon bo'lishiga qarab tizimlashtirildi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari inson mehnati (qo'l mehnati) xarajatlari bilan taqqoslanib hisoblanadi. Ishlab chiqarishda mehnatni mexanizatsiyalashtirish darajasining ortib borishi o'z navbatida jonli mehnat sarfini kamayib borishini ta'minlaydi. Umuman olganda, mehnat unumdorligini o'sishining uchdan ikki qismi fan-texnika yutuqlari hisobiga yuz beradi.

8.4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va yuksaltirish yo'llari

Respublika qishloq xo'jaligidagi mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish natijasida ularning mehnatlari unumdorligini kelajakda yuksaltirish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etish keng miqyosda tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Dastavval qishloq hududlarida, jumladan, dehqon va fermer xo'jaliklarida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining real miqdorini aniqlash lozim. Shu bilan birga aholining mutlaq (absolyut) o'sishini e'tiborga olgan holda mehnat resurslarining ko'payish yoki kamayish jarayonini aniqlash kerak. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholining harakatini ham hisobga olish zarur.

Shundan so'ng dehqon va fermer xo'jaliklarida mavjud bo'lgan ish joylarining hozirgi hamda istiqboldagi sonini real aniqlashga alohida e'tibor berish kerak.

Shularga asoslangan holda mehnat balansi ishlab chiqilishi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajas, shu orqali dehqon va fermer xo'jaliklarida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlanadi. Uning darajasi birga yaqin bo'lsa yaxshi, Aks holda mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlari asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun dehqon va fermer xo'jaliklari xo'jalik ichida yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyatlarini rejalashtiradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, qurilishni, ta'mirlashni, mahsulotlarni qayta ishlashni (o'simchilik, chorvachilik), xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni belgilab, ularning hal etilishini ta'minlashga harakat qilinadi. Bu masalalar respublika budjeti hisobidan amalga oshirilishini ham e'tiborga olish lozim.

Mehnat resurslaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni malakalarini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash tadbirlarini ham belgilab olib, amalga oshirilishiga e'tibor berish zarur.

Dehqon va fermer xo'jaliklaridagi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshishini ta'minlash mumkin. Buning uchun xo'jaliklar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish hamda ulardan yil davomida to'liq foydalanishga erishish tadbirlarini shakllantirish lozim. Eng avvalo, ularni malakali kadrlar, ta'mirlash ustaxonalari bilan ta'minlash kerak. Xo'jaliklarning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligini ham talab darajasiga yetkazish zarur. Buning uchun esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralari aniqlab, ularning bajarilishini ta'minlash kerak.

Demak, dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

- dehqon va fermer xo'jaliklarining rivojlanishini e'tiborga olgan holda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;
- dehqon va fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta'minotini yuksaltirish;
- dehqon va fermer xo'jaliklariga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;
- qishloqda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;
- qishloqda ishlash va yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy, ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

Bu kabi chora-tadbirlarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etilishi dehqon va fermer xo'jaliklaridagi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilab, mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnatga haq to'lash uchun akkord-mukofot, ishbay-mukofot, vaqtbay-mukofot tizimidan foydalanilmoqda.

Akkord mukofot (ko'tara mukofot) haq to'lash tizimining mohiyati shundan iboratki, bunda ish haqi haqiqatda yetishtirilgan mahsulotga oldindan belgilab qo'yilgan rassenka bo'yicha to'lanadigan bo'lganligi uchun ishchilar mahsulot yetishtirishni ko'paytirish, uning sifatini yaxshilashdan bevosita manfaatdor bo'ladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida akkord - mukofot haq to'lash tizimini samarali joriy etish va foydalanish uchun juda katta tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Chunki dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishini, ayniqsa, o'simlikchilik va ayrim chorvachilik tarmoqlarining davriy xarakterga ega bo'lishi hamda ishlab chiqarishning keng va murakkab mehnat kooperatsiyasiga asoslanganligi bu sohalarida mahsulot yetishtirish va ishlab chiqarish natijalarini, ko'pchilik ishchilarni mehnat natijasiga bog'liq qilib qo'yadi. Shuning uchun akkord - mukofot haq to'lashni to'g'ri tashkil etilishning asosiy shartlaridan biri mehnat jamoalarni brigada, bo'g'in va oilaviy pudratchi kabi maqsadga muvofiq shakllarda tashkil etishdir.

Akkord-mukofot haq to'lash tizimida ish haqi shartnomada belgilangan mahsulotning natura birligiga yoki shu mahsulot qiymatining 100 so'miga to'lanishi mumkin. Mahsulot birligi uchun ko'tara rassenka yillik mahsulot yetishtirish shartnomaviy rejasi va brigada, zveno va oilaviy pudratchilar bajaradigan yillik qishloq xo'jaligi ishlari uchun hisoblangan tarif ish haqi fondining 125 foizi hisobidan aniqlanadi. Don uchun makkajo'xori, sholi va ayrim boshqa ekinlarda ko'tara rassenka tarif ish haqi fondining 150 foizi hisobidan belgilandi.

Ish haqining ushbu turlari dehqon va fermer xo'jaliklarida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xodimlarga berishni tashkil etish, ularning ishlarini rag'batlantirish imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari haqida tushuncha bering?
2. Mehnat bozori faoliyatini tushuntiring?
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mehnat unumdorligi nima va uni yaxshilash yo'llarini ayting?
4. Mehnat birjalari faoliyatini qanday baholaysiz?
5. Fermer xo'jaliklarida yollanma ishchilarning haq huquqlarini izohlang?
6. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mehnat resurslaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini va ularni aniqlash tartibini ayting?
7. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni bayon eting?
8. Dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishning qanday yo'llari mavjud?

IX Bob. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING MULKI, ULARNING TARKIBI, SHAKLLANISHI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH YO'LLARI

Reja:

O'quv maqsadi: *dehqon va fermer xo'jaliklarining mulki, ularning tarkibi, mulkni barpo etish manbalari, va ulardan oqilona foydalanish yo'llari hamda yerga mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *mulkiy munosabatlar, davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk, mulkdan foydalanish, tasarruf etish, xususiylashtirish*

9.1. Mulkchilikning huquqiy asoslari. Mulkning dehqon va fermer xo'jaligi iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati

Har qanday davlatning iqtisodiy va siyosiy negizini mulk tashkil etadi. Har qanday mulkiy munosabatlar mulkka kim egalik qiladi, degan savolga javob beradi. Mulkka egalik qilish yoki qilmaslik holatiga qarab kishilar jamiyatda o'z o'rnini topadi. Mulkiy munosabatlarga asoslanmagan iqtisodiyotning o'zi ham bo'lishi mumkin emas.

Mulk – bu barcha ne'matlarga egalik qilish va foydalanish borasida insonlar o'rtasidagi mavjud munosabatlardir. Mulkchilik munosabatlari mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Mulkchilik mazmunini oydinlashtirish uchun odatda, quyida keltirilgan jumlar orqali izohlash mumkin:

Sub'ekt (ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi yoki boshqa mulkning egasi) *mulk sub'ektlari* (mulkning boshqa egalari yoki mulkdor bo'lmaganlar) hayotiy ne'matlarga egalik qilish yuzasidan insonlar o'rtasidagi vujudga keluvchi munosabatlar, bu aynan mulk munosabatlarining o'zginasidir. *Egalik qilish* insonlarning turli xil hayotiy ne'matlarga nisbatan o'ziniki kabi munosabatda bo'lishidir.

Bevosita ishlab chiqarish – bu buyumlashgan o'zlashtirishdir. Hayotiy ne'matlarga egalik qilish borasida *insonlar o'rtasidagi munosabatlar* bevosita ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi buyumlashgan egalik qilishdan farq qiluvchi, ijtimoiy munosabatlardir. Kishilar buyumlarni o'ziniki qilib olgandagina o'zlashtirishlari mumkin, chunki jamiyatda o'zganikini o'zlashtirib bo'lmaydi. Boylikning o'ziniki yoki o'zganiki bo'lishi kishilarni mulkdor yoki mulksiz qilib, ular o'rtasida ma'lum munosabatlarni yuzaga keltiradi. Mulk hayotiy ne'matlarining egalari va begonalar o'rtasida o'zlashtirish asosida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlardir. Mulk o'z sub'ekti va ob'ekti mavjudligi bilan tavsiflanadi. Turli-tuman ko'rinishdagi hayotiy ne'matlar, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi kabilar mulk ob'ektlarini ifoda etsa, hayotiy ne'matlar, korxonalarning mulkdori va mulkdori bo'lmagan jismoniy va xuquqiy shaxslar, mulk sub'ektlari sifatida namoyon bo'ladi.

Mulkka egalik qilish masalasi bozorni vujudga keltirish borasidagi barcha tadbirlar tizimini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mulkchilik to‘g‘risida quyidagi fikrlarni bayon etadilar: «Mulkchilik masalasini hal qilish bo‘zorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining qamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi shu masalani hal qilish bilan yangi jamiyat, yangi iqtisodiy munosabatlar poydevoriga birinchi qisht qo‘yildi».

Ma‘muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish imkoniyatini bera oladigan mulk munosabatlari barpo etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu yo‘l mamlakat Prezidenti I.A.Karimovning «Xususiylashtirish asoslari» (o‘zbek modeli) ta‘limoti asosida amalga oshiriladi. Bu qonuniyatni quyidagi 9.1.1-jadvalda yaqqol ko‘rish mumkin.

9.1.1-jadval

Mulkchilikka bo‘lgan yangi munosabatlarni shakllantirish

Ma‘muriy bo‘ruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida	Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida
• Mulk monopol xarakterga ega bo‘lib, davlat mulki hisoblanar edi; • Davlat mulki eng afzal va halqqa faqat shu mulk farovon hayot beradi, deb targ‘ib qiladi. • Mulk davlatga tegishli bo‘lgandagina u mulkdan xohlagan maqsadi uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lar edi. • Har qanday xususiy mulkka ruxsat berilmas edi.	• Mulk xususiylashtirildi, uning turli shakllari vujudga keldi; • Mulk ayrim korxona, xo‘jalik a‘zolarining xususiy mulkiga aylandi; • Mulk «bizniki» degan iboradan «meniki» degan ibora bilan almashildi; • Mulkning xilma xil shakllari tashkil etildi; • Ishlab chiqarish vositalarini ijruga berish yo‘li bilan har bir shaxsning mulkiga aylantirildi; • Mulk o‘z egasini topdi unda eng samarali va oqilona foydalanish ishtiyoqi paydo bo‘ldi; • Xususiylashtirish chog‘ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlarni yaratish va uni tanlash vazifasi amalga oshirildi. • Mulkdan xohlagan maqsadlar uchun foydalanish, ijaraga berish, sotish va meros qilib qoldirish huquqi berildi. • Mulkni qonuniy jihatdan himoyalash joriy etildi.

Dehqon va fermer xo‘jaliklarining asosiy maqsadiga erishish tarmoqda tadbirkorlik faoliyatlari amalga oshirilishini taqozo etadi. Tadbirkorlik -mulkchilik subyektlarining qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish hamda xizmatlar ko‘rsatish natijasida foyda yoki daromad olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan faoliyat ko‘rsatishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik qishloq xo‘jaligida ham yuridik, ham jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda ular O‘zbekiston Respublikasining «Mulk to‘g‘risida»gi, «Korxonalar to‘g‘risida»gi hamda «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi qonunlari talablariga qat‘iy rioya etishlari zarur. Ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari uchun mustahkam iqtisodiy negizga ega bo‘lishlari kerak. Ularning iqtisodiy negizini esa mulk tashkil etadi. Mulk O‘zbekiston Respublikasida qonunga binoan quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

1. **Xususiy hamda shaxsiy mulk.** Bu shakldagi mulk egasi o'z mol-mulkiga xususiy, shaxsiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlariga ega. Xususiy hamda shaxsiy mulk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida o'z mehnati va yollanma mehnatni qo'llashi orqali shakllanadi.

2. **Shirkat (jamo) mulki.** Bu mulk tarkibiga qishloq xo'jaligida jamoa korxonalarining, shirkat va oila mulki hisoblangan fermer, dehqon xo'jaliklarining, ijara korxonalarining hamda birlashmalarning mulklari kiradi.

3. **Aralash mulk.** Bu mulk turli xildagi mulkchilik shakllarining o'zaro manfaatli uyg'unlashishi natijasida shakllanadi. Jumladan, respublika qishloq xo'jaligidagi jamoa, shirkat va davlat mulkchiligiga asoslangan xo'jaliklarning chet ellardagi korxonalar bilan birikib faoliyat yuritish maqsadida tashkil etgan qo'shma korxonalari.

4. **Davlat mulki.** Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan davlat korxonalarining mulki.

5. **Boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar, yuridik hamda jismoniy shaxslar mulki.** Mulkchilikning bu shakliga asoslangan holda chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar, yuridik hamda jismoniy shaxslar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan mustaqil korxonalarni yoki o'z bo'limlarini, vakolatxonalarini tashkil etishlari mumkin.

Qishloq xo'jaligida xususiy mulkning mohiyati shundan iboratki, moddiy sharoitlarda ishlab chiqarish natijalari aurim shaxslarga qarashli bo'ladi. Bu turdagi mulkda mehnat natijalari o'zlashtirishning xususiy mulkchilik qonuniga muvofiq, mulkdorning o'ziniki hisoblanadi va u mustaqil xo'jalik uyritib va unga egalik qiladi.

Xususiy mulk fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, ijara jamoa, korporativ korxonlari, aktsiyadorlik jamiyatlari, xo'jalik assotsiatsiyalari (birlashmalari) mulklarini o'z ichiga oladi, Xususiy mulk davlat mulki tarkibiga kirmagan barcha mulklardir.

Xususiy mulkchilik jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususiy mulkchilik mulk egalarida undan unumliroq foydalanish qobiliyatini oshiradi. Mulkdor mulkidan qancha unumliroq foydalansa, o'zi shuncha ko'proq manfaatdor bo'ladi. U iqtisodiyotni barqarorlashtiradi, bozor iqtisodiyotida o'zaro raqobatni avj oldiradi va qiymat qonunining amal qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xususiy mulkchilik ishlab chiqarishni ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga olib keladi, davlatiga qaramlikni yo'qotadi, mulkka o'z xohishicha munosabatda bo'lishini ta'minladi. Xususiy mulkchilik jamiyat oldida shaxsning erkinligini ta'minladi.

Shunday qilib, fermer xo'jaligida xususiy mulk boshqa mulk shakllariga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- mulk egasi ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita bog'lanish xuquqiga ega bo'lib, ulardan qan shaklda foydalanishni o'zi hal qiladi va amalga oshiradi:

- ishlab chiqarish faoliyatida to'la mustaqillikka ega bo'ladi, hohlagan mahsulotni qancha yetishtirishini o'zi hal qiladi;

- doimo iqtisodiy va qonuniy javobgarlikni his etadi.

«Dehqon xo'jaligi – bu xususiy mulkka asoslangan bo'lib, tegishli yer maydonida, oila a'zolari bilan hamkorlikda qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarib, oila a'zolarining ehtiyojini qondirish va yuqori daromad olishga intiluvchi, davlati va

boshqa bozor sub'ektlari tomonidan tashki ta'sirini sezuvchi bozor iqtisodiyoti sub'ektidir».

9.2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mulklaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Kishilik jamiyatining rivojlana borishi natijasida mulk shakllari ham rivojlana boshladi. Bu turdagi mulk shakli o'rniga unga nisbatan insonga ko'proq naf keltiradigan mulk shakllari bilan almashib, yangi mulk shakllari paydo bo'ldi. Yangi mulk shakli paydo bo'lishi natijasida uning yangi egasi ham paydo bo'ldi. Umuman, iqtisodiyot taraqqiyotida barchaning manfaatdorligi yuzaga keldiki, bu mulkiy munosabatlar mazmuniga xos mulk turini yaratdi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining mol-mulkiga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish uning barcha a'zolari tomonidan birgalikda, o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari o'z faoliyatlarini ixtiyoridagi mol-mulkdan, shuningdek, uzoq muddatli ijara va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalikdagi yer uchastkalaridan foydalanish asosida amalga oshiradi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari mol-mulki tarkibi quyidagilardan iborat:

- o'ziga qarashli uy-joylar va xo'jalik imoratlari;
- qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar;
- qishloq xo'jalik texnikasi;
- asbob-uskuna va ashyo-anjomlar;
- transport vositalari;
- pul mablag'lari;
- intellektual mulk obyektlari;
- ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulot;
- olingan daromad va qonunda taqiqlanmagan tarzda ega bo'lingan boshqa mol-mulklar.

Qishloq xo'jaligida mulkiy munosabatlar tushunchasi 3 bo'g'inni o'z ichiga oladi:

Birinchi, mulkiy munosabatlarni subyektlari. Bu mulk kimniki degan savolga javob beradi. Mulk subyektlari: ayrim shaxs, guruh, jamoa, davlat va jamiyat bo'lishi mumkin. Ular mulk subyektlari yoki mulkdorlar deb yuritiladi. Ular qonun asosida o'z mulklariga egalik qiladi va foydalanadi.

Ikkinchidan, mulk obyektlari yoki mulk qanday turlardan iborat ekanligini o'zida aks ettiradi. Bu obyektlarga yer, yer osti boyliklari, o'rmon va o'tloqlar, mehnat qurollari va buyumlari, oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar, turar joylar, inshootlar va boshqa turdagi mulklar kiradi.

Uchinchi, mulkiy munosabatlar mazmuni. Bu mulk subyekti bilan mulk obyekti o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar yig'indisi natijasidan iborat yoki mulk obyektni uning subyekti tomonidan o'zlashtirilishidir.

Mulkni o'zlashtirish munosabatlari bilan bir qatorda boshqa mulkiy munosabatlar ham mavjud. Bu munosabatlarga egalik qilish, boshqarish va foydalanish jarayonidagi munosabatlarni kiritish mumkin.

Egalik qilish – bu mulkka hukmronlik qilishdir. Mulkdor o'z mulkini boshqa shaxsga foydalanishga (ijaraga) berishi mumkin. Mulkni ijaraga olgan subyek mulk

obyektini muxofaza qilish, saqlash, undan foydalanish, mulkdan kelgan natijalarni egalik qilish kabilar bo'yicha o'z hukmini yurgiza oladi. Ammo u tub ma'nodagi haqiqiy mulkdor emas. U mulkni sotishi, boshqa shaxslarga berish huquqiga ega emas.

Boshqarish – bunda mulk egasi o'z mulkini boshqa shaxsga boshqarish uchun ma'lum vaqtga beradi, bu holda u faqat mulkni foydalanishda boshqarish huquqiga ega bo'ladi. Mulkdan foydalanish natijasida kelgan samara beruvchiga emas, balki mulk egasiga tegishli bo'ladi. Boshqaruvchi ma'lum miqdorda maosh olib, faqat mulkni boshqarish huquqigagina ega bo'ladi.

Foydalanish – mulk obyektidan ma'lum natija, umumsamara olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat jarayonidir. Bu holdagi subyekt ham mulkdor hisoblanmaydi. Uning faoliyati faqat mulkdan foydalanish doirasi bilan chegaralangan bo'ladi.

Demak, mulkdorlik – o'zlashtirishdir. Egalik qilish, boshqarish, foydalanish esa o'zlashtirishni realizatsiya qilishdir yoki mulkdan har turli shaklda foydalanishning amalga oshirish yo'lidir.

9.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mulklaridan foydalanishning hozirgi holati

Dehqon va fermer xo'jaliklari mol-mulkining hosil bo'lish manbalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- xo'jalik a'zolarining pul va moddiy mablag'lari;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, shuningdek, faoliyatning boshqa turlaridan olingan daromadlar;
- qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar;
- kreditlar;
- yuridik va jismoniy shaxsalarning beg'araz xayriya va boshqa badallari, ehsonlari;
- qonunlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining mol-mulki miqdori cheklanmagan bo'lib, u davlat tomonidan himoya qilinadi. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mol-mulki ularning a'zolariga umumiy birgalikdagi mulk asosida qarashli bo'ladi. Shu bilan birga xo'jalik a'zolari o'zaro kelishib, umumiy ulushli mulk tashkil etishlari ham qonuniy jihatdan mumkin. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mol-mulki xususiy mulk bo'lganligi uchun mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish xo'jalik a'zolari tomonidan o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda shu xo'jalik nomidan xo'jalik boshlig'i ish yuritadi.

Agar fermer xo'jaligi a'zosi xo'jalik tarkibidan boshqa fermer xo'jaligi tuzish maqsadida chiqish niyatini bildirsa, u holda fermer xo'jaligi mol-mulukidagi o'ziga tegishli ulushini naturada yoki ulush miqdoriga teng bo'lgan qiymatda olishi mumkin.

Dehqon xo'jaligining pul mablag'larini hosil qilish manbalari quyidagilardan iborat:

- dehqon xo'jaligi a'zolarining pul va moddiy mablag'laridan;
- qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlardan;
- kreditlardan;

- korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va fuqarolarning xayriya va o'zga badallari, ehsonlaridan;

- qonunlarda ta'qiqlanmagan o'zga manbalardan.

Dehqon, fermer xo'jaliklari ana shu manbalar hisobida olgan pul mablag'larini saqlash va pul operatsiyalarini yuritish uchun bank bo'linmalaridan schyotlar ochish hamda bu mablag'larni erkin tasarruf qilish xuquqiga ega. Bu hisob-kitob schyotlaridagi pul mablag'lari faqat dehqon va fermer xo'jaligining roziligiga binoan yoki sud qaroriga ko'ra chegirilishi mumkin.

Hisob-kitob schyotidagi mablag'lar naqd pulsiz tartibda ham, naqd pul berish yo'li bilan ham ishlatiladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining mol-mulkalaridan unumli foydalanish yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- mavjud texnika vositalaridan intensiv foydalanish;
- bino-inshootlarini o'z vaqtida ta'mirlab borish;
- texnika vositalari yuk ko'tarish qobiliyatidan maksimal foydalanish;
- ot-arava transportidan foydalanish.

Ko'p mutaxassislar fikri va xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra, vujudga kelgan holatni bartaraf etishning eng qulay yo'li turli shakllarda tashkil etiladigan ijara hisoblanadi. Buning mohiyati shundan iboratki, ortiqcha texnika vositasi bo'lgan, yoki mexanizatsiya ishlarini bajarishga ixtisoslashgan korxonalar turli muddatlarga, qisqa va uzoq muddatlarga o'z vositasini dehqon, fermer xo'jaliklariga ijaraga beradi.

Fermerchilik rivojlangan ko'pgina xorijiy davlatlarda texnika vositalaridan birgalikda foydalanish usuli ham rivojlangan. Buni mohiyati shundan iboratki, bir necha fermer xo'jaligi o'zlarining texnika vositalarini birlashtirib, zarurat bo'lganda undan foydalanadilar. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, bitta fermer xo'jaligi uchun texnika sotib olish og'ir bo'lganda ko'pchilik fermerlar birgalashib bu texnikani sotib olishi mumkin. Texnika vositalaridan tug'ri foydalanish uchun javobgar shaxs belgilanadi. Xarajatlar bajarilgan ishga muvofiq mutanosib tarzda taqsimlanadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ixtiyoriy ravishda mahsulot yetishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo'jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo'nalishidagi va boshqa xil xizmat ko'rsatish bo'yicha kooperativlarga, jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga va boshqa birlashmalarga birlashish, kirish huquqiga ega bo'lib, bunda o'z mol-mulkalari bilan ulushli asosda ishtirok etadilar.

Fermer xo'jaliklarining mol-mulkalaridan samarali foydalanish yo'llariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mavjud texnika vositalaridan intensiv foydalanish;
- bino-inshootlarni o'z vaqtida ta'mirlab borish;
- texnika vositalarining yuk ko'tarish qobiliyatidan maksimal foydalanish;
- ot-arava transportidan foydalanish va boshqalar kiradi.

Fermer o'z mol-mulkidan, yer-resurslari, suv va moddiy resurslaridan qonunda o'rnatilgan tartib boyicha foydalanadi.

Fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari hisoblangan yer, mashina-traktor, kombaynlar, kimyoviy vositalar, yonilg'ilar, em-xashaklar, urug'liklar va boshqa vositalarning qiymat holidagi ko'rinishi fermer xo'jaligining fondlarini tashkil etadi.

9.4.Yerga mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish masalasi

Iqtisodiyotni isloh qilishning dastlabki bosqichida asosiy boyligimiz bo'lgan yerga munosabatni o'zgartirish asosiy yetakchi yo'nalish bo'ldi. Qishloq xo'jaligida yerga doir qabul qilingan farmonlar, «Yer kodeksi» qishloq xo'jaligida yer munosabatlarini qanday tashkil etish, yerga qanday munosabatda bo'lish zarurligini ko'rsatib berdi. Konstitutsiyada yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatga ijara shartlari bilan topshirilish mumkinligi yozib qo'yildi.

Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarining rivojlanishiga, dehqonning yerga egalik hissini qayta tiklashga, yerga meros qilib koldirilish xuquqi bilan umrbod foydalanish uchun berib qo'yish orqali erishildi. Eng muhimi kishloq xo'jaligi yuritishning har bir dehqonga manfaatdorlik bilan erkin mehnat qilish, o'z mehnatining natijalarini mustaqil tasarruf etish imkonini beradigan vositani yaratishdan iborat edi. Dehqon o'z mehnatining mevalari, yerdan olingan samaraning o'ziga qarashli ekanligini, tekshirilayotgan mahsulotning chinakam xo'jayni ekanini ko'rgandagina o'zini yerning haqiqiy egasi deb chinakamiga his qiladi degan xulosaga keldik. O'zbekiston Respublikasida dehqonchilikning boshqalardan farq qiladigan xususiyati shundan iboratki, u sug'oriladigan yerlarda olib boriladi. Bu yerlarda qudratli irrigatsiya tarmog'i xizmat qiladi. Barcha haydaladigan yelarning to'rtidan uch qismidan ko'progi sug'oriladigan yerlardir. Shu sababli qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbolllari sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ko'rish va ishlab turganlarini qayta qurish, bu tarmoqlar kimning mulki bo'ladi, degan masalani hal qilish bevosita bog'liqdir. Yerning meliorativ holatiga e'tiborni hech qachon susaytirmaslik kerak. Respublikamizda 4,3 mln. gektar sug'oriladigan yer bo'lib, shularning 50 (foizdan ko'prog'i yaxshi meliorativ holatda, qolgan yerlar esa yaxshilashni va melioratsiya ishlarni olib borishni talab etadi. Buning uchun 1998 yildan boshlab 25 ming gektar yangi yerlarni o'zlashtirish, 50 ming gektar yerda qayta o'zlashtirish ishlarini olib borish hamda 26 ming gektar yerda kollektor drenaj tarmog'ini ko'rish mo'ljallangan.

Agar 1990 yilda bir gektar sug'oriladigan yangi yerni o'zlashtirish uchun 6,5 ming rubl va ilgari sug'orilib kelingan bir gektar yerni qayta o'zlashtirish uchun 5000 rubl talab qilingan bo'lsa, hozirgi vaqtda xarajatlar taxminan 15-20 barobar oshib ketdi. Ma'lumki birorta ham fermer irrigatsiya va melioratsiya ishlarini mustaqil amalga oshira olmaydi. Faqat davlatgina melioratsiya tarmog'ini loyihalashga, qurishga, yerlarning sho'r bosishi, botqoqlikning oldini olish masalalarini hal qilishga qodir. Bundan tegishli xulosa chiqarish hozirgi vaqtda davlat melioratsiya, irrigatsiya yerlarning unumdorligini oshirish dasturlarining hammasini bajarishni o'z zimmasiga oldi va shu tariqa davlatga qarashli bo'lmagan xo'jaliklarga juda katta madad va yordam ko'rsatdi.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan mulkiy-tarkibiy islohotlarda birinchi navbatda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, turli mulk shakllariga, eng avvalo xususiy mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritish shakllarini joriy etishga muhim e'tibor qaratildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridanoq zarar ko'rib ishlayotgan shirkat xo'jaliklarini bosqichma-bosqich tugatib, fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida yirik tarkibiy islohotlar amalga oshirildi.

Butun agrar siyosatning muhim masalasi - bu yerga mulkchilik munosabatlaridir. Yer - o'lkamizning eng asosiy boyligi. Shu sababli Respublikamizning kelajagi, O'zbekiston xalqining ertangi kuni ko'p jihatdan yerdan foydalanish munosabatlarining qanday tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining ishlab chiqilib, dasturda bozor munosabatlari asosida qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish orqali yuqori pirovard natijaga erishish mumkinligi ko'zda tutilgan va bu jarayonlar agrar tarmoqda o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa qishloq xo'jaligidagi mulkchilik munosabatlari, mahsulot ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlarning keskin o'zgarishi sababli dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissi yanada ortib bormoqda. Respublika agrar sohasida xo'jalik yuritishning turli shakllari orasida fermer va dehqon xo'jaliklari istiqbolli deb tan olindi. Ular to'g'risida hukumat tomonidan huquqiy asos yaratildi. Lekin ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar orasidan fermer xo'jaliklari o'zining bir qancha afzallik tomonlarini ko'rsatdi. Bu esa bozor munosabatlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi istiqboli yo'nalishimizga mos kelishini inobatga olib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226-son Farmonida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish qilib belgilandi va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Qashqadaryo viloyati respublikamizning janibiy o'lkalaridan bo'lib, viloyatning tabiiy-iqlim sharoiti, joylashgan o'rni va mahsulot ishlab chiqarishida o'ziga xos bo'lgan xususiyatga egadir. Viloyatda qishloq xo'jaligida turli mulk shakllarining mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi keskin o'zgarishini ayrim ma'lumotlar asosida ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish asosan fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va qisman shirkat xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Bu xo'jalik yuritish shakllaridan fermer xo'jaligi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushini katta qismini ishlab chiqaruvchi sifatida yetakchilik qiladi. Jumladan, viloyatda 2013 yilda fermer xo'jaliklarida 422669 tonna paxta xom ashyosi ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2014 yilda 421461 tonnani tashkil qilgan. 2012-2014 yillarda jami ishlab chiqarilgan paxta xom ashyosining 100 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari turlaridan biri g'alla, viloyatda 2012 yilda 863535 tonna ishlab chiqarilgan bo'lib, bundan 7454 tonnasi shirkat xo'jaliklarida, 734005 tonnasi fermer xo'jaliklarida va qolgan 127192 tonnasi dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan. 2013 yilda esa 911200 tonna g'alla yetishtirilgan bo'lib, shundan 6099 tonnasi shirkat xo'jaliklarida, 783540 tonnasi fermer xo'jaliklarida va qolgan 121561 tonnasi esa dehqon xo'jaliklari tomonidan yetishtirib berilgan. Shuningdek, 2014 yilda ham 911200 tonna boshqoli don mahsulotlari yetishtirilib, shundan 4317 tonnasi shirkat xo'jaliklarida, 781670 tonnasi fermer xo'jaliklarida va qolgan 125213 tonnasi dehqon xo'jaliklarida yetishtirib berilgan.

Viloyat fermer xo'jaligining nafaqat paxta va g'alla mahsulotlari ishlab chiqarishda, balki boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi salmog'i ham ortib bormoqda. Jumladan, viloyatda 2014 yilda jami 205757 tonna go'sht

yetishtirilib, shundan 3592 tonnasi shirkat xo'jaliklarida, 2572 tonnasi fermer xo'jaliklarida va 186750 tonna go'sht dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan. Sut yetishtirishda 2014 yilda shirkat xo'jaliklarining ulushi 0,6 foizni, fermer xo'jaliklarining ulushi 2,0 foizni, dehqon xo'jaliklarining ulushi esa 97,4 foizni tashkil etgan. Viloyatda boshqa chorvachilik mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi ham yildan-yilga ortib bormoqda. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, viloyatimizda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi fermer va dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatda 2014 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda don mahsulotlari ishlab chiqarish 2012 yilga nisbatan 105,5 foizga oshgan, biroq paxta xom ashyosini yetishtirish hajmi esa 99,4 foizga yoki 0,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Turli mulkchilikka asoslangan xo'jaliklarda mahsulot yetishtirish hajmi fermer xo'jaliklarida paxta 100 foizni, don ekinlari esa 85-86 foizni tashkil etib, boshqa mahsulotlarni yetishtiruvchi dehqon xo'jaliklarining ulushi yildan-yilga oshib borayotganligini 10.4.1-jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mahalliy hokimiyatning fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashi va mamlakatimizda olib borilayotgan agrar islohotlarning natijasi desak, xato bo'lmaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligiga davlat rahbarligi qanday amalga oshirilmoqda?
2. Agrar-iqtisodiy islohotlar yo'nalishlari qanday amalga oshirilmoqda?
3. Yer islohoti qanday tartibda amalga oshirilmoqda?
4. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish deganda nimani tushunasiz?
5. Mulkni xususiylashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Xususiy va shaxsiy mulk haqida tushuncha bering?
7. Mulkiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?

X-Mavzu. ISHLAB CHIQARISHGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI

Reja:

O'quv maqsadi: *fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni, ahamiyati hamda investitsiyalarni shakllantirish manbalari, turlari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishdar iborat.*

Tayanch iboralar: *investitsiya, kredit, irrigatsiya, melioratsiya, kapital investitsiya, ijtimoiy investitsiya, innovatsion investitsiya*

10.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyati

Qishloq xo'jaligining samarali va barqaror rivojlanishining zarur sharti ularni yetarlicha investitsiyalashdir. Agrar siyosatning muhim vazifasi qishloq xo'jaliklarini investitsiyalash darajasini oshirish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat.

Investitsiya bu – daromad (foyda) olish maqsadida pul mablag'lari (kapital)ni iqtisodiyot tarmoqlariga uzoq muddatga qo'yishdir. Ular o'zlarida asosiy vositalarni yaratish, kengaytirish rekonstruksiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlashni, shuningdek bular bilan bog'liq aylanma fondlar o'zgarishini aks ettiradi. Bundan tashqari, investitsiyalar – bu qimmatli qog'ozlarga patentli intellektual xuquqlarga ega bo'lish va boshqalar. Investitsiyalar daromad (foyda) shakllantiruvchi yoki ma'lum ijtimoiy samaraga erishuvchi tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga qo'yiladi.

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriyalar uchun quyidagi xarakterli tuzilishlarga ega: u qishloq xo'jaligida va tarmoqlarning iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi; resurslarni sarflash va samara olishni ko'zda tutadi; investitsiya qoyilmalaridan kelishi mumkin bo'lgan samara ehtimoli, tavakkalchilik xarakteriga ega; resurslarni sarflash va samara olish orasida ma'lum (qoidaga ko'ra, uzoq muddatli) vaqtinchalik (o'lchov birligi) mavjud bo'ladi.

Investitsion faoliyat o'zida yuridik shaxs, fuqaro va Davlatning investitsiyalarni realizatsiya qilish bo'yicha amaliy harakatlari yig'indisini ifodalaydi. Investitsion faoliyat ob'ektlari quyidagilar:

- yangitdan tashkil etilgan va rekonstruksiya qilingan asosiy vositalar, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining hamma tarmoqlaridagi aylanma mablag'lar;
- qimmatli qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa);
- maqsadli pul qoyilmalari;
- ilmiy-texnika mahsulotlari va xususiy mulkning boshqa ob'ektlari;
- mulkiy huquq va intellektual mulk huquqi.

O'zbekiston jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan bir sharoitda ham ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhidan joy olmoqda. Bunga, albatta, mamlakatimizda olib borilayotgan va uzoq strategik maqsadlarni ko'zlagan investitsiya dasturlari hamda qulay investitsiya muhiti yaratilgani asosiy omil bo'lmoqda. Davlat investitsiya dasturlari doirasida jalb qilingan

xorijiy investitsiyalar hajmi 2011 yilda 2006 yilga qaraganda qariyb to'rt barobarga ko'paygan. 2011 yilda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar umumiy xorijiy investitsiyalarning qariyb 78,8 foizini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 martdagi «2008-2012 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to'g'risida»gi 817-sonli qarori asosida viloyatda 2008-2012 yillarda 149 ta loyiha asosida 3622,2 km uzunlikdagi kollektorlarni qurish va rekonstruksiya qilish hamda tizimli ta'mirlash-tiklash buyicha 58423 mln.so'mlik ishlar bajarildi. Ushbu ishlar bajarilishi natijasida 3908 ta fermerlar hududidagi 80900 gektar sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holatini yaxshilash imkoniyati yaratildi. Loyiha amalga oshirilgan hududlarda o'rtacha hosildorlik paxtadan 2,3 s/ga, g'alladan 2,6 s/ga oshishiga erishildi.

2014 yilda mamlakatimizning yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishini avvalambor iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur.

Quyidagi jadvalda viloyatda paxta va g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga ajratilgan kreditlar miqdori tahlil qilingan bo'lib, bunda paxta yig'im-terimiga ajratilgan naqd pullar 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 104,1 foizga, g'alla hosilini yig'ib terib olish uchun esa ajratilgan imtiyozli kreditlar miqdori tahlil qilinayotgan yillarda 119 foizga oshganligini ko'rish mumkin (10.1.1-jadval).

10.1.1-jadval

Qashqadaryo viloyati bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari

Koʻrsatkichlar	2013 yilda	2014 yilda	Farqi	
			(+:-)	%
Qishloq xoʻjaligi boʻyicha asosiy koʻrsatkichlar				
Paxta hosili				
Jumladan				
Fermerlar soni	5 025	5 370	345	107
Maydoni (ga)	160 400	160 400	0	100
Miqdori (tonna)	417 000	417 000	0	100
Paxta yigʻim terimiga ajratilgan naqd pul (mln.soʻm)	73 088	76 061	2973	104,1
Ajratilgan kredit (mln. soʻmda)	177 510	197 363	19 853	112
Imtiyozli kredit (mln.soʻm)	172 964	193686	20 722	112
Tijorat kredit (mineral oʻgʻitga)	4 546	3 677	-869	81
Paxta yakuniy hisob kitoblari uchun kelgan mablagʻlar (mln.soʻm)	319 705	306607	-13 098	95,9
Gʻalla hosili				
Jumladan				
Fermerlar soni	5 264	5 264	0	100
Maydoni (ga)	145 000	145 000	0	100
Miqdori (tonna)	379 200	379 200	0	100
Gʻalla yakuniy hisob kitoblari uchun kelgan mablagʻlar (mln.soʻm)	141 869	161236	19367	113,7

Ajratilgan kredit, mln. so'mda	72 771	85 242	12 471	117
Imtiyozli kredit (mln.so'm)	59 359	70 594	11 235	119
Tijorat krediti (mineral o'g'itga)	13 412	14 648	1 236	109
Texnika sotib olish uchun ajratilgan kredit				
Soni	85	121	36	142
Summasi (mln.so'm)	16 415	13 994	-2 421	85
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun ajratilgan kredit				
Intensiv bog' tashkil etish uchun (mln.so'm)	1 171	1 154	-17	99
Urug'lik kartoshka sotib olish uchun (mln.so'm)	27	984	957	3644
Dotatsiya				
Ajratilgan mablag' (ming so'm)	30 227	27 396	-2 831	90,6
Sarflangan mablag' (ming so'm)	30 227	27 396	-2 831	90,6
Shundan, bank krediti (ming so'm)	704	2 335	1 631	331,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarga texnika sotib olish uchun jami 2014 yilda 13994 mln.so'm kredit ajratilib, bu ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 15 foizga kamaygan. Biroq texnikalar soni 36 taga ko'paygan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun, ya'ni intensiv bog' yaratish uchun 2014 yilda 1154 mln.so'm kredit ajratilib, 2013 yilga nisbatan 1 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Urug'lik kartoshka sotib olish uchun esa ajratilgan kredit miqdori 957 mln.so'mga oshgan. Shunigdek, fermer xo'jaliklariga berilgan dotatsiya miqdori tahlil qilinayotgan yillarda 9,4 foizga kamaygan. Demak, fermer xo'jaliklari moliyaviy tomondan yildan-yilga barqaror rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013 yil 19 apreldagi PQ-1958-sonli Qaroriga asosan Davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur doirasida respublika viloyatlarida 2-besh yillikka mo'ljallangan loyihalarni tuzish ishlari amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatida 2013 yilda irrigatsiya-melioratsiya sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin:

2013 yilda Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi kengashining 2013 yil 18 fevraldagi 37-sonli yig'ilish bayoniga asosan 30 ta loyiha asosida kollektorlarni qurish va rekonstruksiya qilish xamda tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha 781,5 km uzunlikda 12299,3 mln.so'mlik ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 2014 yilning 31 dekabr holati bo'yicha 796,4 km uzunlikdagi kollektorlarda 12431,3 mln.so'mlik yoki rejaga nisbatan 101 foiz ishlar amalga oshirildi. Jumladan: a) qurish va rekonstruksiya qilish obyektlarida 31 dekabr holatiga 102,1 km uzunlikda, 6207,6 mln.so'mlik yoki rejaga nisbatan 102 foiz ishlar amalga oshirildi; b) tizimli ta'mirlash-tiklash obyektlarda 31 dekabr holati bo'yicha

694,4 km uzunlikda, 6223,7 mln.soʻmlik yoki rejaga nisbatan 100 foiz tizimli taʼmirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi.

2013-2017 yillarda sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish boʻyicha tasdiqlangan Davlat dasturini amalga oshirishdan quyidagi natijalarga erishish kutilmoqda (10.1.2-jadval).

10.1.2-jadval

Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish kompleks chora-tadbirlarini moliyalashtirilishi toʻgʻrisida MAʼLUMOT

(mln.soʻm)

Tadbirlar nomi	2013-2017yy. prognoz koʻrsatgichlari	Shundan				
		2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Davlat budjeti mablagʻlari						
Irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish	727 051	100 000	118 769	140 781	167 123	200 378
Jami	727 051	100 000	118 769	140 781	167 123	200 378
Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamgʻarmasi mablagʻlari						
Meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish	577 740	104 900	114 784	119 947	123 035	115 074
<i>shu jumladan tomchilatib sugʻorish tizimini joriy etish</i>	<i>59 111</i>	<i>7 061</i>	<i>11 794</i>	<i>12 847</i>	<i>13 435</i>	<i>13 974</i>
Meliorativ obyektlarni taʼmirlash va tiklash	574 409	95 000	107 672	115 029	123 589	133 119
Meliorativ texnikalarni xarid qilish	123 677	26 100	28 342	24 006	23 679	21 550
Boshqa xarajatlar	9 500	1 500	2 000	2 000	2 000	2 000
Jami melioratsiya jamgʻarmasi boʻyicha	1 285 325	227 500	252 797	260 982	272 303	271 743
Hammasi	2 012 376	327 500	371 566	401 763	439 426	472 121

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq va suv xoʻjaligi vazirligi maʼlumotlari.

Viloyat suv xoʻjaligiga kiritilayotgan investitsiya mablagʻlari hamda respublika miqyosidagi yirik suv inshootlari qurilishi va qayta taʼmirlanishini tashkil qilishda xorijiy investitsiyalar oʻzining jonbozligini koʻrsatmoqda.

Xorijiy investitsiya loyihalari boʻyicha «Osiyo taraqqiyoti banki ishtirokida Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash» loyihasi doirasida 2014 yilda 2 ta yildan-yilga oʻtuvchi obyektida 91,7 km

uzunlikda 5161,4 mln.soʻmlik rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan boʻlib amalda 31 dekabrgacha 91,7 km uzunlikda 5161,4 mln.soʻmlik yoki yillik rejaning 100 foizi miqdorida ishlar amalga oshirildi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida «Qishloq xoʻjaligi korxonalarini qoʻllab-quvvatlash 2-bosqich» 3-ta loyihasi boʻyicha 1993,3 mln.soʻmlik ishlar bajarilishi rejalashtirilgan. 2014 yil 31 dekabrgacha 2048,3 mln.soʻmlik yoki yillik rejaga nisbatan 103 foiz ishlar amalga oshirildi.

Davlat budjeti hisobidan ajratilayotgan mablagʻlar, asosan, yillik smeta asosida bevosita suv xoʻjaligi tizimi maʼmuriy-boshqaruv organini saqlab turish, yirik suv inshootlarini ekspluatatsiya va rekonstruksiya qilishga va xoʻjaliklararo irrigatsiya tarmoqlari tizimini taʼmirlashga, yirik suv yetkazib beruvchi mashina-magistral kanallarni ekspluatatsiya qilish hamda taʼmirlashga, yuqori quvvatli nasos stansiyalarini saqlab turish va ularning energetik resurslariga talabini qondirish maqsadlariga yoʻnaltirilgan.

10.2. Investitsion mablagʻlarni jalb etish manbalari

Investitsiya mablagʻlaridan samarali foydalanishning tashkiliu-xuquqiy asoslari xaqida Oʻzbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati toʻgʻrisida» gi, «Chet el investitsiyalari toʻgʻrisida» gi qonunlari qabul qilingan. Unda investitsiyalar maqsad va vazifalariga koʻra, 3 ga boʻlinadi:

1. Kapital investitsiyalar asosiy fondlarni barpo etishga, takror ishlab chiqarishga va moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalardir.

2. Innovatsiya investitsiyalari, texnika, texnologiyalar yangi avlodini yaratish va oʻzlashtirishga sarflangan investitsiyalarga aytiladi.

3. Ijtimoiy investitsiyalar inson salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, moddiy isteʼmollarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablagʻlardir.

Investitsiyalarning ikki turi bor: **1. Real investitsiyalar** – moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga mablagʻlar. **2. Moliyaviy investitsiyalar** – qimmatli qogʻozlarni (aktsiya, obligatsiya, veksel, sertifikat) shakllantirishga sarflangan mablagʻlar.

Millin hisoblar tizimida kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositalariga sarflangan mablagʻlar real investitsiyalar deb ham yuritiladi.

Kapital quyilmalarning fermer xoʻjaligidagi ahamiyati yuqori boʻlib, birinchidan, **kapital quyilmalar**-jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi.

Asosiy kapitalga kiritilgan sarmoya investitsiya deb ataladi. Investitsiyalar fermer xoʻjaligining moddiy-texnika bazasini, yaratib, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, kimyolashtirish, elektrlashtirish, irrigatsiya-melioratsiyalash natijasida sarf-xarajatlarni kamaytirib, mahsulotlar hajmini koʻpaytirish va sifatini yaxshilash orqali daromadni oshirishdan iborat.

Fermer xoʻjaliklariga investitsiyalarni jalb etish uchun quyidagi manbalardan foydalaniladi:

1. Fermer xoʻjaligining oʻz mablagʻlari:

- fermer xoʻjaligining sof foydasidan ajratilayotgan mablagʻlar;

- amortizatsiya fondidagi mablag'lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag'lar;
- chorva sollarini sotishdan tushgan mablag'lar;
- fermer xo'jaligining qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olishidan kelgan mablag'lar;

2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar:

- fermer xo'jaligiga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar;
- hamkorlardan olinadigan mablag'lar;
- turli xil qarzlar va bank kreditlari;
- xo'jalik a'zolarining bo'sh mablag'larini jalb etish;
- xorijiy va mahalliy shaxsiy korxonalar hamda fuqarolarning mablag'lari;
- homiylar ajratayotgan xayriya mablag'lari va boshqalar.

Kapital – fermer xo'jaligi moliyaviy natijalarning bir qismi bo'lib, aylanma fondlarga qoyilib, daromad keltiradi.

Chetdan jalb etilayotgan investitsiyalar – chet davlatlarning, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

Investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiyalarini amalga oishirish bilan bog'liq xarakatlardir.

Investor – o'z mablag'larining, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larining, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarining investitsiya faoliyati sub'ekti hisoblanadi.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati sub'ektidir.

Reinvestitsiyalar investor tomonidan kiritilgan investitsiyalarni boshqa davlatga yoki hududga berib yuborishdir.


Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan kapital quyilmalari manbalari va usullari ham o'zgaradi. Hozirgi zamon bosqichida investitsiyalar qo'yidagicha moliyalashtiriladi:

- xususiy moliyaviy resurslar va investorlarning xo'jalik ichidagi rezervlari (daromad va amortizatsiya ajratmalari; fuqarolar va yuridik shaxslarning jamg'armalari va omonatlari, sug'urta idoralari tomonidan tabiiy ofatlar, avariya va boshqalardagi yo'qotishlarni qoplash ko'rinishidagi to'lov mablag'lari va boshqa);

- investorlarning qarz ko'rinishidagi moliyaviy mablag'lari (bank va byudjet kreditlari, obligatsiya zayomlari);

- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (mehnat jamoalari a'zolari fuqarolar, yuridik shaxslarning aktsiya sotishdan olgan mablag'lari, pay va boshqa to'lovlari);

- davlat, mahalliy byudjetlari va byudjetdan tashqari fondlardan tashkil topishi.



10.2.1-rasm. O'zbekistonda fermer xo'jaligi faoliyatini moliyalashtirish manbalari tasnifi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligiga kapital qo'yishning asosiy manbasi – xususiy mablag': daromad va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarning takror ishlab chiqarishini, sodda daromad esa kengaytirilgan holda ta'minlaydi.

So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, budjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlarning salmog'i keskin o'zgardi (10.2.1-jadval).

10.2.1-jadval**Investitsiyalarni qishloq xo'jaligining asosiy kapitaliga moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlash %**

№	Investitsiya manbalari	2008	2009	2010	2011	2012	2013
1	Xususiy mablag'lar	77,8	74,2	74,9	68,2	69,2	70,1
2	Qarz va jalb qilingan mablag'lar	22,2	25,8	25,1	31,8	30,8	31,0
3	Shu jumladan budjetdan	16,8	19,1	13,9	11,8	4,1	4,9
	Shundan:						
4	Davlat budjetidan	10,0	8,5	6,5	5,8	1,7	1,8
5	Mahalliy budjetdan	6,5	9,5	6,8	5,7	2,3	3,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, investitsiyalarning moliyaviy manbalari tarkibida davlat budjetining ulushi 2008 yildagi 10,0 foizdan 2013 yilda 1,8 foizgacha pasaygan. Jalb qilingan mablag'lar ulushi esa, aksincha, 22,2 foizdan 31,0 foizga, ya'ni 8,8 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari muhim investitsiya instituti hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va modernizatsiya qilish, korxonalarda ishlab chiqarishni texnologiyalar bilan qayta jihozlash maqsadida qo'yiladigan investitsiyalarni mablag'lar bilan ta'minlashni banklar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, 2013 yilgi Investitsiya dasturida 3236108 million so'm mablag' aynan tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari sifatida yo'naltirilishi muhim ahamiyatga egadir.

10.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarini kreditlashtirish. Fermer xo'jaliklarida investitsiyalarni sarflash yo'nalishlari

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligiga va, shu jumladan, suv xo'jaligi tizimiga kiritilayotgan investitsiyalarning aksariyat qismi davlat budjeti hisobidan amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni kiritishda xususiy kapital uchun jozibadorligi yuqori bo'lgan yo'nalishlardan biri bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, sotish sohalari subyektlarini rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalar kiritish - bank orqali kreditlash tizimi, jamg'armalar o'sishi sur'atlari, moliyaviy vositachilik rivojlanganlik darajasi, valyuta, kapital bozori holati, iqtisodiy subyektlar moliyaviy barqarorligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot sohasiga kiritilgan investitsiyalar mulkchilik sohalari bo'yicha taqsimlanganda davlat sektoriga 16% i, nodavlat sektoriga esa 84 % to'g'ri keladi. Shu jumladan, qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiritilgan investitsiyalar hajmining ulushi 1 – 2 % ni tashkil etmoqda (10.3.1 - jadval).

10.3.1-jadval

**Turli hududlar, mulkchilik shakllari va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha
investitsiyalarning taqsimlanishi**

№	Ko'rsatkichlar	2001 yil	2013 yil
1.	Jami investitsiyalar	100	100
A	Davlat mulkchiligi	73,9	16,0
B	Nodavlat mulkchiligi	26,1	84,0
2.	Jami investitsiyalar	100	100
	Shundan:		
	Moddiy ishlab chiqarish sohasi	81,7	80,4
	Sanoat	60,9	59,6
	Qishloq xo'jaligi	2,0	0,9
	Qurilish	0	0,1
	Transport va aloqa	1,3	12,1
	Boshqalar	3,3	6,7
	Noishlab chiqarish sohasi	18,3	19,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami investitsiyalar hajmida davlat mulkchiligidagi investitsiyalar ulushi 2013 yilda 16,0 foizni va nodavlat mulkchiligidagi investitsiyalar esa 84,0 foizni tashkil etgan. Nodavlat mulkchiligidagi investitsiyalarning 80,4 foizi moddiy ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan. Qishloq xo'jaligi sohasiga esa atigi 0,9 foizi yo'naltirilgan xolos.

Amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirda suv xo'jaligi va uning quyi tizimiga jalb etilayotgan investitsiyalarni shakllanish manbalari bo'yicha shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- bevosita davlat budjeti mablag'lari hisobidan ajratilayotgan mablag'lar hisobiga;
- xorijiy moliyaviy tashkilotlardan davlat vositachiligida va kafolati asosida olinayotgan kredit mablag'lari hisobiga;
- bevosita xorijiy mamlakatlar tomonidan o'zaro iqtisodiy yordam tarzida berilayotgan mablag'lar va texnika vositalari hisobiga;
- xorijiy kompaniyalar va tashkilotlarning shartnoma asosida yo'naltirayotgan mablag'lari hisobiga;
- fermer xo'jaligining o'z hududida joylashgan irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish uchun ajratayotgan mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2005-2014 yillarda respublikamizda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom-ashyosi va g'alla yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalariga ajratilayotgan imtiyozli

kreditlar qiymati 2005 yildagi 312,8 mlrd. soʻmdan 2014 yilda 1 670,6 mlrd. soʻmgacha oshgani diqqatga sazovor.



10.3.1-rasm. Oʻzbekistonda 2005-2014 yillarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va gʻalla yetishtiruvchi fermer xoʻjaliklariga ajratilgan imtiyozli kreditlar (million soʻmda)

Tijorat banklari tomonidan fermer xoʻjaliklariga ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkasi tijorat kreditlari foiz stavkasidan 2-3 barobar past boʻlmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, fermer xoʻjaliklari faoliyatini davlat tomonidan iqtisodiy ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash siyosatining natijasi boʻlib, fermerlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tijorat banklari tomonidan 2014 yil davomida berilgan kreditlar iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlarini rivojlantirishga yoʻnaltirildi.

10.3.2-jadval Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyot sohalariga ajratilgan kreditlar tahlili

mlrd. soʻmda

T/r	Tarmoqlar	2013 yil	2014 yil	Farqi	
				(+;-)	%
1	Sanoat	355 634	467 616	111 982	131,5
2	Qishloq xoʻjaligi	283 794	315 816	32 022	111,3
3	Savdo va umumiy ovqatlanish	82 365	131 624	49 259	159,8
4	Qurilish, transport va aloqa xizmatiga	65 258	74 038	8 780	113,5
5	Moddiy texnika va taʼminot	23 461	19 218	- 4 243	81,9
6	Maishiy xizmat	23 500	16 604	- 6 896	70,7
7	Isteʼmol krediti	6 917	17 559	10 642	253,9
	Jami	935 472	1 208 631	273 159	129,2

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi maʼlumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot sohasiga kiritilgan investitsiyalar ko'lamini oshirib borgan. Ayniqsa, sanoat sohasiga kiritilgan investitsiyalar 2014 yilda 2013 yilga nisbatan 131,5 foizga, qishloq xo'jaligi sohasiga kiritilgan investitsiyalar 111,3 foizga va savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga kiritilgan investitsiyalar esa 159,8 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Biroq viloyatning moddiy texnika va ta'minot sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar 18,1 foizga, maishiy xizmat ko'rsatish sohasiga berilgan kreditlar esa 29,3 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Demak, viloyatning moddiy texnika va maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish borasida ancha ishlar qilinishi kerakligi ma'lumotlar tahlili orqali bilish qiyin emas. Binobarin, bu masala bo'yicha viloyat va tuman hokimlari jonbozlik ko'rsatishlari hamda zamonaviy maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerakligini va moliyalashtirishda mahalliy budjet mablag'larini yo'naltirish ishlarini amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda respublika qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan qator tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, «Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili Davlat dasturi» doirasida «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi amaldagi qonunlarga fermer xo'jaliklariga berilgan yer maydonlari hajmini muqobillashtirishni, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yer-suv resurslaridan foydalanish bo'yicha javobgarlikni oshirishni ko'zda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilgan va tasdiqlangan.

Mazkur dasturda amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha ishlar uchun mablag'lar va ularning moliyaviy manbalari aniq ko'rsatilgan. Davlat vazifalari doirasida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 2008-2012 yillarda kompleks chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, fermer xo'jaliklariga ularning uyushmasi orqali 130 ta ekskavatorlar, 30 ta buldozerlar va melioratsiya mashinalari yetkazib berish; 12234 km magistral, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlarni va 2828 km yopiq, gorizontal va vertikal drenajlarni qurish, qayta tiklash va ta'mirlash; 3006 ta tik drenaj va sug'orish quduqlarini tiklash, ta'mirlash va qayta qurish; irrigatsiya inshootlarini (kanallar, suv omborlari, gidrotexnik inshootlar)ni ta'mirlash; 68 ta meliorativ nasos stansiyalarini, 458 ta kuzatish tarmoqlarini, 4472 ta gidrotexnik qurilmalarni, 5250 ta gidropostlarni, 2710 ta nasos agregatlarini ta'mirlash va qayta tiklash; 4639 km kanallarni, 305 mln. kub metr suv omborlarini qurish va qayta ta'mirlash; 2009-2020 yillarga mo'ljallangan tomchilab sug'orish dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish uchun jami 213,4 mlrd. so'm (142,5 mln. dollar) mablag'lar ajratilgan. Shu asosda 2009 yildan respublika bo'yicha jami 3710 ga maydonga tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish ishlari boshlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida Fermer xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari ko'rsatilgan.

Kichik va o'rta biznes mezonlariga muvofiq keladigan xususiy, kichik, qo'shma, dehqon, fermer xo'jaliklari va aksiyadorlik jamiyatlari Evropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki kreditlarining oluvchilariga aylandilar.

Qashqadaryo viloyatiga Xorijiy investitsiya dasturi bo'yicha 2013 yilda jami 4 ta obyektga 9737,46 mln.so'mlik rekonstruksiya ishlari amalga oshirilishi

rejalashtirilgan. 1-chorak rejasi bo'yicha 1979,22 mln.so'mni tashkil etib, amalda 1293,61 mln.so'mlik yoki rejaga nisbatan 65 foiz ishlar amalga oshirildi.

Shundan:

1. "Osiyo taraqqiyoti banki ishtirokida Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash" loyihasi doirasida 1 ta loyiha asosida 3 ta obyektida 165,4 km uzunlikda 8454,5 mln.so'mlik rekonstruksiya ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, 10 aprel holati bo'yicha 31,26 km uzunlikdagi kollektorlarda 1433,61 mln.so'mlik ishlar amalga oshirildi. Ushbu ishlarga 37 dona ekskavatorlar, 12 dona bul'dozerlar jalb etildi.

2. Xalqaro taraqqiyot banki ishtirokida «Qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'llab-quvvatlash 2-bosqich» loyihasi bo'yicha «Irrigatsiya va drenaj tarmoqlarini qayta tiklash» komponenti doirasida belgilangan Mirishkor tumanidagi 15 km uzunlikdagi "UR-11" kanalini rekonstruksiya qilish obyekti bo'yicha shartnoma qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Davlat budjeti hisobidan Suv xo'jaligi obyektlarida kapital qurilish ishlari bo'yicha 2013 yilda jami 10246,7 mln.so'mlik 8 ta loyiha asosida qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, 10 aprel holati bo'yicha 920,7 mln.so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

Shundan: 4 ta yildan-yilga o'tuvchi, 4 ta yangidan boshlanuvchi obyektlardir.

Yildan-yilga o'tgan obyektlar:

1. «Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi Guldara daryosida sel suv ombori qurilishi».

2013 yil rejasi 3000 mln.so'm bo'lib, shundan 4 oylik reja bo'yicha 316,7 mln.so'mni tashkil etadi. 2013 yil 10 aprel holati bo'yicha 124,1 mln.so'mlik yoki 40 foiz qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

2. «Mirishkor tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tizimli qayta tiklash».

2013 yil rejasi 1000 mln.so'm bo'lib, shundan aprelgacha bo'lgan reja 166,7 mln.so'mni tashkil etadi. 10 aprel holatiga 70.0 mln.so'mlik yoki 42 foiz qurilish-montaj ishlari bajarildi.

3. Qamashi tumanidagi «Qo'ng'ir» nasos stansiyasini qayta tiklash.

2013 yil rejasi 1500 mln.so'm bo'lib, 10 aprel holati bo'yicha 178,4 mln.so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

4. «Koson tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tizimli qayta tiklash».

2013 yil rejasi 1000 mln.so'm bo'lib, shundan 10 aprel holati bo'yicha 186,7 mln.so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

5. Kitob tumanidagi «Pistaxon» kanalining bosh qismida suv yig'ish inshootining qurilishi.

2013 yil rejasi 618,3 mln.so'm, 10 aprel holatiga 173,3 mln.so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

6. Qarshi shahrini oqar suv bilan ta'minlashni yaxshilash uchun «Yo'ldosh» nasos stansiyasini qayta tiklash.

2013 yil rejasi 1000 mln.so'm, 10 aprel holati bo'yicha 115,2 mln.so'mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

6. «Mirishkor tumanidagi sug'orish tarmoqlarini tizimli qayta tiklash».

2013 yil rejasi 1000 mln.so‘m bo‘lib, shundan aprelgacha bo‘lgan reja 166,7 mln.so‘mni tashkil etadi. 10 aprel holatiga 70.0 mln.so‘mlik yoki 42 foiz qurilish-montaj ishlari bajarildi.

7. Qamashi tumanidagi «Qo‘ng‘ir» nasos stansiyasini qayta tiklash.

2013 yil rejasi 1500 mln.so‘m bo‘lib, 10 aprel holati bo‘yicha 178,4 mln.so‘mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

8. «Koson tumanidagi sug‘orish tarmoqlarini tizimli qayta tiklash».

2013 yil rejasi 1000 mln.so‘m bo‘lib, shundan 10 aprel holati bo‘yicha 186,7 mln.so‘mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

9. Kitob tumanidagi «Pistaxon» kanalining bosh qismida suv yig‘ish inshootining qurilishi.

2013 yil rejasi 618,3 mln.so‘m, 10 aprel holatiga 173,3 mln.so‘mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

6. Qarshi shahrini oqar suv bilan ta‘minlashni yaxshilash uchun «Yo‘ldosh» nasos stansiyasini qayta tiklash.

2013 yil rejasi 1000 mln.so‘m, 10 aprel holati bo‘yicha 115,2 mln.so‘mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.


7. Qamashi tumanidagi katta Jayilma nasos stansiyasini qayta tiklash ishlari bo‘yicha:

2013 yil rejasi 1000 mln.so‘m, 10 aprel holatiga 73,0 mln.so‘mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

Kredit yo‘nalishlarining resurslaridan xorijiy uskunalar va texnologiyalarini xarid qilishni moliyalashtirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va mahalliy xom-ashyo resurslarini qayta ishlash, ishlab chiqilgan namunaviy yoki alohida loyihalar asosida eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar va halq iste‘mol mollari ishlab chiqarishni ko‘zda tutadigan investitsiya loyihalarini ta‘minlash bilan bog‘liq dastlabki ishchi kapitalini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Keyingi yillarda fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida hosildorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun mablag‘lar ajratish amaliyotda qo‘llanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 5 noyabrdagi “Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-725-sonli Qarorida fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko‘rsatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetida hosildorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag‘lar ajratish, Moliya vazirligiga har yili Davlat budjeti loyihasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga yer solig‘i bo‘yicha tushumlar hisobidan mablag‘lar ajratish vazifasi yuklatildi.

Mazkur qarorga muvofiq, ball boniteti past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar qiymati 2008 yildagi 60 milliard so‘mdan 2012 yilda 160 milliard so‘mga oshdi va 2013 yilda bu ko‘rsatkich 200 milliard so‘mni tashkil etdi (11.3.2-rasm).



10.3.2-rasm. Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat budjetidan ajratilayotgan subsidiyalar qiymati, milliard so'mda.

Ushbu mablag'lar fermerlarning xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi tashkilotlar oldidagi qarzlarini qisqartirishda salmoqli manba bo'lmoqda.


Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2014 yil paxta-g'alla hosilini yetishtirishga ajratiladigan imtiyozli kreditlar meyorlarida boshqa yo'nalishlar uchun ko'zda tutilgan mablag'alar hisobidan SIU xizmatlari uchun 7139,8 mln.so'm ajratildi. Biroq ushbu mablag'ning 57 foizi yoki 4075,9 mln.so'mi tijorat banklari tomonidan to'lab berildi.

10.4. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlariga investitsiya jalb etish

Melioratsiya – yerning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumidir.

Qishloq xo'jaligida ekinlar hosildorligini muttasil yuksaltirish vazifasi birinchi navbatda sug'oriladigan yerlarning unumdorligi va irrigatsion-meliorativ holatiga bog'liq. Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalariga ko'ra, o'rtacha sho'rlangan yerlarda ekinlarning hosildorligi sho'rlanmagan yerlarga nisbatan 50-60 foizga, o'ta sho'rlangan yerlarda esa 90-100 foizga past bo'lishi aniqlangan.

Quyidagi diagrammada respublikamizning sug'oriladigan yerlarida yerlarning meliorativ holati keltirilgan bo'lib, bunda jami sug'oriladigan yerlarning 52,0 foizi sho'rlanmagan bo'lib, biroq qolgan 48,0 foizi turli darajada sho'rlangan yerlar hisoblanadi.



10.4.1-diagramma. O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining sho'rlanganlik darajasi

O'tgan yillar davomida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari hukumatimizning doimiy e'tiborida bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktabrdagi «Yerlarni meliorativ holatini yaxshilashning tizimlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3932 sonli Farmoniga muvofiq, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini 2008-2012 yillarda yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Dasturda melioratsiya tizimini rivojlantirish va takomillashtirish xamda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga yo'naltirilgan quyidagi tadbirlar majmuasini amalga oshirish mo'ljallangan: (10.4.1-jadval)

1. Magistral va xo'jaliklararo zovurlar, meliorativ tik quduqlarni, meliorativ nasos stansiyalarini qurish va qayta tiklash, yopiq-yotiq drenajlarni tiklash.

2. Meliorativ nasos stansiyalarini, gidrotexnika va suv o'tkazuvchi inshootlarni va boshqa meliorativ obyektlarni ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish.

3. Suv xo'jaligi qurilishi va suvdan foydalanish tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

10.4.1-jadval

Mamlakatimiz bo'yicha meliorativ tadbirlarlarga ajratilgan mablag'lar, milliard so'mda

Tadbirlar nomi	Jami 2008- 2012 yillarda	shu jumladan:				
		2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.
Meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish ishlariga	310,3	22,4	57,3	63,8	81,6	85,2
Meliorativ obyektlarni ta'mirlash va tiklash	313,5	38,6	48,1	59,2	77,0	90,6

ishlariga						
Lizing asosida meliorativ texnikalar yetkazib berishga	127,6	29,3	25,4	27,2	20,0	25,7
Jami	751,4	90,3	130,8	150,2	178,6	201,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini moliyalashtirishga davlat budjetidan mablag'lar ajratish ishlari davom ettirilmoqda. Jumladan, 2008 yilga bu maqsadlar uchun jami 90,3 milliard so'm ajratilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 201,5 milliard so'mga yetdi. O'tgan 2008-2012 yillarda jami ajratilgan mablag'lar qiymati 751,4 milliard so'mni tashkil etdi (6-ilova).

2012 yilda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish va kommunikatsiya obektlari, qishloq xo'jaligi hamda meliorativ qurilishni rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko'tarish masalalari hukumatimizning diqqat markazida bo'ldi. Hozirgi kunda sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligi korxonalarini tarkibiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qiymati 541,65 million AQSH dollariga teng bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi 10 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shundan 2012 yilda qiymati 79,94 million AQSH dollari teng bo'lgan mablag'lar o'zlashtirilib, bu loyihalar asosida yerlarning suv ta'minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqdi. Amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida 2006-2012 yillar mobaynida sho'rlanmagan maydonlar hajmi 2109 ming gektardan 2192 ming gektarga kengayib, kuchli sho'rlangan maydonlar hajmi 163 ming gektardan 118 ming gektarga qisqardi. Yer osti sizot suvlari sathining chuqurligi 1,5 metrgacha bo'lgan maydonlar hajmi 272 ming gektardan 177 ming gektarga qisqardi.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi doirasida viloyatda 2012 yilda meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha 13 ta loyiha asosida 194 km uzunlikda yangi zovur qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyatida «Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash» Davlat dasturi bo'yicha meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish hamda tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari 2012 yilning 30 noyabr holati bo'yicha 743,7 km uzunlikda zovur qurish, rekonstruksiya qilish hamda zovurlarni tozalash ishlari amalga oshirilib, 14255,78 mln.so'm mablag' o'zlashtirildi hamda 11400 gektar maydonning meliorativ holati barqarorlanishiga erishildi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish orqali tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida bayon etilgan. Ushbu konsepsiyada belgilab berilgan ustivor vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturda 2011-2015 yillar mobaynida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ inshootlar qurish, ularni rekonstruksiya

qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikalarini xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyihalar hisobidan 1,4 million gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim prognoz vazifalari belgilangan.

Davlat byudjeti hisobidan ajratilgan mablag'lar, asosan, yillik smeta asosida bevosita suv xo'jaligi tizimi ma'muriy-boshqaruv organini saqlab turish, yirik suv inshootlarini ekspluatatsiya va rekonstruksiya qilishga va xo'jaliklararo irrigatsiya tarmoqlari tizimini ta'mirlashga, yirik suv yetkazib beruvchi mashina-magistral kanallarni ekspluatatsiya qilish hamda ta'mirlashga, yuqori quvvatli nasos stansiyalarini saqlab turish va ularning energetik resurslariga talabini qondirish maqsadlariga yo'naltirildi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 1958-sonli Qarori ko'ra quyidagi vazifalar belgilab berildi:

✓ 2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksi;

✓ Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan 2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ yaxshilash bo'yicha ishlarning prognoz parametrlari;

✓ Davlat budjetidan markazlashgan investitsiyalar hisobiga moliyalashtiriladigan 2013-2017 yillar davrida irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish prognoz parametrlari;

✓ suv iste'molchilari va fermer xo'jaliklari uyushmalarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan 2013-2017 yillar davrida sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash va tiklash prognoz parametrlari;

✓ qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining kredit mablag'lari va o'z mablag'lari hisobidan 2013-2017 yillar davrida tomchilatib sug'orish tizimini joriy etishning prognoz parametrlari.

Shuningdek:

✚ qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalarining vazifalari kengaytirilib, ularning zimmasiga tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlar hamda boshqa melioratsiya obyektlarini ta'mirlash va tiklash bo'yicha buyurtmachi vazifasi qo'shimcha yuklandi;

✚ 2013 yil 1 maydan boshlab bog'dorchilik, uzumchilik va poliz mahsulotlarini yetishtirish uchun yer ajratishda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish bo'yicha investitsion majburiyat olinishi belgilab qo'yildi.

10.5. Chorvachilik va bog'dorchilikka investitsiya jalb etish


Mamlakatimiz dehqon va fermer xo'jaliklarining chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish dasturlarida asosiy e'tibor chorva mollarining naslini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish, tarmoqda servis xizmatini rivojlantirish va chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan. Buning uchun:

- chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash;

- naslchilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash;
- tarmoqda servis xizmati, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;
- parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;
- chorva mollarini yuqumli kasalliklardan muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;
- ozuqa ekin maydonlarini kengaytirish va optimal joylashtirish, bunda lalmi yerlarda chorva mollari uchun ozuqa yetishtirish ko'lamini kengaytirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda chorcachilik rivojlangan mamlakatlardan zotdor mollarni olib kelib, urchitishni tashkil etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda, 2006-2012 yillar mobaynida Ukraina, Belarus, Polsha, Avstriya, Germaniya, Gollandiya va boshqa Yevropa mamlakatlaridan 28174 bosh naslli golshtinfriz (Germaniya, Polsha), qora-ola (Belorus, Ukraina), qizil-cho'l (Ukraina), simental (Avstriya) zotlariga mansub zotdor qoramollar keltirildi.

Chetdan keltirilgan mollardan tug'ilgan buzoqlar soni 55 519 boshga yetdi. Keyingi yillarida ko'pgina naslchilik fermer xo'jaliklari yangidan shakllandi. Hozirgi kunda qoramolchilik yo'nalishidagi naslchilik xo'jaliklari soni 448 taga yetkazilib, ularda 107751 bosh yuqori nasldor qoramollar parvarish qilinmoqda. Birgina 2012 yilda ularda 7,2 mingdan ortiq naslli mollar tayyorlandi hamda fermer va dexqon xo'jaliklariga sotildi (10.5.1-rasm).



10.5.1-rasm. Xorijiy mamlakatlardan keltirilgan naslli qoramollar soni

Chorva mollari naslini va mahsuldorligini oshirish bo'yicha naslchilik-seleksiya ishlarida xam ijobiy o'zgarishlar sezilmoqda. Zavod tipidagi naslchilik fermer xo'jaliklari chetdan keltirilgan golshtinfriz, bushuyev, simental, shvits, qora-ola va qizil cho'l zotli mollar xisobidan shakllantirilmoqda. Aksariyat naslchilik toifasidagi xo'jaliklarda sigirlardan bir kunda 20-30 kilogrammdan yoki laktatsiya davomida 6-7 ming kilogrammdan sut sog'ib olinmoqda.

Respublikamiz hukumati tomonidan mamlakatimizda chorcachilikning parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik kabi tarmoqlarini rivojlantirish borasida ham maqsadli dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi

xalqimizning chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini barqaror qondirishga muhim hissa qo'shishi shubhasiz.

Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish yuzasidan jami 575 gektar yer maydonida intensiv bog'lar barpo etildi. Bu bog'larda yuqori iste'mol xususiyatiga ega va serhosil bo'lgan mevali daraxt ko'chatlari ekilmoqda. Bunday bog'larning yaratilishi mamlakatimiz aholisini sifatli meva mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash imkonini yaratadi. Birgina 2011 yilning kuzi va 2012 yilning bahorida jami 7661 gektar maydonga yangi mevali bog'lar, shundan 2110 gektar yerga maydonda intensiv bog'lar barpo etish, 8518,8 gektar maydondagi bog'larni qayta ekish belgilangan.

Mamlakatimiz aholisini meva va sabzavotlar bilan yil davomida bir meydoda ta'minlab borish uchun keng tarmoqli sovetish kameralariga ega omborlar tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 105-sonli qaroriga muvofiq aholi va tashqi bozorlarga yil davomida muntazam meva-sabzavotlarni sof holda yetkazib berish maqsadida 2011-2015 yillarda 120,8 ming tonna sig'imga ega bo'lgan yangi sovetish kameralarini qurish va 49,1 ming tonna sig'imga ega bo'lgan mavjud sovetish kameralarini modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 25 noyabrdagi 254-sonli «2009 yilda meva, sabzavot, kartoshka, poliz va uzum mahsulotlarini yetishtirish hamda ishlatishning prognoz ko'rsatkichlari to'g'risida» gi qarori asosida joriy yilda Qashqadaryo viloyati boyicha 5488 gektar kartoshka, 14572 gektar sabzavot va 5636 gektar poliz ekinlari ekilib, ushbu maydonlardan 86,2 ming tonna kartoshka, 286 ming tonna sabzavot, 82,3 ming tonna poliz mahsulotlari yig'ishtirib olindi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan meva sabzavot mahsulotlarining 24 foizi 94 ming tonnasi qayta ishlash korxonalari tomonidan qayta ishlashga qabul qilinib 8 ming tonnadan ortiq meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarildi.

Bugungi kunda meva-sabzavotchilik yo'nalishida fermer xo'jaliklari va agrofimalarning tashkil etilishi integratsiya jarayonlarini progressiv shakli hisoblanib, birinchi navbatda monopol vaziyat, investitsiyalarni mobilizatsiyalashtirishga va boshqa muammolarni yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo fikrimizcha, agrofimalarni tashkiliy mexanizmini takomillashtirish, firma ichidagi va tashqi munosabatlarni amalga oshirishni taminlovchi iqtisodiy mexanizmni qayta ko'rib chiqish zarur.

- - sharoiti og'ir mintaqalardagi asosan, past hosildorligi fermer xo'jaliklari uchun rejadan ortiq yetishtirilgan paxta xom ashyosini erkin sotish imtiyozini berish;

- - qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududiy ixtisoslashgan ulgurji savdo bozorlarini (g'alla, meva-sabzavot, kartoshka, chorva mahsulotlari va boshqalar) tashkil etishni rag'batlantirish va rivojlantirishni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilish;

- - qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va sifatini bashorat qilish mexanizmini ishlab chiqish;

- meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini erkin sotish maqsadida savdo uylari, supermarketlar, ulgurji savdo-tijorat xususiy korxonalarni rivojlantirishni

iqtisodiy rag'batlantirish, "xarid qilish- sotish" tizimidagi sun'iy to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan meyoriy huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

- bojxona tizimi va amaliyotlarini soddalashtirish, tranzit masalalarida ya'ni, avtomobil, temir yo'l, samolyot va boshqa transportlarda mahsulot tashishda imtiyozlar berish, litsenziya va sertifikatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq jarayonlarni soddalashtirish va takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligi ekinlari va hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish, bu borada tashviqot-targ'ibot ishlarini kuchaytirish, sug'urta kompaniyalarning faoliyatini rag'batlantirish va moliyaviy qo'llab quvvatlash.

10.6. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni oshirish yo'llari

Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga investitsiyalarni sarflashdan maqsad– qo'shimcha foyda olish va fuqarolarning yashash sharoitini yaxshilashdir. Ularning darajasini loyihalar tuzishda hamda bu loyihalarni amalga oshirishda aniqlash mumkin. Buning uchun investitsiyalar (kapital qoyilmalar)ning iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. Iqtisodiy samaradorlik xarajatlar bilan foyda so'mmalari taqqoslanishi natijasida aniqlanadi. U:

- makroiqtisod, ya'ni mamlakat miqyosida;
- mezoiqtisod, ya'ni tarmoqlar miqyosida;
- mikroiktisod, ya'ni fermer yoki dehqon xo'jaliklari doirasida;
- ayrim yo'nalishlar, ob'ektlar bo'yicha ham aniqlanadi.

Makro hamda mezoiqtisod miqyosida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi ularning mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorligi koeffitsienti ko'rsatkichi yordamida ifodalanadi. Uning darajasi sarflangan investitsiyalar natijasida yalpi ichki mahsulotning o'sgan so'mmasini shu o'sishni ta'minlagan investitsiya so'mmasiga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Ic(Kc) = \frac{YIMy}{\sum Ic(Kk)} = \frac{Y\Delta y}{\sum Ic(Kk)}$$

Bunda: $Ic(Kc)$ – investitsiya (kapital qoyilma)larning mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti;

$YIMy$ – makro, mezoiqtisod(tarmoq) miqyosida ma'lum bir davr ichida yalpi ichki mahsulotning o'sgan so'mmasi, so'mda. Bunda qishloq xo'jaligida yalpi daromadning o'sgan so'mmasi ham olinishi mumkin;

$\sum Ic(Kk)$ – investitsiya yoki sarflangan kapital qoyilma so'mmasi. Bu ko'rsatkich sarflangan 1 so'mlik investitsion mablag' evaziga necha so'mlik yoki tiyinlik yalpi ichki mahsulot yoxud yalpi daromad olinganligini ifodalaydi. Uning mutlaq (absolyut) miqdori imkoni boricha yuqori bo'lgani yaxshi. Shunda investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo'ladi. Kam bo'lsa, u iqtisodiy samaradorlik darajasi past bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday holda investitsiyalarni sarflash maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Investitsiyalar – aksariyat hollarda uzoq muddatga mo'ljallangan xarajatlardir. Shuning uchun ularning bir necha yillar davomidagi iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Bunda inflyatsiya darajasi hisobga

olinadi. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligida qiyosiy baho sifatida 2001 yilgi o'rtacha baholar asos qilib olinmoqda. Kelajakda bu baholar o'zgarishi mumkin.

Shunday hollarda investitsiyalar (kapital qoyilmalar) ning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

loyihaning o'zini-o'zi qoplash usulini aniqlash;

kompaunding (murakkab foizlar) usuli;

diskontlash usuli.

O'zini-o'zi qoplash muddati – amalga oshirilayotgan loyiha foydasi hisobidan dastlabki investitsiya miqdorini qoplash davri. Uni hisoblashda sof foyda moliyaviy xarajatlar, foizlar va amortizatsiya ajratmalari e'tiborga olinadi.

Kompaunding usulining mohiyati shundan iboratki, bunda dastlabki so'mma har yilgi daromad foizi hisobiga oshib boradi. Bunda quyidagi formulaga amal qilinadi:

$$O'q = BK(1+i)^n$$

Bu yerda: $O'q$ - dastlabki investitsiya so'mmasining o'sgan qiymati, so'mda;

BK - dastlabki investitsiyaning boshlang'ich qiymati, so'mda;

i – foiz stavkasining o'zgarishini ko'rsatuvchi birlik;

n – davr, ya'ni muddat, yilda.

Investitsiyaning o'sgan qiymati foiz stavkasi bilan davr muddatiga bog'liq. Foiz stavkasi investorning muqobil qarorini hisobga oladi, ya'ni pulni biron loyihaga qoingan samaralimi yoki depozitga qoingan afzalimi?

Diskontlash – hisoblash printsipli kompaundingga nisbatan teskari. Ya'ni diskontlash – kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan daromadni joriy baholarda hisoblash. Mazkur hisobning amaliy mazmuni shundan iboratki, bunda tushumlarning minimal darajasi aniqlanadiki, u shu daromaddan kam bo'lgan holatda investitsiya qilish maqsadga muvofiq emas.

Diskontlashgan qiymat foiz stavkalariga bog'liq.

Yillik daromad bir xil bo'lganda diskontlashgan qiymat (ΔK) quyidagi formula yordamida aniqlanishi mumkin:

$$\Delta K = \frac{K}{(1 + \Phi)^x}$$

Bunda: ΔK – diskontlangan qiymat, so'mda;

K – banklarning foiz stavkalari asosida olinishi mumkin bo'lgan qiymat, so'm;

x – yillik daromad olinishi mumkin bo'lgan yillar soni, yil;

Φ – banklarning foiz stavkalari, foiz;

Bankning yillik foiz stavkasi 6 foiz, fermer xo'jaligi ikki yildan so'ng 25 mln. so'mlik daromad olishni mo'ljalangan bo'lsa, unda diskontlangan qiymat 22,25 mln. so'mga teng bo'ladi.

$$\Delta K = \frac{25000000}{(1+0,06)^2} = 22249911 \text{ so'm}$$

Diskontlash natijasida qanday davr bo'lishidan qat'i nazar daromadlarning real qiymati aniqlanadi.

Korxona miqyosida sarflanishi lozim bo'lgan yoki sarflangan investitsiya (kapital qoyilma) mutlaq (absolyut) investitsiya(kapital qoyilma)larni sarflash natijasida

olinayotgan sof foydaning o'sgan so'mmasini shu o'sishni ta'minlagan investitsiya (kapital qoyilma) so'mmasiga taqsimlash bilan hisoblanadi. Unda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Ic(Kk) = \frac{C\phi}{Ic(Kk)}$$

Bunda: $C\phi$ – kapital qoyilmani amalga oshirish natijasida olingan sof foyda yoki sof foydaning o'sgan so'mmasi, so'mda.

Bu ko'rsatkich yordamida sarflangan bir so'mlik investitsiya (kapital qoyilma) qancha so'mlik yoki tiyinlik foyda keltirilganligi aniqlanadi. Shuning uchun bu ko'rsatkichning mutlaq (absolyut) miqdori yuqori bo'lgani maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda ayrim me'yoriy hujjatlarda investitsiyalar (kapital quyilmalar) mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorlik darajasi koeffitsientining me'yoriy miqdori (E_m)-0,07 darajasida belgilangan. Shunga binoan sarflanayotgan investitsiyalarning har bir so'mi evaziga 7 tiyin foyda olinsa, bunday investitsiyalar iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Undan kam bo'lganda esa investitsiyalar samarali hisoblanmaydi. Shu bilan birgalikda fermer xo'jaligida irrigatsiya - melioratsiya inshootlariga sarflanayotgan investitsiyalar (kapital quyilmalar) mutlaq (absolyut) iqtisodiy samaradorlik koeffitsientining miqdori ularning uzoq yillar davomida faoliyat ko'rsatishini e'tiborga olgan holda 0,05 darajasida belgilangan.

Fermer xo'jaligida sarflangan investitsiyalar (kapital quyilmalar) doimo ham foyda so'mmasi oshishini ta'minlamaydi, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yoki mahsulot yetishtirish uchun qilingan o'rtacha xarajatlar (mahsulot tannarxi) kamayishiga ham olib keladi. Shunday hollarda ularning iqtisodiy samaradorlik darajasi tejalgan mablag' qiymatini sarflangan kapital quyilma so'mmasiga taqsimlab ham aniqlanadi. U quyidagi tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$Ic(Kc) = \frac{T_1 - T_2}{Ic(Kk)};$$

Bunda: T_1 – investitsiya (kapital quyilma) sarflanganidan oldingi tannarx so'mmasi, so'mda;

T_2 – investitsiya (kapital quyilma) sarflanganidan so'nggi tannarx so'mmasi, so'mda.

Bu ko'rsatkichning ham mutlaq (absolyut) darajasi yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Fermer xo'jaligiga sarflangan investitsiya (kapital qoyilmalar) ning qoplash muddati quyidagicha aniqlanadi:

Uning darajasi sarflangan investitsiya (kapital quyilma) so'mmasini olingan yalpi ichki mahsulotning, sof foydaning o'sgan so'mmasiga taqsimlash orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$I_m(K_m) = \frac{Ic(K_m)}{A_{IM}}; \quad Ic(K_m) = \frac{Ic(K_k)}{C\phi}$$

Investitsiyalarning (kapital qoyilma) qoplash muddati qisqa bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birgalikda investitsiya (kapital qoyilmalar)ning qiyosiy samaradorligi ham aniqlanadi.

Mavjud adabiyotlarda investitsiya (kapital qoyilma) larning qiyosiy samaradorlik koeffitsienti 0,12 darajasida belgilangan. Unga 1 ni taqsimlash natijasida investitsiyalarning necha yilda qoplanishi mumkinligi aniqlanadi, ya'ni (1:0,12) 8,3 yilda qoplansa, investitsiyalar qiyosiy jihatdan samarali hisoblanadi.

Investitsiyalarning investitsion faoliyatlari faollashuvi va iqtisodiy samaradorligi ortishi fermer xo'jaligiga imtiyozli kapital quyilmalarni qo'llash imkonini beradi.

Fermer xo'jaligida kapital quyilmalarining samaradorligi ortishiga quyidagilar hisobiga erishish mumkin:

- o'zini amalda oqlagan namunaviy loyihalarni qo'llash: bu ob'ektni loyihalash xarajatlari va muddatlarini qisqartirish shuningdek, samarasiz loyihani tanlash xavfini pasaytirishga imkon beradi.

- Qurilish va ob'ektni o'zlashtirish muddatini qisqartirish, bu tugallanmagan qurilishlar hajmini kamaytirish hamda investitsiya qo'yish va iqtisodiy samara olish orasidagi vaqt qisqarishiga yordam beradi;

- Quyilmalar kompleksligini ta'minlash: masalan, chorvachilikda quyilmalarni chorvachilik binolari (inshootlari), ozuqa sexlari qurishga va asosiy podani shakllantirishga birgalikda qo'shimcha optimal darajada erishish lozim;

- foydalanish samaradorligini hisobga olgan holda mablag'larni birinchi o'ringa qo'yish; birinchi navbatda investitsiyalarni amaldagi ob'ektlarni rekonstruktsiyalashga yo'naltirish maqsadga muvofiq, chunki ular yangi qurilishga qo'yilgan investitsiyaga nisbatan ikki uch marta tezroq qoplanadi.

- Kapital quyilmalarini ko'pgina ob'ektlarga tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik: investitsiyalarni alohida ob'ektlar qurilishiga konsentratsiyalash uni to'xtovsiz yuritishga imkon beradi va ob'ektlarni ekspluatatsiyaga kiritish muddatlarini qisqartiradi;

- tejamkorlik tartibiga rioya qilishdan va texnika uytuqlaridan foydalanish (masalan pauvandlash bilan bog' yaratish o'stirilayotganining 4 yilida meva hosili olish imkonini beradi. Urug'idan payvand qilib yaratilgan bog'larda esa daraxtlar 8 yildagina mevaga kiradi: birinchisida xarajatlarni qoplash muddati 5-6 yil, ikkinchisida 9-10 yil.

Fermer xo'jaligida kapital qoyilmalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga, shuningdek qishloq xo'jalik va ASM ing boshqa tarmoqlarini intensivlashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va uning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etib boruniga qadar hamma harakatlari davomida yo'qotishlarni qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish tannarxini qisqartirish ham yordam beradi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, dehqon va fermer xo'jaliklarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta'minlash maqsadida respublika budjetidan katta miqdorda mablag'lar ajratilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiyaning o'rnini qanday?

2. Investitsiyalarning fermer xo'jaliklari faoliyatidagi zaruriyatini izohlang?
3. Investitsiya samaradorligi qanday ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi?
5. Kapital quyilma nima va unga pul mablag'i qayerdan kelib tushadi?
6. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish deganda nimani tushunasiz?
7. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishning asosiy ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?
8. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

XI-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINI MODDIY- TEXNIKA RESURSLARI VA ULARNING MABLAG'LAR BILAN TA'MINLANISHI

Reja:

11.1. Dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlanishida moddiy-texnika resurslarning hamda mablag'larning ahamiyati

11.2. Xo'jaliklarning moddiy-texnika resurslar hamda mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar

11.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika va mablag' resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, ulardan foydalanish darajasini oshirish yo'llari

O'quv maqsadi: *fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlanishida moddiy-texnika resurslarning hamda mablag'larning ahamiyati, xo'jaliklarning moddiy-texnika resurslar hamda mablag'lar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari hamda xo'jaliklarni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash masalalarini yoritishdan iboratdir.*

Tayanch iboralar: *moddiy-texnika resurslari, moliyaviy resurslar, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, MMTP*

11.1. Dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlanishida moddiy-texnika resurslarning hamda mablag'larning ahamiyati

Fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari deganda fermerning mavjud barcha asosiy fondlari va xo'jalik inventarlari tushuniladi. Fermer xo'jaligida texnikalar etarli miqdorda bo'lmasa qishloq xo'jaligi ishlarini o'z agrotexnik muddatlarida bajarilmaydi, bu, o'z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish darajasining pasayishiga olib keladi. Demak, ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati katta.

Respublikada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida fermer xo'jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishiga «Keys», «Magnum» kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Fermer va dehqon xo'jaliklari uchun mini texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Fermerlarga texnikalar lizing kompaniyalari orqali berilmoqda.

Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish yuqori bo'ladi. Fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tabiiy va iqtisodiy resurslardan tashkil topadi. Tabiiy resurslar – yer, suv, o'rmon, chorva hayvonlari, issiqliqlik hamda yog'ingarchilik miqdoridan tashkil topadi. Ularning asosiy qismi davlat tasarrufida bo'lib, korxonalarga, fuqarolarga foydalanish uchun beriladi.

Iqtisodiy resurslarga moliyaviy hamda mehnat resurslari kiradi. Fermer xo'jaligini ta'minlashda moddiy texnika va moliyaviy resurslar mavjud bo'lib:

1. **Moddiy-texnika resurslariga** – ishlab chiqarishning moddiy vositalari: binolar, inshootlar, mashinalar, traktorlar, kombaynlar, barcha turdagi kimyoviy

vositalar, o'g'itlar, urug'liklar, em-xashaklar, yoqilg'i moylash, qurilish va boshqa materiallar kiradi.

2. Moliyaviy resurslariga – davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar xo'jaliklarning joriy, valyuta schyotlaridagi, g'aznadagi pullari, amortizatsiya fondi, aktsiyalardan olayotgan foydalari, bank kreditlari hamda ichki va tashqi investitsiyalarni amalga oshirish natijasida olayotgan mablag'lar, ta'sisxilar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan mablag'lar kiradi.


Fermer xo'jaligining mablag'lari:

1. Fermer xo'jaligining mablag'lariga – mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondidan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondi hisoblangan mablag', foydalanilmayotgan ayrim ishlab chiqarish vositalarini sotishdan, ijaraga beralayotgan vositalardan foydalanish natijasida va boshqa manbalardan olingan mablag'lar kiradi.

2. Chetdan jalb etiladigan mablag'lar – Irrigatsiya–melioratsiyaga, ekologiyaga hamda ijtimoiy sohalarga davlat byudjetidani ajratilayotgan mablag'lar, davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan mahsulotlarga davlat hisobidan ajratiladigan transh mablag'lari, tijorat institutlarining kredit mablag'lari, investitsiyalar, homiylarning, hamkorlarning va boshqa manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar kiradi. Shunday tartibda shakllantirilgan moddiy-texnika resurslarida fermerlar yil mobaynida to'liq va samarali foydalanishsa, barcha turdagi tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaliklarini moddiy texnika resurslari bilan o'z vaqtida tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi ta'minot korxonalari ta'minlab tursa, mahsulot hajmi ortadi va fermerning to'lov qobiliyati oshadi. Agar moddiy texnika ta'minoti o'z vaqtida amalga oshirilmasa avval fermer xo'jaligining ish faoliyatiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga undan keladigan daromadga salbiy ta'sir etib, to'lov qobiliyatini yo'qotadi. Shuning uchun iste'molchi bilan ta'minotchi o'rtasida tuzilgan shartnomalar o'z vaqtida samarali bajarilishi ta'minlanishi kerak.

Qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi asosan: kelib chiqishi, moddiy-ashyoviy turi, faoliyat turi, mulk shakllari, xo'jalik sub'ektlari tahsimoti, amalda foydalanish imkoniyatlari va boshqalarga qarab amalga oshiriladi. Quyidagi chizmada moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi berilgan: (11.1.1-rasm).



11.1.1-rasm. Qishloq xo`jaligida moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi

Tabiiy moddiy-texnika resurslariga biologik, mineral resurslari, quyosh energiyasi, yer, shamol, suv energiyasi, yer-suv resurslari kabilar kiradi. Mineral resurslar, o`z navbatida, o`z ichiga yoqilg`i energitika qazilmalari (neft, gaz, ko`mir va hokazo), foydali ruda qozilmalari (temir, rangli metall, oltingugurt va hokazo), shuningdek, boshqa mineral resurslarni (qum tabiiy tosh, loy, bo`r, torf, ohak va hokazo) qamrab oladi. Moddiy-ashyoviy tarkib bo`yicha resurslarning turlanishi resurslarning jismonan miqdoriga ko`ra umumiy texnik o`lchovlar bilan belgilanadi. Bunday resurslarga ishchi mashinalar, ishlab chiqarish inshootlari, texnologik uskunalar, traktorlar, avtomobillar kiradi.

Faoliyat turi bo`yicha moddiy-texnika resurslari asosan alohida tarmoqlarga ixtisoslashgan, bajarayotgan vazifasiga ko`ra, resurslarning taqsimlanishi ko`zda tutilgan resurslarni o`z ichiga oladi. Masalan, sanoat korxona uchun alohida resurslar talab etilsa, qishloq xo`jalik uchun boshqa resurslar kerak bo`ladi.

Mulk shakllariga ko`ra, resurslar ham turkumlanadi. Masalan, fermer o`zi texnika vositasini sotib oladi yoki uni ijaraga oladi va hokazo. Xo`jalik sub`ektlari bo`yicha taqsimlashda resurslarning kim tomonidan foydalanishi e`tiborga olinadi. Masalan, qishloq xo`jaligida ekish ishlariga kompyuter kerak emas, chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishda o`rim kombayni kerak emas. Shunga ko`ra, xo`jalik sub`ektlarining o`zi resurslarning kerakligini, talabga javob beradiganini tanlaydi.

Amaliy foydalanish imkoniyati bo`yicha resurslarning turkumlanishi asosan fan-texnika taraqqiyotiga bog`liq bo`ladi. Masalan, yangi ixtiro qilingan kombayn yoki traktor sinovdan o`tgach, amalda qancha muddat sifatli foydalanadi, buni albatta ishlab chiqarish jarayoni belgilab beradi.

11.2. Xo'jaliklarning moddiy-texnika resurslar hamda mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Fermer xo'jaligining mablag'lari o'z faoliyatiga qarab 2 ga bo'linadi:

1. Fermer xo'jaligining mablag'lariga-mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondidan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondi hisoblangan mablag', foydalanilmayotgan ayrim ishlab chiqarish vositalarini sotishdan, ijraga berilayotgan vositalardan va boshqa manbalardan olingan mablag'lar kiradi.

2. Chetdan jalb etilayotgan mablag'lar – irrigatsiya-melioratsiyaga, ekologiyaga hamda ijtimoiy sohalarga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar, davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan mahsulotlarga davlat hisobidan ajratiladigan transh mablag'lari, tijorat institutlarining kredit mablag'lari, investitsiyalar, homiylardan, hamkorlardan va bosha manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar kiradi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika resurslari hamda mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ko'rib chiqamiz:

1. Moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MTR_{td} = \frac{(E_k + (AF_k - A_s) + AF_k + BG_k)}{KX_e};$$

MTR_{td} – moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm;

E_k – qishloq xo'jalik erlarining qiymati, so'm;

AF_k – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, so'm;

A_s – asosiy vositalarning o'rtacha yillik eskirish so'mmasi so'm;

BG_k – bog'lar, tokzorlarning o'rtacha yillik so'mmasi, so'm;

KX_e – qishloq xo'jalik yerlari, ga.

2. Energetik resurslari bilan ta'minlanganlik – energetik resurslarning ekin maydoniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$E_{rt} = \frac{ER_k}{E_m(KX_e)};$$

Bunda: E_{rt} – energetik resurslar bilan ta'minlanganlik;

ER_k – jami energetik resurslar quvvati, ot kuchi;

$E_m(KX_e)$ – jami ekin maydoni (qishloq xo'jalik yerlari).

3. Mehnatning energetik resurslar bilan qurolanganlik darajasi-jami energetik resurslarni (ot kuchida) mehnat qilgan kishilarning o'rtacha yillik miqdoriga (kishilar) nisbati bilan aniqlanadi.

$$E_{rt} = \frac{ER_k}{N_{kishi}};$$

Bunda: E_{rt} – energetik resurslar bilan ta'minlanganlik;

ER_k – jami energetik resurslar quvvati, ot kuchi;

N_{kishi} – jami ishchilar soni.

4. Ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasi–traktor, mashinalar yordamida bajarilgan jami ish (etalon gektarda) miqdorini fermer xo'jaliklari boyicha bajarilgan jami ishlar hajmiga (etalon.ga) nisbati va yuzga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

$$Md = \frac{MBi}{JBi} \times 100 \%$$

Bunda: Md- ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

MBi – mashina, traktorlar va boshqa mexanizmlar yordamida bajarilgan ish (et.ga);

JBi – jami bajarilgan ish miqdori (et.ga).

5. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avval qilingan xarajatlardan, ular joriy etilganidan so'ng qilingan xarajatlar miqdori, so'mmasi ayrilib, aniqlangan raqam dastlabki xarajatlarga taqsimlanadi va foizga ko'paytiriladi:

$$Xt = \frac{X1 - X2}{X1} \cdot 100 \%$$

Bunda: Xt – yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi;

X1 – yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi xarajatlar (so'm);

X2 – yangi texnika, texnologiya joriy etilgandan keyingi xarajatlar (so'm);

6. Mashina – traktor hamda avtomashinalar parkidan foydalanish koeffitsienti – xo'jalikda foydalanilgan mashina–traktorlar sonining mavjud bo'lgan mashina–traktorlar soniga nisbatidir.

$$MTPFk = \frac{Fs}{Ms};$$

Bunda: MTPFk – mashina–traktor parkidan foydalanish koeffitsienti.

Fs–foydalanilgan mashina–traktorlarning soni, dona;

Ms–mavjud bo'lgan mashina–traktorlarning soni, dona.

7. Mashina–traktorlar hamda kombaynlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashganlik darajasi – ishlagan mashina kunlari sonini ishlagan mashinalar soniga taqsimlash natijasida aniqlanadi.

$$\overline{Mk} = \frac{\sum Mk}{Ms}; \quad \overline{Tk} = \frac{\sum Tk}{Ts}; \quad \overline{Kk} = \frac{\sum Kk}{Ks};$$

Bunda: $\overline{Mk}$ – bitta mashinaning 1 oyda, mavso'mda, yilda ishlagan (qatnashgan) o'rtacha kuni;

$\sum Mk$ – jami ishlagan mashina kunlari;

$\sum Tk$ – jami ishlagan traktor kunlari;

$\sum Kk$ – kombaynlarning ishlagan jami kunlari;

Ms – ishlagan mashinalar soni;

Ts – traktorlar soni;

Ks – kombaynlar soni.

Bu ko'rsatkich yordamida xo'jalikda 1 traktor, kombayn yoki mashina yil davomida necha mashina – kun ishlaganligi aniqlanadi.

1. O'rtacha va alohida har bir mashina–traktorlar, yuk mashinasidan, don kombayni, paxta teruvchi mashinadan foydalanish darajasi–mashinalar (t/ km), traktorlar (et.ga), kombaynlar (gektar, tonna) yordamida alohida – alohida jami bajarilgan ish hajmini shu ishlarni bajarishda qatnashgan yuqorida ko'rsatilgan texnikalarning o'rtacha soniga taqsimlanadi.

$$TMK_i = \frac{T_i}{T_s}; \frac{M_i}{M_s}; \frac{K_i}{K_s};$$

Bunda: TMK_i – traktor, mashinalarning o'rtacha bajargan ishi (1 smenada, 1 kunda, mavso'mda, 1 yilda etalon gektarda, t/km, tonna, gektarda).

$\sum T_i, M_i, K_i$ – traktor, mashina va kombaynlar yordamida bajarilgan jami ish hajmi (etalon gektarda, t/km, tonnada);

$\sum T_s, M_s, K_s$ – ish bajarishda qatnashgan traktor, mashina va kombaynlarning o'rtacha soni (dona).

Bu ko'rsatkichlar yordamida, 1 ta traktorning ma'lum muddatda bajargan ishi miqdori aniqlanadi.

9. Moddiy – texnika resurslaridan foydalanishning samaradorligi – 1 et.ga, 1 t/km, 1 kVt ning tannarxi aniqlanadi.

$$EG_{TN} = \frac{\sum M_x}{\sum ETga};$$

Bunda: EG_{TN} – 1 et.ga tannarxi (so'mda);

$\sum M_x$ – mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlarga qilingan jami xarajat (ming so'm);

$\sum ETga$ – jami bajarilgan ish hajmi (etalon gektar).

Yangi texnologiyani joriy qilishdan hech qanday foyda bo'lmaydi. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy–iqtisodiy samaradorligini quyidagicha hisoblanadi:

$$Is = (YAMB_t \times YAMT_t) - (YAMB \times YAMT) \times MX$$

Bunda: Is – iqtisodiy samaradorlik, (foyda) so'm;

$YAMB_t, YAMT_t$ – yalpi mahsulotning yangi texnikani qo'llashdagi "t" davridagi bahosi va tannarxi;

$YAMB \times YAMT$ – yangi texnikani qo'llashdan oldingi yalpi mahsulotning bahosi va tannarxi;

MX – «t» davrdagi mahsulot hajmi

$(YAMB_t \times YAMT_t) - (YAMB \times YAMT)$ bo'lganida, yangi texnologiyani qo'llash fermer xo'jaligining yuqori iqtisodiy samara berishi tushuniladi.

Malumki qishloq xo'jaligi korxonalarida tovar pul munosabatlarini rivojlanishida asosiy ishlab chiqarish vositalarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash hamda ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash tovar mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishga va tushum hajmining oshishiga olib keladi.

11.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika va mablag' resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, ulardan foydalanish darajasini oshirish yo'llari

Fermer xo'jaligi moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanishi va samarali foydalanishi asosan fan-texnika taraqqiyotiga bevosita bog'liq. Fan-texnika taraqqiyoti – qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutiladi.

Fermer xo'jaligi uchun zarur bo'lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishi, mavjudlarini takomillashtirish, serhosil tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva zotlari, ilg'or texnologiyalarni yaratishdan iborat.

Respublikada fan-texnikani taraqqiy etishi qishloq xo'jaligi uchun yangi, sifatli haydov, ishlov beruvchi traktorlar, paxta terish mashinalari, kimyo sanoatida polietilen quvurlar, plyonkalar ishlab chiqarilmoqda hamda yomg'irlatib, tuproq ositidan tomchilatib sug'orish uchun yangi samarali texnikalar, ilg'or texnologiyalar joriy etilishini ta'minlamoqda.

Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika ta'minotini va ularga xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

- Har bir qishloq xo'jaligi hududiga mos va iqtisodiy samarali bo'lgan mexanizatsiya tizimini shakllantirish.
- Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali suv resurslaridan samarali foydalanish.
- Chorva mollarining zotini va mahsuldorligini yaxshilashga qaratilgan zooveterinariya tadbirlari.
- Zararkunandalar va kasallikka chidamli, tezpishar va yuqori hosildor qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'lari bilan ta'minlash.
- Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlardan samarali foydalanish, zararkunandalarga qarshi biologik vositalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish.
- Ishlab chiqarish bino va inshootlar qurilishiga amaliy yordam ko'rsatish.
- Moddiy-texnika resurslarini xarid qilish va foydalanishda imtiyozlar joriy qilish.
- Xizmat ko'rsatish va ta'minot yo'nalishidagi korxona hamda tashkilotlarni samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrar sektorda moddiy-texnika resurslari bozorini rivojlantirishning ob'ektiv zarurligi

- Asosiy turdagi moddiy-texnika resurslarini ishlab chiqarish va ta'minlashga ixtisoslashgan korxonalarning monopol holatiga barham berish maqsadida ularga turdosh va raqobatbardosh bo'lgan tarmoqlarni fermer xo'jaliklariga yaqin va qulay joylarda tashkil etish va rivojlantirish.
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan fermerlarga ko'rsatilayotgan xizmat va etkazib berilayotgan mahsulotlarning narxlari o'rtasidagi mutanosiblikka erishish.
- Moddiy resurslar bozorida haqiqiy talab va taklif munosabatlarini shakllantirish.

- Ayrim turdagi moddiy resurslarni o'zimizda ishlab chiqarilishini yo'lga qoyish (bu turdagi resurslarni chetdan olib kelinishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi).

- Hozirgi moddiy-texnika resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini o'z vaqtida va sifatli qondirishga intiluvchi fermerlarga kredit, lizing va ipoteka munosabatlarini takomillashtirish.

Fan-texnika taraqqiyoti fermer xo'jaligida quyidagi yo'nalishlar boyicha amalga oshiriladi: yangi yerlarni kompleks o'zgartirish, zax va sho'rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta'minlanish tadbirlarini ta'minlaydigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, takomillashtirish; tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatli va serhosil urug' navlarini, sermahsul chorva mollari yaratish; fermer xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda mexanizatsiyalashtirishni ta'minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish; fermer xo'jaligiga servis xizmatlarini ko'rsatish, mahsulotlarni qayta ishlab, saqlab, iste'molchilarga etkazib berish, tadbirkorlik sub'ektlarini shakllantirish; fermer xo'jaligi iqtisodiyotini erkinlashtirilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish va ularni joriy etish; fan-texnika taraqqiyoti natijalarini fermer xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o'z vaqtida joriy etish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotganlarining rag'batlantirishni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan mexanizmlarni yaratish. Fan-texnika taraqqiyotini shu yo'nalishlar boyicha amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta'minlanadi; fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratiladigan moddiy texnika resurslari fermer xo'jaligida yangi, samarali texnologiya vujudga kelishi, bu jarayon rivojlantirilishini ta'minlaydi.

Oxirgi yillarda davlatimizning olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida fermer xo'jaliklari raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida fermer xo'jaliklarini mineral o'g'it, YOMM va boshqa moddiy texnika tizimi tomonidan yetkazib berilayotgan hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarga bo'lgan talabni oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

Fermer xo'jaliklari va ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlari soni, ularga berilayotgan turli imtiyozlar va boshqalarga qaramasdan ular o'rtasida raqobat muhiti rivojlanganligi talab darajasida emas.

Taminot va xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhitini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- taminot va agroservis korxonalarida boshqaruvning samarali tizimini shakllantirish;

- ekologik toza, raqobatbardosh mahsulot yetishtirishda bioservis tarmog'ida urug'chilik, nav va seleksiyani rivojlantirish hamda unga raqobatchi xususiy urug'chilik korxonalarini tashkil etish;

- mineral o'g'itlarni ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi xususiy (nodavlat korxona) shoxobchalarini tashkil etish;

- mineral o'g'it, YOMM va boshqa resurslarni yetkazib beruvchi transport korxonalariga turli imtiyozlar berish;

- xo'jaliklarni moddiy texnika resurslari bilan o'z vaqtida taminlagan va sifatli, arzon xizmat ko'rsatgan korxonalarga har yili tanlov asosida resurslarni erkin taqsimlash huquqini berish;

-moddiy-texnika resurslari (mineral o'g'it, kimyoviy vositalarning) erkin bozorini shakllantirish;

- MMTP va MTPlarni moddiy bazasini mustahkamlashga davlat tomonidan ishlab chiqilgan aniq hududiy dasturlar orqali yordamlashish;

- agrofirmalar tarkibida mashina-traktor va texnik xizmat ko'rsatuvchi kichik korxonalarni tashkil etish;

- hududlarda ko'rsatilayotgan xizmatlar (narxi, sifati, ishonchligi, shartnoma muddatlari va h.z.) monitoringini yuritish;

- axborot, biznes reja tuzish, buxgalteriya, audit, huquqiy xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash;

- mahsulotni qayta ishlash, qadoqlash, saralash, saqlash va sotish tizimini hududiy miqyosda (mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bo'yicha) rivojlantirish;

- taminot va xizmat ko'rsatish tizimiga kredit ajratishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va berilgan soliq imtiyozlarini qaytadan ko'rib chiqish.

Fikrimizcha, ushbu taklif va tavsiyalarimizni hukumat miqyosida chora tadbirlarni amalga oshirilishi taminot va xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhitini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Moddiy-texnika resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Moddiy-texnika resurslarining fermer xo'jaligidagi ahamiyati qanday?
3. Fermer xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotini izohlab bering.
4. Samarali texnologiyalar to'g'risida tushuncha bering.
5. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishda samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aytib bering.
6. Yangi texnika va texnologiyalarni qo'llashda qanday masalalarga e'tibor berish kerak?

XII -Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARI MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTINING TASHKILIY VA IQTISODIY OMILLARI

Reja:

O'quv maqsadi: *xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, lizingning ahamiyati va foydalanish darajasi hamda MTP va MMTPlardan foydalanishdagi muammolar to'g'risidagi ma'lumotlarni talabalarga yetkazishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *moddiy-texnika baza, muqobil mashina traktor parki, lizing, moliyaviy lizing, operativ lizing, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar*

12.1. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tushunchasi

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi deyilganda, moddiy boylik ishlab chiqarish sharoitida bevosita band bo'lgan mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisi tushuniladi. Qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi – fan - texnika yangiliklaridan keng ko'lamdan foydalaniladigan, elektrlashgan yirik mashina ishlab chiqarishidir. Masalan, dehqonchilikning moddiy-texnika bazasini tavsiflasak, uni moddiy asosda, texnika asosida, traktorlar va mashinalarni dehqonchilikda ko'plab ishlatish, elektrlashtirishni ommaviy miqyosda amalga oshirish asosidagina hal qilish mumkin.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tarkibiga yer resurslari, traktorlar, mashinalar, mehnat qurollari va buyumlari; elektr jihozlari; yonilg'i va moylash materiallari, ta'mir texnikasi, ishlab chiqarish binolari, melioratsiya va yo'l inshootlari; aloqa vositalari; mahsuldor va ishchi hayvonlar; ko'p yillik daraxtlar; urug'lik; oziq va hokazolar kiradi.

Infratuzilma ob'ektlarining moddiy-texnika bazasiga ularning bino–inshootlari, asbob–uskunalari, texnikalar, transport vositalari, elektron asboblari, modemlar, o'lchash asboblari va boshqa infratuzilma muassasalarning faoliyatida qo'llanilayotgan asosiy va aylanma vositalardir.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, rivojlangan qishloq xo'jaligi infratuzilmasiga ega bo'lmasdan turib, ishlab chiqarishni rivojlantirish, bozorga raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, taklif etish imkoniyati pasayadi.

Ma'lumki, respublikamizda narxlarning liberallasuvi natijasida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari o'rtasidagi nomutanosiblik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etmoqda, shuningdek, ba'zi turdagi resurslarning, texnika vositalarining chetdan olib kelinishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining oshishiga sabab bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasida bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqobatni shakllantirish, xizmatlar sifatini oshirish uchun avvalombor, infratuzilma tarmog'ining moddiy – texnika bazasini mustahkamlab borish zarur.

Qishloq xo'jaligi infratuzilma korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanish darajasi baholanganda quyidagi ob'ektlarda resurslarning holati, sifati normativ me'yorga nisbatan mavjudligiga e'tibor qaratish lozim:

- Muqobil MTP bo'yicha: qishloq xo'jaligi mashina, traktor, kombaynlar, mashina-traktor parkining bino–inshootlari.
- SIU bo'yicha: meliorativ va gidrotexnik inshootlar, suv o'lchagich, nasos, kollektor–zovur tizimlari.
- YOMM va mineral o'g'it sotish shoxobchalari bo'uicha: maxsus inventar, asbob-uskuna, omborxona, tarozi, taralar.
- Minibanklar bo'uicha: zarur inventarlar, personal kompyuterlar, modemlar.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda tarmoqni yuqori unumli texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashning ahamiyati beqiyosdir. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida foydalanib kelinayotgan haydov va chopiq traktorlari hamda qishloq xo'jaligi mashinalarining katta qismi eskirib, o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgani sir emas. Shuningdek, bunday texnikalarning ish unumi, yoqilg'i sarflash meyorlari zamonaviy talablarga javob bermasligi oqibatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish tannarxi oshib ketmoqda. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligiga yuqori unumli, zamonaviy va resurslarni tejaydigan texnikalarni jalb etish, bu borada avvalo chet elning ilg'or kompaniyalari bilan hamkorlikni mustahkamlash talab etiladi. Jumladan, Germaniyaning «Klass» kompaniyasi bilan zamonaviy, ish unumi yuqori bo'lgan traktorlar, g'alla o'rish kombaynlari va boshqa qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda (12.1.1-jadval).

12.1.1-jadval

O'zbekiston respublikasi bo'yicha 2006-2011 yillarda yangi sotib olingan qishloq xo'jaligi texnikalari

Texnikalar nomi	2006 yil	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2006-2011 yillar davomida jami
Traktorlar, jami	2211	1652	2231	3007	2671	2124	13896
Haydov traktorlari	634	164	454	191	378	546	2367
sh.j.yuqori unumli	2	6	6	36	83	297	430
Chopiq traktorlari	1182	1293	1174	1697	1359	1098	7803
Traktor tirkamalari	368	250	348	1421	691	882	3960
Kultivatorlar	503	279	440	1433	633	315	3603
Chigit seyalkalari	352	178	237	215	320	552	1854
Pluglar	130	90	117	244	67	153	801
Don o'rish kombaynlari:	116	93	332	123	167	245	1076
sh. j. yuqori unumli	55	52	86	110	167	245	715

Manba: O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloq xo'jaligi texnikalarini yangilash bo'yicha olib borilayotgan maqsadli tadbirlar natijasida keyingi 6 yil ichida jami 13896 ta traktor, 3960 ta traktor tirkamasi, 3603 ta kultivator, 1076 ta don o'rish kombayni va boshqa yuqori unumli texnikalar xarid qilingan.

Hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida har yili fermer xo‘jaliklarida moddiy – texnika resurslari, mineral o‘g‘it, yoqilg‘i-moylash materiallari, texnika vositalari va boshqa vositalar bilan ta‘minlash, ulardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish borasida ko‘pgina amaliy ishlar qilinmoqda. Buning natijasida har bir viloyatda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta‘minot va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga ijobiy ta‘sir qilmoqda.

Ma‘lumki, fermer xo‘jaliklariga agrotexnik xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish samarasini oshirish maqsadida respublikamizda muqobil mashina – traktor parklari tuzildi. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan muqobil MTPlarda jami 5745 ta turli rusumdagi traktorlar mavjud bo‘lib, shundan 566 tasini haydov traktorlari va 2479 tasini chopiq traktorlari tashkil etadi (12.1.2-jadval).

12.1.2 – jadval

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani muqobil MTPlarda asosiy turdagi texnikalarning ishlab chiqarilgan yillari bo‘yicha guruhlanishi

№	Texnika turlari	Texnikalarning yillar bo‘yicha taqsimlanishi, %				Jami texnikalar soni, dona
		1–5 yilgacha	5–10 yilgacha	10 – 20 yilgacha	20 yildan uyqori	
1	Barcha rusumdagi traktorlar	6,8	3,6	33,7	55,9	468
2	Shu jumladan haydov traktorlari	16,3	17,8	48,1	17,8	23
3	Chopiq traktorlari	8,8	3,3	31,9	56	277
4	Transport traktorlari	3,6	1,7	33,7	61	168
5	G‘alla o‘rish kombayni	0	28,6	65,1	6,3	8
6	Chigit ekish seyalkasi	0,6	0	47,5	51,9	89
7	Kultivatorlar	6,1	0,8	28,6	64,5	225

Manba: Qashqadaryo viloyati Nishon tumani statistika bo‘limi ma‘lumotlari asosida tahlil qilingan.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, muqobil MTPlardagi asosiy turdagi texnikalarning aksariyat qismi 20 yil va undan ortiq yil avval ishlab chiqarilgan texnikalarni tashkil etadi.

2008-2012 yillarga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturiga ko‘ra “O‘zmeliomashlizing” davlat lizing kompaniyasi tomonidan jami 1450 ta har xil rusumdagi texnikalar sotib olindi. Quyidagi jadvalda 2008-2012 yillar davomida xarid qilingan texnikalar miqdori va rusumi keltirilgan bo‘lib, bunda eng asosiy texnikalardan gidravlik ekskavator 600 ta, buldozer 180 ta va traylerlar 114 tadan iboratdir.

12.1.3-jadval

2008-2012 yillarda «O‘zmeliomashlizing» DLK tomonidan xarid qilingan meliorativ texnikalar to‘g‘risida ma‘lumot

Texnikalar nomi	Jami 2008-2012 yy.	shu jumladan:				
		2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.
Gidravlik ekskavator	600	180	130	149	69	72
Buldozer	180	46	30	47	21	36
Treyler, tyagach avtotrayler	114	52	26	13	11	12
Drenaj yuvish agregati	41	18	8	9	4	2
Yoqilg‘i quyish shaxobchasi	78	26	26	8	13	5
Vagon-uy	214	60	50	39	50	15
Avtokran	37				13	24
Avtosamosval	28		14			14
Avtoustaxona	60			26	22	12
Boshqalar	98		54	44		
Jami texnikalar soni	1450	382	338	335	203	192

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Fermer xo‘jaligi moddiy-texnika resurslari bilan ta‘minlanishi va samarali foydalanishi asosan fan-texnika taraqqiyotiga bevosita bog‘liq. Fan-texnika taraqqiyoti – qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutiladi.

Fermer xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishi, mavjudlarini takomillashtirish, serhosil tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva zotlari, ilg‘or texnologiyalarni yaratishdan iborat.

12.2. Qishloq xo‘jaligi moddiy texnika bazasining o‘ziga xos xususiyatlari

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo‘jaligining moddiy – texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga «Keys», «Magnum» kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Oz bo‘lsada, fermer va dehqon xo‘jaliklarida kichik texnikalar paydo bo‘lmoqda.

Qishloq xo‘jaligining moddiy – texnika bazasi boshqa tarmoqlarnikidan farq qiladigan xususiyatlarga ega. Ularning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qishloq xo‘jaligi moddiy – texnika bazasining tarkibiga yer kiradi. Yer qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etishi bizga ma‘lum. Yerning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xo‘jaliklarning moddiy – texnika bazasini rivojlantirish zarur. Yerning holatiga qarab o‘g‘it turlari, o‘g‘itning miqdori, texnikalarning turi va boshqalar tanlanadi. Agarda erning

meliorativ holatlarini qisobga olmasdan ekin turi, mineral o'g'itlar, unga ishlov beradigan texnikalar tanlansa, ishlab chiqarishning natijasi past bo'lishi turgan gap. Ba'zi hollarda yerga bunday munosabatda bo'lish uning ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasi tabiat qonunlariga boshqa tarmoqlarnikiga nisbatan ko'proq bog'liq. Buning natijasida turli regionlarda turlicha texnika va boshqa resurslardan foydalanish zarurati kelib chiqadi. Shimoliy zonalarda ekin turlari janubiy zonalaridagidan farq qiladi. Shimoliy zonalarda issiq kunlarning nisbatan kam bo'lishi, eng avvalo, qisqa muddatlarda pishib etiladigan ekin turlarini joylashtirishni talab qiladi. Janubiy regionlarda esa ekin turlarini tanlash imkoniyatlari kattaroq. Bunday holatlar esa moddiy – texnika resurslarining turli regionlarda turlicha bo'lishini talab qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy – texnika resursladidan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarishning mavso'miyligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi oqibatida ayrim texnika vositalari yilda bir necha kun yoki oy ishlatiladi, xolos. Masalan, don o'rish kombayinalari asosan o'rim – yig'im davrida 2 oy ishlatiladi. Fermer xo'jaliklari qimmatbaho texnikani (kombayinlarni) yil davomida saqlashga majbur. Bu esa katta miqdorda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Natijada, asosiy fondlardan, texnikalardan foydalanish samaradorligi pasayadi.

To'rtinchidan, dehqon va fermer xo'jaliklarida moddiy – texnika resurslarining katta qismini tirik organizmlar (chorva mollari, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar) tashkil etadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida biologik qonuniyatlarni xam xisobga olishni talab etadi. Aks holda natija past bo'lishi mumkin. Bu xususiyatni hisobga olmaslik xo'jaliklarda mavjud texnikadan, fondlardan foydalanish samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ishlab chiqarish keng maydonlarda olib borilishi xo'jaliklarda yaxshi rivojlangan transport tizimi, yo'l va aloqa kommunikatsiyalari bo'lishini talab qiladi. Texnikalarni bir maydondan ikkinchisiga olib borish, ularni tamirlashini tashkil etish jarayonida qishloq xo'jaligi moddiy – texnika resurslarini tashkil etishning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Bu xususiyat katta qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Oltinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy texnika bazasi ko'p jihatdan sanoaning rivojlanganligiga bog'liq. Shu bilan birga moddiy – texnika resurslarining (yem – xashak, zotli chorva mollari, urug'liklar kabilar) bir qismi qishloq xo'jaligining ishlab chiqariladi. Bu esa sarflanayotgan mablag'larning sotib olinayotgan va o'zida ishlab chiqarilayotgan moddiy – texnika resurslariga mos ravishda taqsimlanishini talab qiladi. Aks holda ishlab chiqarishning natijaviy ko'rsatgichlari pasayishi mumkin.

Hozirda mamlakatimiz qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashganlik darajasini oshirish, asta – sekinlik bilan uni sanoat asosiga o'tkazish borasida ishlar olib borilayapti. Bu qishloq xo'jaligi taraqqiyotining obektiv yo'nalishlaridan biridir.

12.3. Qishloq xo'jaligida lizing va uning ahamiyati. MTP va MMTPlar hamda ularni rivojlantirishning zaruriyati

Qishloq xo'jaligini texnika vositalari bilan ta'minlash tizimini amalga oshirish jarayonida quyidagilarga e'tiborni qapatish maqsadga muvofiq:

1. Ishlab chiqarilishga mo'ljallanayotgan, sinov texnika vositalari tizimida kichik hajmli fermer xo'jaliklari uchun mo'ljallangan traktorlar va mashinalar turlarining bo'lishi.

2. Fermerlar uchun mo'ljallangan kichik va o'rta quvvatli traktorlarni ko'p jarayonlarni bajarishga (universal traktorlar) moslashtirish.

3. Texnika vositalarining narxlarini arzonlashtirish imkoniyatlarini qidirib topish va bunda birinchi navbatda davlatning ko'magiga tayanish.

4. «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» birlashmasi tomonidan qishloq xo'jaligiga yetkazib berilayotgan texnika vositalariga qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llamaslik.

Qishloq xo'jaligi texnikalarining narxлари yuqori bo'lgan hozirgi sharoitda fermer xo'jaliklarini texnika vositalari bilan ta'minlashning istiqbolli yunalishlaridan biri sifatida lizingni e'tirof etish mumkin.

Lizing munosabatlarini kengaytirish fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Hukumatning 2002 yil 2 noyabrdagi «Lizing bo'yicha qishloqni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar haqida»gi Qarori bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarni, shu jumladan, fermer xo'jaliklariga qishloq xo'jaligi texnikalarini lizing bo'yicha yetkazib berish mexanizmi ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda lizing to'g'risidagi me'yoriy xujjatlariga 40 dan ziyod o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Buning natijasida lizing munosabatlari takomillashmoqda: 2007 yilda lizing muddati 7 yildan 10 yilga uzaytirildi, lizing bozorida lizing kompaniyalari bilan birga tijorat kompaniyalari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida lizing bozorida raqobatning kuchayishini olib keladi. Ammo, tahlillarga ko'ra muqobil MTPlarida lizingdan foydalanib texnikalar xarid qilishi yetarli darajada rivojlangan deb bo'lmaydi.

2002-2008 yillar davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va infratuzilma sohasiga 1689 ta turli xildagi qishloq xo'jaligi texnikalari yetkazilgan. Ammo keyingi yillarda muqobil MTP va MTP DAJ korxonalarining iqtisodiy salohiyati yetishmasligi sababli lizing asosida texnikalarni xarid qilish sur'ati pasaygan.

Fermer xo'jaligi infratuzilma tarmoqlarining moddiy – texnika bazasini mustahkamlashda, albatta, infratuzilma ob'ektlari joylashgan hududning ixtisoslashuvi, tabiiy sharoitlari, ekin ekiladigan maydonning hajmini, tuproqning mexanik va tarkibiy xususiyatlarini hamda boshqa tabiiy – iqtisodiy omillarni hisobga olish zarur.

Shu sababli, fermer xo'jaligi infratuzilma ob'ektlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi taqozo etiladi:

– fermer xo'jaligi infratuzilma ob'ektlari moddiy–texnika bazasini mustahkamlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirib borish va davlat aralashuvini kamaytirish;

– chetdan keladigan resurslar va texnika vositalarini mahalliyashtirish;

– xizmat ko'rsatish va ta'minot tizimida raqobat muhitini yaratish;

– lizing, ipoteka, franchauzing va imtiyozli kreditlardan foydalanish.

Fermer xo'jaligi infratuzilma ob'ektlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash natijasida qishloq xo'jaligi, unga xizmat ko'rsatish va ta'minot yo'nalishidagi sohalar o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqani yo'lga qo'yilishi, qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligi oshib borishi ta'minlanadi.

Lizing oluvchi sub'ektlar, yani fermer xo'jaliklari uchun uning afzalliklari quyidagilarda ko'rinadi:

- sotib olinayotgan texnikaning umumiy qiymatini bir paytning o'zida emas, uzoq muddat davomida bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati tug'iladi;

- bir vaqtning o'zida ham zamonaviy texnika va texnologiyalar jalb qilish mumkin, ham ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish mumkin bo'ladi;

texnika va uskunalar uchun lizing to'lovlari ularni ishlatish natijasida olinadigan daromad hisobidan to'lanadi;

- texnika va uskunalarni to'liq qiymati boyicha naqd pulga sotib olinmasligi aylanma mablag'larni to'ldirish hamda boshqa ehtiyojlar uchun mablag'larni ozod qilishga imkon beradi;

- lizingga olingan texnika vositalari nuqsonlari kafolatli muddat davomida lizing beruvchi tomonidan bartaraf etiladi.

Qashqadaryo viloyatida «O'zmeliomashlizing» DLK tomonidan DUKlarga lizing asosida berilgan texnikalar va ularning 2013 yil 1 aprel holati bo'yicha qarzdorligi 7-8 ilovalarda keltirib o'tilgan.

Respublikamizda amalda bo'lgan qonunchilikka muvofiq fermer xo'jaliklari asosiy vositalarni moliyaviy yoki operativ lizing shartlarida olishlari mumkin. Moliyaviy lizingda lizing muddati tugagach lizing ob'ekti lizing oluvchining mulkiga o'tadi. Bunda lizing shartnomasi muddati lizing ob'ekti xizmat muddatining 80 foizidan yuqori bo'lishi, lizing ob'ektining qoldiq qiymati esa uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kamini tashkil etishi lozim. Operativ lizingda asosiy vositalarni uning amortizatsiya davrining 80 foizidan kam muddatga beriladi va shartnoma yakunida lizing ob'ekti lizing oluvchini mulkiga o'tmasligi mumkin.

Respublika qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning dastlabki yakunlari bilan bir qatorda ularni chuqurlashtirishning muhim omillari ham yuzaga chiqmoqda. Islohotlarni chuqurlashtirishning texnologik omillaridan: texnik servis ko'rsatish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, qishloqda texnika vositalaridan samarali foydalanish va agrotexservis xizmati tizimida raqobat muhitini vujudga keltirish maqsadida texnik servis xizmat ko'rsatuvchi nodavlat mulk shaklidagi muqobil MTPlarni tuzish ob'ektiv zaruratdir.

Muqobil MTPlarning huquqiy asoslari deganda, agrotexservis tizimidagi bu yangi xo'jalik sub'ektini tashkil etishda va faoliyat turini belgilab berishda mavjud qonunlar, hukumat qarorlari va boshqa bir qator, me'yoriy hujjatlarni tushunish lozim.

Tashkiliy asoslariga MTPlarning qanday va qaysi mulk shakli asosida tuzish, ularning moddiy-texnika bazasini shakllantirish va mustahkamlash hamda boshqa bir qator tashkiliy masalalar ham kiradi.

Tashkiliy tomondan bu korxonalar aktsionyer jamiyatning, ya'ni texnika ishlab chiqaruvchi zavodning ikkilamchi tuzilmasidir (ustav kapitalining 20% aktsionyer jamiyatga tegishlidir). Texnik markazlar u yoki bu huddudda mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlarning vakili sifatida faoliyat ko'rsatadi. Shu sababli ularning

vazifalariga: mashinalar, uskunalar, ehtiyot qismlarni sotish, ularni sotishga tayyorlash, montaj va ishlatish, kafolat muddati davomida va undan keyingi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash kabi vazifalar kiradi.

Muqobil MTPlarning yana bir shakli, bu fermerlarning texnikadan birgalikda foydalanish koopyerativlaridir, texnikadan foydalanishning bu usuli qo'shni mamlakatlarda qo'llanilib ijobiy natijalar bermoqda.

Shirkat xo'jaliklari ustaxonalari negizida (MTPlari) muqobillik asosida tashkil etiladigan mashina-traktor parklari qishloq ishlab chiqarish infratuzilmalarining yangi sub'ekti sifatida mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar va aholiga texnik servis xizmat ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi "Beshkent-hayot" MMTPlarida keyingi yillarda mavjud bo'lgan texnikalar sonining o'zgarishini ko'rib chiqamiz (12.3.1-jadval).

12.3.1-jadval

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani "Beshkent-hayot" MMTPlarida qishloq xo'jaligi texnikalari sonining o'zgarishi

t/r	Texnikalar nomi	soni	2010 yil	2012 yil	2014 yil	O'zgarishi (+;-)
1	Yuk avtomobillari	dona	1	1	1	-
2	Traktorlar jami	dona	59	59	50	-9
	Shundan: yer haydovchi	dona	11	11	10	-1
	shudgorlovchi	dona	25	25	21	-4
3	Seyalkalar	dona	19	19	18	-1
	Shundan: paxta ekadigan	dona	17	17	15	-2
	G'alla ekadigan	dona	2	2	3	+1
4	Traktor tirkamalari	dona	25	25	23	-2
5	Traktor omochlari	dona	4	6	5	+1
6	Kultivatorlar	dona	18	18	17	-1
7	G'alla o'rib-yig'adigan kombaynlar	dona	3	3	2	-1
8	Ko'sak chuvish mashinalari	dona	1	1	-	-1
9	G'o'zapoya o'radigan mashinalar	dona	3	4	3	-
10	Paxta ortgichlar	dona	1	1	1	-
11	Tekislagichlar	dona	3	3	3	-
12	Ariq va kanal qazgichlar	dona	2	2	2	-
13	Traktor purkagichlar va changlatgichlari	dona	1	1	1	-
14	Qattiq mineral o'g'it sohadigan	dona	1	1	1	-

Manba: Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani "Beshkent-hayot" MMTPlarning statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki MMTPda jami traktorlar soni 2014 yilda 50 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2010-2014 yillarga qaraganda 9 taga kamayganligini ko‘rish mumkin. Shunnigdek, MMTPda ayrim texnikalar eskirganligi va yaroqsiz holga kelganligi sababli korxona balansidan chiqarilgan va «Kim oshdi» savdosida sotib yuborilgan.

Hozirgi kunda fermerlarning texnikaga bo‘lgan talabini qondirishda eng istiqbolli variant bu fermerlarning texnikadan o‘zaro hamkorlikda foydalanish bo‘yicha uyushib faoliyat ko‘rsatishidir. Agar fermerning xo‘jaligidagi ishlab chiqarish hajmi texnika vositalariga yakka holda egalik qilish uchun imkon bermasa (ishlab chiqarish hajmi kichikligidan texnika saqlash harajatlari o‘zini oqlamaydi), bir necha fermerlar o‘zaro uyushib qimmat turadigan unumli texnikani sotib olishi va birgalikda ishlatishi mumkin. Buning afzallik tomonlari ko‘p bo‘lib uni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- har bir fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanilishi zarur bo‘lgan bir necha xil texnika vositalarini sotib olish zaruriyatidan qutuladi, bu bilan ular texnika xarid qilishda tejamga erishadilar va ularni ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘zaro taqsimlaydilar;

- qishloq xo‘jaligida ba‘zi bir texnika vositalaridan juda qisqa muddatlarda foydalanilishi tufayli alohida bir fermer uchun kombaynga o‘xshagan sanoqli kunlarda ishlatiladigan bu xil texnikalarni sotib olish va saqlash samarali emas;

- fermer xo‘jaliklarini qishloq xo‘jaligi texnikalarining zarur turlari bilan jihozlash ishlari tezlashadi;

- texnikadan birgalikda foydalanish mashinalarni ish bilan bir maromda band etish orqali ulardan oqilona foydalanishga, kichik va o‘rta xo‘jalikda ham ishlab chiqarishni to‘liq mexanizatsiyalashtirishga olib keladi.

Fermer xo‘jaligi infratuzilmasi tarmoqlarining moddiy-texnika resurslar bilan ta‘minlanish darajasi tahlil qilinganda nafaqat texnikalar soni, ularning turlari, sifati, ishlagan muddati, yaroqliligini balki hozirgi bozor talablariga javob berishini ham inobatga olish zarurdir.

MMTPning asosiy vazifasi yer haydash, ekin ekish, hosil yig‘ish, ozuqa tayyorlash, o‘g‘it solish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va shu yo‘nalishdagi ortish-tushirish ishlari, meliorativ va boshqa ishlarni bajarishdan iboratdir.

Qashqadaryo viloyat Qarshi tumanidagi «Temir Mirzayev texnika tayanch» MMTPda oxirgi uch yilda yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘rsatilgan xizmatlarini tahlil qilamiz (12.3.2-jadval).

12.3.2-jadval

**Qashqadaryo viloyat Qarshi tumani «Temir Mirzayev texnika tayanch»
MMTPning ko'rsatilgan xizmatlari to'g'risida ma'lumot**

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lch. birl	2012 yil	2014 yil	O'zgarishi (+;-) hisobida
1	Jami xizmatlar	Ming so'm	9105,8	14105,6	4999,8
	Shu jumladan: dehqonchilikda	Ming so'm	3703	4400	697
2	Tuproqni ekin ekishga tayyorlash	Ming so'm	300	500	200
3	Ekin urug'i va ko'chatni ekish	Ming so'm	450	505	55
	Shu jumladan: don ekinlari	Ming so'm	450	505	55
	G'o'za ekinlari	Ming so'm	450	546	96
4	Ekinlarni parvarishlash	Ming so'm	1803	1968	165
5	Agromeliorativ ishlarni bajarish	Ming so'm	100	120	20
6	Boshqa xizmatlar	Ming so'm	1977,5	8705,8	6728,3
	Shundan: Asosiy vositalar ijarasi	Ming so'm	1977,5	2559,4	581,9
7	Asosiy vositalar chiqimi	Ming so'm	2457,5	6146,4	3688,9

Manba: Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani "Temir Mirzayev texnika tayanch" MMTPning statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qarshi tumanidagi «Temir Mirzayev texnika tayanch» MMTP tomonidan 2012-2014 yillarda ko'rsatilgan xizmatlar turlari tahlil qilingan. Bunda jami xizmatlar 2012 yilda 9105,8 ming so'mni tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich 2014 yilga 14105,6 ming so'mga yoki 155 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida asosan qishloq xo'jaligining dehqonchilik tarmog'ida tuproqni ekinga tayyorlash ishlarida, ko'chat ekish, ekinlarni parvarishlash va agromeliorativ ishlarni bajarishda MMTPning xizmatlari ko'rsatilgan.

12.4. Moddiy-texnika ta'minotida o'zaro hamkorlik aloqalari

Hozirgi kunda fermerlarning texnikaga bo'lgan talabini qondirishda eng istiqbolli variant bu fermerlarning texnikadan o'zaro hamkorlikda foydalanish bo'yicha uyushib faoliyat ko'rsatishidir. Agar fermerning xo'jaligidagi ishlab chiqarish hajmi texnika vositalariga yakka holda egalik qilish uchun imkon bermasa (ishlab chiqarish hajmi kichikligidan texnika saqlash harajatlari o'zini oqlamaydi), bir necha fermerlar o'zaro uyushib qimmat turadigan unumli texnikani sotib olishi va birgalikda ishlatishi mumkin.

Ammo bunda fermerlar orasida o'zaro ishonch bo'lishi va texnikadan birgalikda foydalanish jarayoni turli ixtiloflarni kelitirib chiqarmasligi kerak. Bizning respublikamizda fermer xo'jaliklarining texnikadan hamkorlikda foydalanishi bo'yicha yetarli tajribalar to'planmagan. Ammo, fermer xo'jaliklarining rivojlanib borishi bilan

yaqin kelajakda ular orasidagi hamkorlik aloqalari kuchayib borishi kutiladi. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, fermer xo'jaliklarining texnika vositalariga bo'lgan talabini qondirishda bunday hamkorlik eng istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

Fermer xo'jaliklarining aylanma moddiy-texnika vositalariga bo'lgan talabini qondirish yo'nalishlarini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mineral o'g'itlar, yonilg'i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar va urug'lik kabi resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlanmaslik ishlab chiqarishning yakuniy natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish yo'llari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- moddiy-texnik resurslarni moliyalashtirishning zamonaviy bozor iqtisodiyotiga mos keluvchi turli shakllarini (lizing, faktoring, veksel, tovar krediti, fyuchers, overdraft va boshqa.) vujudga keltirish va ulardan samarali foydalanish;
- moddiy-texnik resurslar baholarini davlat tomonidan tartibga solish;
- fermerlarning qishloq xo'jaligi texnikalari va mashinalaridan hamkorlikda (kooperatsiya asosida) foydalanishi;
- moddiy-texnik resurslardan oqilona, samarali foydalanish, chiqimsiz va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni to'liq bandlilik va to'liq hajmli ishlab chiqarish tamoyillar asosida tashkil etish;
- ishlab chiqarishga intensiv texnologiyalar tizimini joriy etish.

Fermer xo'jaligining mahsulotni realizatsiya qilish bo'yicha tayyorlov tashkilotlari va boshqa korxonalar bilan munosabatlari shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Masalan, paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklarining tumandagi paxta tozalash ochiq hissadorlik jamiyatlari bilan paxtani sotish bo'yicha munosabatlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Xo'jaliklar yil boshidan bo'lg'usi hosil uchun paxta tozalash zavodi bilan shartnoma tuzadi. Bundan tashqari xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan paxta xom-ashyosidan chiqqan chigitni ham erkin narx asosida sotishi yoki yog'-ekstratsiya zavodiga g'ayta ishlash uchun jo'natishi mumkin.

Fermerlarning qolgan tayyorlov tashkilotlari va qayta ishlash korxonalari (konserva zavodi, sut zavodi va h.k.z.) hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalar («Agrokimyoservis», MTPlar, Neft mahsulotlari omborlari va boshq.) bilan aloqalari ham xuddi shunga o'xshash tartibda shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

2013 yilda Davlat dasturi doirasida tanlov savdolari asosida jami 204 dona meliorativ texnika va uskunalar, shu jumladan 55 dona ekskavator va 20 dona buldozerlar xarid qilindi.

Tanlov savdolari natijalari bo'yicha iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan, qo'shimcha 16 dona meliorativ texnikalar olindi.

“O'zmeliomashlizing” DLK tomonidan o'z mablag'lari hisobidan, Dasturga qo'shimcha ravishda 11,46 mlrd. so'mlik jami 60 dona turli meliorativ texnika va uskunalar, shu jumladan 23 dona ekskavator va 4 dona buldozer va boshqalar xarid qilindi. Hozirgi vaqtda Kompaniya tomonidan lizing asosida texnika yetkazib berilgan

xo'jaliklar soni 29 mingdan, lizing asosida yetkazib berilgan texnikalar soni 42 ming 890 donadan oshdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Fermer xo'jaliklari rivojida moddiy-texnika ta'minoti qanday rol oynaydi?
2. Fermer xo'jaliklari moddiy-texnika ta'minotini qanday yo'nalishlarda takomillashtirish lozim?
3. Fermer xo'jaliklari rivojida lizingning qanday ahamiyati bor?
4. Fermer xo'jaligining moddiy-texnika bazasiga nimalar kiradi?
5. Fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorlik aloqalar deganda nimani tushunasiz?
6. Sizning viloyatingizda MTP va MMTPlarning hozirgi holati qanday va uniga qanday baho bera olasiz?

XIII-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Reja:

- 13.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishda infratuzilma xizmatlarining ahamiyati va zarurligi
- 13.2. Ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari, ularni baholash, samarali yo'nalishlarini tanlash tartibi
- 13.3. Xo'jaliklarga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishni yaxshilash va rivojlantirish yo'llari
- 13.4. Fermer xo'jaliklariga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishdagi chet el tajribalari

O'quv maqsadi: *fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishda infratuzilma xizmatlarining ahamiyati va zarurligi, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish hamda rivojlangan davlatlardagi xizmat ko'rsatish sohalarini o'rganish va mamalakatimiz agarar sohasiga tadbiq etish yo'llarini o'rganishdan iboratdir.*

Tayanch iboralar: *infratuzilma, ishlab chiqarish infratuzilmasi, infratuzilma ob'yektlari, servis xizmati*

13.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirishda infratuzilma xizmatlarining ahamiyati va zarurligi

Respublikamizda dehqon va fermer xo'jaliklarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga boqliq bo'ladi. Fermerchilik rivojiga qulay imkoniyatlar yaratadigan shart-sharoitlar ichida infratuzilma xizmatini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning kengayib borishi bilan ularning texnik ta'mirlash, agrokimyo va zoovetrenariya, moddiy-texnika ta'minoti, mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, kommunikatsiya va aloqa, mahsulot va axborot kabi bir qator xizmat turlariga bo'lgan talabi ortib boraveradi. Chunki fermer xo'jaliklariga kerakli yer maydonini ajratib berish va ularga yuridik shaxs maqomini berish bilangina ish bitmaydi. Ularning to'laqonli faoliyatini faqatgina mukammal tashkil etilgan infratuzilma bo'linmalari orqaligina tasavvur qilish mumkin.

Infratuzilma iqtisodiy tizimning bir bo'lagini tashkil qilib, u ishlab chiqarishning bir maromda faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

«Infratuzilma» so'zi lotin tilidan (infrastructure) tarjima qilinganda «tuzilmadan tashqarida» ma'nosini anglatadi. Iqtisodiy nuqtai-nazardan infratuzilma mohiyatiga quyidagi izoh ko'proq mos keladi: «inson hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faoliyatlar almashinuvini ta'minlovchi tovarlar va xizmatlar yaratishda o'ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi».

Keyingi yillarda infratuzilma yuksak sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Buni bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Xususan, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari infratuzilmalar rivojidan oldinda bormoqda va bu iqtisodiyotning rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

G'arb iqtisodiy adabiyotlarida bu jarayonni «iqtisodiyotning servislashuvi (inglizcha «service» xizmat) degan atama bilan nomlanmoqda. Ishlab chiqarishning servislashuviga quyidagi omillar ham o'z ta'sirini o'tkazadi: ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, aholi daromadlarining o'sishi, kredit resurslariga bo'lgan talabning kengayishi, ITT sur'atlarining oshishi, ishlab chiqarishning alohidalashuvi va diversifikatsiyasi, resurslarni tejashga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanishi va boshqalar.

Infratuzilma juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, bu eng avvalo ishlab chiqarish jarayoniga kompleks xizmat ko'satadigan xizmat turlarini yaratish bilan bog'langan. Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning yakuniy natijalari nafaqat bevosita xo'jalikning o'z imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi, balki unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmoqlarining rivojlanish darajasi ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Fermer xo'jaliklarini sanoatlashtirish, kimyolashtirish, melioratsiya va ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillarini tez sur'a'tda o'sishigiga mablag' resurslaridan samarali foydalanishda tizimi tashkil etilishi hisobiga erishiladi. Bozor munosabatlari rivojlangan shart-sharoitda infratuzilmaning ahamiyati kattadir. Fermer xo'jaligi uchun material, resurslar, texnika bilan ta'minlovchi davlat tuzilmasi yo'q. Shuning uchun moddiy ishlab chiqarish infratuzilmaning fermer xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qilish faoliyati kamayib bormoqda. Infratuzilma ishlab chiqarish xajmini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Lekin, mahsulot ishlab chiqaradigan tarmoqlarda samaradorligini kamaytiradi. Infratuzilma fermer xo'jaliklari uchun kadrlar tayyorlashga ham yordam beradi.

Infratuzilmaga kiradigan tarmoqlar ishlab chiqarish jarayoniga bir xilda ta'sir ko'rsatmaydigan lekin ishlab chiqarishda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Fermer xo'jaligi ishlab chiqarilishini industrilashtirish va ixtisoslashtirishning rivojlanib borishi natijasida qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy resurslar bilan ta'mirlanish, texnikani ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish, o'g'it solish, melioratsiya ishlarini bajarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashish, saqlash va qayta ishlash boyicha tarmoqlar vujudga keldi. Fermer xo'jaligini barcha tarmoqlarini to'liq industrilashtirish, kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashtirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, melioratsiyalash ishlari amalga oshirilmogda.


Fermer xo'jaligi tarmoqlariga ko'p qirrali xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar rivojlantirilib bozor iqtisodiyotiga mos quyidagi muammolarini hal etmogda:

1. Tuproq unumdorligini oshirish;
2. Seleksiya ishlarini tashkil etishni tubdan yaxshilash;
3. Har bir ekin o'z tabiatiga mos ravishda tegishli agrotexnologiyaga amal qilishini talab etadi;
4. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muammolarini ko'rib chiqish.

Agrosohani zamonaviy yuqori samarali qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlash maqsadida (1998-2000 yillarda) aniq dastur ishlab chiqilib, uni amalga oshirildi. «KEYS» g'alla o'rish kombayinlari, «MAGNUM» haydov traktorlari olindi. Qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarida «KAMINS» firmasi dvigatel'llari bilan ishlaydigan traktorlar «KEYS» firmasining haydov va paxta terish mashinalari, «MARAL» ozuqa yig'ish kombayinlari, shuningdek, plug, g'alla ekish seyalkalari va ko'plab qishloq xo'jalik texnikalarini birgalikda ishlab chiqarish yo'lga qoyildi. Bu esa qishloq infratuzilmani yaxshilash imkoni yaratilishiga olib keldi.

Fermer xo'jaliklariga agrotexnika xizmat ko'rsatishni yaxshilash, texnikalardan samarali foydalanish maqsadida, MTP, muqobil mashinna traktor parklari tuzildi. Bu parklarda barcha haydov traktorlarining 43%, don va sholi o'rish kombayinlarining 48%, bugungi kunda yer haydash boyicha 60% g'alla yig'ib olish boyicha 55% ishlarni bajarmoqda. Hozircha parklar qudratli kuchga aylangani yo'q. Shuning uchun mashina-traktor parklari tizimining faoliyatini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini vujudga keltirishda servis xizmat ko'rsatish shahobchalarini tuzish maqsadga muvofiqdir.

Fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda, infratuzilmalarni qayta bo'lib, fermer xo'jaligida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirish zarur. Xizmatlar bozoridagi infratuzilmalar quyidagilardan iborat bo'lib: agorximiya xizmati; seleksiya xizmatlari; urug'chilik; MTP xizmatlari; yoqilg'i moylash va ehtiyot qismlar bilan ta'minlash; transport xizmatlari; uskunalar lizingi; ulgurji birjalar; birjalar bozori; moliya-kredit tizimi va boshqalar.



13.1.1-chizma. Qishloq infratuzilma sub'ektlari va ularning tarkibi

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish davlat dasturida infratuzilma tarmoqlarini yanada takomillashtirish, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabalarini chuqurlashtirish va kelgusida servis xizmatlarini yaxshilash orqali mahsulot hajmini oshirishga qaratilgandir (13.1.1-chizma).

13.2. Ishlab chiqarish infratuzilma xizmatlari, ularni baholash, samarali yo'nalishlarini tanlash tartibi

Fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish uchun ularga xizmat ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chikarish va bozor infratizilmasi tizimini tashkil etish hamda jadal rivojlantirishni davrning o'zi talab qilmoqda. O'zbekistonda agrar islohotlarning muhim strategik yo'nalishlaridan biri qishloqda infratizilma asoslarini shakllantirish va uning muassasalari faoliyatini takomillashtirishdir. Ko'p ukkladli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda infrastrukturasi o'zining alohida ajralib turadi. Zero, bozor infrastrukturasida ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va iste'molchilar o'rtasida keng miqyosda sodir bo'ladigan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, ularga ko'p qirrali xizmatlar ko'rsatuvchi hamda shu bilan bir qatorda ishchi kuchlarni oqilona takror ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydigan turli muassasalar majmuidir. Bu muassasalar faoliyatini rivojlantirish o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarishdan toki uni iste'molchiga etkazish tizimini yaratish, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka keng imkoniyatlar ochib berish, xuquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini muttasil ko'paytirish, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni talab va taklif doirasida tashkil etish, ya'ni ish o'rinlarini barpo etish, haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirish kabi qator bozor iqtisodiyotiga mos myammolarni hal etishda keng imkoniyatlar ochib beradi.

Biroq shuni aytish lozimki, respublikamizda, ayniqsa uning agrasanoat majmuida infratizilma tarmoqlari yetarli darajada rivojlanmaganligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iste'molchilar talabini to'la qondirishgacha bo'lgan oraliqda nomutanosibliklar vujudga kelishiga, ishlab chiqarish sarflarining o'sishi va mahsulot nobudgarchiligining ko'payishiga, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga va yil davomida iste'mol darajasining turliligiga olib keladi. Shuning uchun ham qishloq infratizilmasi tizimi rivojini bosqichma-bosqich samarali amalga oshirmasdan turib, qishloqda dehqonlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun qonunlar doirasida ishlab chiqarishni kengaytirish aholi daromadini oshirish va mamlakatimizning ulkan eksport salohiyatidan foydalanish kabi masalalarning yechimini topish qiyindir. Shu bois hozirgi davr talabiga ko'ra, ishlab chiqarish infrastrukturasida tarmoqlarini, xususan, agrasanoat majmuida tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish dolzarb myammolardan biri hisoblanadi.

«O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi Qashqadaryo viloyat filiali orqali viloyat bo'yicha lizing asosida texnika sotib olishga fermer xo'jaliklari tomonidan 190 ta talabnoma tushgan. Kompaniya bo'yicha jami 76 ta traktor va 114 ta har xil qishloq xo'jaligi texnikalari olinib, fermerlarga berilgan.

Qashqadaryo viloyati agrar tarmog'ida hozirgi kunda jami 9218 ta barcha ruso'mdagi traktorlar, 158 ta bul'dozer, 689ta g'alla o'rish kombayni, 127 ta ekskavatorlar va boshqa turdagi texnikalar mavjud bo'lib, qishloq xo'jaligi texnikalarining asosiy qismi muqobil MTPlarda shakllangan, ya'ni bunda jami traktorlarning 62 foizi, bul'dozerlarning 49 foizi, ekskavatorlarning 39 foizi, g'alla o'rish kombaynlarning 35 foizi aynan muqobil MTPlarning mulki hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 29 oktyabrdagi «Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF

– 3932 farmoni sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash 2008 – 2012 yillar davrida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida suv xo'jaligi va SIUlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, melioratsiya texnikasi saroyini yangilash belgilandi. Ushbu qarorga asosan, O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tuzilgan ishchi guruh, sug'oriladigan yerlarning hozirgi ahvolini tahlil qilib, bor bo'lgan drenaj tarmoqlari va ulardagi inshootlarni hamda SIUlar drenaj tarmoqlarini hisobga olib, ta'mirlash-tiklash ishlarini o'tkazish dasturlari ishlab chiqilgan.

Ishlab chiqilgan dasturga asosan:

– viloyatlararo, tumanlararo va xo'jaliklararo kollektorlar qurish va rekonstruktsiya qilish uchun 288906,4 mln so'm mablag' ajratilish;

– melioratsiya ob'ektlarini ta'mirlash va tiklash uchun 211423,4 mln so'm mablag' ajratilish;

– maxsus qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlari hamda SIUlar moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun 1038747,0 mln. so'm ajratilishi rejalashtirilgan.

Tahlillarga ko'ra 2014 yilda viloyat tumanlarida joylashgan SIUlar hisobida 434 dona nasos agregatlari, 33 dona ekskavator, 39 dona buldozer, 42 dona har xil avtomobillar va 110 dona har xil traktorlar va 12 dona boshqa texnikalar mavjud.

Har qanday xo'jalik mexanizmi uchun asos bo'lib korxona faoliyatini rejalashtirish va unga obyektiv baho berish, ta'lim olish, mehnatga haq to'lash va iqtisodiy rag'batlantirish fondlaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida xarajat va natijalarni solishtirish ko'rsatkichlari xizmat qiladi (13.2.1-jadval).

13.2.1-jadval

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani «Temir Mirzayev texnika tayanch»

MMTPning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lch birl	2012 yil	2013 yil	2014 yil	O'zgarishi % hisob.
1	Mahsulotlarni sotishdan, ish va xizmatlarni bajarishdan sof tushum	ming so'm	5680,54	7469,57	9615,25	169,3
2	Sotilgan mahsulot va ish, xizmatlarning tannarxi	ming so'm	3972,54	5578,63	7110,58	179,0
3	Mahsulotlarni sotishdan va ish va xizmatlarni bajarishdan olingan foyda(zarar)	ming so'm	1708,0	1890,94	2504,67	146,8
4	Rentabellik darajasi	%	43,0	33,9	35,2	1,22 punktga kamaygan

Manba: Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani "Temir Mirzayev texnika tayanch" MMTPning statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

13.2.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz, Qarshi tumanidagi «Temir Mirzayev texnika tayanch» MMTPning faoliyati natijasida 2014 yilda 2012 yilga nisbatan bajarilgan ishlar hajmi 169,3 foizga, qilingan xizmatlar xarajdati esa 179,0 foizga, olingan foyda esa 146,8 foizga oshgan. 2012 yilda MMTP foyda olish o'rniga zarar bilan chiqqan. Biroq, rentabellik darajasi tahlil qilinayotgan yillarda 1,22 punktga kamaygan. 2012 yilda yaxshi ko'rsatkichga erishishi bilan bir qatorda 2013-2014 yillarda rentabellik pasayib borgan. Shuni qayd etish joizki, MMTPning moddiy-texnika resurslarini modernizatsiya qilish davr talabiga aylanib bormoqda.

Fermer xo'jaligini texnika vositalari bilan ta'minlash tizimini amalga oshirish jarayonida quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1. Ishlab chiqarilishga mo'ljallanayotgan, sinov texnika vositalari tizimida kichik hajmli fermer xo'jaliklari uchun mo'ljallangan traktorlar va mashinalar turlarining bo'lishi.

2. Fermerlar uchun mo'ljallangan kichik va o'rta quvvatli traktorlarni ko'p jarayonlarni bajarishga (universal traktorlar) moslashtirish.

3. Texnika vositalarining narxlarini arzonlashtirish imkoniyatlarini qidirib topish va bunda birinchi navbatda davlatning ko'magiga tayanish.

4. «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» birlashmasi tomonidan qishloq xo'jaligiga yetkazib berilayotgan texnika vositalariga qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llamaslik.

Qishloq xo'jaligi texnikalarining narxlari yuqori bo'lgan hozirgi sharoitda fermer xo'jaliklarini texnika vositalari bilan ta'minlashning istiqbolli yunalishlaridan biri sifatida lizingni e'tirof etish mumkin.

MMTPlarning Nizomida ko'rsatilishicha, MMTPning tijorat, xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyatidan olinadigan daromaddan soliq va boshqa to'lovlar to'langandan so'ng qoladigan qismi butunlay MMTP tasarrufida bo'ladi va uni mustaqil ravishda tasarruf etadi. MMTP barcha majburiy to'lovlar va soliqlar to'laganidan so'ng qoladigan mablag'lari uning sof foydasini tashkil etadi. Sof foyda Ta'sischilarning umumiy yig'ilish qaroriga muvofiq, uni MMTPni rivojlantirish fondiga ajratilgandan so'ng, qolgan qismi esa ta'sischilarning Ustav fondiga qo'shgan ulushlariga mutanosib ravishda bo'linadi.

13.3. Xo'jaliklarga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishni yaxshilash va rivojlantirish yo'llari

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan fermerlar soni va uning ekin maydonlari hajmi tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Bunday vaziyatda davlat mulki bo'lgan yerdan oqilona va samarali foydalanishning yanada ixcham, samarali va fermer xo'jaliklari uchun qulay bo'lgan usullarini topish va amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Buning uchun birinchi navbatda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi, ayniqsa, yoshlar bandligining, qishloqda hayot darajasini oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur bo'lmoqda. fermer xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni talab qilmoqda (13.3.1-jadval).

13.3.1-jadval

**Respublika fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma
obyektlarining rivojlanish holati**

Xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma obyektlari	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Muqobil mashina traktor parklari	1779	1777	1757	1720	1681	1641	1641
Mineral o‘g‘itlar sotish shoxobchalari	891	928	935	917	917	915	915
Suv ist’molchilari uyushmalari	1676	1676	1712	1711	1710	1504	1504
Yoqilg‘i moylash mahsulotlarini sotish shoxobchalari	1340	1373	1389	1377	1366	1357	1357
Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish shoxobchalari	443	424	424	424	420	346	346
Zooveterinariya xizmatlari ko‘rsatuvchi punktlar	2180	2278	2411	2540	2595	2591	2591
Axborot-konsalting xizmati ko‘rsatish shoxobchalari	295	300	300	301	318	341	341
Transport xizmati ko‘rsatish shoxobchasi	82	82	82	82	85	115	115
Tara idish va qadoqlash materiallari bilan ta‘minlash shoxobchalari	78	78	78	78	80	143	143
Agrofimlar	203	193	262	269	272	275	275

Manba: O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimizning fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- fermer xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi va turini ko‘paytirish;
- yangi istiqbolli xizmat turlarini jadal rivojlantirish;
- xizmat ko‘rsatish va servis sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlantirilishi ustidan monitoringni amalga oshirib borish;
- investitsiyalarni (shu jumladan, chet el investitsiyalarini), zamonaviy texnologiya va uskunalarining jalb etilishini, axborot va tushuntirish ishlarini, konsalting, lizing, sug‘urta va boshqa xizmatlar rivojlantirilishini tashkil etish;
- ko‘rgazma va yarmarkalarda, investitsion va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda kichik tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish;
- fermer xo‘jaliklarida xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida tijorat banklari kredit resurslaridan keng foydalanish;
- fermer xo‘jaliklarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ko‘maklashish.
- bozor infratuzilmalarini (biznes-inkubatorlar, o‘quv markazlari, konsalting xizmat ko‘rsatuvchi markazlar) ishini faollashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

- qishloq xududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish muamolariga bag'ishlangan amaliy seminarlar tashkil etish;
- savdo-sanoat palatasining marketing faoliyatini yanada rivojlantirish va mavjud muammo hamda kamchiliklarni o'rganish maqsadida tadbirkorlar o'rtasida muntazam tarzda so'rovnomalar o'tkazish.

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shu orqali aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish mazkur soha korxonalarida marketing ishlarini tashkil etish va uni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqori hosildorlikni oshirish va saqlab qolish uchun agroximiya xizmatidan keng foydalaniladi. Agro xizmati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning vazifasi o'g'itlarni saqlash, tashish, tushirish, sotish, etkazib berish va xizmat ko'rsatishdan iborat. Agroximiya xizmati tovar ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlari bilan shartnoma asosida ma'dan ximikatlarini tashish yoki etkazib berish ishlari bilan shug'illanadi. Agroximiya xizmatini ko'rsatish korxonasi yuridik maqomga ega bo'lgan xo'jalik hisobida faoliyat ko'rsatuvchidir. Agroximiya xizmati korxonasi o'zining moddiy texnikasi, omborxonasi, asbob-uskunasi, temiryo'l yo'lakchasi va samolyotlar uchun uchuv maydonchasi, kompast tayyorlash maydonlari mavjud bo'lib, ular korxonaning asosiy fondlari hisoblanadi.

Muqobil MTPlarning huquqiy asoslari deganda, agrotexservis tizimidagi bu yangi xo'jalik sub'ektini tashkil etishda va faoliyat turini belgilab berishda mavjud qonunlar, hukumat qarorlari va boshqa bir qator, me'yoriy hujjatlarni tushunish lozim.

Tashkiliy asoslariga MTPlarning qanday va qaysi mulk shakli asosida tuzish, ularning moddiy-texnika bazasini shakllantirish va mustahkamlash hamda boshqa bir qator tashkiliy masalalar ham kiradi.

Qishloq xo'jaligida servis xizmati darajasini ko'tarish fermer xo'jaliklarini ishini yengillashtirish hamda ularga xizmat ko'rsatish madaniyatini yaxshilash maqsadida viloyatda bugungi kunda 121 ta mini banklar, 185 ta yoqilg'i quyish, 126 ta mineral o'g'itlar sotish, 53 ta qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash, 259 ta zooveternariya, 6 ta transport xizmati ko'rsatish, 3 ta tara idishlar tayyorlash va qadoqlash shaxobchalari, 184 ta MMTP, 148 ta SFU va 35 ta axborat konsalting xizmati ko'rsatish infratuzilma ob'ektlari tashkil etilib, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Fermer xo'jaliklari hamda muqobil MTPlarning moddiy texnika bazasini yaxshilash va ularning rivojlanishiga ko'maklashuvchi omillarni yaratish maqsadida ularga 2012 yilda 2544 mln.so'mga 253 ta qishloq xo'jalik texnikalari lizing korxonasi orqali xarid qilindi.

2012 yilda qishloq xo'jalik sohasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish maqsadida 242 ta omuxta em sotish, 33 ta zooveternariya, 5 ta sun'iy urug'lantirish shaxobchalari, 20 ta mol soyish maydonchalari tashkil etildi.

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida faoliyat ko'rsatayotgan «Beshkent-hayot» muqobil mashina traktor parkining asosiy vazifasi quyidagilardan iboratdir:

- Mexanizatsiya ishlari (yer haydash, ekin ekish, hosil yig'ish, ozuqa tayyorlash, o'g'it solish, suvdan foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlari va shu yo'nalishdagi ortish-tushirish ishlari, meliorativ va boshqa ishlar)ni qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklariga shartnoma asosida bajarish;

- Yangi texnika sotib olish, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirish va chorvachilikni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga transport xizmati ko'rsatish va texnikalarga ehtiyot qismlarni sotib olish va sotish;
- Qishloq xo'jaligi texnikalariga xizmati ko'rsatish va ta'mirlash;
- Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida MTP texnikalaridan foydalanish bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirish va turli maslahatlar berish;
- Qurilish materiallari ishlab chiqarish va ta'mirlash;
- Ishchi va xizmatchilarni moddiy ta'minlash uchun chorva va qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bazasini yaratish.

Fermer xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma sub'ektlari faoliyatidagi asosiy kamchiliklar:

✓ infratuzilma sub'ektlari va fermer xo'jaliklari o'rtasida shartnomalarni aniq bir tizim asosida tuzilmasligi natijasida tomonlar o'rtasida o'z majburiyatlarini bajarilishiga mas'uliyatsizlik bilan qaralishi;

✓ infratuzilma sub'ektlarida sarf-xarajatlar ustidan doimiy monitoring olib borilmasligi;

✓ infratuzilma sub'ektlarida ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar boyicha aniq hisob-kitobni yuritilmasligi natijasida debitor va kreditor qarzdorlikning mavjudligi;

✓ infratuzilma sub'ektlari rahbarlari tomonidan debitor va kreditor qarzdorliklarni kamaytirish borasida aniq tadbirlarni (inkassaga qo'uish, oldindan pul tushirilishini talab qilish va boshqalar) amalga oshirilmasligi;

✓ infratuzilma sub'ektlari rahbarlari va bosh mutaxassislarining kasbiy malakasini oshirish, zahira kadrlarni tayyorlash borasida aniq tadbirlar ishlab chiqilmaganligi;

✓ joylarda infratuzilma sub'ektlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga (zarur bino-inshoatlar bilan ta'minlash, boshlang'ich moliyaviy yordam ko'rsatish, kadrlar bilan ta'minlash va boshqalar) mahalliy xokimiyatlar tomonidan amaliy yordamning ko'rsatilmasligi.

13.4. Fermer xo'jaliklariga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatishdagi chet el tajribalari

Fermer xo'jaliklari uchun mahsulot sotishga ko'maklashuvchi infratuzilmalar ichida fermer bozorlari katta ahamiyat kasb etadi. Mahsulotni bevosita bozorlarda sotishning fermer uchun manfaatli tomonlari ko'p. Chunki bunda u mahsulotini o'zi istagan narx boyicha (talab va taklifdan kelib chiqib) sotish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuning bilan birga bozorda u mahsulotni naqd pulga sotishi mumkin.

Keyingi yillarda fermerlarni ehtiyot qismlar, urug'lik, ko'chatlar va konsentrat ozuqalar kabi moddiy resurslar bilan ta'minlashda qishloq joylarda tashkil topayotigan do'konlar faoliyatidan foydalanish tajribaga kirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanayotgan dunyodagi ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fermerlarni moddiy texnika resurslari bilan ta'minlashda tovar va xom ashyo birjalarining ahamiyati kattadir. Birjalar fermerlarga o'z mahsulotlarini bozor konyuk'turasi va talab-takliflardan kelib chiqib sotish,

shuningdek o'zlariga zarur bo'lgan texnika vositalari va moddiy resurslarni xarid qilishga imkon yaratadi.

Birjalarda mahsulotlarni moddiy-texnika resurslariga barter asosida ayriboshlash uchun ham sharoitlar mavjud. Xorijiy mamlakatlar birjalarida fyuchers savdosi, ya'ni bo'lg'usi hosil uchun oldindan shartnoma asosida haq to'lab qoyish keng tarqalgan. Bunday bitimlar fermerlarga yil davomida ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish uchun oldindan moddiy resurslarni xarid qilib qoyishga imkon beradi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibida axborot va maslahat xizmati muhim o'rin tutadi. Chunki yetarli axborotga ega bo'lmay turib, xo'jalik samaradorligini ta'min etuvchi boshqaruv qarorlarini qabul qilib bo'lmaydi. Shuningdek axborot xizmati ishlab chiqarishni fan va texnikaning eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar, ilg'orlar tajribasi bilan ta'minlab turishga yordam beradi.

Hozirgi kunda fermerlar har qachongidan ham ko'ra axborot va maslahat xizmatiga ko'proq ehtiyoj sezadi. Chunki, ularni zaruriy axborot va maslahat bilan ta'minlab turuvchi xizmat turlari ham shakllanmagan. Fermer xo'jaliklarining hajmi kichikligidan ularda agronom, zootexnik kabi bir qator kerakli mutaxassislarni saqlab turish o'zini oqlamaydi. Har bir tumandagi fermer xo'jaliklari uyushmasi qoshida ularni zarur ma'lumot va maslahatlar bilan ta'minlovchi malakali mutaxassislardan iborat xizmat guruhi shakllantiriladi.

Xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligi infratuzilmasi xizmatlari yuksak darajada rivojlangan hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohalari asosan xususiy sektor zimmasiga to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining bir bo'g'ini hisoblangan birgina texnikaviy servis xizmatini olib qaraydigan bo'lsak, ushbu sohada faoliyat ko'rsatib kelayotganlarning 90%i xususiy dillerlar zimmasiga to'g'ri kelmoqda. Qolgan 10% i esa mashinasozlik zavodlarning bevosita vakili hisoblanadi.

Dillerlar orqali amalga oshiriladigan texnikaviy servis xizmati o'z ichiga sotuv oldi servis xizmatlari, texnikalarni sotish, ijaraga berish, zarur ehtiyot qismlar bilan ta'minlash, sotuvdan keyingi servis, texnik xizmat va ta'mirlash–tuzatish ishlari, texnikalarni ishlatish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha maslahatlar berish, muhandis xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirishni oladi. Har bir dilerlik punktida ehtiyot qismlar ombori, ta'mirlash ustaxonasi, texnikalarni saqlash maydonlari, ko'chma texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ustaxonasi bor.⁵

Chet el firmalari uch xil turdagi texnik xizmat ko'rsatishadi: sotuv oldi, kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat.

Fermer xo'jaliklariga servis xizmatlarini ko'rsatish Kanadada ham dilerlar zimmasiga to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatda 1,5 mingdan ortiq dilerlik punktlari mavjud, boshqalari esa ishlab chiqaruvchi firmalarga qarashli. Oxirgi yillarda dilerlik punktlarning yiriklashuv jarayoni kuzatilmoqda, bu esa ularning mehnat unumdorligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Rossiyada fermerlarga servis xizmati xizmat ko'rsatish kooperativlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Ushbu kooperativlar bajarayotgan ishlariga qarab,

⁵Rashidov J.X. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida servis xizmatlarini rivojlantirish muammolari: Dis. .. iqt.fan.nomz.–T.:BIITI, 2004. – 78 b.

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kooperativlari, savdo kooperativlari, ishlab chiqarish–texnik xizmat kooperativlari va kredit kooperativlariga bo'linadi.

Umuman olganda, xizmat ko'rsatish kooperativlari, nafaqat Rossiya mamlakatida, balki bir qator rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Germaniya, Polsha, Fransiya, Kanada, Norvegiya, Daniya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda keng joriy qilingan.

Irlandiyada qishloq xo'jaligini yuqori intensiv xarakterga ega ekanligini quyidagi ko'rsatkichlar orqali ham ko'rishimiz mumkin, fermerlarning jami xarajatlaridan 46% moddiy resurslarga (YOMM, o'g'it, urug' va boshqalar), texnikaga ketadigan ekspluatatsiya xarajatlari 43% ni, ish haqiga esa atigi 11% ni tashkil etar ekan. Demak, ishlab chiqarishdagi iqtisodiy natijalar deyarli uning moddiy – texnika ta'minotiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Davlat va Yevropa Ittifoqi ishlab chiqarish xarajatlarining 20–40% gacha yopib, fermerlarga katta moliyaviy yordam ko'rsatib kelmoqda. Ushbu yordamning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarishni yaxshilash, uni mexanizatsiyalashtirish, progressiv texnologiyalarni qo'llash;
- xo'jalik yuritishning ekologik sharoitlarini yaxshilash va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish;
- nasldor chorva mollarni ko'paytirish, chorvachilikda seleksiya ishlarini olib borish;
- ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish cheklanganligi sababli (ortiqcha mahsulotning ko'payishini oldini olish maqsadida) fermerlarga kompensatsiya berish.

Qishloq xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi tomonidan berilayotgan subsidiyalarning asosiy qismi fermer xo'jaliklariga texnikalarni olib berish va ularni ta'mirlash hamda fermer xo'jaliklarini jihozlash, shuningdek, unumdorligi past bo'lgan yerlarda joylashgan, noqulay iqtisodiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatayotgan fermerlarga ajratilmoqda.

Bu ma'lumot ham fermerlarga berilayotgan moddiy yordamning asosiy qismi xo'jaliklarning moddiy–texnika bazasini mustahkamlashga ketayotganligidan dalolat bermoqda. Bunday yordamsiz fermerlar o'z ishlab chiqarishlarini normal moliyalashtira olmasdilar, ko'plari esa zarar bilan ishlaydigan va past rentabelli xo'jaliklarga aylanib qolardilar.

Davlat subsidiyasidan tashqari, Irlandiya fermerlariga moliyaviy yordamni «Egrikalcher kredit korporeyshn» agrar tijorat banki ko'rsatib kelmoqda. Ushbu bank orqali fermerlar o'zlariga qulay bo'lgan yiliga 4%li uzoq va qisqa muddatli kreditlar olmoqdalar.

Bundan tashqari Irlandiya fermerlari lizing xizmatidan ham keng foydalanib kelmoqdalar. Umuman olganda, Evropa mamlakatlari ichida Irlandiyada investitsiyalarning umumiy hajmida lizingning hajmi kattadir. Bu yerda barcha investitsiyalarning 45% ni lizing tashkil etadi, vaholanki ushbu ko'rsatkich Germaniya va Frantsiyada 20%, Angliyada 30%, Italiyada – 15% va Rossiyada 2,5%dan kamroqni tashkil etadi. Evropaning boshqa mamlakatlari ham lizingning rivojlanishi boyicha ham Irlandiyadan ancha ortda qolmoqdalar.

Hozirgi kunda «Ekstenshn–servis» markazlari nafaqat AQShda, balki Pol'sha, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Gollandiyada rivojlangan. Ushbu markaz Rossiyada ham 1990 yillardan boshlab tajriba sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

Tahlillarga ko'ra Qashqadaryo viloyatida fermer xo'jaliklarining aksariyat qismi asosan paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan, ya'ni jami fermer xo'jaliklarining 73,5 foizni, sabzavotchilik va polizchilik yo'nalishdagilar 3,3 foizni, bog'dorchilik va uzumchilik – 16,5 foizni, chorvachilik sohasidagi fermer xo'jaliklari 2,7 foizni va boshqa yo'nalishdagilar 4,1 foizni tashkil etadi (9-ilova).

Tumanlar miqyosida tahlil qilganimizda, Kitob va Shahrisabz tumanlarida bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari mos ravishda 66,1 va 36,9 foizni, sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari Shahrisabz tumanida rivojlangan bo'lib, 246 tani, ya'ni jami fermer xo'jaliklari tarkibida 12,5 foizni tashkil etgan.

Fermer xo'jaliklarining talablarini hisobga olgan holda infratuzilma sub'ektlarini rivojlantirishda tuman hokimlarining, shuningdek tegishli tashkilot va korxonalar rahbarlarining asosiy vazifalari:

- fermer xo'jaliklarini ta'minot, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash sohalaridagi xo'jalik sub'ektlari bilan shartnomaviy munosabatlarini vazirlikning 2008 yil 15 sentyabrdagi 155-sonli buyrug'i asosida tizimli tashkil etilishini ta'minlash;

- muqobil mashina-traktor parklarini samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqib, ularni bajarilishiga amaliy yordam ko'rsatish;

- zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmatini ko'rsatishga ixtisoslashgan infratuzilma ob'ektlarini nafaqat yangidan tashkil etish, balki oldindan faoliyat ko'rsatib kelayotgan shoxobchalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan qayta jihozlash ishlariga mahalliy byudjet, homiyar va tijorat banklarining kredit mablag'lari ajratilishiga amaliy yordam ko'rsatishdan iborat.

Fermer xo'jaliklarining talablarini hisobga olgan holda infratuzilma sub'ektlarini rivojlantirishda tuman hokimlarining, shuningdek tegishli tashkilot va korxonalar rahbarlarining asosiy vazifalari:

- tuman markazlari va qishloq hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan Resurs markazlarining ishlarini kuchaytirish maqsadida ularni zamonaviy orgtexnika, etuk kadr va tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlashga amaliy yordam ko'rsatish;

- qishloqda bozor infratuzilmasi sub'ektlari - «maslahat-axborot» markazlari, sug'urta, marketing, moliyaviy uyushmalar va jamg'armalarni tashkil etish hamda boshlang'ich faoliyatlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash;

- qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklarida davlat xaridi uchun paxta xom ashyosi va boshqoli don yetishtirish yuzasidan barcha hisob-kitoblarni moddiy sarf-xarajatlar monitoringini yuritish tartibiga muvofiq olib borilishini ta'minlash;

- qishloq hududlaridagi infratuzilma ob'ektlarida mehnat qilayotgan ishchi-mutaxassislar, shuningdek kollejlarda ta'lim olayotgan talabalar uchun ularning kasbiy

malakasini oshirish maqsadida qisqa muddatli ko'rgazmali o'quv seminarlarini doimiy o'tkazib borilishini tashkil qilishga amaliy yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Fermer xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni ayting?
2. Infratuzilmalarni tashkil etish zaruriyati nimada?
3. Infratuzilmani rivojlantirish tadbirlarini izohlang.
4. Fermer xo'jaligida qanday servis xizmatlari mavjud?
5. Chet ellardagi xizmatlarning afzalliklari nimada?
6. MTP DAJ va MMTPlari faoliyatini rivojlantirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
7. Xizmat ko'rsatish sohalarining raqobatbardoshligini oshirish deganda nimani tushunasiz?

XIV-Mavzu. QISHLOQ XO'JALIGIDA IJTIMOIIY INFRATUZILMA VA UNI RIVOJLANTIRISH

Reja:

- 14.1. Qishloqni ijtimoiy rivojlantirishning mazmuni va ahamiyati
- 14.2. Ijtimoiy infratuzilmani tashkil etishning asosiy vazifalari va uni rivojlanishini belgilovchi ko'rsatkichlar
- 14.3. Madaniy- maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni qishloq aholisini turmush darajasini oshirishdagi roli
- 14.4. Qishloq joylarida madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida kadrlar tayyorlash va iqtisodiy hamkorliklar

O'quv maqsadi: *ijtimoiy infratuzilmani tashkil etishning asosiy vazifalari, madaniy maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni qishloq aholisini turmush darajasini oshirishdagi roli hamda qishloqlarda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va ularda kadrlarni joylashtirish, o'qitish masalalariga qaratilgan ilmiy va amaliy ko'nikmalarni berishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *ijtimoiy infratuzilma, muassasa, iqtisodiy hamkorlik, ijtimoiy jarayon, madaniy-maishiy xizmatlar, pullik xizmatlar, avtotransport xizmatlari, sog'liqni saqlash xizmatlari*

14.1. Qishloqni ijtimoiy rivojlantirishning mazmuni va ahamiyati

Ijtimoiy infratuzilma o'zida mehnat jarayonida ishchilarni samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bir qismini aks ettiradi.

Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi qishloq aholisining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini kelgusida yaxshilash hisoblanadi.

Ijtimoiy infratuzilma qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlarini aks ettiradigan o'ziga xos jihatlarga ega. Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qishloq xo'jaligi korxonalari resurslari va qishloq aholisining pul mablag'lari hisobiga yoki davlat investitsiyalarini yashash joylari bolalar bog'chalari, maktablar, poliklinikalar, aloqa tarmoqlari va boshqalar qurilishiga samarali sarflash orqali barpo etiladi. Qishloq joylardagi ijtimoiy infratuzilma bo'implari nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band ishchilarga, balki qishloq xo'jaligi korxonasi xududida yashovchi aholining boshqa qismiga ham izmat ko'rsatadi.

Ijtimoiy infratuzilma tarkibi agrar sohada ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar: maorif va madaniy muassasalar, sport, turar joy va kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash va himoya qilish muassasalari, bog'chagacha, maktabgacha bo'lgan bolalar muassasalari, umumovqatlanish korxonalari, savdo, aholiga xizmat ko'rsatuvchi transport, mehnatni muhofaza qilish xizmatlari, texnika havfsizligi, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Ijtimoiy infratuzilma – insonning har tomonlama kamolat topishi va unga erishish sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar uig'indisidir.

Ijtimoiy infratuzilma majmuasi – bu mehnatkashlarning mehnat va dam olish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlovchi, yagona respublika iqtisodiyot tarmoqlari majmuasining muhim va keng rivojlangan kichik tizimlaridan biridir.

Dehqon va fermer xo'jaliklariga xizmat qiladigan ijtimoiy infratuzilma quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- mehnat faoliyati infrastrukturasini; fermer va dehqonlarga xizmat qiladigan transport, aloqa vositalari;
- sotsial madaniy infratuzilma: turar joy, kommunal xo'jaligi, umumiy ovqatlanish;
- ma'naviy hayot madaniyati infratuzilmasi: madaniyat, sayohat, xalq maorifi;
- sog'liqni saqlash infratuzilmasi: sog'liqni saqlash, sport va hordiq chiqarish muassasalari;
- bozor infratuzilmasi: ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xaridorlarga yetkazib berish jarayonidagi xizmat turlari;
- muhitni muhofaza qilish infratuzilmasi: atmosfera, suv, tuproq, tabiatni muhofaza qilish bo'g'inlari uchun ko'rsatiladigan xizmatlar.

Dehqon va fermer xo'jaliklariga xizmat qiladigan ijtimoiy infratuzilmalarning bu guruhlari bir-birlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, shaxsning kamolatga yetishida benihoya katta ahamiyatga ega.

I. Mehnat faoliyati infratuzilmasi:

- aholining bir joydan ikkinchi joyga borish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (taksi, avtobus, tramvay, trolleybus, metro, poezd, samolyot, paroxod va boshqa turdagi xizmatlar);
- aholining sutkalik, haftalik, oylik, yillik byudjet vaqtidan unumli foydalanishi;
- aholining ish joylariga o'z vaqtida etib borishi va mehnat unumdorligining oshishiga;
- ishchilarning bo'sh vaqtlarda madaniy hordiq chiqarishi kabi xizmatlarni bajaradi.

II. Ijtimoiy-madaniy infratuzilma:

- aholining turar joy bilan ta'minlanish va unda normal yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish xizmatlarini;
- aholining yashash va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan savdo shoxobchalari xizmatini;
- aholining ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ovqatlanish shoxobchalari ko'rsatgan xizmatlari (oshxona, choyxona, restoran, bufet);
- qishloqda yashash madaniyatini shahar darajasiga ko'tarishga erishish xizmatlarini;
- aholining bo'sh vaqtlaridan ijtimoiy, madaniy hordiq chiqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish tadbirlarni amalga oshiradi.

III. Ma'naviy hayot madaniyati infrastrukturasini xizmatlari:

- madaniyatning barcha xizmat ko'rsatish bo'g'inlarini (teatrlar, klublar, kontsert brigadalari, xalq talantlari, kurash, futbol va boshqalar) kengaytirish;
- erishilgan madaniyat yutuqlari ko'riklari o'tkazish;

- kino, festival, kutubxona, qishloq hayotini yuksaltirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar;
- har xil sayohatlar, dam olish uylari tashkil etish;
- bolalar yashilari, bog'chalari, dam olish oromgohlari hamda xalq maorifi bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar;
- yangi ta'lim va kadrlar tayyorlash to'g'risidagi qonunlarni amalda bajarishga erishish xizmatlar.

IV. Sog'liqni saqlash infratuzilmalari quyidagilarni amalga oshiradi:

- sog'liqni saqlashning zamonaviy talablariga mos keladigan muassasalar va ularning xizmat sifatini oshirish;
- sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash;
- dori-darmonlar bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash madaniyatini ko'tarish;
- sog'liqni saqlash to'g'risida chet mamlakatlar bilan hamkorlik, «Qizil yarim oy» jamiyatining rolini qishloqda oshirish;
- ish vaqtini kasallik hisobiga yo'qotishni kamaytirish tadbirlarini amalga oshirish;

V. Bozor infratuzilmasi xizmatlariga quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib oluvchi xaridorlar topish;
- marketing xizmatlarini agrar sanoat majmui bo'g'inlariga chuqur joriy etish va dehqonlarni bozor konyukturasi qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirish;
- dehqon uchun keng ko'lamda tovar sotish reklamalarini targ'ib etish;
- jahon bozoriga chiqish xizmatlarini bajarishni amalga oshiradi.

VI. Atrof muhitni muhofaza qilish infratuzilmasi xizmatlari:

- atmosferaning ifloslanishiga qarshi kurash choralarini o'zida ifoda etadigan tadbirlar;
- tuproq eroziyasiga va tuproq unumdorligi pasaya borish qonuniing harakatini o'rganish va uni amalga oshirilishiga qaratilgan xizmatlar;
- suv tozaligi, undan unumli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar
- kimyoviy dorivorlar foydalanishini tartibga solish xizmatlari.

Qishloqlarda zamonaviy uy-joylar va infratuzilmalar barpo etish uzoq muddatga mo'ljallangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan yirik dastur bo'lib, uni hayotga tatbiq etish uchun katta mablag' talab etiladi. Qishloq qurilishiga sarflanadigan mablag'larning manbalari quyidagilardan iborat:

- qishloq aholisining o'z mablag'lari;
- «Qishloq qurilish bank» ochiq turdagi aktsiyadorlik tijorat bankining kredit resurslari;
- davlat buydjetidan shu maqsadlarga ajratilayotgan mablag'lar;
- moliyalashtirishning boshqa manbalari.

14.2. Ijtimoiy infratuzilmani tashkil etishning asosiy vazifalari va uni rivojlanishini belgilovchi ko'rsatkichlar

Ijtimoiy infratuzilmaning me'yoriy bazasi va ijtimoiy normativlar tizimi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:


- maqsadli normativlar.
- ijtimoiy infratuzilma muassasalari xizmatlari bilan ta'minlanishning eng kam darajasi;
- faoliyat sharoitining kompleks ijtimoiy andozalari;
- iqtisodiy normativlar (qiyosiu sarflar normativlari, foydalanilayotgan resurslar uchun to'lovlar).

Ijtimoiy normativlar tizimini ishlab chiqishda mintaqaviy xususiyatlar, shahar va qishloq joylarda, aholi turmush tarzi va boshqa ko'p jihatlar o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olmoq lozim. Ular doirasida quyidagi jamlama omillarni ajratish mumkin:

Maqsadli yo'nalishi, shakllanish manbai, hududiy joylashuvi va ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, dehqon va fermer xo'jaliklarining ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari va xizmat sohalari 2 guruhga bo'lish mumkin (14.2.1-chizma).

14.2.1-chizma

Dehqon va fermer xo'jaliklarining ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari va xizmat sohalari



Birinchi guruhga xo'jaliklar hisobidan barpo etilgan, xo'jalik bo'limlarida joylashgan va mehnat sharoitlari, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning hordiq olishi, shart-sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ob'ektlar tegishlidir. Bu guruh tarkibiga xo'jalikdagi va chorvachilik fermalaridagi maishiy inshootlar, bo'limlardagi umumiy ovqatlanish punktlari (bufetlar, oshxonalar, tamaddixonalar), sog'liqni saqlash, madaniyat va hordiq ob'ektlari (profilaktoriylar,

vrach kabinetlari, o'quv zallari va boshqalar), yong'inga qarshi punktlar kiradi. Ular chorvachilik majmualarida, fermalarida, ustaxonalarda, traktor brigadalarida, dala shiyponlarida joylashtiriladi.

Ikkinchi guruhga fermer xo'jaliklarining aholi punktlarida joylashgan, aholining kommunal uy-joy talablarini qondirish uchun mo'ljallangan va qoida boyicha davlat resurslari, katta korxonalar va agrosanoat uyushmalarining maxsus vositalari hisobiga tashkil etilgan ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari, maishiy xizmat korxonalari, sog'liqni saqlash, sport, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat uylari va klublar, savdo korxonalari taalluqlidir.

Ijtimoiy infratuzilmaning ushbu ob'ektlari qishloq joylaridagi, ya'ni fermer xo'jaliklaridagi aholining, mehnat sohasi va ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, barchasiga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan.

Jo'g'rofiy omillar – aholi joylashuv tarkibi, shaharlashuv (urbanizatsiya) darajasi; biologik iqlim xususiyatlari, tabiiy iqlim sharoitining mehnat tusi va rejimiga, iqtisodiyot tarmoqlarining ixtisoslashuvi, me'morchilikka ta'siri, rekreatsiya imkoniyatlari va ulardan foydalanish darajasi; tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik va tabiatdan foydalanish xususiyati.

Demokratik omillar – aholining ko'payish rejimi, uning soni, tarkibi va tabiiy ko'chib yurish ta'sirida joylashuvning o'zgarishi, aholi migratsiyasi va safarbarligi; aholi va mehnat resurslarining jinsiy va yosh tarkibi; oilalarning shakllanishi, o'sish va ajratish sharoiti, ularning turi va tarkibi, migratsiya tusi, migratsiya oqimlari tarkibi, aholining milliy tarkibi, ayrim millatlar va elementlarni zich yoki tarqoq yashash darajasi:

Ijtimoiy omillar – ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish darajasi va o'sish istiqboli, mintaqaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ulushi; hozirgi bosqichda va istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibi, boshqaruv tizimi, mintaqada ilmiy-texnik taraqqiyoti tusi, shahar va qishloq aholisining turmush tarzi, milliy va maishiy xususiyatlar, an'anaviy etnik qadriyatlar, ularning me'morchilikda aks etishi; mintaqada yashovchi millatlar va elatlarning, milliy va etnografik guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi hamda madaniy ehtiyojlar tusi va til taraqqiyoti.

14.3. Madaniy- maishiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni qishloq aholisini turmush darajasini oshirishdagi roli

Qishloq xo'jaligida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga kommunal uy-joy xo'jaliklari, meditsina va maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari, mehnat muhofazasi boyicha xizmat sohalari, sport-sog'lomlashtirish tashkilotlari, ishchi-xizmatchilarga xizmat ko'rsatuvchi transport, aloqa va axborot xizmati bo'limlari kiradi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasining ahamiyati va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- + aholi bandligini, uning daromadlari va turmush darajasini ko'tarishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan ishonchli manba hisoblanadi;

- + insonning rivojlanishi va barkamolligini ta'minlashni rag'batlantiradi;

- + iste'mol bozorini zamonaviy xizmat turlari bilan to'ldiradi va ularning hajmini oshiradi;

- + iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

- ✚ xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish katta mablag'lar talab etmaydi;
- ✚ unda mahalliy moddiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari keng;
- ✚ jamiyat taraqqiy etib borishi bilan aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari uzluksiz o'sib boradi.

Xizmat ko'rsatish sohasi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida aholiga xizmat ko'rsatish darajasini pasaytirmasdan, xizmatlar bozorida barqarorlikni saqlash strategik vazifa hisoblanadi. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bilan bir qatorda yangi korxonalarning shakllanishi g'oyat muhim hisoblanadi, chunki ular raqobatni keltirib chiqaradi va xizmatlar xajmini oshiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasida xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlarining shakllanishi ushbu sohada bozor munosabatlarining shakllanishi bilan bevosita bog'likdir. Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi ishsizlikni kamaytirib, shu orqali keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan birini hal etishi mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasi tadbirkorlikning rivojlanishi, axolining erkin mablag'larini jalb etish uchun qulay muhit yaratadi xamda aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

Mazkur sohani boshqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan muammolar xozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar - iqtisodiyotning bosqichma-bosqich transformatsiyalashuvi va xo'jalik yuritishning bozor metodlariga o'tishi bilan bog'likdir. Shu bilan birga, ular xizmat ko'rsatish sohasidagi ko'pukladli o'zgarishlarga olib keladi.

Bugungi kunda zamonaviy arxitektura va me'moriy qurilish talablariga mos keladigan, shinam va barcha qulayliklarga ega bo'lgan, kommunikatsiya tizimlariga ulangan, jahon andozalari darajasidagi qishloqlarni barpo etish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi 1046-sonli «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» davlat dasturi to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2010-2014 yillar davomida aholi soni 10 ming kishidan ortiq bo'lgan qishloq aholi punktlarini bosh reja loyihalari ishlab chiqish bo'yicha dasturiga jami 62 ta, qishloq aholi punktlarini qurilishi hamda dehqon va fermer xo'jaliklari hududlarini me'moriy rejalashtirish va tashkil qilish bosh reja sxema loyiha hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha dasturga aholi soni 5 ming kishidan kam bo'lgan qishloq aholi punktlari bo'yicha 990 ta, aholi soni 5 mingdan 10 ming kishigacha bo'lgan aholi punktlari bo'yicha 353 ta loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Eng avvalo, qishloqda quriladigan zamonaviy uy-joylar va ijtimoiy infratuzilmalarni loyihalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buning uchun loyihalashtirish ishlaridan yaxshi xabardor bo'lgan, barcha moddiy-texnikaviy bazaga hamda yetarli ilmiy salohiyatga ega ixtisoslashgan loyiha-qidiruv institutlarini tashkil etish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvarda qabul qilingan 1049-sonli «MCHJ «Qishloqqurilishloyiha» loyiha-qidiruv institutini tashkil qilish to'g'risidagi» qaroriga muvofiq tashkil etilgan «Qishloqqurilishloyiha» loyihalash-qidiruv instituti aynan shu vazifani amalga oshirishga xizmat qiladi. «Qishloqqurilishloyiha» instituti:

- qishloq aholi punktlarini me'moriy rejalashtirish tizimini shakllantirish, rivojlantirishning bosh sxema loyihalarini ishlab chiqish;

- qishloq aholi punktlaridagi turar-joy binolari, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining namunaviy loyihalarini ishlab chiqish ishlarini amalga oshiradi.

«Qishloqqurilishloyiha» instituti hukumatimiz ko'magi bilan qishloqlarni zamonaviy arxitektura talablari asosida me'moriy loyihalashtirish ishlari uchun zarur bo'lgan barcha modiy-texnikaviy va ilmiy salohiyat bilan ta'minlangan. O'tgan yili «Qishloqqurilishloyiha» instituti tomonidan 31 ta uy-joy loyihalari, 16 ta ijtimoiy soha obyektlarning loyihalari va hududlardagi loyiha institutlari tomonidan 20 ta uy-joy loyihalari ishlab chiqilib, qo'llash uchun tavsiya etildi.

Viloyat bo'yicha 2011 yilning yanvar - dekabr oylari davomida **pullik xizmat** ko'rsatish hajmi 286185,1 mln.so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati utgan yilga nisbatan solishtirma narxlarda 107,4 foizni tashkil qiladi.

Viloyat bo'yicha pulli xizmat ko'rsatish aholi jon boshiga o'rtacha 110,5 ming so'mdan to'g'ri keladi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo'yicha 2011 yilda viloyatda jami bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117,1 foizga yoki 1218,9 mlrd.so'mga bajarilishi ta'minlandi. Jami xizmatlar hajmida qishloq joylardagi xizmat ko'rsatish hajmini ulushi 38,4 %ni yoki 468 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Viloyat bo'yicha 2012 yilda jami 784 ta xizmat ko'rsatish sub'ektlari tashkil qilindi. Jumladan, 3 ta «Guzar» turidagi savdo va maishiy xizmat ko'rsatish komplekslari tashkil etildi. Sohani rivojlantirish hisobiga 4 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari barpo etilib, shundan 3 mingdan ortig'i qishloq joylarida tashkil etildi.

2012 yilda **transport xizmati** ko'rsatish hajmi 17,6 foizga o'sdi yoki 165,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Mavjud yo'nalishlarning 298 tasi ochiq tenderlar orqali joylashtirildi, 106 ta transport uyushmalari tashkil etildi va ularda 4148 tadan ortiq avtotransport aholiga yo'lovchi tashish xizmatini ko'rsatib kelmoqda.

Bundan tashqari, 2012 yilda yana 20 ta yangi yo'lovchi tashish yo'nalishlari tashkil etildi va qo'shimcha 320 tadan ziyod avtotransport vositalari aholiga xizmat ko'rsata boshladi.

Aloqa va axboratlashtirish xizmatlari. «O'zbektelekom» AK «Qashqadaryo telekom» filialining 16 ta ob'ektida (Beshkent, Koson, Muborak, Mirishkor, Kasbi, Nishon, G'uzor, Dehqonobod va boshqa tumanlariga) eskirgan, zamon talablariga javob bermaydigan analog ATSlarni yangi zamonaviy raqamli ATSlarga almashtirish va kommutatsiya qurilmalarini kengaytirish ishlari rejalashtirilgan bo'lib, 2009 yilda mazkur qurilmalarni o'rnatish amalga oshirildi.

Aholiga aloqa va axboratlashtirish xizmati ko'rsatish hajmi 108,4 foizga o'sdi yoki 52,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Moliya va bank xizmatlarini rivojlantirish xizmatlari. Moliya va bank xizmatlari ko'rsatish hajmi 110,5 foizga o'sdi yoki 76,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Viloyatda 61 ta tijorat banklari ro'yxatga olingan bo'lib, 100 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslarga bank xizmati ko'rsatib kelinmoqda.

2012 yilda 15 ta mini bank bo'limlari ochildi va ularning soni 230 taga etdi. 14 ta maxsus kassalar tashkil etilib, ularning soni 101 taga etdi.

Tijorat banklari tomonidan 300 dan ortiq omonat turlari mavjud bo'lib, 2013 yil 1 yanvar holatida fuqarolarning bank kassasidagi omonatlar qoldigi 88,8 mlrd.so'mni

tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga yoki 40,6 mlrd.so'mga oshdi.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan oborotdagi naqd pul massasini kamaytirish maqsadida 2012 yilda 2178 ta terminal tashkil etildi va 132,1 mingdan ziyod plastik kartochkalar muomalaga chiqarildi. 2013 yil 1 yanvar holatida o'rnatilgan jami terminallar soni 3946 tani va muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni esa 398,8 mingtaga etkazildi.

14.4. Qishloq joylarida madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida kadrlar tayyorlash va iqtisodiy hamkorliklar

Qishloq ijtimoiy infratizilmasi va uning ajralmas qismi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali birinchidan, aholining turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji qondirilsa, ikkinchidan, ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash muammosining hal qilinishiga yordam beradi. Bu hozirgi agrar siyosatning g'oyat muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Qishloqda yashovchilarning ijtimoiy hayoti tubdan yaxshilansagina, butun dehqon va fermer xo'jaliklarining sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, unga industrial to's berish mumkin. Shuningdek, ortiqcha mehnat resurslarini bevosita dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish sohasidan industrial sohalarga, servis va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilish qishloqning eng muhim muammolaridan biridir. Har bir posyolkada, har bir qishloqda mayda ulgurji do'konlar, ta'mirlash ustaxonalari va boshqa xizmat turlariga ega bo'lgan guzarlar barpo qilish juda dolzarbdir. Chunki, biz istiqbolimizning dastlabki kunlaridanoq, islohotlar nomigagina emas, balki inson manfaatlari yo'lida o'tkazilishini aniqlab olgan, jamiyatimizning barcha tomonlarini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ana shunga bo'ysundirilgan edi.

Hal etilishi talab qilinayotgan yana bir yo'nalish hozirgi vaqtda fermer xo'jaligida band bo'lgan ortiqcha ishchi kuchini bo'shatib olish va ularni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga sanoat, xizmat ko'rsatish sohalariga jalb etish. Shu o'rinda bir gap, ma'lumki, AQSH, Yaponiya, Frantsiya. Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya, Janubiy Koreya va boshqa shu kabi iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlarda fermer xo'jaligida band bo'lganlarning ulushi mehnatga qobiliyatli aholining 5-7 foizini tashkil etsa, bizda bu ko'rsatkich 25,5 foizdan ortiq. Xizmat ko'rsatish sohalarida ishlayotganlarning ulushi rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotda band aholining 55-77 foizini tashkil etsa, bizda bu ko'rsatkich 15-20 foizga boradi, xolos.

Hisob-kitoblar bugungi kunda qishloqda 6,5 million mehnatga layoqatli aholi borligini ko'rsatmoqda. Dehqon va fermer xo'jaligining o'zi buncha miqdordagi ishchi kuchini ish bilan ta'minlay olmaydi. Shu sababli qishloq joylarda zamonaviy texnologiyaga ega, ish shaklini tez o'zgartira oluvchi kichik korxonalarni ochish hisobiga yangi ish joylari yaratish ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bular faqat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini qayta ishlovchi korxonalargina emas, balki boshqa sohalarga asoslangan sermehnat ishlab chiqarishlar, xalq hunarmandchiligi korxona ham bo'lishi kerak. Shuningdek, respublikamiz fermer xo'jaliklarida uncha katta bo'lmagan, lekin zamonaviy texnologiya va texnika asosida xomashyoni qayta ishlaydigan korxonalar qurish va ularni mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan yerlarda joylashtirish choralarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Maishiy xizmat ko'rsatish. Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2013 yilda dastur boyicha 379 ta xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil qilindi. Shu jumladan tikuvchilik atel'esi 63 ta, sartaroshxona 77 ta, poyafzal ta'mirlash 45 ta, suratxona 28 ta va boshqa xizmatlar 166 ta maishiy xizmat shaxobchalari tashkil etilgan. Jami xizmat ko'rsatish shaxobchalardan 281 ta shaxobchalar qishloq joylarida tashkil qilindi. Shu jumladan tikuvchilik atel'esi 40 ta, sartaroshxona 60 ta, poyafzal ta'mirlash 39 ta, suratxona 23 ta va boshqa xizmatlar 116 ta xizmat shaxobchalari tashkil etilgan.

Turizm va mehmonxona xizmatlari. Qashqadaryo viloyatida 2012 yilda 105,6 mln so'mlik sayyohlik va ekskursiyalar xizmatlari ko'rsatildi yoki o'tgan yilni shu davriga nisbatan bu boradagi xizmatlar hajmi 116,3 %ga oshdi.

2013 yil maboynida jami 31,2 ming kishiga turistik xizmatlar ko'rsatilgan, 7900 nafar chet ellik sayohatchilar hamda 500 nafar MDH mamlakatlaridan qabul qilingan. 170 nafar mahalliy aholi sayohatga olib borilgan. 21100 nafar O'zbekistonlik fuqoralarga mehmonxona va ekskursiya xizmati ko'rsatilgan.

Eksport xizmati 2013 yilda 200,7 ming AQSH dollari miqdorida ko'rsatilgan.

Viloyat sayyohlik va ekskursiyalar byurosi tomonidan viloyatning boy tarixiy va tarixiy jihatdan so'lim maskanlarini keng targ'ib qiluvchi 5 ta maxsus turistik yo'nalishlar tashkil etildi. Jumladan, (Qarshi – Koson; Qarshi – Shahrisabz (Tatar qishlogi), Qarshi – Amir temur g'ori – Shahrisabz – Qarshi; Qarshi – Qamashi (Langar) – Shahrisabz – Kitob – Qarshi) Qarshi shahri, uning boy tarixi, shu bilan birga betakror san'at asarlariga teng me'morchilik obidalarini o'z ichiga qamrab olgan sayyohlik yo'nalishlari tashkil etilib xozirda viloyatga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlar e'tiboriga havola etilmoqda.

Bundan tashkari Qarshi – Samarqand, Qarshi – Buxoro, Qarshi – Termiz yo'nalishlari boylab sayyohlik yo'nalishlari qaytadan yo'lga qoyildi.

Mehmonxona xizmatlari. Qashqadaryo viloyatida 2013 yilda 1402,8 mln. so'mlik mehmonxona xizmatlari ko'satilgan yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,6 foizga o'sdi.

Hozirgi kunda «Qashqadaryo» MCHJ, «Orien Star Shaxrisabz» MCHJ, «Kitob Sayyox» firmasi, «Nasaf-Travel» MCHJ, «Tur end Travel» «AVIA –Komfort turistik agentligi, «Afsona-AMB», «Jayxun», «Tinchlik», Real-Komfort» «Sarbon LTD», Koson Darvozasi, «Gran-lyuks» mehmonxonalar mahalliy va chet ellik sayyohlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Pol'sha davlati bilan hamkorlikda Shahrisabz shahrida 60 o'ringa mo'ljallangan «uch yulduzli» 5 mln. AQSH dollari qiymatidagi mehmonxona qurilishi yakuniga etkazilib, faoliyati yo'lga qoyildi. Shuningdek, Qarshi shahrining markazida «NACAF TRAVEL» kompaniyasi tomonidan ichki investitsiyalar hisobiga qiymati 2000 mln so'mga teng bo'lgan 60 o'ringa mo'ljallangan «uch yulduzli» mehmonxona qurilishi davom ettirilmoqda.

2013 yilda xizmat ko'rsatish sohasida jami 4027 ta qo'shimcha yangi ish o'rinlari barpo etildi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi aholi bandligini rivojlantirish jamgarmasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik sub'ektlariga 421 mln.so'mlik imtiyozli kreditlar

ajratildi. Bundan tashkari AT «Mikrokreditbank» tomonidan 830 mln.so'mlik imtiyozli mikrokreditlar ajratildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Qishloqni ijtimoiy rivojlantirishni mazmuni va ahamiyati nimadan iborat?
2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga ijtimoiy infratuzilma qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Ijtimoiy infratuzilmani tashkil etishning asosiy vazifalari va qishloqda ijtimoiy jarayonlarni o'rganish usullarini ayting?
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarida servis xizmati darajasini qanday ko'tarish kerak?
4. Qishloqlarda, ya'ni fermer xo'jaliklarida madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ida kadrlar tayyorlash va iqtisodiy hamkorliklar qanday yo'lga qoyilgan?
5. Dehqon va fermer xo'jaliklarida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar qo'llanilmoqda?
6. «Qishloqqurilishloyiha» loyihalash-qidiruv instituti qachon tashkil etildi?
7. «Qishloqqurilishloyiha» loyihalash-qidiruv instituti tomonidan qishloq joylarida nechta uy-joylar qurib bitkazildi?

XV-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA XARAJATLAR, ULARNING TARKIBI VA KAMAYTIRISH YO'LLARI

Reja:

- 15.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotida xarajatlarning ahamiyati
- 15.2. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi
- 15.3. Xarajatlarni kamaytirish hamda fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxini aniqlash tartibi va pasaytirish yo'llari

O'quv maqsadi: *xo'jaliklarda mahsulot yetishtirish uchun sarflanadigan xarajatlar, ularning tarkib, turkumlanishi, o'rtacha xarajatlar, ishlab chiqarish tannarxi, to'la tannarx va mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iboratdir.*

Tayanch iboralar: *jami xarajatlar, xarajat elementlari, moddalari, xarajatlarni turkumlashtirilishi, mahsulot tannarxi, (o'rtacha xarajatlar)doimiy xarajatlar, o'zgaruvchan xarajatlar, mahsulot tannarxi turlari.*

15.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyotida xarajatlarning ahamiyati

Inson uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish uchun kechayu-kunduz dehqonlar, ishchi va xizmatchilar va boshqa xo'jalik korxonalari faoliyat ko'rsatib, ularda o'n, yuz minglab kishilar ishlaydilar. Natijada, 25-30 mln.har xil iste'mol qiymatiga ega bo'lgan tovarlar turlari yaratiladi va xizmatlar bajariladi.

Bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish va bajarish uchun xilma-xil ishlab chiqarish resurslarini sarflash talab etiladi. Bu xarajatlar jonli va buyumlashgan xarajatlardan iboratdir. Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun sarflangan bu xarajatlarga **ishlab chiqarish xarajatlari** yoki xarajatlar deb ataladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining o'zi ikkiga bo'linadi: ijtimoiy xarajatlar va xo'jaliklarning individual xarajatlari. Ijtimoiy xarajatlar – bu jamiyatning u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlardan tashkil topadi. Masalan, 1 sentner 1-navli paxtani ishlab chiqarish davlatga qanchaga tushadi? Bu xarajat mamlakada o'rta hisobda 1 sentner paxtani yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Xo'jaliklarning individual xarajati, ya'ni 1 sentner 1-navli paxtani ishlab chiqarish uchun fermerga qanchaga tushadi? –degan savolga javob byerish uchun Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jaligida paxta yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tarkibini ko'rib chiqamiz va xulosalar keltiramiz (15.1.1-jadval)

15.1.1 - jadval

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jaligining paxta ishlab chiqarishda sarflangan xarajatlar salmog'i

t/r	Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2014 yilda 2012 yilga nisb.o'zg. % hisob.
		ming so'm	%	ming so'm	%	ming so'm	%	
1.	Ish haqi xarajatlari qo'shimchasi bilan	14576,3	35,8	19580,9	39,5	18304,0	35,9	125,6
2.	Urug'lik xarajatlari	1384,3	3,4	3668,3	7,4	3365,1	6,6	243,1
3.	Yoqilg'i moylash material xarajatlari	7939,6	19,5	6840,9	13,8	7546,0	14,8	95,0
4.	O'g'it xarajatlari	6555,3	16,1	7981,1	16,1	8565,6	16,8	130,7
5.	Mexanizatsiya xarajatlari	6188,8	15,2	6345,2	12,8	8157,8	16,0	131,8
6.	Zarakunandalarga qarshi kurash	1506,5	3,7	941,9	1,9	815,8	1,6	54,1
7.	SIU xarajatlari	244,3	0,6	396,6	0,8	357,0	0,7	146,1
8.	Elektr energiya xarajatlari	81,4	0,2	247,9	0,5	153,0	0,3	188,0
9.	Soliq to'lovlari	325,7	0,8	495,7	1,0	1325,6	2,6	407,0
10.	Boshqa xarajatlar	1913,6	4,7	3073,5	6,2	2396,3	4,7	125,2
	Jami xarajatlar	40716	100	49572	100	50986	100	149,6

Manba: Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jaligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu jadvalda xo'jalikning paxtachilik sohasida sarflangan moddiy-texnika xarajatlari tahlil qilingan bo'lib, bunda jami xarajatlar tarkibida ish haqi xarajatlari 2014 yilda 35,9 foizni tashkil etgan. 2012 yilda bu ko'rsatkich 35,8 foiz bo'lib, 2013 yilda 39,5 foizga teng bo'lgan. Shuningdek, yoqilg'i xarajatlari, o'g'it xarajatlari va mexanizatsiya xarajatlari jami xarajatlar tarkibida yuqori ko'rsatkichlarga egadir. Ish haqi xarajatlari 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 150 foizni tashkil etgan holda, uning jami xarajatlar tarkibida ulushi 0,1 foizga kamayganligini ko'rish mumkin va boshqa xarajatlar ham jami xarajatlar tarkibiga nisbatan kamayganligini ko'rish mumkin. Demak, xo'jalik rasi mahsulot yetishtirishda qilinadigan xarajatlar salmog'ini kamaytirishga harakat qilgan. Chunki xarajatlarning ko'payib ketishi xo'jalikni yuqori samaradorlikka erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishini anglay olganligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda intensiv texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy jihatdan foydali. Ulardan foydalanib, kuzgi bug'doy yetishtirilganda hosildorlik 35-40% ga ortishiga, tannarx 4-6% pasayib, 1 ga ekin maydoni hisobiga daromad 50-60% oshishiga erishiladi.

Moddiy mablag'lar tanqisligi sharoitida resurslarni tejoychi texnologiyalardan foydalanish zarur. Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, paxta yetishtirishda ana shunday texnologiyadan foydalanish mehnat unumdorligini 1,5-2 marta oshirish, yoqilg'i va moylash materiallari sarfini 25-30%, mahsulot birligi tannarxini esa 35-40% ga kamaytirishga imkon beradi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha paxta yetishtirishda sarflangan xarajatlarni hasoblaganimizda 1 tonna paxtaning tannarxi 2014 yilda 9987,2 ming so'mni tashkil etmoqda. Demak, ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari individual ishlab chiqarish xarajatlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Individual ishlab chiqarish xarajatlari qancha kam bo'lsa, ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari ham shuncha past bo'ladi va aksincha.

Fermer xo'jaliklarda xarajatlarni sarflashdan yana bir maqsad–yetishtirilayotgan bir birlikdagi mahsulot, bajarilayotgan ishlar, xizmatlar uchun o'rtacha qancha xarajat qilinganligini ham aniqlashdir, ya'ni ularning tannarxlarini bilishdir. Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi darajasi ularning foydali yoki zararliligi bo'yicha aniqlanadi. Shuning uchun xarajatlar har bir tannarx obyekti bo'yicha to'g'ri olib borilishini ta'minlash lozim. Buning uchun sarflanayotgan xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish davrlariga qarab qo'shilishi bo'yicha turkumlashtiriladi (15.1.3-chizma).

15.1.3-chizma

Xarajatlar mahsulot yetishtirish muddatlari bo'yicha turkumlashtirilishi



Dehqon va fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlarni bajarish uchun qilinayotgan barcha xarajatlar iqtisodiy mazmunga, maqsadga, hisobot obyektiga hamda shakllanish manbalariga ko'ra, quyidagi elementlarga va moddalarga guruhlashtirilgan:

- mahsulot yetishtirish, ishlarni, xizmatlarni bajarish bilan bog'liq xarajatlar;
- davr xarajatlari;

- moliyaviy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- favqulodda qilinadigan xarajatlar(foйда, zararlar).

Xarajatlarning bunday tartibda turkumlashtirilishi ularning o'simlikchilik mahsulotlari yetishtirish davrlari bo'yicha qilinadigan miqdorini, qiymatini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shunga asoslangan holda ularning samarali amalga oshirishlashini ta'minlash mablag'lar bilan ta'minlanish masalalari ham hal etilishini taqozo qiladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida xarajatlar mahsulot yetishtirish jarayonida ishtirok etishiga ko'ra bevosita hamda bilvosita sarflanadigan xarajatlarga ham turkumlashtiriladi. Bevosita (to'g'ri) xarajatlar mahsulotlarni yetishtirishda bevosita qatnashadi va ular mahsulot hajmiga, sifatiga to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi.

15.2. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi

Tannarx–korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun pul shaklida ifodalanuvchi iqtisodiy kategoriyasidir.

Tannarx – bu aniq korxona sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining asoslangan qismi. U har bir korxonada mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish nimaga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarishga ma'lum miqdorda ishlab chiqarish mablag'i va ishchilarning jonli mehnati sarflanadi. Ishlab chiqarishga sarflangan mablag' korxonaning urug'lik, yoqilg'i, o'g'itlar, elektr quvvati, asosiy vositalar ko'rinishida sarflangan va uning vositalarida moddiylashtirilgan mehnatni ko'rsatadi. Jonli mehnat haqiqi to'lov bo'yicha hisobga olinadi.

Hozirgi davrda mahsulot (ish xizmat) ning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Tannarx deganda bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun sarflangan moddiy, mehnat, pul xarajatlari nazarda tutiladi. Uning mutlaq (absoluyt) darajasini aniqlash uchun barcha bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarning umumiy so'mmasi shu xarajatlar yordamida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga taqsimlanadi. Qishloq xo'jaligida 1 sentner mahsulotning narxi; 1 etalon gekarning; 1 tonna km ning; 1 kvт-soat elektroenergiyaning tannarxi aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$T_n = \frac{\sum I_x}{\sum M_m (I_m, X_m)}$$

Bunda: T_n -mahsulot, ish xizmat tannarxi, so'mda;

$\sum I_x$ -ishlab chiqarish xarajatlarning umumiy so'mmasi, so'mda;

$\sum M_m (I_m, X_m)$ – yalpi etishtirilgan mahsulot, jami bajarilgan ish, xizmatlar miqdori sent, tonnada, etalon geklarda va h.k.

Xarajatlardan foydalanishni tashkil etish xarajatlar xarakteri jihatidan tannarx – texnologik, ishlab chiqarish va to'la tannarxlarga bo'linadi. **Texnologik tannarx** – bu mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga qarab tannarxning tashkil topishidir. Masalan, fermer yoki dehqon xo'jaliklarining quyi bo'g'inlari sarflagan ishlab chiqarish xarajatlari yig'indisidan tashkil topadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulot tannarxini hisoblashda texnologik jihatdan yaxshi bilishi kerak. Aks holda tannarx bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni bir-

biridan ajrata olmaydi. Masalan, **ishlab chiqarish tannarxiga** – mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiradi. **To‘liq tannarx yoki tijorat tannarxi** – ishlab chiqarish tannarxi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar yig‘indisidan tashkil topadi.

Bu uch turdagi mahsulot tannarxini har bir fermer yoki dehqon chuqur bilishi zarurdir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxini hisoblashda faqat ishlab chiqarish tannarxi amal qilib, uning tarkibiga moddiy ishlab chiqarish xarajatlari qo‘shilmoqda. Mahsulot ishlab chiqarishda sarflanadigan boshqa xarajatlarga – umumxo‘jalik, umumishlab chiqarish, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar, soliqlar, bank foizlari, boshqa har xil qarzarlar – olingan foyda hisobiga qoplanmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda mahsulot tannarxini hisoblashning yana ikki ko‘rinishi mavjud bo‘lib, bular rejalashtirilgan tannarx va kutiladigan tannarxlardan tashkil topadi. Rejalashtirilgan tannarx - bu biznes rejani tuzishda belgilanadi. Bu tannarx asosan har bir xo‘jalikning o‘z faoliyati natijalari asosida yil boshida tuziladi. Bu tannarx kutiladigan tannarx ham deb ataladi. Bu tannarxni tuzishdan maqsad mahsulot ishlab chiqarish jarayonida fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan mahsulot yetishtirishda sarflanadigan xarajatlarni taqqoslash uchun foydalaniladi.

Har bir fermer va dehqon – rejalashtirilgan mahsulot tannarxini belgilashda uning har bir xarajat turlarini sarflashni ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganishi zarurdir. Chunki, bu kutiladigan tannarx natijasi bevosita ishlab chiqarish natijasida – foyda miqdoriga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Fermer va dehqon xo‘jaliklari yil oxirida mahsulotning erishilgan yoki haqiqiy tannarxini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Fermer xo‘jaliklari mahsulotlarini yetishtirishda (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatishda) bevosita qatnashadigan xarajatlarga quyidagilarni kiritmoqda:

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar, ular iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi: (15.2.1-jadval)

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Dehqon va fermer xo‘jaliklarida mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi

t/r	Xarajat turlari	Xarajatlar tarkibiga kiruvchi
1	Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlar	◆ ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlarni ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar; ◆ normal texnologiya jarayonini ta‘minlash va mahsulotlarni o‘rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o‘tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan, xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentar, moslamalar, inventar, priborlar laboratoriya asbob-uskunolari va assoiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim-bosh va arzonbaholi boshqa ashyolarninig eskirishi; ◆ sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlarida montaj qilindigan yoki qo‘shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.
2	Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari	◆ xo‘jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalariga va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan, hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tUSDagi to‘lovlar; ◆ ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompensatsiya tUSDagi to‘lovlar; ◆ texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo‘shimcha haq; ◆ kun, smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo‘shib olib borganlik va xizmat ko‘rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar.
3	Ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar	◆ qonun xujjatlari bilan belgilangan normalar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash fondiga ijtimoiy tUSDagi majburiy ajratmalar; ◆ pensiya jamg‘arlariga, ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaga va ixtiyoriy sug‘urtaning boshqa turlariga ajratmalar; ◆ asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.
4	Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar	◆ asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish). lizing bo‘yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan meyorlar, qonun xujjatlarida amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi; ◆ ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan

		kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi, foydali foydalanish muddatini aniqlash imkonini bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish meyorini besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas.
5	Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar	◆ Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari. ◆ Ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari. ◆ Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarning tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

Shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklarida **davr xarajatlari** ham amalga oshiriladi. Ular mahsulotlarni bevosita ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lmay, balki xo'jalikning sohalari bo'yicha tashkil etish va ularni boshqarish bilan bog'liq xarajatlardan tashkil topadi.

Bu xarajatlar ham maqsad va vazifalariga ko'ra, quyidagicha turkumlashtiriladi:

- yetishtirilgan mahsulotlarni sotish, xizmatlarni ko'rsatish uchun qilinadigan quyidagi xarajatlar: mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar;
- ma'muriy xarajatlar, ularga tarmoqni, korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar, jumladan, boshqaruv tizimlarining faoliyati, boshqaruv sohasidagi vositalar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar, jumladan, kadrlar tayyorlash, loyihalarni tuzish, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar. Ularga barcha turdagi kreditlar bo'yicha, mol-mulkning ijara haqi to'lovlari hamda qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotish, tarqatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi.

Favqulodda yuz beradigan hodisa, voqealarni qoplash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar. Ularga xo'jaliklarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar kiradi. Masalan, yer qimirlashi, suv toshqini, zararkunadalarini ko'payishi, qurg'oqchilik, suv tanqisligi xarajatlarini ma'lum miqdorda qoplash xarajati. Chunki ular asosan davlat va mahalliy budjet hisobidan qoplanadi.

15.3. Xarajatlarni kamaytirish hamda fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxini aniqlash tartibi va pasaytirish yo'llari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar, korxonalar miqyosida umumiy qiymat ko'rsatkichlari bilan birgalikda o'rtacha xarajatlar, ya'ni tannarx ko'rsatkichi ham faoliyat ko'rsatishi taqozo etiladi. Tannarx bozor iqtisodi sharoitida iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning yordamida dehqon va fermer xo'jaliklarida etishtirilayotgan mahsulotlar, bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning

bir birligi xo'jaliklar uchun qancha so'mga tushganligi aniqlanadi. Ularning darajasi qiymatni ifodalovchi baholar darajasi bilan taqqoslanishi natijasida, olinadigan foyda yoki ko'riladigan zararlar darajasi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich xo'jaliklarning ichki boshqaruvchilari uchun juda muhimdir.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtiriladigan asosiy, qo'shimcha hamda yordamchi mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxлари quyidagi usullada hisoblanadi:

Masalan, donchilikda qo'shimcha mahsulotlar belgilangan koeffitsientlar yordamida asosiy mahsulotlarga aulantiiriladi. Ularni asosiy mahsulotlarning miqdoriga qo'shib, jami yalpi don mahsulotining shartli miqdori aniqlanadi. Shundan so'ng jami ishlab chiqarish xarajatlaridan shartli mahsulot salmog'i mutanosib ravishdagi salmog'i hisoblanib, ularning umumiy so'mmasi aniqlanadi. Shu aniqlangan so'mma asosiy mahsulot miqdoriga taqsimlanib, asosiy mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Shartli yordamchi mahsulot hissasiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlari yordamchi mahsulotning xaqiqiy miqdoriga taqsimlab, yordamchi mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi.

Hozirgi davrda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish O'zbekistonni 2010 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Prezidentimiz «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarida ushbu dasturning konkret bo'limlari – belgilangan kompleks chora-tadbirlar haqida to'xtalib o'tib, mazkur chora-tadbirlar orqali hal etilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarni belgilab berish asnosida «qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish lozim»- deb ta'kidladilar⁶.


Shu maqsadda yaqinda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiyotimizdagi etakchi tarmoq va sohalarida mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma'qullanganini qayd etish lozim.

Buning uchun har bir dehqon va fermer xo'jaliklari o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha tannarxni pasaytirish omillari to'g'risida keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda, mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir (15.3.1-rasm).

Mehnat va moddiy pul mablag'larini tejab-tergab sarflash, ma'muriy boshqarish xarajatlarini va boshqa har qanday o'ransiz xarajatlarni qisqartirish uchun kurash olib borish tannarxni kamaytirishda juda katga ahamiyatga ega.

Dehqonchilikda hosildorlikni, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish hamda xarajatlarni qisqartirish avvalo xo'jalikni mohirlik bilan boshqarishga, yer, ishlab chiqarish vositalari va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liqdir. Xo'jaliklar rivojlana borgan sari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yanada ko'proq yetishtirish va ularni arzon qilish uchun tobora yangi imkoniyatlar vujudga keladi.

⁶ B.Y.Xodiyev, A.SH.Bekmurodov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 56 b.



15.3.1 - rasm. Tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari

Har bir dehqon va fermer xo'jaliklari mehnat unumdorligini oshirish, o'z mahsuloti tannarxini kamaytirish yuzasidan puxta o'ylab tuzilgan rejaga ega bo'lishi va bu rejaning amalga oshirilishini qattiq nazorat qilib turishi lozim.

Mehnat va moddiy mablag'larni iqtisod qilish rejimini qat'iy amalga oshirmasdan turib, tannarxni kamaytirish va rentabellikni oshirish qiyin masaladir.

Nazorat uchun savollar:

1. Qanday xarajatlar ijtimoiy va individual xarajatlar deb ataladi?
2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining jami va ishlab chiqarish xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Xarajatlar elementlari va moddalari haqida qanday tushunchaga egasiz?
4. Mahsulot tannarxi deganda nimani tushunasiz?
5. Dehqon va fermer xo'jaliklarining mahsulot tannarxi darajasi, dinamikasi qanday aniqlanadi?
6. Dehqon va fermer xo'jaliklarining xarajatlarni kamaytirish, tannarxni pasaytirishga qanday chora-tadbirlar yordamida erishish mumkin?

XVI-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA YALPI VA TOVAR MAHSULOTI, ULARNING TAQSIMLANISHI

Reja:

- 16.1. Dehqon va fermer xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti
- 16.2. Tarmoqning yalpi va tovar mahsulotiga bo'lgan talabi
- 16.3. Yalpi mahsulotni ko'paytirish yo'llari. Ekstensiv va intensiv yo'llar
- 16.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori
- 16.5. Sanoat mahsulotlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'rtasidagi nomutanosibliklar
- 16.6. Davlat buyurtmalariga o'rnatiladigan baholar. Dotatsiya va subsidiyalar

O'quv maqsadi: *qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti, xo'jaliklarning yalpi mahsulotini ko'paytirish yo'llari, ekstensiv va intensiv yo'llar, davlat buyurtmalariga o'rnatiladigan baholar va davlat tomonidan berilayotgan dotatsiya va subsidiyalar haqida ma'lumotlar berish hamda nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *yalpi mahsulot, tovar mahsulot, davlat buyurtmasi, narx, davlat narxi, intensiv yo'l, ekstensiv yo'l, dotatsiya, subsidiya*

16.1. Dehqon va fermer xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti

Dehqon va fermer xo'jaliklarida ma'lum muddat yoki yil davomida g'alla, sabzavot, paxta, sut-go'sht kabi mahsulotlar yetishtiriladi va tegishli xizmatlar bajariladi. Ma'lum muddat davomida yaratilgan jami mahsulot va tegishli xizmatlar yig'indisi **yalpi mahsulot** deyiladi.

Yalpi mahsulot natura va pul shaklida hisobga olinadi. Yalpi mahsulotlarning turlari har xil. Chunonchi, bir yilda yetishtirilgan g'alla, paxta va hokazo yalpi mahsulotlar mavjud bo'lib, ularni bir-biriga tonna, sentnerlar holatida qo'shib bo'lmaydi. Shu sababli xo'jalik boyicha tegishli yil boyicha jami yalpi mahsulot miqdorini aniqlash uchun ularning tegishli yildagi davlat bahosda yoki solishtirma baholarda qiymatlari aniqlanadi. Shu asosda tegishli yil boyicha yalpi mahsulot miqdori aniqlanadi. Odatda, yalpi mahsulot ikki qismdan iborat bo'lib, bir qismi omborlardagi hamma tayyor mahsulotlar va ikkinchi qismi esa tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlaridir. Joriy yil kuzida yerni kelasi yil hosili uchun haydab, uni tayyorlab qoyish bilan bog'liq xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariga kiradi. Shuni aytish kerakki, tayyor mahsulotlarni bir qismi ichki ehtiyojlar (urug'lik, em-xashak, sut, go'sht va h.k.)ning, umumiy ovqatlanish ehtiyojlarini qondirish uchun qoldiriladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida bir turdagi mahsulot ham dehqonchilikda, ham chorvachilik mahsuloti tarkibida o'z ifodasini topadi. Masalan, em-xashakni olib ko'raylik. U asosan, dehqonchilik mahsulotidir. Ammo mollarga ozuqa sifatida ayni vaqtda chorvachilik yalpi mahsulotlari qiymatiga ham kiradi. Binobarin, bir turdagi mahsulot ikkinchi sohada etishtirilgan mahsulotda takrorlanadi. Shuning uchun ham dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi mahsuloti qiymatini aniqlashda dehqonchilik va chorvachilikdagi jami mahsulotlar olinadi.

Shuni aytish kerakki, o'simlikchilik va chorvachilikda yalpi va tovar mahsulotlarini hisoblashda yordamchi mahsulotlar (g'o'zapoya, go'ng va h.k.) ba'zan chiqarib tashlanadi, ba'zan hisobga kiritiladi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsuloti jamiyat yalpi mahsulotining bir qismidir.

Yalpi mahsulotlarning ko'pchilik qismi, texnika ekinlari, pilla, qorako'l teri kabi mahsulotlarning hammasi, davlatga sotish maqsadida chiqarilgan (sotilgan) mahsulotlar esa **tovar mahsuloti** deyiladi. Mahsulotlarning tovarlilik darajasi ularning chetga sotilgan miqdorini ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi. U quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$T = \frac{TM}{\text{Yam}} \cdot 100;$$

Bu yerda: T – dehqon va fermer xo'jaliklarining yoki tarmoqlarning tovarlilik darajasi;

TM – tovar mahsuloti (natura yoki pul ifodasida);

Yam – yalpi mahsulot (natura yoki pul ifodasida).

Dehqonchilikning tovarlilik darajasini aniqlashda tugallanmagan ishlab chiqarish hisobga olinmaydi, chunki u sotilmaydi. Shuni aytish kerakki, xo'jalikdagi ayrim tarmoqlarning tovarlilik darajasini aniqlashda natura ko'rsatkichlaridan foydalansa ham bo'ladi. Agar ikki va undan ko'proq sohalar boyicha yalpi mahsulotni aniqlamoqchi bo'lsak, yuqorida aytilganidek, ular pulga aylantiriladi.

Odatda, yalpi va tovar mahsulotlarining ko'payishi dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan mahsulotlarning hosildorligiga bog'liq bo'ladi. Binobarin, mahsulotlarning hosildorligini oshirish ko'proq fan va texnika yutuqlariga bog'liqdir. Demak, yalpi va tovar mahsuloti qanchalik ko'p bo'lsa, xo'jalik yoki tarmoqning iqtisodiy holati ham shuncha o'sib boradi, pul daromadi ko'payadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qayta ishlash va engil sanoat korxonalarining uzluksiz ishlashlari uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi.

2012 yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil yetishtirdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib-terib olindi. 2014 yilda esa paxtadan mo'l hosil olinib, jami paxta xirmoniga - 3 million 450 ming tonna paxta va mamlakatimiz hayotida birinchi bor g'alladan – 8 million 050 ming tonna hosil yetishtirib berildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish hisobidan ta'minlanmoqda.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va tovar mahsulotining ko'payishi ularning ham iqtisodiyoti yuksalishini ta'minlaydi. Xo'jalik yalpi mahsulotining, natura holdagi miqdori ko'payishi tayyor mahsulot miqdori oshishiga sabab bo'lib, ichki va tashqi talab to'liqroq qondirilishiga imkoniyat yaratadi. Natijada sotiladigan mahsulot miqdori ortadi. Uni sotish evaziga korxonalarning pul daromadlari ko'payadi. Bu dehqon va fermer xo'jaliklar ishlab chiqarishining kengaytirilgan holda rivojlanishini, ishchi-xizmatchilarning esa moddiy rag'batlantirilishini ta'minlaydi.

Shuning uchun ham respublika hukumati qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilab, raqobatbardoshligini yuksaltirishga katta e'tibor bermoqda. Chunki qishloq xo'jalik mahsulotlarini chet davlatlarga sotish natijasida mamlakatning valyuta tushumi ortib bormoqda. Chet el valyutalari ko'payishi natijasida dehqon va fermer xo'jaliklari uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari, yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar sotib olinmoqda.

Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan yalpi va tovar mahsulotlari ko'lami ham oshib bormoqda. Quyidagi 16.1.1-jadvalda oxirgi 4 yil ichida viloyat qishloq xo'jaligida olib keng ko'lamli borilgan islohatlar natijasida erishilgan yutuqlar dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik tarmog'ida ham o'z natijasini bergan.

16.1.1-jadval

**Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish
dinamikasi**

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti qiymati	mln.so'm	1826255,6	2439542,4	2618358,6	3078819,3
<i>Shu jumladan:</i>					
Dehqonchilik mahsulotlari	mln.so'm	920759,7	1326317,5	1382107,2	1768482,3
Chorvachilik mahsulotlari	mln.so'm	905495,9	1113224,9	1236251,4	1310337,0
O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi	%	103,6	106,2	106,8	106,2

Manba: Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ushbu jadvalda Qashqadaryo viloyatining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi ham 2011-20124 yillar davomida o'sib borgan, ya'ni 2011 yilda jami 1826255,6 mln.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich 2014 yilda 3078819,3 mln.so'mni tashkil etgan. Dehqonchilik mahsulotlari yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlaridagi ulushi 2012 yilda 50,4 foizni tashkil etib, 2014 yilda esa 57,4 foizni tashkil etgan. Chorvachilik mahsulotlarining hajmi esa mos ravishda 49,6 va 42,6 foizni tashkil etgan. Demak, viloyatda chorvachilik bilan bir qatorda dehqonchilik mahsulotlari ham yetishtirish ko'lami oshib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi:

- aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari va oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlari bilan arzon narxlarda va uzluksiz ravishda ta'minlashni tashkil etish maqsadida maxalliy xokimliklar qoshida meva-sabzavot hamda uzum mahsulotlari. va kartoshkani fermer xo'jaliklaridan maqbul narxlarda sotib oladigan, saqlaydigan, tashiydigan, ichki iste'mol bozorlariga realizatsiya qiladigan, eksportini amalga oshiradigan hamda moliyalashtiradigan ixtisoslashgan kompaniyalar tashkil qilish va ularni yetarli miqdordagi aylanma mablag'lar hamda zarur moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlashni tashkiliy choralari ishlab chiqish;

- bugungi kunda jahon miqyosida kuzatilayotgan oziq-ovkat muammosi salbiy oqibatlarining oldini olish uchun qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni optimallashtirish, ilm-fan tavsiyalaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yer maydonlari maqbullashtirilgan fermer xo'jaliklari bo'yicha 2012 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish hamda ularda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

- respublikadagi mavjud barcha dehqon va fermer xo'jaliklarida qoramollar bosh sonini ko'paytirishning tashkiliy choralarini ishlab chiqish;

- Qashqadaryo viloyatining har bir tumanida yengil konstruksiyali, alternativ issiqlikdan foydalanish ko'zda tutilgan issiqxonalar qurish;

- suv tanqisligining yetishtirilayotgan hosilga salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan texnik-muxandislik tadbirlari va suv resurslarining tejamkor agrotekhnologiyalarini ishlab chiqish;

- mavjud qayta ishlash korxonalari va agrofimlar tomonidan sotib olinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun bo'nak mablag'lari berish va keyin sotib olingan mahsulotlar uchun to'liq hisob-kitob qilish maksadida uzluksiz naqd pul berib borishning mexanizmini takomillashtirish va muntazam monitoringini yuritish;

- sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini fermer, dehqon xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa bo'yicha asosiy, yosh bog'-uzumzorlar oralig'iga erta va o'rta muddatlarda yetishtirilishi bo'yicha takroriy maydonlarga joylashtirish;

-fermer xo'jaliklari bo'yicha meva-sabzavot ekinlari yetishtirish uchun urug'lik, ko'chatlar, yonilg'i-moylash mahsulotlari va mineral o'g'itlar bilan ta'minlash;

- dehqon xo'jaliklari tomorqalarida ekiladigan ekinlar turlari va maydonlarini aniqlash hamda urug'likka, ko'chatlarga, yonilg'i-moylash mahsulotlariga va mineral o'g'itlarga bo'lgan talabini qondirish tizimini rivojlantirish;

-sabzavot-poliz ekinlari kartoshkaning serhosil, kasallik hamda turli sharoitlariga bulgan yangi navlari va birinchi duragaylarini yaratish;

-chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklarining yer maydonlarida davlat buyurtmasi uchun mahsulot yetishtirish bo'yicha paxta va boshqaliq don ekinlari joylashtirilmasligi, hisobiga ozuqa maydonlari ko'payishi hamda oraliq va takroriy ekin maydonlarini ko'paytirilishi hisobiga ozuqa birligi, go'sht va sut ishlab chiqarish miqdorini oshirish;

-tashkil etilgan parrandachilik fermer xo'jaliklari va fabrikalari yer maydonlarida ozuqa ekinlari yetishtirish imkoniyati kengayganligi hisobiga parranda go'shti va tuxum yetishtirish hajmini ko'paytirish.

- fermer xo'jaliklarida inqirozga qarshi boshqarish strategiyasini shakllantirish.

16.2. Tarmoqning yalpi va tovar mahsulotiga bo'lgan talabi

Respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Dastavval tarmoqda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadida agrar iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich olib borilmoqda. Natijada barqaror ravishda mulkchilikning turli shakllari barpo etilib, ularning erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun siyosiy, huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilmoqda. Qishloq xo'jaligiga yangi texnikalar, samarali texnologiyalar kiritilib, uning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanmoqda. Tarmoqdagi ishchi-xizmatchilarning bilimlari,

malakalari, tadbirkorlik qobiliyatlari yuksaltirilmoqda. Natijada so'nggi yillarda dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi mahsuloti yil sayin ortib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida mahsulot tovarliligini oshirish asosan talab va taklifga bog'liq bo'ladi. Chunki, har bir tovar ishlab chiqaruvchi ko'proq tovar mahsulotini yetishtirish va uni sotish natijasida ko'proq foyda olishga intiladi. Ammo, hama vaqt, hamma sharoitda ishlab chiqargan tovar mahsulotiga talab bo'laveradimi, u sotiladimi? Bu masalani hal qilmadan turib, birinchi masalani hal qilish mumkin emas.

Qishloq xo'jaligida tovar mahsuloti ko'lamini oshirish juda ko'p omillarga bog'liq. Ularni quyidagi guruhlarga birlashtirib, qanday tovar mahsulotini ko'paytirishga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin?-degan savolga javob beramiz:

*Birinchi*dan, dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi mahsulot qiymatini muntazam oshirib borish. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni har gektar yerdan olinadigan xom ashyoni oshirish va har bir bosh chorva mollari mahsulдорligini ko'paytirish yo'li bilan hamda ekin maydonlari va chorva mollari tuyog'ini ko'paytirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda har gektar ekin maydonidan olinadigan hosil va har bosh chorva mollaridan olinadigan mahsulot miqdori imkoniyatining hamma bosqichlarini ishga solish yo'li bilan rejalashtirilgan hosilni va mahsulotni oshirish imkoniyati mavjud. Ayrim dehqon xo'jaliklari bug'doy hosilini yig'ishtirib olgandan keyin bo'shagan maydonlarga takroriy ravishda sholi ekib har gektaridan 9-10 tonnadan sholi hosili olmoqda. Takroriy ekin sifatida makkajo'xori har gektaridan 70-75 sentnerdan makkajo'xori doni yetishtirmoqdalar.

*Ikkinchi*dan, dehqon va fermer xo'jaliklarining ichki xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan mahsulotlar miqdorini tartibga solish, ularning o'rnini bosa oladigan arzon boshqa mahsulotlar bilan almashtirish kabi bir qator muammolarni hal etish.

*Uchinchi*dan, dehqon va fermer xo'jaliklarining chorva mollari naslini yaxshilash, kaloriyali va omuxta yemlar turini ko'paytirish, hududlarda ozuqalar tayyorlash, chorva mollari boqishning yangi texnologiyalarini joriy etish lozim.

*To'rtinchi*dan, dehqon va fermer xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishlab chiqarish jarayonlarida ularning nobudgarchiligini keskin kamaytirishdan iboratdir.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni bozor iqtisodiyoti talablari asosida qayta qurishni amalga oshirishga erishish, tovar mahsulotlari yetishtirishni ko'paytiribgina qolmasdan, balki ularning sifatini eng yuqori darajaga ko'tarish imkoniyati kengaygan bo'lar edi.

Agrasanoat majmyasida ishlab chiqarishi (ASM) tovarlilik darajasi salmoqli darajada bozor konuyunkturasi, taklif va talabalar bilan belgilanadi.

Raqobatbardosh mahsulot bozordagi o'xshashga nisbatan yuqori darajada, iste'molchilar talab qiladigan xususiyatlarga ega bo'ladi va buning natijasida yuqori talabga erishadi. Raqobatbardoshlikni raqobatchilar mahsulotiga solishtirish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Chunki tovar mahsulotlarining raqobatbardoshligi nisbiy tushuncha u aniq bozorga va sotish vaqtiga (auniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun) qattiq bog'langan.

Raqobatbardoshlik asosan, ikki usul bilan aniqlanadi: mahsulotning bahosi va sifati bilan, binobarin, ikkinchi omil asta-sekin etakchi bo'lib oladi. Mahsulot sifati iste'molchilar qiymati bilan ajralmas holda bog'liq. Iste'molchilarni mahsulotning

tabiati emas, uning tovar bo'la olishi qiziqtiradi. Oldi-sotdi amalga oshirilayotgan paytda, xaridor ushbu tovarning bozor shartlariga mosligini tasdiqlaydi. Bunday mahsulotning raqobatbardoshligi shuncha yuqori bo'ladi.

Mahsulotlar sifati-uning o'z vazifasiga ko'ra mos ravishda ma'lum talabni qondirishga asoslanadigan xususiyatlarining uig'indisi. Xaridor uning qanday o'ziga xos talabini qondirishiga qaramasdan o'zining iste'mol talabiga javob beradigan mahsulotni sifatli deb biladi. Bir mahsulotning sifati, undan bitta maqsad yo'lida foydalanish uchun yuqori yoki past deb bilinishi mumkin. Masalan, arpadagi oqsilning ortishi uning em-xashak sifatida qimmatini oshirsada, pivo tayyorlash mahsuloti sifatini pasautiradi.

Mahsulotning raqobatbardoshligi xaridor uchun qiziqish yuqota oladigan o'ziga xos xususiyatlari (masalan, o'lchami, yangiligi, mevasining mazasi) bilangina belgilanadi. Boshqa hamma parametrlari (masalan, shakli, meva rangi) raqobatbardoshlikni baholashda hisobga olinmaydi. Raqobatli bozorning rivojlanishini mahsulot sifatini yaxshilash darajasi va o'sishi ko'rsatib beradi. Shu sababli, tovar ishlab chiqaruvchilar oldida sifatni rejalashtirish va uni boshqarish uning ma'lum darajasiga etish xarajatlarining eng tejimli variantini tanlashni hisobga olish masalasi turadi. Bu myammolarning hammasi korxonada sifat standartlari tizimini joriy etish bilan hal etiladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlari etishtirishda, sotishda tabiiy sharoitlarni hamda xalqimizning o'ziga xos milliy xususiyatlarini, albatta, e'tiborga olish zarur. Chunki ayrim mahsulotlarni yetishtirishga tabiiy sharoitlar, ayrimlarini yetishtirishga milliy odatlarimiz yo'l bermaydi. Jumladan, cho'chqachilikni rivojlantirishga. Lekin bu soha samarali hisoblanadi. Yetishtirilayotgan mahsulotlarni erkin sotishda aholining milliy ehtiyojini e'tiborga olish lozim. Chunki musulmon diniga mansub bo'lgan aholi cho'chqa go'shtini, cho'chqa go'shtidan tayyorlangan mahsulotlarni sotib olmaydi, chunki ularni iste'mol qilmaydi. Lekin unni, non mahsulotlarini, sholini ko'proq sotib oladi. Chunki ular har kuni uch mahal non esalar ham ko'ngillariga tegmaydi. Demak, mahsulot ishlab chiqarish va ularni sotishda, taqsimlashda yuqoridagi masalalarga e'tibor berish lozim.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklari mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, qishloq aholisini qo'shimcha daromad bilan ta'minlash, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarar ekan, ularning rivojlanishi uchun mavjud tashqiliy, huquqiy sharoitlarini yanada yaxshilash, davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Takidlash joizki, mustaqillik yillarida fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Fermer xo'jaliklari faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun va qonunosti meyoriy hujjatlarning qabul qilinganligi, fermer xo'jaliklariga yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritish uchun imkoniyatlar berilganligi, fermer xo'jaligi ishchilarning ish vaqti mehnat stajiga qo'shilishi ana shular jumlasidandir. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida fermer xo'jaliklarning yer maydonlari maqbullashtirilmoqda, fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi muttasil ravishda oshib bormoqda. Shu bilan birgalikda fermer xo'jaliklarining yanada

samarali faoliyat yuritishi, ko'proq daromad keltirishi uchun yana bir qator tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish, mavjud huquqiy asoslarni takomillashtirish zarur bo'ladi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishiga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi qanday tasir ko'rsatadi? Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bank muassasalaridan to'ishlab chiqarish sohalariga borgan bir zanjir bobida barcha tarmoqlarni o'z ta'siri doirasiga oladi va olib bormoqda. Shu boisdan, inqiroz fermer xo'jaliklarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'z tasiri doirasiga olishi mumkin, ammo inqiroz boshqa tarmoqlarga ta'sir etishi bilan fermer xo'jaliklari ham bilvosita uning ta'sir doirasiga kiradi.

Bunda bank muassasalari fermer xo'jaliklarini kredit bilan ta'minlash ularga iqtisodiy moliyaviy yordam berishni tashkil etishlari va sug'urta tashkilotlari fermer xo'jaliklarini iqtisodiy tanglik va qurg'oqchilik holatlariga qarshi himoyalovchi tashkilot bo'lib iqtisodiy xavflarni sug'urtalash ishlarini kuchaytirishlari ayni muddao bo'ladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining barcha tarmoqlarida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri va salbiy oqibatlarini oldini olish yo'llarini belgilab olish fermer xo'jaliklarida ham o'ziga xos yondashuvga asoslanishi lozim. Fermer xo'jaliklarni barqaror rivojlantirishga respublikamiz hukumati tomonidan alohida etibor berib kelindi va bir qator muhim qaror va farmonlar qabo'l qilinib, hayotga tatbiq etildi. Ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur huquqiy va meyoriy asoslar to'lig'icha yaratildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Lekin shunga qaramay fermer xo'jaliklari faoliyatida yuzaga kelgan bir qator muammolarni aniqlab olish va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi dasturlar ishlab chiqishda ushbu muammolarni keltirib chiqargan sabablarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz. Jumladan, ushbu muammolar quyidagilardan iborat:

1. Bugungi kunga kelib mamlakatda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining qariyb 35,0 foizini, chorvachilik mahsulotlarining 37,0 foizini yetkazib beradigan, qishloq aholisini qo'shimcha daromad va ish o'rinlari bilan ta'minlayotgan fermer xo'jaliklar faoliyatini muvofiqlashtirish masalasi yetarlicha hal etilmagan. Ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, zarur moddiy texnika resurslari bilan doimiy ravishda taminlash kerak. Fermer xo'jaliklariga chorva ozuqasi va boshqa zaruriy resurslarni yetkazib berish muammosini va boshqa masalalarni hal etuvchi muvofiqlashtiruvchi tuzilma tashqil etish zarur bo'ladi.

2. Fermer xo'jaliklarni barqaror rivojlantirishga ta'sir qiluvchi ayrim tashqiliy masalalarni o'zaro kooperatsiya asosida ish yuritish orqali hal qilish mumkin. Bunda fermer xo'jaliklarni turli xil kooperativlarga birlashishi ixtiyoriylik asosida xo'jalik azolari kooperativga birlashishning afzalliklarini ongli ravishda his qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki har qanday xo'jalikni majburiy ravishda maayyan birlashsa, uyushma yoki kooperativlarga birlashtirish hech qanday samara bermasligini amaliyot tajribalari ko'rsatmoqda. Kooperativlar asosan ko'p yo'nalishli yoki ixtisoslashgan holda tashqil qilinishi mumkin.

3. Fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish, daromad olish darajasi respublika mintaqalari, shuningdek alohida viloyatlarning ichida ham bir-biridan farq qiladi. Bunga, birinchidan tuproq iqlim sharoitlarning turlichaligi sabab bo'lsa, ikkinchi asosiy sabab fermer xo'jaligi egalarining mavjud imkoniyatdan foydalanib ko'proq daromad olishga bo'lgan intilishning yo'qligidir.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida barcha xo'jaliklar tomonidan 2013 yilda yetishtirilgan go'sht, sut va tuxum mahsulotlarining 2012 yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichini taqqoslaganimizda, jami viloyat bo'yicha go'sht yetishtirish 107,0 foizga, sut 107,1 foizga va tuxum yetishtirish 112,8 foizga oshganligini quyidagi 16.2.1-jadvalda ko'rish mumkin. Go'sht yetishtirish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich viloyatning Chiroqchi (25915 tonna), Qamashi (20974 tonna), Koson (18821 tonna) va G'uzor (18111 tonna) tumanlari hisoblanadi.

16.2.2- jadvalda esa 2013 yilda viloyatning fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari 2012 yilga nisbatan o'zgarish keltirilgan bo'lib, bunda fermerlar tomonidan yetishtirilgan go'sht mahsulotlari G'uzor, Chiroqchi, Dehqonobod, Qamashi va Qarshi tumanlari eng yuqori ko'rsatkichga teng bo'lgan.

Viloyatda chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish dasturlarida asosiy e'tibor chorva mollarining naslini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish, tarmoqda servis xizmatini rivojlantirish va chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, bunda chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, naslchilik-seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash, tarmoqda servis xizmati, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirishdan iboratdir.

16.3. Yalpi mahsulotni ko'paytirish yo'llari. Ekstensiv va intensiv yo'llar

Respublika aholisining aksariyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoji ham to'liq qondirilmayapti. Ularning ayrimlarini chetdan olib kelib, sotish orqali ham bu muammo to'liq echilganicha yo'q. Bu asosan don, qand, shakar mahsulotlariga, katoshka va chorvachilik mahsulotlariga, ayniqsa, go'sht va sut mahsulotlariga tegishli. Shuning uchun barcha turdagi korxonalarda qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishni ko'paytirish eng dolzarb muammodir. U siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu muhim muammoni hal etishning asosan ikki yo'li mavjud:

♦ **Ekstensiv yo'l.** Ya'ni, ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish. Bu usulni adabiyotlarda, Amerika usuli, deb ham atashadi. Lekin uning rivojlantirilishi ayrim ishlab chiqarish resurslari, jumladan, yer va suv resurslari tabiatan cheklanganligi sababli to'liq ta'minlanmaydi.

Bu usulda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini ko'paytirish uchun moddiy mablag' hamda mehnat sarflari asosan yangi yerlarni o'zlashtirib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi muomalasiga kiritishga hamda chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirishga qaratiladi. Natijada o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdori ko'paytiriladi. Shu bilan birga bu jarayonda yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni, zooveterinariya ishlarini ham amalga oshirish talab qilinadi. Demak, bu usul yordamida yalpi mahsulot hajmi ko'payishi, sifati yaxshilanishi ta'minlanadi.

♦ **Intensiv yo'l.** Ya'ni, foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, chorvachilikda zotexnologiya, veterinariya ishlarini rivojlantirish asosida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish. Bu usulni adabiyotlarda, Prussiya yo'li, deb ham ataladi. Qishloq xo'jalik

mahsulotlarining hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash asosan moddiy, mablag' va mehnat sarflarini, fan yutuqlarini, yangi texnikalarni hamda ilg'or texnologiyalarni, hayvonlarning nasl va zotlarini, o'simlik navlarini yaxshilashga qaratish orqali, binobarin, qo'shimcha investitsiyalarni amalga oshirish hisobiga ta'minlanadi.

Respublikada ekstensiv yo'l bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish Farg'ona vodiysining aksariyat xo'jaliklarida, Xorazm viloyatida hamda eskidan don sug'oriladigan hududlarda ancha cheklangan. Lekin intensiv usuldan barcha viloyatlarda foydalanish imkoniyati mavjud. Buning uchun, avvalo, butun aholida vatanparvarlik ruhi rivojlanishiga erishish, o'z hayotimizning yuksalishini o'zimiz ta'minlashimiz kerak, degan tushuncha barchada mustahkam shakllanishi kerak. Vatanparvarlik, albatta, iqtisodiy tadbirkorlik bilan mustahkam, real bog'lanishi, chunonchi, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun mablag'lar bo'lishi lozim. Ularni asosan ishlab topish zarur, etishmagan qismini esa davlat va mahalliy byudjetlardan, qarzlar va boshqa manbalar hisobiga qoplash mumkin. Bu mablag'larni dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini ko'paytirish, ularning sifatini ta'minlovchi quyidagi tadbirlarga sarflash maqsadga muvofiqdir:

- yangi yerlarni kompleks o'zlashtirishga;
- zotli, sermahsul chorva hayvonlarini yaratish, sotib olishga;
- yangi bog'lar, tokzorlar, ko'p yillik daraxtzorlarni barpo etishga;
- yangi irrigatsiya-melioratsiya tizimini barpo etish, mavjudlarining ishga yaroqliligini ta'minlash maqsadida ta'mirlashga;
- sermahsul o'simlik navlarini, chorva zotlarini yaratish maqsadida fan-texnikani rivojlantirishga;
- yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga izchil joriy etishga;
- ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirishni hamda elektrlashtirishni ta'minlashga;
- mavjud asosiy vositalarning ishga yaroqliligini ta'minlashga;
- o'simlikchilikning, chorvachilikning ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabini imkoniyat darajasida ta'minlashga;
- ishchi-xizmatchilarning bilimini, malakasini yuksaltirish va moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishni real, ta'sirchan usullar orqali rivojlantirishga;
- ishlab chiqarishni liberallashtirish, erkinlashtirishga, islohotlarni chuqurlashtirishga;
- ishlab chiqarish, davr xarajatlarini, moliyaviy xarajatlarni imkoniyat doirasida kamaytirishga;
- soliqlar tizimini takomillashtirishga;
- ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholarini erkinlashtirish va boshqalarga.

Ta'kidlangan tadbirlar o'z vaqtida, sifatli amalga oshirilishi natijasida o'simlikchilik, chorvachilik mahsulotlari miqdorining ko'payishi va qiymatining oshishi ta'minlanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmining o'sishi ular ichki va tashqi talabni qondirish maqsadida ko'proq sotilishini ta'minlaydi. Natijada o'simchilik, chorvachilik mahsulotlarining tovarlilik darajasi oshiriladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini sotish tizimini erkin bozor talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish lozim. Buning uchun avvalo, dehqon

va fermer xo'jaliklarining o'zida marketing masalalari bilan muntazam shug'ullanadigan guruhlar yoki bo'limlarni tashkil etish, ularni erkin bozor ma'lumotlari bilan muntazam ta'minlash zarur.

Shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini sotib olish bilan shug'ullanuvchi barcha tashkilotlarning, korxonalarning faoliyatini rivojlantirish, ularning bo'limlarini ishlab chiqarishga yaqinlashtirish kerak. Shundagina ortiqcha xarajatlarga, nobudgarchilikka yo'l qoyilmaydi: dehqon va fermer xo'jaliklari tez ayniydigan mahsulotlarni 70-100 km. masofadagi zavodlarga tashib, vaqtdan yutqazmaydi, ortiqcha xarajatlar qilmaydi va mahsulot sifati yomonlashmaydi, mahsulotlarning ko'proq, tezroq, arzonroq sotilishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari dehqon va fermer xo'jaliklarining o'zlari ham etishtirgan mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi uyushmalar tashkil etishlari mumkin. Uyushmaga kiruvchilar uchun erkin, qulay sharoitlar yaratilishi lozim. Bunday uyushmalar mahsulotlarni sotishda erkin raqobatli bozor vujudga kelishida muhim o'rin tutadi.

Natijada dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarining haqini kelishilgan muddatlarda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar, ularni xo'jaliklar ishlab chiqarishga sarflashi natijasida yalpi va tovar mahsulotlarini ko'paytirishga erishadilar.

16.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori

Dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtiriladigan tovar mahsuloti o'z sotilish xarakteriga ko'ra ikki guruhga: davlat sotib oladigan mahsulotlarga va nodavlat korxonalar hamda aholi tomonidan sotib olinadigan tovar mahsulotlariga bo'linadi. Fermer xo'jaliklarining davlat tomonidan sotib olinadigan mahsulotlarga paxta, don, kanop va pilla mahsulotlari kirib, mahsulotning bu turlari tovar ishlab chiqaruvchilar bilan davlat o'rtasidagi kontraktatsiya shartnomasi asosida sotiladi.

Davlat buyurtmasiga kirmaydigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari talab va taklif asosida ishlab chiqariladigan va nodavlat korxonalari hamda aholi ehtiyoji uchun bozorlarda sotiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikkinchi guruhga kiruvchilar mahsulotlarni sotish muammosi eng og'ir muammolardan biridir. Chunki bunga sabab:

- ✓ dehqon va fermer xo'jaliklari bilan tovar iste'mol qiluvchilar orasida har ikki tomon uchun mos keladigan mexanizmlar yaratilmagan;
- ✓ qishloq xo'jaligi bozori bilan boshqa turdagi bozor o'rtasidagi uzoq muddatli, barqaror aloqalar hali to'liq shakllanganicha yo'q.

Bu nomunofiqliklar agrar sektorda mahsulot ishlab chiqarish, uni o'z vaqtida realizatsiya qilish mexanizmiga to'la amal qila olmayotganligidan dalolat bermoqda. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning 99 foizi dehqon va fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda agrar tarmoqda asosiy mahsulotni fermer va dehqon xo'jaliklari yetkazib berar ekan, ular mahsulotlarini o'z vaqtida sota olmasliklari natijasida mahsulot sifati buzilib, ko'pchilik qismi nobud bo'lishiga olib kelmoqda. Dehqon va fermerlarimiz tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni tara idishlariga joylashtirish, xolodilniklarda saqlash, tashish va tushirish ishlari o'z vaqtida bajarilmasdan kelayotganligi hammaga ayondir. Shu nuqtai nazardan dehqon va fermerlarimizni ushbu qiyinchiliklardan bartaraf etish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

1. Fermer, dehqon, tomorqa egalari, xonadonlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni o'z joylarida sotib oluvchi punktlar tashkil etish va ularning ish faoliyatini muntazam takomillashtirib borish.

2. Shaharda va qishloqda ish yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlar bilan tovar sotish va sotib olish to'g'risida uzoq muddatlar davom etuvchi hamkorlik shartnomalarini tuzish.

3. Qishloq joylarida bozor infratuzilmasining barcha tarmoqlarini shakllantirish, ishga solishga ko'maklashish va rivojlantirish.


4. Fermer va dehqon xo'jaliklari bilan tayyorlov va qayta ishlaydigan korxonalar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash hamda hududlarda mahsulotlarni qayta ishlaydigan agrofimalarni tashkil etishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaliigda barcha talablarni qondirish maqsadida turli xildagi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari etishtirilib, ishlar hamda xizmatlar bajariladi. Ularni iste'molchilarga etkazib berishda, sotishda turli xildagi baholardan foydalaniladi.

Baho – tovar qiymatining puldagi ifodasi. Qiymat tovar ishlab chiqarishga qilingan mehnat sarflari bilan belgilanadi, ya'ni mehnat tabiatiga ega. Biroq, bunday belgilash Tabiiy cheklashlarga ega, chunki baho faqat mehnat mahsulotlariga qo'llanadi. Shunga asosan, inson mehnatining mahsuli bo'lmagan predmetlarga, yer mahsulotiga bunday narxlarni qo'llab bo'lmaydi. Ana shunday yondashuvga muvofiq, ular mehnat o'tmish qiymatiga, demak bahoga ega bo'lmaydi.

Baholar mahsulot (ish, xizmat) larni ayriboshlash maskaniga, maqsadiga, vazifasiga ko'ra, bir qancha turlardan tashkil topadi. (16.4.1-chizma)

16.4.1-chizma



Fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan paxta xomashyosi va bug'doyning 30 foizi «O'zpaxtasanoatsotish» uyushmasi va «O'zdonmahsulot» korporatsiyasi korxonalariga shartnomalar asosida davlat buyurtmalarini bajarish maqsadida davlat harid baholarida sotilmoqda. Ularning mutlaq miqdori talab va taklif e'tiborga olingan holda o'zgarib bormoqda

Fermer va dehqon xo'jaliklari o'zlarining mahsulotlariga dastbalki baholarni belgilashda quyidagilarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- ♦ mahsulotlarni yetishtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarining baholari, ularning darajasiga. Hozirgi davrda ular erkin bozor baholarida sotilmoqda. Lekin ularni belgilashda respublika sharoitida monopol holat mavjud. Masalan, respublikamizda traktorsozlik, mashinaasozlik zavodlari yakkahokim. Demak, shu masalani hal etishda davlatning roli bo'lishi maqsadga muvofiqdir;

- ♦ mahsulotlarni yetishtirish hamda sotish jarayonlaridagi munosabatlar natijasiga;

- ♦ dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini qayta ishlash va sotish jarayonlaridagi munosabatlarning oqibatlariga va boshqalarga.

Hozirgi davrda tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxlari tarkibida o'g'itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yog'lovchi materiallarning, elektroenergiya hamda asosiy vositalar amortizatsiyasining salmog'i 45-55 foizni tashkil etmoqda.

Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlari narxining shakllanishida sanoat tovarlariga (texnika, o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari, zaharli kimyoviy moddalar va b.) narxlar hamda transport tariflari alohida rol o'ynaydi. Bu narxlarning ortishi dehqon va fermer xo'jaliklarida narx o'sishiga olib keladi (16.4.1-jadval).

16.4.1-jadval

Qashqadaryo viloyati dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan 1 tonna mahsulotning o'rtacha sotish bahosi (ming so'm)

Ko'rsatkichlar	2005	2008	2010	2011	2012	2013	2014
Paxta	298,0	465,8	552	757	842,7	938,0	12296,5
G'alla	103,1	214,2	243	295	338,5	485,0	614,0
Meva	70,2	216,0	350,9	608	710	850	968
Uzum	89,4	355,0	650,4	526	705	880	998
Kartoshka	8,0	181,6	398,8	642	815	875	945
Sabzavotlar	47,0	140,0	200,0	446	545	625	710
Poliz	36,9	122,9	200,1	331	402	520	665
Go'sht (tirik vaznda)	1327	2400	5700	7543	9545	1265	1478
Sut	129,4	446,6	420,0	599	750	835	935
Tuxum, ming dona	56,9	125,7	221	278	305	330	350

Manba: Qashqadaryo viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tarmoqdagi erkin (shartnoma) baholarning mutlaq (absolyut) miqdori qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalari baholarining o'sishi, mahsulotlarga nisbatan talabning oshishi natijasida so'nggi yillarda o'zgarib bormoqda.

16.5. Sanoat mahsulotlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari o'rtasidagi nomutanosibliklar

Bozor sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yuqori samaradorligi faqat baho va baholarni shakllantirishning iqtisodiy asoslangan tizimi mavjud bo'lgandagina mumkin, chunki baholar nafaqat bozor muvozanatiga, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va har bir tovar ishlab chiqaruvchining iqtisodiy imkoniyatlari muvozanatiga ham bog'liq.

Dehqon va fermer xo'jaliklari uchun realizatsiya (sotish) baholari daromad olishga va takror ishlab chiqarishga imkon berishi muhim. Biroq, hozir dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlari va oziq-ovqatlarning ko'plab turiga hamma vaqt ham rentabellikning zarur darajasini ta'minlayvermaydigan, ko'pincha, ayniqsa, chorvachilikda sarflangan mehnatga haq to'lash va moddiy xarajatlarni to'ldirish imkonini bermaydigan narxlar amalda bo'ladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalariga taqqoslanganda, o'ta nomutanosib baholar uyzaga keladi. 1990-2009 yillar uchun sanoat mahsulotlari bahosi 25,6 marta o'sdi, qishloq xo'jaligi mahsulotlariniki esa 7,8 marta ortdi, xolos. Shu tariqa narxlar dispariteti paydo bo'ldi va chuqurlashdi.

Disparitet, shu darajaga yetdiki, dehqon va fermer xo'jaliklarining va sanoat mahsulotlarining avvalgi shakllangan narxlar nisbatini hatto uzoq muddatda ham davlatning aralashuvisiz tiklashning ilojisi bo'lmay qoldi. Shuning uchun dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarining bahosini tartibga solishda davlatning roli ortishi kerak.

16.6. Davlat buyurtmalariga o'rnatiladigan baholar. Dotatsiya va subsidiyalar

Agrar sohada amalga oshirilayotgan narx islohoti dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga yo'naltirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 avgustdagi "Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida"gi Farmoniga asosan davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xom-ashyosining narxini jahon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.

Bugungi kunda jahon bozorida paxta tolasi narxlarining birmuncha yuqori ekanini inobatga olgan holda, narx bo'yicha yuzaga kelgan ijobiy farqning 25 foizini fermer xo'jaliklariga to'lab berish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2012 yil davomida fermer xo'jaliklariga yo'naltirilgan ijobiy farq summasi 218627,0 mln. so'mni tashkil etdi. Bu holat jahon bozorida qulay konyunktura vujudga kelgan yillarda fermer xo'jaliklarining barqaror daromad olishlari uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxlarini esa mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi. Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

Davlatning xarid baholari 2010-2014 yillarda paxta xomashyosi boyicha 22,2 marta, boshqoli don mahsulotlariniki esa 2,5 martaga oshgan. Paxta xomashyosi xarid narxlarining sanoat navlari, sinflari hamda tolasining tiplari boyicha ham belgilanadi. Jumladan, o'rta tolali paxta navi ham ashyosining 1-navi 2 sinfga taalluqli bo'lib, tolasining tipi IV bo'lganda xarid narxi VII tipdagiga nisbatan 23,5 foizga yuqori. Paxta tolasining IV tipi I sanoat navlarining xarid bahosi IV tipga nisbatan 2,1 marta yuqori o'rnatilgan. Demak, sifatni e'tiborga olgan holda baholarning mutlaq miqdori bir-biridan anchaga farq qiladi.

Paxta tolasining o'rtacha jahon bahosi asosan Nyu-York hamda Liverpool xomashyo tovar birjalaridagi savdoda belgilanadi. 1990-2002 yillarda paxta tolasining jahon bozoridagi bahosi salkam 40 foizga, bug'doy bilan guruchning bahosi esa 8-12 foizga pasaygan. Bunday hol shuning uchun roy berdiki, talabni o'rindoshlik mahsulotlari tolasiga talab mavjudligi bilan qondirish ancha marakkab, lekin paxta tolasining o'rnini boshqa mahsulotlar bilan qondirish imkoniyati ancha yuqori.


2005 yildan boshlab respublikamiz poytaxi Toshkent shahrida «Paxta yarmarkasi» tashkil etildi. 2012 yil mamlakatimiz fermer xo'jaliklari tomonidan 3,450 mln. tonna paxta hosili etishtirildi. Har yili Toshkent shahrida «Paxta yarmarkasi» bo'lib o'tdi. Bunda 30-40 mamlakatdan 200 ta vakillar kelib, paxta tolasi uchun shartnomalar imzolaydilar.

Dehqon va fermer xo'jaliklari o'zi ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida yetishtirilgan mahsulotlarining ma'lum bir qismini qayta ishlaydilar (urug'lik, em, ovqatlanishga). Bu jarayonda qatnashadigan mahsulotlar ichki munosabatlarni hisobga olgan holda tannarxlarini boyicha beriladi. Shuning uchun bunday baholar tannarx baholari ham deyiladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ma'lum miqdordagi ortiqcha mahsulotlarini fuqarolarga chakana baholarda sotishlari mumkin. Har bir fuqaro o'zi xohlagan miqdordagi mahsulotlarni erkin bozorlardan, do'konlardan sotib olishi mumkin. Bu jarayonda foydalanilgan baholar chakana baholar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 5 noyabrda qabul qilingan «Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko'rsatish maqsadida Davlat budjetida hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar ajratish, Moliya vazirligiga har yili Davlat budjeti loyihasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga yer solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan mablag'lar ajratish vazifasi yuklatildi.

Mazkur qarorga muvofiq, ball boniteti past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom-ashyosi yetishtirish bilan shug'ullanayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar qiymati 2008 yildagi 60 milliard so'mdan 2012 yilda 160 milliard so'mga oshdi (16.6.1-rasm).



16.6.1-rasm. Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat budjetidan ajratilayotgan subsidiyalar qiymati (milliard so'mda)

Ushbu mablag'lar fermerlarning xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi tashkilotlar oldidagi qarzlarini qisqartirishda salmoqli manba bo'lmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi mahsuloti deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi mahsulotlar qanday turlarda hisobga olinadi?
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi mahsulotning tarkibi qanday?
4. Dehqon va fermer xo'jaliklarining tayyor mahsuloti deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday mahsulot tovar mahsuloti deb ataladi?
6. Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarining tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
7. Yalpi va tovar mahsulotlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati qanday?

XVII Bob. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARIDA TAYYORLOV TIZIMI VA UNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

Reja:

- 17.1. Tayyorlov tizimining mohiyati, ahamiyati va vazifalari
- 17.2. Dehqon va fermer xo'jaliklari va tayyorlov tizimi korxonalari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar
- 17.3. Tayyorlov tizimini rivojlantirish muammolari

O'quv maqsadi: *dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatida tayyorlov tizimining ahamiyati, mohiyati va vazifalarini, ishlab chiqaruvchilar bilan tayyorlov tizimi korxonalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni va tayyorlov korxonalarining muammolarini o'rganishdan iboratdir.*

Tayanch iboralar: *tayyorlov tizimi, oziq-ovqat konveyeri, bevosita va bilvosita aloqalar*

17.1. Tayyorlov tizimining mohiyati, ahamiyati va vazifalari

Ma'lumki, moddiy ishlab chiqarish jarayoni faqat unumdor (ishlab chiqaruvchi) mehnatning amal qilishi emas. Bizning holatimizda mahsulotni sotish boyicha qilingan mehnat kabi unumsiz (noishlab chiqaruvchi) mehnat ham uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mehnatning bu ikki ko'rinishi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Unumli (ishlab chiqaruvchi), mehnat bilan band bo'lgan shaxslarning unumsiz (noishlab chiqaruvchi) vazifalari qancha kam bo'lsa, mehnat shunchalik unumdor bo'ladi. Shu jihatdan dehqon va fermer xo'jaliklarida sotish boyicha asosiy bo'lmagan ikkilamchi vazifalarni unumdor mehnatdan ajratish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim sharti bo'lib qoladi. Mahsulotni sotish boyicha mehnat esa takror ishlab chiqarishadining boshqa ishtirokchilarning vazifasi bo'lishi kerak.

Zamonaviy sharoitlarda shu narsa alohida ma'lum bo'lmoqdaki, dehqon va fermer xo'jaliklarining bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarish, ham sotish bilan shug'ullanishi endilikda asoslangan hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ishlab chiqarishning oqilona tashkil etilishi va boshqarilishi vazifalari tobora qiyinlashmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish intensivlashtirish va kontsentratsiyalash asosida rivojlanmoqda. Bu jarayonlarning o'zi juda murakkab va maxsus e'tibor va sa'y-harakatlar talab qiladi.

Qishloq xo'jaligining u yoki bu sohasidagi rahbar va mutaxassis bevosita ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish boyicha tobora ko'proq hajmdagi ishlarni bajarishi lozim. Agar bunda bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish va sotish masalalarini hal qilishga to'g'ri kelsa, ko'pincha rahbar qay birini afzal ko'rish kerak, degan savolga (tanlovga) duch keladi. Chunki aynan shu yerda ishlab chiqarib bo'lingan mahsulotning buzilishi va nobud bo'lishi roy beradi va bu bosqichda u (sotish) murakkabroq (qiyinroq, chigalroq) bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarishning ko'p tomonlari boy berilishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligidan dehqon va fermer xo'jaliklari tarmoqlarning ajralib chiqishi uning rivojlanish darajasi bilan doim mos holda roy

bergan. Fermer xo'jaliklari o'z rivojida yangi pog'onaga ko'tarilishi bilanoq, avval u uchun majburiy hisoblanmagan ba'zi vazifalar bilan shug'ullanish qiyin bo'lib bordi.

Bu sohaning rivojidadagi yangi bosqich unga avval xos bo'lgan ba'zi vazifalar, bizning holda mahsulot sotishning ajralib chiqishi haqidagi masalani yana ko'tardi. Shu narsa kutiladiki ta'minot va sotish xizmatlarni mustaqil bo'limlarga ajratish, ishlab chiqarish omillarini boshqarish foydasiga dehqon va fermer xo'jaliklarini boshqarish usulini tubdan o'zgartiradi.

Bunday tizimda ixtisoslashgan texnologik va funktsional xizmatlar yaratiladi. Agronomik, zootexnik va boshqa xizmat turlari mustaqil xizmatlarga bo'linadi. Bu xizmatlarni bosh mutaxassislar boshqaradi. Ammo bu narsa maxsus ta'minot va sotish xizmatlarini yaratishni taqozo etadi. Qisqacha aytganda, ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish masalalarini tubdan hal qilishda qayta qurish va boshqa xizmatlarning, shu jumladan, sotish va ta'minot xizmatlarining ajralib chiqishi talab etiladi.

Ba'zan maxsus xizmatlarni tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi haqida shubha tug'iladi, chunki bu ma'muriy-boshqaruv personalining soni oshishi bilan bog'liq. Lekin bu masalaning echimi boshqarish progressiv tizimining o'zidan topiladi. Boshqarishning chekli tuzilmasida funktsional aloqalar qisqaradi. Boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuv darajasi oshadi, ishlab chiqarish bo'limlari soni kamayadi va mutaxassislarning xizmat ko'rsatish zonasi kengayadi. Bularning barchasi boshqaruv xodimlarining soni qisqarishiga olib keladi. Shu rezerv hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish boyicha maxsus xizmatlar tashkil qilinishi kerak.

Ishlab chiqarish va sotish faoliyatlarini ajratish zarurati yalpi va tovar mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi va uni realizatsiya qilishning bir qator tashkiliy va iqtisodiy sharoitlari o'zgarishi faktidan kelib chiqadi. Avvalo, ba'zi mahsulot turlarini yetkazish masofasi o'zgaradi, bu esa differentsial renta I ning shakllanishiga tubdan katta ta'sir ko'rsatadi. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yo'llar, magistrallar, qayta ishlovchi korxonalar va tayyorlov bazalariga nisbatan joylashuvi omili mahsulot realizatsiyasi boyicha transport va boshqa xarajatlarning darajasini belgilaydi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining joylashuvi xo'jalik yuritish sharoitlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirda sotish joyidan uzoqda joylashgan xo'jaliklar realizatsiya boyicha katta transport xarajatlari qilmoqdalar. Aksincha, yaqin joylashgan xo'jaliklar asoslangan ustunlikka ega. Ko'rsatib o'tilgan holat raqobatga teng sharoitlar yaratish muammosi ichida dolzarblaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayonlari ajralishi bilan alohida xo'jaliklarning joylashuvi boyicha differentsial renta olish sharoitlari bekor qilinadi (yo'qoladi), yagona tayyorlov tashkiloti tashkil etilishi bilan esa uni jamiyat manfaati yo'lida ishlatish imkoni tug'iladi. Dehqon va fermer xo'jaliklarining ba'zi sohalaridagi ixtisoslashuv va kontsentratsiya darajasi pastligi tayyorlov idoralari ishini qiyinlashtirmoqda. Bu esa bevosita aloqalarning rivojini qiyinlashtiradi, xo'jaliklarning sezilarli qismida mahsulot tayyorlashni murakkablashtiradi va hatto, amalda bu mumkin bo'lmay qoladi. Shunday qilib, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kontsentratsiyalashuvini ahamiyati tor bir tarmoq (soha) doirasidan chiqadi. Bu omillar mahsulot tayyorlashni oqilona tashkil qilishning eng muhim sharoiti va oxir-oqibat mahsulot ishlab chiqarishdan pirovard iste'molchigacha harakatlanishining

barcha texnologik va tashkiliy zanjirini samarali boshqarish sharti sifatida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishning kontsentratsiyasi va ixtisoslashuv darajasini oshirish nafaqat zagotovkani tartibli amalga oshirishga, balki arzonroq mahsulotni sotib olishga ham imkon beradi.

Shunday qilib, tayyorlov tizimining ahamiyati dehqon va fermer xo'jaliklari tarmoqlanishi bilan oshib boradi. Shu jihatdan bu tizim zamonaviy, ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi, progressiv shakllari tomonidan qoyilayotgan kelajakdagi talablarga ham javob berishi juda muhim. Zamonaviy sharoitlarda bunday talablarning kuchayishi agrosanoat kooperatsiyasi (hamkorligi) jarayoni ishlab chiqarishni yangi tashkiliy shakli sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq holda kuzatilmoqda.

Hozirda dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini etkazish uchun zarur bo'lgan avtomashinalar o'rniga ishloq xo'jaligi korxonalari ko'proq ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan traktorlar, kombaynlar, o'g'itlar va boshqa vositalarni sotib olishlari mumkin.

17.2. Dehqon va fermer xo'jaliklari va tayyorlov tizimi korxonalari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar

Keyingi paytlarda tayyorlov tizimini takomillashtirish muammosi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Lekin mahsulotlar sotish bilan bog'liq kamchiliklar ham to'liq bartaraf etilgani yo'q. Iqtisodiy adabiyotlarda ular faqat rejalashtirishdagi noto'g'ri hisob-kitob bilan bog'liq tarzda izohlanadi. To'g'ri mahsulotlarni sotish bilan bog'liq no'qsonlar sodir bo'lishiga noto'g'ri hisob-kitoblar ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatayapti, ammo ular asosiy sabab emas. Mavjud uzilishlar, agar aytish joiz bo'lsa, o'sish va ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklar hisoblanadi. Rivojlanayotgan ishlab chiqarish ko'pgina yangi masalalarni (jumladan, mahsulot sotish sohasida ham) ilgari suradi. Butun ishlab chiqarish jarayoni barcha bosqichlarda bir tekis rivojlanishini taqozo qilganda, ham oraliq, ham pirovard mahsulotni ishlab chiqarish boyicha tuzilmaviy bo'g'inlar orasidagi iqtisodiy munosabat va aloqalar yuksakroq darajaga ko'tarilganda bu masalalarning dolzarbligi ortadi.

Yangi aloqalar nafaqat mahsulot yaratganda, balki uni iste'molchigacha harakatlantirishda ham vujudga keladi. Bu esa ularning amaliy realizatsiyasini nazarda tutadi. Bunday realizatsiya almashuv munosabatlarini takomillashtirishda namoyon bo'ladi. Tayyorlov tizimining amaldagi yangi sifat darajasi realizatsiya qilinadigan mahsulotni hisoblash tizimi bilan ham bog'langan. An'anaviy jihatdan dehqon va fermer xo'jaliklaridan davlat tayyorlash tizimiga keltirilgan va odatda, natural ko'rinishda bo'lgan mahsulot tayyorlanadigan mahsulot hisoblanadi.

Bunday yondashuvga ko'ra, qisqa kuz davrida barcha o'simlikchilik mahsulotlarini bir vaqtning o'zida yig'ishtirish va tashish lozim. Bu ish kunidan foydalanishda tig'izlikka, barcha turdagi transport vositalarni transportning barcha turlarini me'yordan ortiq ishlatilishiga olib keladi. Tayyorlov tizimi esa bu davrda uzluksiz keltirilayotgan ko'p miqdordagi mahsulotni doim ham qayta ishlay olmaydi. Oqibatda mahsulot nobud bo'ladi, sifati pasayadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida omborlar qurilsa, ba'zi turdagi mahsulotlarni yig'ishtirib olib, shaharlarga – tayyorlov tashkilotlariga jo'natish zarurati yo'qoladi. Muayyan mahsulot (don, sabzavot, meva va h.)larning bir qismi xo'jaliklarning o'zida saqlanishi va zarur holda iste'mol joyiga jo'natilishi mumkin. Ta'kidlab o'tamizki,

tayyorlov ishlarini tashkil etishning bunday shakli ancha katta foyda keltiradi. Chunonchi:

birinchidan, tayyorlov jarayonidagi tig'izlikni kamaytiradi, transportga ehtiyojni pasaytiradi, mahsulotning oqilona ishlatilishini ta'minlaydi, pirovard natijada xomashyo va iste'mol fondlari hajmini oshiradi;

ikkinchidan, agrosanoat integratsiyasi, dehqon va fermer xo'jaliklarining bevosita o'zida qayta ishlash quvaatlari rivoji ba'zi turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nafaqat natural xolida, balki qayta ishlangan ko'rinishda ham sotish masalalarini hal etadi. Bu pirovard maqsadlarga muvofiq keladi.

Amaliyotda esa mahsulotlarni qayta ishlash boyicha ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan hududlardagi ko'pgina dehqon va fermer xo'jaliklari o'z mahsulotlarini natura ko'rinishida sotishayapti. Masalan, «Buxoroteks» AJ paxta tolasi yetishmasligi tufayli to'la quvvat bilan ishlaymagan. Bu holat tayyorlov ishlarini rejalashtirish amaliyotida hisobga olinishi lozim.

Yarimfabrikatlar, konservalar va hokazolarga ishlatilgan mahsulotlar savdo tashkilotlariga qayta ishlangan holda sotilishi lozim. Bu savdoda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining assortimentini kengaytiradi, bu qolaversa, yordamchi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xo'jaliklararo kooperatsiya asosida ixtisoslashuv ko'p tarmoqli xo'jaliklar tugatilishiga olib keladi. Tor ixtisosdagi xo'jaliklar endilikda mahsulot sotish masalalarini hal qiladigan birlashmaga kiradilar. Bunday tashkilotda vazifaning bo'linishi kabi holat yuz beradi. Dehqon va fermer xo'jaliklari – mahsulotni ishlab chiqarish, birlashma – uni sotish haqida bosh qotiradilar. Bu uzoq muddatli aloqalarni o'rnatishga o'tish uchun imkon beradi, u esa tayyorlov jarayonlarini tashkil qilishning butun tizimini tubdan yaxshilaydi.

Realizatsiya jarayonidagi bevosita aloqalarning keyingi rivoji qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi zamonaviy jarayonining boshqa ob'ektiv talablari tomonidan ham taqozo qilinadi. Realizatsiya jarayonida bevosita aloqalar tizimi dehqon va fermer xo'jaliklari va agrosanoat birlashmalarining mustaqilligini ifodalash shakllaridan biri hisoblanadi. Bevosita aloqalar orqali iste'molchi ishlab chiqarish jarayoniga yanada tezkor ta'sir o'tkazish imkoniga ega bo'ladi.

Bevosita aloqalarning iqtisodiy mohiyati shunda ko'rinadiki, ular mahsulot sotishning katta kafolatini yaratish bilan dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlari xarid narxiga kiritilgan barcha potentsial imkoniyatlarni yuzaga chiqarishning xolisona belgilari hisoblanadi, shu tariqa ishlab chiqarish unumdorligi oshishining eng muhim omili sifatida ishtirok etadi.

17.3. Tayyorlov tizimini rivojlantirish muammolari

Dehqon va fermer xo'jaliklarining u yoki bu sohasidagi rahbar va mutaxassis bevosita ishlab chiqarishni tashkil etish, uni boshqarish bo'yicha tobora ko'proq hajmdagi ishlarni bajarishi lozim. Agar bunda bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish va sotish masalalarini hal qilishga to'g'ri kelsa, ko'pincha rahbar qay birini afzal ko'rish kerak, degan savolga (tanlovga) duch keladi. Chunki aynan shu yerda ishlab chiqarib bo'lingan mahsulotning buzilishi va nobud bo'lishi ro'y beradi va bu bosqichda u (sotish) murakkabroq (qiyinroq, chigalroq) bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarishning ko'p tomonlari boy berilishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligidan tarmoqlarning ajralib

chiqishi uning rivojlanish darajasi bilan doim mos holda ro'y bergan. Qishloq xo'jaligi o'z rivojida yangi pog'onaga ko'tarilishi bilanoq, avval u uchun majburiy hisoblanmagan ba'zi vazifalar bilan shug'ullanish qiyin bo'lib bordi.

Oziq – ovqat mahsulotlari (meva – sabzavot, go'sht, sut, tuxum va boshqalar) asosan dehqon xo'jaliklarida yetishtirilib, bu turdagi mahsulotlarni qayta ishlash va tayyorlash bilan bog'liq ishlar xususiy yoki qo'shma korxonalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda sabzavotning 12- 15 foizi, meva va uzumning 18 – 20 foizi, sut va go'shtning 13 – 15 foizi qayta ishlanib, bozorga chiqarilmoqda yoki umumiy holatda qariyb 80 – 85 foizi mahsulot yangi uzilgan holda iste'mol qilinmoqda. Ma'lumki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bir qismi takror ishlab chiqarish uchun qishloq xo'jaligining o'zida ishlatiladi, ma'lum bir qismi qayta ishlashga va qolgan qismi aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun iste'molga yo'naltiradi va ichki iste'mol talabini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni bozor muvozanatida ushlab turish maqsadida respublikamiz hududlarida meva-sabzavot mahsulotlarini zaxiraga qo'yish bo'yicha omborlar va muzlatkichli kameralar xizmat ko'rsatish tashkil etilib, aholiga sifatli mahsulotlar yil davomida yetkazib berilmoqda.

Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash va sotish tizimini bir – biriga yaqinlashtirish va tarkibiy bog'liq tizimni shakllantirish maqsadida ulgurji va dehqon bozorlari, agrofirmalar, savdo uylari kabi yangi shakladagi sub'yektlar tashkil qilinib, rivojlana boshlandi.

Respublikamizda dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini qayta ishlash sohasini rivojlantirish pirovard natijada:

- mahsulotlarni uzoq muddat saqlashga erishish;
- mahsulotlarni uzoq masofaga, jumladan, eksport qilish maqsadida transportda tashish;
- mahsulotlarning nobud bo'lishini kamaytirish;
- mahsulotlar pishib etiladigan qisqa davrda ularni sotish olish va narx-navosi tushib ketishining oldini olish;
- mahsulotlarni qayta ishlash natijasida qo'shimcha ishchi o'rinlarni yaratish va daromad miqdorini oshirilishiga erishiladi.

Darhaqiqat, Qashqadaryo viloyatida 2014 yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, qayta ishlash korxonalariga yetkazilganligi va aholi iste'moli uchun hamda sog'liqni saqlash korxonalariga tuzilgan reja asosida yetkazib berilganligi 10-11-12-ilovalarda o'z aksini topgan. Bunda yetishtirilgan jami mahsulotning 10,8 foizi qayta ishlash korxonalariga, 0,25 foizi eksportga, 8,7 foizi sohliqni saqlash va ta'lim muassasalari korxonalariga, 28,05 foizi esa ichki bozorlarga sotilgan va ichki iste'mol uchun esa 45 foizi yo'naltirilgan (10-11-12-ilovalar).

Respublikamiz ASMDa dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimining uzviy bog'liqligini ta'minlash asosida butun majmuaning iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagi chora- tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- bozor tamoyillari va iqtisodiyotni erkinlashtirish talablaridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash infratuzilmasini

rivojlantirishga qaratilgan yangi huquqiy – me'yoriy xujjatlarni qabul qilish, amaldagilarni takomillashtirish;

- fermer va dehqon xo'jaliklari uchun zarur bo'lgan moddiy- texnika vositalari va aylanma mablag'larni sotishga ixtisoslashgan maxsus ulgurji – chakana savdo do'konlarini tashkil etish va rivojlantirish, ularni respublikamizda va xorijda ishlab chiqarilgan resurslar bilan tanishtirish va tegishli maslahatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan hududiy ko'rgazmalarni doimiy tashkil etish;

- fermer va dehqon xo'jaliklari bilan tayyorlov va qayta ishlash korxonalari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, jumladan, to'g'ridan – to'g'ri shartnomalar tuzishni rag'batlantirish asosida bo'naklash va yakuniy hisob – kitoblar tizimini takomillashtirish;

- fermer xo'jaliklari tomonidan mahsulotlarni saralash va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, qayta ishlash korxonalarini tashkil etilishini iqtisodiy rag'batlantirish maqsadida imtiyozli kredit ajratish, xorijdan texnologiya va asbob – uskuna olib kelish bilan bog'liq jarayonlarni erkinlashtirish;

- respublikamizda dehqon va fermer xo'jaliklari hamda agrofimlar o'rtasida ko'ngilli va ixtiyoriy birlashish asosida kooperasiya munosabatlarini tashkil etish, shuningdek, ular tomonidan shartnoma asosida olib kelinayotgan mini texnologik tseklar, qurilma va asbob uskunalarga imtiyozlarni doimiy belgilash;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini erkinlashtirish maqsadida uni iqtisodiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, eksport bilan bog'liq tizimdagi hujjatlashtirish jarayonlarini, ayniqsa ruxsatnoma olish, litsenziyalashtirish va sertifikatlashtirish bilan bog'liq tizimini soddalashtirish;

- oziq-ovqat mahsulotlari eng avvalo meva-sabzavot va chorva mahsulotlarining marketingini rivojlantirish asosida mamlakatda etishtirilayotgan mahsulotlar turi va hajmi, narx-navosi bo'vicha choraklik va yillik haqiqiy va istiqbol ko'rsatkichlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni doimiy ravishda tarmoq matbuotida chop etib borish.

Ushbu tadbirlar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, jumladan meva – sabzavotning 35 – 40 foizi, uzumning 50 foizi, sutning 30 foizi va go'shtning 40 foizining qayta ishlanishi, qishloq hududlarida yangi ishchi o'rinlarini yaratish va qo'shimcha daromad ko'payishini ta'minlaadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishida mahsulotlar tayyorlovi qanday ahamiyatga ega?

2. ASMDa tayyorlov tizimining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Tayyorlov tizimining iqtisodiy samaradorlik darajasiga va rivojlanishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

4. Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini realizatsiya qilishning eng maqbul kanallarini ayting?

5. dehqon va fermer xo'jaliklari hamda tayyorlovchi o'rtasidagi bevosita aloqalarni tashkil etishning afzalliklari nimalardan iborat?

6. Bevosita aloqalarni tashkil etishda qanday masalarga e'tibor berish zarur?

XVIII-Mavzu. DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING FOYDA VA DAROMADLARI, ULARNING SHAKLLANTIRILISHI VA OQILONA TAQSIMLANISHI

Reja:

- 18.1. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va pul daromadlar, foydalari, ularni shakllantirilishi
- 18.2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va sof pul tushumi hamda ularni ko'paytirish imkoniyatlari
- 18.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi daromadini va pul tushumini maqsadga muvofiq taqsimlash
- 18.4. Xo'jaliklarda foydani ko'paytirish yo'llari

O'quv maqsadi: *fermer va dehqon xo'jaliklarining yalpi va pul daromadlari, foydalari, ularni shakllantirish hamda ko'paytirish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan yoritib berishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *yalpi va pul daromadi, foyda, sof foyda, rentabellik darajasi, tannarx*

18.1. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va pul daromadlar, foydalari, ularni shakllantirilishi

Xo'jaliklar va ularning ishlab chiqarish bo'linmalari o'lchamining asosiy ko'rsatkichlari sifatida yalpi mahsulot qiymatini hisoblash lozim bo'ladi. Bu ko'rsatkich xo'jaliklarning ixtisosi joylashuvi, ishlab chiqarishining jadalligi va boshqa o'ziga xos xususiyatlariga qaramay, o'lchami bo'yicha taqqoslashga imkon beradi. Xo'jaliklar o'lchamlarini dinamikada taqqoslash uchun yalpi mahsulotni taqqoslama narxlarda, boshqa holatlarda esa joriy narxlarda ham aniqlash mumkin.

Xo'jaliklarning yuqorida sanab o'tilgan o'lchamlari ko'rsatkichlaridan qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin. Tovar (realizatsiya qilingan) mahsulotlar qiymati ma'lum darajada xo'jaliklarning butunicha o'lchami xarakteristikasi uchun zarur, lekin ishlab chiqarish bo'linmalari o'lchamlarini aniqlashda bu ko'rsatkichlardan foydalanilmaydi. Dehqon va fermer xo'jaliklari hamda uning bo'linmalari o'lchamini ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tabiiy holda ifodalangan hajmi bo'yicha aniqlash mumkin. Shu bilan birga mahsulot ishlab chiqarish hajmi natural holda ham, qiymat ko'rinishida ham natijaviy ko'rsatkichdir. Unga qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi, ekin maydonlarining hajmi, chorva mollarining mahsuldorligi, chorva mollari bosh soni va boshqalar ta'sir qiladi.

Mahsulotlarning realizatsiya qilish hisobiga foyda olish rejasining muvaffaqiyatli bajarilishi o'z navbatida xo'jaliklarning moliyaviy holati barqaror bo'lishini taminlaydi. Demak ishlab chiqarishning moliyaviy ishlariga, natijalariga shu jumladan mahsulotlarning rentabellik darajasining bajarilishiga realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi va mahsulotlarning sifati bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun ham realizatsiya qilingan mahsulotlarning rentabellik darajasi asosan xo'jaliklarning yaxshi yoki yomon yuritilishiga, mahsulot tannarxining qanday hosil bo'lishiga va ishlab chiqarish xo'jaliklar faoliyatining foyda yoki zarar ko'rishiga bog'liqdir.

Dehqon va fermer xo‘jaliklarining yalpi daromad – yetishtirilgan mahsulotni puldagi ifodasi bo‘lib, bugungi kunda uning hajmi yildan-yilga o‘tib bormoqda.

Dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyati va ishlab chiqarishiga biologik jarayon va iqlim sharoitlari turlicha ta‘sir etadi.

Mehnat unumdorligi. Bu ko‘rsatkich dehqon va fermer xo‘jaliklarida mehnatning samaradorligini ko‘rsatadi. Dehqon va fermer xo‘jaliklarida o‘rtacha yillik xodim, sarflangan kishi-kuni, kishi-soatiga etishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi daromad miqdori bilan ifodalanadi.

Mahsulot tannarxi - bu ko‘rsatkich ishlab chiqarishga va dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatiga iqtisodiy baho berishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bir yilda yetishtirilgan mahsulotga qancha joriy xarajatlar qilinganligini ifoda etadi. Dehqon va fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning samaradorligini tahlil etishda ishlab chiqarishning asosiy resurslari (omillari) bo‘lgan asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishni ifoda etuvchi ko‘rsatkichlardan ham foydalanish mumkin.

Dehqon va fermer xo‘jaliklarining 1 ga qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlariga yetishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi daromadi, 1 so‘mlik asosiy va aylanma fondlari hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot (fond qaytimi) yoki 1 so‘mlik yalpi mahsulotga to‘g‘ri keladigan fondlar (fond sig‘imi) aylanma fondlarning aylanish koeffitsienti va hokazolar.

Foyda ko‘rsatkichi - dehqon va fermer xo‘jaliklari tomonidan uning mablag‘laridan foydalanishni to‘la va har tomonlama aks ettiradi. Dehqon va fermer xo‘jaliklari o‘zlari yetishtiradigan mahsulotlarni o‘zlari sotib foyda oladilar. Binobarin ana shu mahsulotlarning realizatsiyasi dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun foyda manbaidir.

Dehqon va fermer xo‘jaliklarning tarmoqlaridan olinadigan foydaning oshishi mahsulot sifatini yaxshilanishiga, tannarxning pasayishiga, ishlab chiqarish hajmining kengayishiga bog‘liqdir.

Xo‘jaliklarning moliyaviy natijalari samaradorligini yanada yaxshilash uchun xo‘jaliklar ayniqsa ayrim mahsulot turlarini realizatsiya qilishning rentabelligini to‘g‘ri aniqlashi kerak. Ayrim mahsulot turlarini realizatsiya qilishning rentabellik ko‘rsatkichlari har qaysi mahsulot turini yetishtirish xarajatlarining samaradorligini ko‘rsatadi, davlatning fermer xo‘jaliklaridan sotib olinadigan mahsulotlariga to‘g‘ri narx qo‘yish va ishlab chiqarishning kelgusida rivojlanishi uchun aniq choralar belgilash imkonini beradi.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni amaliyotda, Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi «Ro‘ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini tahlil qilishdan ko‘rib chiqamiz (18.1.1-jadval).

18.1.1-jadval

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani «Ro‘ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo‘jaligida dehqonchilik mahsulotlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar			2014 yil 2012 yilga nisb. O‘zg. (+;-) da
			2012	2013	2014	
1	Paxta ekin maydoni	ga	20	20	20	-

2	Paxta xosidorligi	s/ga	26.0	27.0	26.5	0,5
3	Yalpi xosil	s	520.0	540.0	530.0	10,0
4	Paxtadan kelgan daromad	ming so'm	43160	50760	60897	17737
5	Paxtaga qilingan xarajat	ming so'm	40716	49572	50986	10270
6	Paxtadan olingan foyda	ming so'm	2444	1188	9911	7467
7	Rentabellik darajasi	%	6,0	2,4	19,4	13,4
8	G'alla ekin maydoni	ga	20	20	20	-
9	G'alla hosidorligi	s/ga	30,0	28,0	26,0	-4,0
10	Yalpi xosil	s	600	560	520	-80,0
11	G'alladan kelgan daromad	ming so'm	23880	27160	31616	7736
12	G'allaga qilingan xarajat	ming so'm	18180	18984	26364	8184
13	G'alladan olingan foyda	ming so'm	5700	8176	5252	-448
14	Rentabellik darajasi	%	31,4	43,1	16,6	-14,8

Manba: Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jaligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlari tahlilidan ko'rinib turibdiki, paxtadan kelgan daromad 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 17737 ming so'mga yoki 141,0 foizga oshgan, xarajatlar ham 10270 ming so'mga yoki 125,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Paxtadan olingan foyda 2012 yilda 2444 ming so'mni, 2013 yilda 1188 ming so'mni, 2014 yilda esa 9911 ming so'mni tashkil etib, 2014 yilda rentabellik ko'rsatkichi 13,4 foizga oshganligini ko'rish mumkin. 2012-2013 yillarda esa paxta rentabelligi atigi 2,4-6 foizga teng bo'lgan xolos. G'alla mahsulotining sotishdan kelgan daromad 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 7736 ming so'mga yoki 132,4 foizga oshgan. Xarajatlar ham 8184 ming so'mga yoki 145,0 foizga oshgan. Shuning uchun g'alladan olingan foyda 448 ming so'mga kamayib, rentabelligi ham 14,8 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Demak, kelgusida xo'jalikda yetishtiriladigan mahsulotlarning daromadini oshirish uchun mahsulot tannarxini kamaytirish lozim bo'ladi va orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib kelinadi.

Foyda va foydalilik – dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko'rsatkichidir. Hozir amalda qo'llanilayotgan nizomga ko'ra, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati moliyaviy natijalarini shakllantirishda foydaning quyidagi ko'rsatkichlari qo'llaniladi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda. Bu mahsulotlarni (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YAF = CCT - IT;$$

Bunda: YAF - yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda. Bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va pluys qo'shimcha asosiy faoliyatidan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

$$AFF = YAF - DX + BD - BZ$$

Bunda: AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar.

Bu asosiy faoliyatidan olingan foyda so'mmasi pluys moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va minus ko'rilgan zararlar sifatida aniqlanadi.

$$UF = AFF + MD - MZ$$

Bunda: UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD – moliyaviy faoliyatidan olingan daromad;

MZ – moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlar.

4. Soliq to'langungacha olingan foyda. Bu umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda pluys favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlaridan ko'rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

$$STF = UF + FF - FZ$$

Bunda: STF – soliq to'langungacha bo'lgan foyda;

FF – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ – favqulodda vaziyatlarda ko'rilgan zarar.

5. Yilning sof foydasi. Bu soliq to'lagandan keyin dehqon va fermer xo'jaliklari ixtiyorida qoladigan va mustaqil tasarruf etadigan foyda. Uni soliqlar to'langunga qadar bo'lgan foydadan, daromaddan soliqni hamda qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi.

$$SF = STF - DS - VS$$

Bunda: SF – sof foyda;

DS – daromad (foyda) dan to'lanadigan soliqlar;

BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan xo'jalik faoliyatini amalga oshirish natijasida olinadigan daromadlarning manbalari quyidagilar:

a) sotishdan olingan sof tushum;

b) asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari);

s) moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlar; favqulodda daromadlar.

6. Sof pul tushum – bu umumiy pul tushumidan qo'shilgan qiymat, aktsiz solig'i va eksport boji olib tashlangandan qolgani.

7. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga undirilgan yoki e'tirof etilgan qarzlar, hisobot yilida olingan o'tgan yilgi foyda, oshxonalar va yordamchi xizmat daromadlari, asosiy vositalarni tugatishdan kelgan daromadlar, davlat subsidiyalari, xolisona moddiy yordam va boshqa daromadlar kiradi.

8. Moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlarga – olingan daromad transferti, qimmatli qog'ozlar boyicha daromadlar, mol-mulkini uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish), valuyta hisobidagi ijobiy kurs tafovutlari, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan va boshqa daromadlar kiradi.

9. Favqulodda foyda – bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan, hodisa yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tUSDagi operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydalar.

10. Sotilgan mahsulot rentabelligi (R_{SM}) yoki yalpi foyda bo'yicha rentabellik (R_{YAF})

$$R_{SM} = \frac{Yaf}{SST}$$

Bunda; R_{SM} – sotilgan mahsulot rentabelligi.

Sotilgan mahsulot rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir so'mi qancha yalpi foyda keltirganini ko'rsatadi.

11. Sof foyda boyicha rentabellik (R_{SF}).

$$R_{SF} = \frac{SF}{SST}$$

Bunda: R_{SF} – sof foyda boyicha rentabellik.

18.2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va sof pul tushumi hamda ularni ko'paytirish imkoniyatlari

Dehqon va fermer xo'jaliklarining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko'paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodi talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o'z vaqtida, sifatli tatbiq etilishini ob'ektiv ravishda taqozo etadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi va sof pul tushumini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

Dehqon va fermer xo'jaliklarida yalpi hosilni ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

- ekinlarning serhosil navlarini, chorva hayvonlarining esa sarmahsul zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishni tezlashtirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ekinlarni suv bilan ta'minlash tadbirlarini rivojlantirish;
- chorva hayvonlarini sifatli ozuqa bilan ta'minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;
- ekologiyani e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy, madaniy o'g'itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash;
- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarida moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejalishini ta'minlovchi tadbirlar:

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil etishni jadallashtirish;
- yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijada ish jarayonlarini to'liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish;
- ishchi-xizmatchilarni rag'batlantirish tizimini rivojlantirish;

- davr hamda moliyaviy xarajatlarni imkoniyat darajasida kamaytirish va boshqalar.

2. *Bozor iqtisodi munosabatlarini dehqon va fermer xo'jaliklarida joriy etishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:*

- sanoat hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni, sotishni erkinlashtirish, ular o'rtasidagi ekvivalentlikni ta'minlovchi tadbirlar joriy etilishini jadallashtirish;

- investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;
- birjalarning turlarini rivojlantirish;
- sug'urta ishlarini rivojlantirish va boshqalar.

Bu tadbirlar, avvalo, yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko'paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mahsulotlar miqdori ekin maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko'paytirilishi mumkin. Ekin maydonlarini ko'paytirish uchun yangi yerlarni o'zlashtirish talab etiladi. Lekin bu tadbir cheklangan. Shuning uchun asosiy e'tiborni ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun ekinlarning yangi, serhosil, tezpushar navlarini yaratish, irrigatsiya, melioratsiya, agrotexnik, kimyoviy tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida tuproqning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda ekinlarni almashlab ekishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alohida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy xarajatlar hajmini qisqartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun dehqon va fermer xo'jaliklarining, mehnatning oqilona shakllarini tashkil etish talab etiladi.

Yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida jonli mehnat xarajatlari kamayishini isbotlash lozim. Bu jarayonning ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini isbotlash zarur. Chorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim. Buning uchun naslchilik ishlarini yo'lga solish zarur. Chorva hayvonlarini toyimli em-xashak bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha xarajatlarni qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur.

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda quyidagi natijalarga erishilganligini ko'rish mumkin (18.2.1-jadval).

18.2.1- jadval

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar			2014 yilda 2012 yilga nisb. o'zg.(+;-)
			2012	2013	2014	
1	Mahsulot sotishdan tushgun tushum	Ming so'm	67040	77920	92513	25473
2	Sotilgan mahsulot tannarxi	Ming so'm	58896	68556	77350	18454
3	Foyda (+) Zarar (-)	Ming so'm	8144	9364	15163	7019

4	Rentabellik darajasi	%	13,8	13,6	19,6	5,8
---	----------------------	---	------	------	------	-----

Manba: Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jaligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu jadvalda «Ro'ziyev Mahmud Ibodullayevich» fermer xo'jalikning jami daromadi 2012 yilda 92513 ming so'mni tashkil etib, xarajatlari 77350 ming so'mdan iborat bo'lgan. Xarajatlarning oshib ketishi mineral o'g'itlarning, texnika xizmati xarajatlarining va kimyoviy vositalarning narxlari oshishi natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun fermer xo'jaligi 2014 yilda 19,6 foiz rentabellikka erishgan, 2012-2013 yillarda xo'jalikning rentabelligi 13,6-13,8 foizga teng bo'lgan xolos. Bu esa past ko'rsatkich bo'lib, xo'jalikda fan-texnika yutuqlaridan va ilg'or xo'jaliklar tajribasidan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi asosan omillarning ikki guruhi bilan belgilanadi:

- dehqon va fermer xo'jaliklarining xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, **tashqi** – narxni shakllantirish, soliqqa tortish, kreditlash, inqiroz jarayonlari, dotatsiyalar va tovon (kompensatsiya) to'lovlari, agrar qonunchilik va boshqalar;

- **ichki** – xo'jaliklar ta'sir eta oladigan qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi, hayvonlar mahsuldorligi, mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish, ixtisoslashuv va boshqalar.

Bugun dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi sezilarli ravishda iqtisodiy mexanizm shakllantiradigan omillarning birinchi guruhi bilan belgilanadi. Ularning iqtisodiy mexanizmida omillarning ikkinchi guruhi asosiy rol o'ynaydi.

Murakkab sharoitda agrar sektorda inqirozni bartaraf etish, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun davlati tomonidan tartibga solinish va ASM iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish yo'li bilan amaliy natija beradigan iqtisodiy mexanizm yaratish zarur.

Bozor munosabatlari tizimida ahamiyati (qiymati) bo'yicha ikkita teng tuzuvchini ajratish mumkin: talab va taklifning optimal nisbatini belgilovchi qishloq xo'jaligi va tovar ishlab chiqaruvchilar hamda turli darajadagi xaridorlarning bozordagi erkin muomalasi kafolati va maqsadi, bozor subyektlarining samarali faoliyat va ishlab chiqarishni ekologiyalashtirishga yo'naltirish bo'lgan bozor munosabatlarini iqtisodiy tartibga solish mexanizmlaridan iborat.

18.3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi daromadini va pul tushumini maqsadga muvofiq taqsimlash

Qishloq xo'jaligining eng asosiy vazifasi respublika hududidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining xomashyoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birgalikda, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir

Bu talablar fermer xo'jaliklari uchun davlatning paxta va g'allaga bo'lgan eng muhim buyurtmalarini bajarishga asoslanadi. Bu mahsulotlarga davlat buyurtmalarining miqdori ularni yetishtirish boyicha rejalashtirilgan hajmga nisbatan 30 foiz darajasida belgilangan. Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, qishloq xo'jaligining

o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarmoqda yetishtirilgan mahsulotlarning, chunonchi, urug'lik, em-xashak, ozuqa kabilarning ma'lum bir qismi ichki talabni qondirishga sarflanadi. Aks holda tarmoqda takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ta'minlanmaydi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlanishini ta'minlash uchun etishtirilgan mahsulotlarning bir qismi bu boradagi talablarini qondirish maqsadida ishchi-xizmatchilarga ish haqi o'rniga natura holidagi beriladi, ularning ovqatlanishlari uchun ajratiladi. Shuningdek, aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida ularga ma'lum miqdordagi mahsulotlar tekinga beriladi.

Hozirgi davrda dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan mahsulotlar muayyan kanallar boyicha taqsimlanmoqda va sotilmoqda.

Fermer xo'jaliklari, avvalo, etishtirgan paxta, don mahsulotlarining davlat buyurtmasida ko'rsatilgan miqdorini «O'zpaxtasanoatsotish» uyushmasi hamda «O'zdonmahsulot» kompaniyasining joylardagi korxonalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida sotadilar. Shundan so'ng ular qolgan mahsulotlarini shartnomalar asosida erkin bozorlarda, jumladan, birjalarda, ko'rgazmalar yordamida, auktsionlar hamda chakana savdolar orqali sotishlari mumkin.

Erkin bozor sharoitida mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar hamma talablarga javob bera oladigan darajadagi shartnomalar asosida amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Shartnomalar har ikki tomonning erkin kelishuvi asosida tuzilishi shart. Shartnomalarni tuzishdan oldin tomonlar bozorni (marketing masalalarini) mukammal o'rganishlari, xo'jalik rahbarlari, bosh mutaxassislar, menejerlar zarur vositalarni qaerdan, qachon, qanday baholarda, qancha va qanday usullarda olish mumkinligini, shuningdek, o'z mahsulotlarini foydasi bilan sotish yo'llarini, xo'jalik rahbarlari, shuningdek, amaliyotdagi qonun va qoidalarni ham mukammal bilishlari, ular asosida ish yuritishlari kerak.

18.4. Xo'jaliklarda foydani ko'paytirish yo'llari

Dehqon va fermer xo'jaliklarida pul daromadlarini yanada ko'paytirish uchun dastavval ekinlar hosildorligini va chorva mahsuldorligini oshirish va sifatli mahsulot etishtirib, bozor iqtisodiga mos bo'lgan ilg'or texnika va ilg'or agrozooveterinariya tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish taqozo etiladi. Irrigatsiya, melioratsiya, ilg'or agrokimyo va h.k. tadbirlarni amalga oshirish bilan birga ekinlarni almashlab ekishni keng joriy qilish, mehnatning oqilona shakllarini tashkil etib, xodimlarga oylik maoshlarini o'z vaqtida berish va h.k.lar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi oshishini ta'minlaydi. Pirovard natijada xo'jaliklarda yalpi daromad, pul tushumlari, yalpi va sof foyda, rentabellik va iqtisodiy samaradorlik oshadi va h.k.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida mahsulot birligining tannarxini pasaytirish eng zarur masalalardan biridir. Mahsulot birligi tannarxinikamaytirish resurslar cheklangan sharoitda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahsulot tannarxi to'g'ridan – to'g'ri ikki omilga bog'liq. Birinchidan, yetishtirilayotgan mahsulotning miqdoriga bog'liq. Yetishtirilayotgan mahsulot miqdorining oshishiga nimalar ijobiy ta'sir etsa, ular ustida ishlash lozim. Bularga dehqonchilikda quyidagilar kiradi:

• yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan samarali foydalanish. Bu, o'z navbatida, hosildorlikning o'sishiga olib keladi;

• almashlab ekishni to'g'ri joriy qilish, talab va imkoniyatdan kelib chiqqan holda ekin turlarini joylashtirishni ratsional tashkil etish;

• urug'chilikni yaxshilash, selektsiya ishlarini jonlantirish;

• mineral va organik o'g'itlardan foydalanishni ilmiy asosga qo'yish, barcha kimyoviy vositalardan samarali foydalanish;

• ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining dehqonchilik tarmoqlarida mahsulotlar tannarxining past bo'lishiga xarajatlarni tejash ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu boradagi omillarga quyidagilar kiradi:

• ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish;

• ekinlarni parvarishlashda intensiv texnologiyalarni qo'llash;

• ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish;

• ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va joylashtirish;

• ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish;

• agrosanoat integratsiyasini chuqurlashtirish, agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarning mutanosib rivojlantirilishi;

• boshqaruv tizimini rivojlantirish hisobiga u bilan bog'liq xarajatlarni tejash;

• qishloq joylarda ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining chorvachilik tarmog'ida mahsulot birligi tannarxining pasayishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

• chorvachilikning yem – xashak bazasini mustahkamlash, yem – xashakning sifatini oshirish va nisbatan arzon bo'lishini ta'minlash;

• chorva mollarining zotini, poda tarkibini yaxshilash;

• chorva mollarini saqlash, boqshning intensiv texnologiyalaridan foydalanish;

• chorvachilik mahsulotlari sifatini oshirish;

• chorvachilikda ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish;

• fondlardan foydalanishning eng optimal yo'llaridan foydalanish;

• ishlab chiqarish quyuqlashuvi va ixtisoslashuvining eng maqul hajmlarini tashkil etish;

• ishchi xodimlarning manfaatdorligini oshirish;

• qishloqda ijtimoiy masalalarning yechimini topish;

• barcha xarajatlarni tejamkorlik bilan amalga oshirish, bu borada mavjud texnologiyalardan, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllaridan samarali foydalanish;

• mahsulot nobudgarchiligiga yo'l qoymaslik.

Ushbu omillarning barchasiga katta e'tibor berish zarurati mavjud. Albatta, bu masalalarni to'g'ri hal etish ishchi xodimlarning nafaqat manfaatdorligiga, balki bilim va tajribalariga ham bog'liq. Shu sababli dehqon va fermer xo'jaliklarida mehnat qilayotganlarning bilim va tajribasini tinmasdan oshirib borishni ta'minlash kerak.

Foydaning mutloq mikdori xo'jaliklarning samaradorlik darajasini har tomonlama belgilamaydi. Shuning uchun ularning faoliyati samaradorligini

aniqlashda nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu ko'rsatkich - rentabellik ko'rsatkichlaridir.

Rentabellik ko'rsatkichi jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir ayrim korxonaning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkichda kengaytirilgan ishlab chiqarishni, umumdavlat ehtiyojlarini qondirishni, xalqning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun sarflanadigan, jonli va buyumlashgan mehnat tejamining pul shaklida ifodalanishi va ko'shimcha mahsulotning massasida o'z aksini topadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, rentabellik juda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir. Bu esa o'z navbatida dehqon va fermer xo'jaliklarining qo'shimcha mahsulot va foydasi miqdori yuksak sur'atlar bilan orta borishini talab qiladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish samaradorligining ortishi bugungi kunning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Dehqon va fermer xo'jaliklari samaradorligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, u mehnat unumdorligini ortishi, samaradorlik va foydalilikdir.

Dehqon va fermer xo'jaliklari samaradorligini baholashda quyidagi samaradorliklar farq qilinadi:

- dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish samaradorligi.
- dehqon va fermer xo'jaliklari tarmoqlari va ekin turlari samaradorligi.
- alohida olingan tadbirlar samaradorligi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari samaradorligini baholash mezonlari - bu ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Ishlab chiqarishdan ko'zlangan asosiy maqsad, bu jamiyat a'zolari ehtiyojlarini har tomonlama va to'liq ta'minlashdir.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2012 yilda paxta xom-ashyosini yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar hisobiga olingan daromad, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilganimizda, paxtadan olingan hosildorlik ko'rsatkichi tumanlar bo'yicha turlicha bo'lib, o'rtacha viloyat bo'yicha 26,4 sentnerni tashkil etgan. 1 tonna paxtadan olingan daromad 807 ming so'm bo'lib, foyda ko'rsatkichi 91 ming so'mni tashkil etgan. Rentabellik darajasi esa 12,7 foiz bo'lib, bu juda past ko'rsatkich ekanligi ko'rinib turibdi. Chunki G'uzor, Qamashi, Muborak va Chiroqchi tumanlarida paxta xom-ashyosini yetishtirish bo'yicha zarar bilan chiqqan. Demak, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishda qilinadigan xarajatlar tarkibida yoqilg'i, mineral o'g'it, yoqilg'i moylash materiallari va urug'lik xarajatlarini imkon darajasida kamaytirish yo'llarini izlab topish maqsadga muvofiqdir (13,14,15,16-ilovalar).

Nazorat uchun savollar:

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi daromad deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi daromad so'mmasi qanday aniqlanadi?
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi foydasi nima va u qanday aniqlanadi?
4. Dehqon va fermer xo'jaliklarining sof foydasi nima va u qanday aniqlanadi?
5. Dehqon va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
6. Iqtisodiy samaradorlik darajasini qanday ko'rsatkichlar ifodalaydi?
7. Dehqon va fermer xo'jaliklarining rentabelligi nima va u qanday aniqlanadi?
8. Foyda normasi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?

9. Qanday tadbirlar Dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlari miqdorini oshirib, sifatini yaxshilaydi?
10. Qanday tadbirlar moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejalishini ta'minlaydi?

XIX-Mavzu.DEHQON VA FERMER XO'JALIKLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI OSHIRISH YO'LLARI

Reja:

- 19.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligi
- 19.2. Xo'jaliklar faoliyatini iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar
- 19.3. Xo'jaliklarning ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari. Ularning rentabellik darajasi
- 19.4. Dehqon va fermer xo'jaliklarini iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish yo'llari

O'quv maqsadi: *samara va samaradorlik tushunchalariga izoh berish va xo'jaliklarning samaradorligini aniqlash bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *samara, samaradorlik, foyda, sof foyda, rentabellik darajasi*

19.1. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligi

Ishlab chiqarish samaradorligi juda murakkab iqtisodiy kategoriyadir. U ob'ektiv iqtisodiy qonunlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi-natijani, ya'ni oqibatni aks ettiradi. Oqibat yoki natija har qanday faoliyatning maqsadidir. Samara tushunchasi bilan iqtisodiy samara tushunchasini farqlash kerak.

Samara bu keng tushuncha bo'lib, har qanday tadbir yoki faoliyatning natijasida, o'g'itlardan foydalanish samarasi, ekinlar hosildorligi oshishida, em-xashak samarasi, chorva mahsuldorligi oshishida ifodalanadi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo'llash orqali olingan foydali natija yoki jami resurslar birligiga olingan natijani ifoda etadi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashga imkon beruvchi mezon va ko'rsatkichlar tizimini bozor munosabatlari mazmuniga mos ravishda ko'rib chiqish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaradorligini baho berishdan manfaatdor bo'lgan tomonlar ko'p bo'lib, ularni shartli ravishda quyidagicha bo'lish mumkin:

- birinchi navbatda xo'jalik mulkdorlari bozordagi kuchli raqobat muhitiga bardosh berish hamda zarur moliyaviy natijalarga erishish maqsadida;
- mavjud va potentsial kreditorlar qarz berish yoki bermaslik, kredit shartlarini belgilash va uni kamaytirish kafolatlarini kuchaytirish, qarzni qaytarish muddatini cho'zish yoki cho'zmaslik masalalarini to'g'ri hal etish maqsadida;
- xo'jaliklar bilan oldi-sotdi munosabatlariga kirishuvchi boshqa korxonalar hamkor sifatida uning ishonchliligini baholash maqsadida;
- soliq organi soliq to'lovlarini to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida buydjetga undirish maqsadida;
- auditorlar, xuquqshunoslar, davlat boshqaruvi va qonun chiqaruvchi organlar, dehqon va fermerlar, uyushmasi va boshqa bilvosita manfaatdor tomonlar.

Dehqon va fermer xo'jaliklari bir xil mehnat sarf qilgan holda turli shakllarda va turli yillarda turli natijalarga erishishi mumkin. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga baho berishda hamma ko'rsatkichlarni ikki guruhga: natural va qiymat ko'rsatkichlariga bo'lish mumkin.

1. Yerdan foydalanish ko'rsatkichlari:
 - ekin turlari boyicha hosildorlik;
 - 1 ga ekin maydonidan yalpi mahsulot, yalpi foyda, sof foyda;
 - yerdan foydalanish koeffitsienti;
2. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari:
 - fond qaytimi;
 - fond sig'imi;
 - foyda me'yori (asosiy va aylanma fondlarga nisbatan);
 - aylanma fondlar aylanishi koeffitsienti;
 - bir traktor va avtomashinaning yillik ish yuklamasi;
3. Chorva mollari mahsuldorligi ko'rsatkichlari:
 - bir bosh sigirdan olingan yillik o'rtacha sut miqdori;
 - boquvdagi mollarning sutkalik vazn ortishi;
 - so'uishdagi mollarning tirik vazni;
 - ona hauvonlardan bola olish darajasi;
 - bir bosh tovuqdan olingan yillik tuxum miqdori;
 - bir bosh qo'udan olingan yillik jun miqdori;
 - 1 sentner ozuqa birligiga etishtirilgan chorva mahsuloti;
 - 1 sentner vazn ortishiga yoki 1 sentner sutga ozuqa sarfi;
4. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlar:
 - 1 sentner mahsulotga mehnat sarfi;
 - 1 gektar yerga mehnat sarfi ;
 - o'rtacha bir ishlovchiga yalpi mahsulot, yalpi foyda, sof foyda;
 - bir birlik mehnat sarfiga yalpi mahsulot, yalpi foyda sof foyda;
5. Xarajatlar sarfi ko'rsatkichlari:
 - mahsulotlar tannarxi;
 - 1 gektar yerga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlari;
 - 1 bosh chorva molini boqish xarajatlari;
 - 1 so'mlik ishlab chiqarish xarajatiga yalpi mahsulot, yalpi foyda;
6. Rentabellik ko'rsatkichlari:
 - aktivlar rentabelligi;
 - mahsulot sotish rentabelligi ;
 - xususiy kapital rentabelligi;
 - tannarxga nisbatan rentabellik darajasi.

19.2. Xo'jaliklar faoliyatini iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligiga baho berish uchun ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qiluvchi turli omillar oqibatida kelib chiqadigan aniq ko'rsatkichlarga ega bo'lishimiz lozim. Shundagina dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish

jarayonini yaxlit holda tahlil qilish va iqtisodiy samaradorligining asosiy yo'nalishlari to'g'risida ishonarli xulosalar chiqarish mumkin.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining samaradorligiga baho berishda sohaning pirovard natijalarga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiy samaradorligi uning natura va qiymat ko'rsatkichlari tizimi bilan ham aniqlanadi. Natura ko'rsatkichlariga dastavval: hosildorlik va Dehqon va fermer xo'jaliklari mollarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari kiradi.

Odatda, hosildorlik darajasi boshqa ko'rsatkichlar miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ammo natura ko'rsatkichlari erishilgan samaradorlikning faqat bir tomonini aks ettira oladi. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun hosildorlik va chorva mahsuldorligini boyicha muayyan ko'rsatkichlarga erishish jarayonidagi yalpi mehnat sarflarini bilish ham zarur. Bir xil darajadagi hosildorlikka turli miqdorda mehnat va mablag' sarflangan yoki mahsulot sifati turlicha bo'lishi ham mumkin. Bu kabi holatlar ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, samaradorlikni aniqlashda xatolikka yo'l qoymaslik uchun ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining qiymat ko'rsatkichlariga tayanish lozim. Qiymat ko'rsatkichlari faqat hisob uchungina zarur bo'lmay, balki o'ziga xos iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Chunki, ular tovar-pul munosabatlarining rivojlanishida, ishlab chiqarish mahsuloti esa bozorda tovar sifatida qatnashadi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida iqtisodiy samaradorlikning asosiy qiymat ko'rsatkichlari yalpi daromad, sof daromad va foydani o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari – yalpi mahsulotni (YAM) jonli va buyumlashgan mehnatga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi.

$$ИЯ = \frac{ЯМ}{И_x + A_\phi + XKЭ};$$

Bu yerda: YAM – yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati, so'm; I_x – ishlab chiqarish xarajatlari, so'm; A_ϕ – asosiy ishlab chiqarish fondlari; Ke – fondlarning samaradorlik koeffitsienti;

Yalpi daromad (YAD)ning jonli va buyumlashgan mehnatga bo'lgan nisbati:

$$И_о = \frac{ЯД}{И_c + A_\phi * K}.$$

Dehqon va fermer xo'jaliklarida yalpi daromad miqdori mahsulotlarning etishtirilib, sotilishiga, ularning sotilgan bahosi va moddiy sarflar miqdoriga ham bog'liq.

Sof daromadning jonli va buyumlashgan mehnatga bo'lgan nisbati quyidagicha:

$$Э_у = \frac{СД}{И_c + A_\phi * K_э}$$

Sof daromad qo'shimcha mahsulotning qiymatdagi ifodasi bo'lib yalpi mahsulot va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farqidan iboratdir.

Sof daromad ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va ijtimoiy iste'mol fondlarini o'stirish manbai hisoblanadi. Sof daromad yaratilgan va realizatsiya qilingan sof daromadga bo'linadi. Realizatsiya qilingan sof daromad xo'jalik olgan foydaga to'g'ri keladi. Bunda foydaning (F) jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlariga nisbati olinadi:

$$H_{\phi} = \frac{\Phi}{H_c + A_{\phi} * K_{\phi}}.$$

Foyda sotilgan tovar mahsulot hisobiga olingan so'mmadan to'liq tannarxni ayirib tashlash bilan aniqlanadi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\Phi = (C_M - K_{KC}) - C_K;$$

Bu yerda: C_M – sotilgan mahsulotdan olingan pul;

K_{KC} - qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq;

C_K – to'liq yoki kommertsiya tannarxi.

Rentabellik darajasi muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, dehqon va fermer xo'jaliklarining zararsiz ishlash darajasini ifodalaydi.

Rentabellikda faqat jonli mehnatgina emas, qilib bo'lingan mehnat, sotilgan mahsulotning sifati, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uni boshqarish darajasi ham aks ettirilgan bo'ladi. Odatda, rentabellik ikkiga: iqtisodiyot tarmoqlari rentabelligi va dehqon va fermer xo'jaliklari rentabelligiga bo'linadi.

iqtisodiyot tarmoqlari rentabelligi yaratilgan jami sof daromad, dehqon va fermer xo'jaliklari rentabelligi realizatsiya qilgan sof daromadi orqali aniqlanadi. Rentabellik darajasini aniqlashda foydaning jami xarajatga yoki to'liq tannarxga nisbati olinadi.

Ishlab chiqarish rentabellik darajasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_c = \frac{C\Pi}{T_M} \times 100\% \quad \text{yoki} \quad P_d = \frac{\Phi}{T_K} \times 100\%;$$

Bu yerda: P_c va P_d – sof daromad va foyda boyicha rentabellik darajasi (foiz);

T_m va T_k – ishlab chiqarish tannarxi va kommertsiya (to'liq) tannarxi, so'm.

Rentabellik darajasi-mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya asosida qilingan moddiy va mehnat sarflari birligi evaziga olingan foyda bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning holatini aniqlash uchun foyda normasi ko'rsatkichidan foydalanamiz.

Foyda normasi deyilganda foydaning o'rtacha yillik asosiy aylanma mablag'larga bo'lgan nisbati tushuniladi.

$$\Phi_H = \frac{\Phi}{A_{\text{ococ}\phi} + A_{\text{yn}\phi}} \times 100\%$$

Foyda normasi dehqon va fermer xo'jaliklari sarflangan 1 so'mlik ishlab chiqarish fondlari hisobiga qancha foyda olganligini bildiradi. Masalan, foyda normasi 25 foiz, deb faraz qilsak, 1 so'mlik asosiy va moddiy aylanma vositalar qiymati hisobiga 25 tiyin foyda to'g'ri kelishini bildiradi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish samaradorligiga har tomonlama baho berish uchun mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, shuningdek, fondlar, investitsiya, kapital qoyilmalari va ularning samaradorligi ham hisoblanadi.

19.3. Xo'jaliklarning ijtimoiy samaradorligini oshirish yo'llari. Ularning rentabellik darajasi

Har bir dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish bo'g'inida turli omillarning birgalikda ishlatilishi natijasida mahsulot, ya'ni tovar va xizmatlar vujudga keladi. Yuzaki qaraganda har bir xo'jaliklardagi individual ishlab chiqarish bir-biridan ajralgan holda mustaqilga o'xshab ko'rinadi. Ammo xilma-xil tovarlar va resurslarning uzluksiz oqimida individual mablag'larning

harakatlari bir-biri bilan qo‘shilib, o‘ralib chatishib ketadi. Chunki ayrim olingan individual ishlab chiqaruvchilarning faoliyati va ayrim mablag‘lar, mahsulotlarning harakati o‘zaro bog‘langandir. Shu sababli, individual mehnatlarning harakati qo‘shilib ketishi, butun ijtimoiy ishlab chiqarishning, jami yaratilgan tovar va xizmatlarning harakatini bildiradi. Demak, ijtimoiy ishlab chiqarish o‘zaro bog‘langan va aloqada bo‘lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning yig‘indisidir. Har bir individual ishlab chiqarish, uning sarmoyasi va resurslari esa ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas bir bo‘lagidir.

Paxtachilikda so‘ngi yillarda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish samardorligiga erishayotgan Qashqadaryo viloyati fermer xo‘jaliklarida paxa xom-ashyosi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari respublikamiz va texnologik kartadagi belgilangan o‘rtacha ko‘rsatkichlarga taqqoslangan (19.3.1-jadval).

19.3.1-jadval

Chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasini iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (2013 yil)

Ko‘rsatkichlar	Respublika bo‘yicha o‘rtacha	Qashqadaryo viloyati bo‘yicha o‘rtacha	Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani		Texnologik xarita bo‘yicha
			O‘rtacha	«Shuhrat o‘g‘li G‘olibjon» fermer xo‘jaligi	
Paxta hosildorligi s/ga	28	29,3	30	35,2/33,1*	27
1 s paxta tannarxi (so‘m)	78800	75600	75400	63250/ 65300*	x
1 s paxtaning sotish bahosi (so‘m)	82610	80700	78400	87450/84270*	x
1 s. ko‘rilgan foyda va zarar(+;-)	+3810	+5100	+3000	24200/21970*	x
1 ga. ko‘rilgan foyda va zarar(+;-)	-2310	-2400	-2250	801020/628010*	x
1 ishchiga to‘g‘ri kelgan ekin maydoni (ga)	1,25	0,83	0,76	2,81	2,17
1 ga ekin maydoniga mehnat sarfi (kishi/soat)	1645	2088	2301	2509	784
1 s. paxta uchun mehnat sarfi (kishi/soat)	70	60,0	60,1	65,0	29
Mashina terim darajasi %	4,2	-	-	-	32

*xo‘jalikda paxta plyonkasiz ekilgandagi natijalar

Iqtisodiy samaradorlikni belgilab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan paxta hosildorligi Qashqadaryo viloyatida respublikamiz o‘rtacha ko‘rsatkichidan har gektaridan 1,3 sentnerdan yuqori bo‘lgan. Ilg‘or tuman va xo‘jaliklarda bu ko‘rsatkich mos ravishda 1,4 va 1,5 sentnerga teng bo‘lgan. Texnologik xaritada belgilangan meyoriy ko‘rsatkichlarga nisbatan viloyatda bir ishchiga to‘g‘ri kelgan ekin maydoni yuklamasini kam bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Buning natijasida mehnat sarfi xarajatlari meyorga nisbatan 2,0-2,5 marta yuqori bo‘lgan.

Yuqoridagi tahlillar natijasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. An‘anaviy intensiv texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tabiiy-iqlim, demografik omillariga, hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga ham bog‘liqlidir.

Ma'lumki, fermer xo'jaligining samaradorligi ko'p jihatdan mahsulot ishlab chiqarishda sarflangan xarajatlar miqdoriga ham bog'liq.

Fermer xo'jaligida tannarxni hisoblab chiqish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, dehqonchilikda ishlab chiqishning yillik sikli, shuningdek, ishlab chiqarish va ish davri orasidagi farqlar tannarxni faqat xo'jalik yili tugagandan keyingina hisoblab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'simlikchilik mahsulotlarining salmoqli qismi o'z xo'jaligida ozuqa sifatida ishlatiladi, shuning uchun avval o'simlikchilik mahsulotlarining tannarxi aniqlanadi, undan keyingina chorvachilikniki. Ikkinchidan, ko'pgina qishloq xo'jaligi ekinlari va hayvonlardan birdaniga bir necha turdagi mahsulot olinadi va xarajatlarni ular orasida taqsimlash zarurati kelib chiqadi. Uchinchidan, tug'allanmagan ishlab chiqarish hajmini faqat yil oxirida (1 yanvar holati bo'yicha) aniqlash mumkin. To'rtinchidan, alohida turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish yakunlanishi joyi umuman farqlanadi.

Tannarxni hisoblab chiqishda xarajatlarning umumiy miqdori mos keluvchi ekinlar va hayvonlardan olinadigan mahsulotlar bo'yicha taqsimlanadi. Shu bilan quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- xarajatlarni mahsulotlarning mos keluvchi turiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish;
- xarajatlarni alohida qishloq xo'jalik ekinlari, hayvonlarining mahsulotlari o'rtasida mahsulot olinganlar uchun umumiy bo'lgan belgilardan biri bo'yicha proporsional ravishda (masalan, ulardagi mavjud to'la qimmatga ega don, ozuqa moddasi va boshqalar);
- maxsus yo'l bilan olingan mahsulotning alohida turiga qilingan xarajatni baholash va ularni ma'lum nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalash (masalan ozuqa kunda alohida turdagi hayvonni parvarishlash, ma'lum texnologik guruhdagi chorva mollarini parvarishlashning umumiy so'mmadan foiz sifatidagi xarajatlari va boshqalar).
- rejali tartibda belgilanadigan, iqtisodiy asoslangan koeffitsiyentlarni qo'llash yordamida xarajatlarni taqsimlash; bunda mahsulotlardan birining turiga 1 boshqa turlariga asosiy turdagi koeffitsiyent orqali xarajatlar qabul qilinadi;
- pul shaklida ifodalanuvchi xarajatlarning umumiy miqdoridan yondosh mahsulotlarga qilingan xarajatlarni istisno etish; yondosh mahsulotlarning pulda baholash normativ (hisob-kitobli) yoki haqiqiy xarajatdan kelib chiqib, amalga oshiriladi;
- xarajatlarni mahsulot qiymatining realizatsiya bahosiga proporsional ravishda taqsimlash.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining o'simlikchilik tarmog'ida tannarxni hisoblab chiqish obyekti-har bir qishloq xo'jalik ekinidan olinadigan asosiy va yondosh qo'shimcha mahsulotlarning har xil turi paxta, g'o'za poyasi, don, don chiqindilari, somon, yog'li ekinlar urug'i, kartoshka, so'talar, (karam) piyozlar, mevalari va boshqalar. Bundan tashqari, bu yil keyingi yilgi hosil uchun qilingan va tug'allanmagan ishlab chiqarishga kiruvchi, kelgusi davr xarajatlariga kiruvchi qishloq xo'jalik ishlarining tannarxi ham aniqlanadi.

Ma'lumki dehqon va fermer xo'jaliklarida tovar pul munosabatlarini rivojlanishida asosiy ishlab chiqarish vositalarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash hamda ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash tovar mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishga va tushum hajmining

oshishiga olib keladi. Fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsion-investitsion faoliyatni yo'lga qo'yish davr talabiga aylanib bormoqda.

Fermer xo'jaligida investitsion-innovatsion faoliyatning asosiy maqsadi investitsiyalar asosida innovatsion imkoniyatlardan foydalanishni rivojlantirish va jadallashtirish uchun optimal shart-sharoitlarni yaratib berish. Fermer xo'jaliklari tarmog'ida investitsion-innovatsion faoliyat investitsiyalar subyekti va obyektlarining (innovatsion-investitsion mahsulot) o'zgarishi sohasidagi o'zaro munosabatlarni qamrab oladi. Investitsion majmua turli xil mulkchilik shaklidagi integrallashgan korxonalarining birlashuvi bo'lib, ma'lum turdagi tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, investitsiyalardan unumli foydalanish va to'g'ri taqsimlash maqsadida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarda bo'ladi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini investitsion-innovatsion rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab – quvvatlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- lizing faoliyatni faollashtirish, bu esa o'z navbatida moliyaviy mablag'larning yetishmasligini yumshatadi, lizing to'lovlarini belgilangan grafik asosida va soddalashgan shartnoma va sxemalar asosida amalga oshirish imkonini beradi, davlat va lizing kompaniyalarning o'zaro manfaatlarini yaqinlashtiradi va pirovard natijada ASM tarmoqlarida tavakkalchilikni pasaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun optimal iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarini yaratib beradi;

- qishloq xo'jaligida yer-ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish;
- budjet ssudalarini, investitsion soliq kreditlarini taqdim etish, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash;
- imtiyozli soliq to'lovlarini joriy etish;
- qishloq xo'jaligi texnikalari bozorini rivojlantirishning davlat dasturlarini shakllantirish
- Ushbu takliflarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilar ta'minlanadi:
- qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etishning jozibadorligi oshadi;
- ASM korxonalarida investitsion faollik oshadi;
- jami ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibida raqobatdosh va sifatli mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payadi;
- tarmoqda innovatsion faoliyat ko'chayadi.
- qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayoni barqarorlashadi.

Investitsion-innovatsion faoliyatning tarkibiy elementlari sifatida nafaqat investitsion davr, investitsion jarayon, investitsion muhit, balki innovatsiyalar ham kiradi. Sanab o'tilgan elementlar infratuzilma tarmog'ini resurs imkoniyati, investitsiyalar vositalar tarkibi va maqsadidan kelib chiqqan holda baholash va

investitsion-innovatsion faoliyatning rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Investitsion-innovatsion faoliyat tarkibidagi innovatsiyalar qishloq infratuzilmasi tarmog'ini modernizatsiya qilish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini takomillashtirishni o'z ichiga olib, buning natijasida sohaning innovatsion rivojlantirishda investitsiyalarn ko'lami ko'payadi va uning samaradorligi oshadi.

Agrar sohada investitsion-innovatsion faoliyatning o'ziga xos jihati qishloq infratuzilmasi tarmog'ini investitsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining xarakteri va shaklidan iborat. Investitsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizm deganda, investitsiyalarni jalb qilish, prognozlashtirish va rejalashtirish, kontrolling va

kapital harakatini tashkil etish uslublari va iqtisodiy shakllar tizimi tushuniladi. Ushbu jarayonlarni boshqarish investitsiya bozorida tashqi va ichki muhitlarning doimo o'zgarishi sharoitida yuz beradi.

19.4. Dehqon va fermer xo'jaliklarini iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish yo'llari

Dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar ko'p va xilma-xildir. Ulardan ba'zilar dehqon va fermer xo'jaliklarining jamoat faoliyatiga bog'liq bo'lsa, ayrimlari ishlab chiqarishning tashkil etilishi va texnologiyalarning joriy qilinishi, ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanish, fan-texnika yutuqlarining qo'llanishi bilan bog'liqdir.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatkichi sotilgan mahsulotdan olingan foyda so'mmasidan iborat. Uning darajasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan foydaga hamda mahsulotni etishtirish va sotish jarayonidagi xarajatlarga bog'liq.

Odatda, xo'jaliklar olayotgan foydaga sotilayotgan mahsulotning bahosi, shuningdek, tovar mahsulot hajmi ham ta'sir qiladi.

O'z navbatida dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarining bahosi avvalo talab va taklif ta'sirida, shuningdek, mahsulotlarning sotilishi yo'llariga ko'ra shakllanadi.

Sotilishdan olinadigan foyda miqdori mahsulotning sifat darajasiga bog'liq. Nostandart va sifatli mahsulotlar bozorda past va arzon baho bilan sotiladi, yoki sotilmasdan qolishi ham mumkin. Shu tufayli paxta, g'alla, qorako'l teri va pilla sut sifatiga alohida e'tibor beriladi. Sotiladigan mahsulotlar sifatining yomonligi sotuvchini ham daromadidan mahrum etadi.

Olinadigan pul daromadlari miqdorini ko'p jihatdan yalpi va tovar mahsulot uning tovarlilik darajasi ham belgilaydi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligining asosiy yo'llari yalpi mahsulotlarni ko'paytirish, ularning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, sotish yo'llarini takomillashtirishdan iborat.

Bozor munosabatlari sharoitida har qanday xo'jaliklarning asosiy maqsadi inson ehtiyojlari uchun moddiy nemat (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va foyda olishdan iboratdir. Shuning uchun fermer xo'jaligini moliyaviy natijalarini 19.4.1- jadval ma'lumotlari bilan tahlil qilganimizda, fermer xo'jaligida mahsulot sotishdan sof tushum 146,34 foizga, sotilgan mahsulotlarni tannari 132,65 foizga, mahsulot sotishning yalpi foydasi 222,26 foizga o'zgarganligini ko'rish mumkin.

19.4.1-jadval

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani «Shuhrat o'g'li G'olibjon» fermer xo'jaligining moliyaviy natijalari tahlili

t/r	Yozuvning mazmuni	O'/b	Yillar			2012 yilda 2010 yilga nib. o'zg.%
			2010	2011	2012	
1	Mahsulot (tovar va	m.so'm	90070,0	119772,0	131811,0	146,34

	xizmat)larni sotishdan sof tushum					
2	Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larni tannarxi	m.so'm	76303,0	83971,00	101213,0	132,65
3	Mahsulot (tovar va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	m.so'm	13767,0	35801,0	30598,0	222,26
4	Davr xarajatlari	m.so'm	13061,0	32573,0	28526,0	218,41
	sh.j.dan; Sotish xarajatlari	m.so'm	3152,0	4192,0	4613,0	146,35
5	Mamuriy xarajatlar	m.so'm	9909,0	28381,0	23913,0	241,33
6	Asosiy faoliyat foydasi	m.so'm	706,0	3228,0	2072,0	293,48
7	Umumxo'jalik faoliyat foydasi	m.so'm	706,0	3228,0	2072,0	293,48
8	Favqulodda foyda va zararlar	m.so'm	7560,0	9722,0	6805,0	90,01
9	Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda	m.so'm	8266,0	12950,0	8877,0	107,39
10	Hisobot davrining sof foydasi	m.so'm	8266,0	12950,0	8877,0	107,39

Manba: Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani "Shuhrat o'g'li G'olibjon" fermer xo'jaligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Fermer xo'jaligida davr xarajatlari 218,41 foizga, shu jumladan sotish xarajatlari 146,35 foizga, mamuriy xarajatlar 241,33 foizga o'zgargan bo'lib, fermer xo'jaligida asosiy faoliyat foydasi, umumxo'jalik faoliyati foydasi 293,48 foizga, favqulotda foyda va zararlar 90,01 foizga, soliq to'lagunga qadar foyda 107,39 foizga, hisobot davrining sof foydasi 107,39 foizga o'zgarganligini ko'rish mumkin.


Jadvalda favqulotda foyda miqdori kamayishining asosiy sababi, keyingi illarda mamlakatda paxta ishlab chiqarish va sotishdan olingan ijobiy tafovutning bir qismi fermer xo'jaligiga moliyaviy ko'mak sifatida berish yo'lga qo'yilgan. Buning kam yoki ko'p bo'lishi asosan jahon bozorida paxta tolasi xarid baholarining o'zgarishiga bog'liq. Agar davlatimiz paxta tolasini jahon bozorida qancha qimmat miqdorda sotishga erishsa bu o'z navbatida beriladigan ko'mak pullarining oshishiga sabab bo'ladi.

Fermer xo'jaligi faoliyatini o'rganib, xo'jalik rentabelligini oshirish iqtisodiy faoliyatini yaxshilash uchun resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish vaqtlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, ya'ni muntazam ravishda daromad keltirmaydigan xarajatlar tahlilini amalga oshirib borish, ichki va tashqi savdolarini yanada yaxshilash, ya'ni fermer xo'jaliklari faoliyatiga marketing tadqiqotlari usullarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib fermer xo'jaliklarining rentabellik darajasini oshirish uchun quyidagi modelni amaliyotga tadbiiq etish yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi (19.4.1-chizma).

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy samardorligi sezilarli darajada intensiv ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Yuzaga kelgan sharoitlarda ishlab chiqarishni jadallashtirishning muhim yo'nalishi - mahsulot ishlab chiqarishning jadal,

resurslarni tejovchi texnologiyasini qo'llash, chorvachilikda, naslchilik ishlarini, urug'chilikni yaxshilash, o'simliklarning kelajagi bor, tez pishar, yuqori hosilli, samarali navlaridan, chorva mollari va parrandalarning mahsuldor zotlaridan foydalanish, mineral va organik o'g'itlarning gerbitsid va qishloq xo'jaligi ekinlarini himoyalashning optimal dozalarini kiritish, ozuqa bazalarini mustahkamlash va hokazolar.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda intensiv texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy jihatdan foydali. Ulardan foydalanib, kuzgi bug'doy yetishtirilganda hosildorlik 35-40% ga ortishiga, tannarx 4-6% pasayib, 1 ga ekin maydoni hisobiga daromad 50-60% oshishiga erishiladi.



19.4.1-rasm. Respublikada fermerchilikni rivojlantirish modeli

Moddiy mablag'lar tanqisligi sharoitida resurslarni tejoychi texnologiyalardan foydalanish zarur. Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, paxta yetishtirishda ana shunday texnologiyadan foydalanish mehnat unumdorligini 1,5-2 marta oshirish, yoqilg'i va moylash materiallari sarfini 25-30%, mahsulot birligi tannarxini esa 35-40% ga kamaytirishga imkon beradi.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirishdagi muhim shart – almashlab ekishga amal qilish. Mamlakatning ko'pgina mintaqalarida dehqonchilikni jadallashtirish talablariga yarmini g'alla, paxta, beda, makka, texnika ekinlari va boshqa oziq-ovqat ekinlari almashlab ekilishi bilan javob beriladi. Ammo ko'pgina xo'jaliklarda zarur texnika yo'qligi bois, bu shartga amal qilinmaydi va natijada hosil yo'qotiladi.

Ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va xarajatlar sarfini qisqartirishda, yo'l-transport xo'jaligini rivojlantirish, mahsulotlarni yangicha usulda taralarga joylashtirish hamda tejamkorlik katta ahamiyat kasb etadi. Quyidagi chizmada dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishida xo'jaliklarning samaradorlikni oshirish va yuksaltirish yo'llari keltirilgan, (19.4.2-chizma).

Agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangi bosqichga ko'tarish masalalari shu kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan chorvachilik, g'allachilik, kartoshkachilik kabi sohalarda ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va amalda qo'llash, bizning iqlim sharoitimizda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan zamonaviy sug'orish tizimlari, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiya va agrotexnologiyalarni o'rganish, urug'chilik-seleksiya ishlarini yanada takomillashtirish va dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishining mahsuldorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz agrar tarmog'ini yanada rivojlantirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 17,5 foizdan 13,5 foizga pasaytirish;

dehqon va fermer xo'jaliklarida ilg'or agrotexnologiyalar, resurslarni tejaydigan usullarni joriy etish, seleksiya va urug'chilik tizimini rivojlantirish hisobidan ekinlar hosildorligini oshirishga erishiladi. Bunda mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foizga oshirish, suv sarfini 12 foizga kamaytirish;

- meva-sabzavot tayyorlashni 1,5 barobari, kartoshka yetishtirishni 1,4 barobar, poliz va uzumni 1,3 barobar ko'paytirish;

- naslchilik ishlarini takomillashtirish, ozuqa bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiya natijasida naslchilik xo'jaliklari sonini 2,5 barobardan, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobar oshirish;

- zooveterinariya punktlarini zamonaviy jihozlash, xizmatlar sifatini oshirish hisobidan chorva mollari sonini 1,3 barobar, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish;

- parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojiga alohida ahamiyat qaratib, parrandalar sonini 1,8 marta oshirib, 670 ta baliqchilik xo'jaligi tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash quvvatlarini va qayta ishlash hajmini kengaytirish tadbirlari doirasida xo'jaliklarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish orqali meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarishni 1,7 barobar, go'sht konservalarini 2,2 barobar, kolbasa mahsulotlarini 1,8 barobar, sut mahsulotlarini 1,9 barobar oshirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va

ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikalarini xarid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyihalar hisobidan 1,4 million gektar yer maydonining meliorativ holatini yaxshilash;

➤ qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangilash, fermerlarni unumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, xizmat sifatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim prognoz vazifalari belgilangan.

Nazorat uchun savollar:

1. Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi daromadi deganda nimani tushunasiz?
2. Dehqon va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
3. Dehqon va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorlik darajasini qanday ko'rsatkichlar ifodalaydi?
4. Dehqon va fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligi nima va u qanday aniqlanadi?
5. Dehqon va fermer xo'jaliklarining ijtimoiy samaradorligi nima va u qanday aniqlanadi?
6. Foyda normasi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
7. Dehqon va fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini ayting?
8. Fermerchilikni rivojlantirish modelining mohiyati nimada?

GLOSSARIYLAR

Agrosanoat majmuasi- iste'molchilarning talabini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida iqtisodiyotning ayrim ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qayta ishlash hamda sotish bilan shug'ullanuvchi sohalarning iqtisodiy uyg'unlashuvi tashkil etadi.

Aylanma vosita (o'zgaruvchi vosita) – dehqon va fermer xo'jaliklari mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlarini bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonida bir marta marta qatnashib, o'z qiymatini ularga to'liq o'tkazadigan vositadir.

Asosiy vosita (doimiy kapital) – dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatida uzoq yillar mobaynida foydalanib, o'z qiymatini ishlab chiqariladigan mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga asta - sekin o'tkazib beradigan vositadir.

Asosiy kapitalga investitsiya (kapital qoyilma) – asosiy vositalarni barpo etish va takror ishlab chiqarish bilan bog'liq sarflar.

Agrokimyoservis xizmati - dehqon va fermer xo'jaliklariga shartnoma asosida organik va mineral o'g'itlar, biologik va kimyoviy vositalarni etkazib berish, qo'llash, ishlov berish, sepish, shuningdek, mineral o'g'itlarni agrokimyo kartogrammalari asosida solish va kimyoviy vositalarni qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan maslahatlar berish, ekinlar hosildorligi va tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan turli tadbirlarni o'z ichiga olgan barcha agrokimyoviy xizmatlar majmuidir

Aksept - taklif etilgan shartlar bo'yicha shartnoma tuzishga rozilik. Aksept etkazib berilgan tovar yoki xizmatlar uchun to'lov shaklida keng qo'llaniladi.

Asosiy tarmoq - dehqon va fermer xo'jaliklarining jami tovar mahsulotida yoki yalpi mahsulotida eng katta salmoqqa ega bo'lgan, uning maqsad va vazifalarini ifodolovchi hamda ixtisoslashishini belgilovchi tarmoq.

Almashlab ekish - ekinlarning yillar davomida ma'lum dalalarda rejali tartibda navbati bilan almashib turilishi.

Asosiy ish haqi – agrotexnika, zootexnika hamda tashkiliy xo'jalik talablariga ko'ra, belgilangan ish, mahsulot yetishtirish meyorini bajarganligi uchun oldindan belgilab qo'yilgan stavka yoki rassenka, lavozim okladi uchun to'lanadigan ish haqi.

Akkord mukofot haq to'lash tizimi - ish haqi ma'lum brigada yoki zveno bo'yicha, chorvachilik tarmoqlarida bundan tashqari, ayrim ishchilar kategoriyasi bo'yicha haqiqatda yetishtirgan mahsulotlar birligiga oldindan belgilab qo'yilgan ish haqi hajmida (rassenkasida) to'lanadi.

Aholining natural daromadlari – qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha tushumlari: dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik mahsulotlari, bog'dorchilik, sabzavot-poliz ekinlari, shaxsiy tomorqa, tabiat in'omlaridan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlar uchun tayyorlanadigan mahsulotlar kabi tushumlar.

Aholining pul daromadlari – bu aholining barcha pul mablag'lari tushumi: pensiya, stipendiya, nafaqa; mulkdan foiz, dividend, renta, aksiya, qimmatbaho qog'ozlar, ko'chmas mulk, chorva mollari, tomorqa mahsulotlari, turli buyumlar va boshqa tovarlarni sotishdan tushadigan, turli xizmatlar ko'rsatishdan keladigan pul tushumlaridir.

Aholining real daromadlari – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholi ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

Aholining turmush darajasi – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish meyorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Davlat buyurtmasi – davlat ehtiyojini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulot miqdori.

Davlat yer kadastri – yerning tarkibi, dehqon va fermer xo'jaliklarining huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati (bahosi), yer uchastkalarining manzili va o'lchamlari, ularning yer egaligi, undan foydalanuvchilarga, ijarachilarga, to'g'ri taqsimlash to'g'risida zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar yig'indisi.

Davr xarajati – dehqon va fermer xo'jaliklarini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisi.

Dehqon xo'jaligi - oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirib realizatsiya qiladigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yoxud ega bo'lmagan oilaviy mayda tovar xo'jaligidir.

Daromadlar - hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi.

Dotatsiya – davlat budjetidan qaytarib berilmaslik sharti bilan mablag' ajratish, iqtisodiyotga (ayniqsa qishloq xo'jaligiga xos) budjet orqali ta'sir etish vositalaridan biri.

Dividend— sof foydaning soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'langanidan keyin shirkat xo'jaligi (aksiyadorlar jamiyati) ixtiyorida qoladigan va a'zolar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan qismi.

Dehqon va fermer xo'jaliklari yalpi mahsulotining haqiqiy qiymati – bozor iqtisodiyoti sub'ektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiy baholardagi qiymati.

Dehqon va fermer xo'jaliklarining yalpi mahsuloti – bozor iqtisodi sub'ektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Yer uchastka ijarasi – davlat mulki hisoblangan yer uchastkalarini huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida yerdan foydalanuvchilarga haq to'lash evaziga ma'lum muddatga hamda umrbod meros qoldirish huquqi bilan berish.

Yerdan foydalanish ko'effitsienti - dehqon va fermer xo'jaliklarida yil mobaynida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga nisbatidir.

Yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini barcha omillaridan tadbirkorlik bilan foydalanish natijasida har bir gektar yerdan olingan sof foyda mummasini ifodalaydi.

Yer monitoringi – yer fondi, undan foydalanuvchilar, ularning tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarning sifati, qiymatini baholash, barcha salbiy jarayonlarni oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish, yer fondidan foydalanish darajasini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmui.

Yer solig'i - yerdan foydalanganlik uchun yer uchastkasining sifatiga, joylashgan manziliga va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, uning kadastr bahosini inobatga olgan holda dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan davlatga to'lanadigan ijara haqi.

Yerlarning irrigatsion-meliorativ holati – suv bilan ta'minlanish va sug'orish tarmoqlari tizimi, yer osti suvlari sathining joylashuvi va tuproqning sho'rlanish darajasidan kelib chiqib sug'oriladigan yerlarning holatini ifodalovchi ko'rsatkich.

Joriy yoki yillik rejalar – korxona va uning dastlabki ishlab chiqarish bo'linmalari (brigada, ferma, oila pudrati) yillik ishlab chiqarish reja va topshiriqlari kiradi.

Jonlashtirish – tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda dehqon va fermer xo'jaliklarida u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Ijtimoiy investitsiya – inson salohiyatini, malakasini, tajribasini oshirishga hamda nomoddiy ne'matlarni rivojlantirishga sarflanadigan mablag'lar.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy jarayonlarning mazmun, mohiyatini hamda turli tomonlarini aks ettiruvchi, muhim, inson ta'sirisiz doimo takrorlanadigan, uzviy iqtisodiy zaruriyatni taqoza etuvchi munosabatlar.

Investitsiya – dehqon va fermer xo'jaliklarini barcha omillarini rivojlanishiga sarflanadigan mablag'.

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi – bir vaqtda investitsiya qiligan mablag' evaziga olingan sof foyda.

Investitsiyaning qoplanish muddati – investitsiya qilinayotgan mablag'ning shuni evaziga olingan sof foyda so'mmasiga nisbati bilan hisoblanadi.

Intensiv yo'l (usul) – fan-texnika yutuqlarini, ilg'or texnologiyalarni joriy etish uchun qo'shimcha mehnat, mablag' sarflab, investitsiyalarni jalb etish mahsulot ishlab chiqarish xajmini, uning sifatini yaxshilash, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirishdir.

Ixtisoslashtirish – tabiiy, iqtisodiy sharoitlarni hamda talabni e'tiborga olgan holda qishloq xo'jalik sub'ektlarini bir yoki ikki turdagi mahsulot etishtirishga moslashtirish.

Ishlab chiqarish xarajatlari - mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan mehnat, mablag', material, xarajatlar yig'indisi.

Institutsional infratuzilma iqtisodiyot rivojlanishining optimal makroiqtisodiy nisbatlarini qo'llab – quvvatlovchi va tartibga soluvchi sohalar faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy foyda – firmaning umumiy foydasi miqdoridan hamma xarajatlar miqdorini ayirib tashlash, "sof foyda" tushunchasining sinonimi.

Ishlab chiqarish samaradorligi - eng kam xarajat hisobiga mahsulot ishlab chiqarish: ushbu mahsulot hajmini ishlab chiqarish uchun resurslardan minimal miqdorda foydalanish, yoki minimal o'rtacha umumiy harajatlar bilan ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarish rentabelligi - dehqon va fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini, ishlab chiqarish manbalaridan foydalanish darajasini ta'riflovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich. Ishlab chiqarish rentabelligi dehqon va fermer xo'jaliklarining oylik, uch oylik yoki yillik umumiy balans foydasining asosiy ishlab chiqarish fondlari va me'yorlashtirilgan aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan ifodalanadi.

Kichik korxona – dehqon yoki fermer xo'jaliklari, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektdir. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshkalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Lizing - asosiy fondlar va kapital qo'yilmalarini ixtisoslashgan lizing kompaniyalari vositachiligida moliyalashtirishning maxsus shakli. Lizing kompaniyasi ma'lum bir texnika vositasi, transport, inshoot va uskunani qisqa, o'rta va uzoq muddatga uchinchi tomon uchun sotib olib unga ijaraga beradi

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – yetishtirilgan bir birlikdagi mahsulotga sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarning so'mmasi.

Mehnat resursi – qonunlarda belgilangan yoshga ega bo'lib dehqon va fermer xo'jaliklari hududida yashab, mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan inson.

Mehnat unumdorligi - mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan insonning ma'lum bir vaqt ichida bajaradigan ishining, ko'rsatadigan xizmatining, ishlab chiqaradigan mahsulotining miqdori (qiymati).

Mehnatning fond bilan qurollanganligi – dehqon va fermer xo'jaliklarining bir birlikdagi mehnat resursiga to'g'ri keladigan energetik resurslar quvvati miqdori.

Moliyaviy xarajatlar – soliqlar, to'lovlar va boshqa moliyaviy xarajatlar so'mmasi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – davlat mulkiga asoslangan davlat korxonalari va tashkilotlarini nodavlat mulkchiligiga asoslangan shirkatlarga, fermer va ijara korxonalariga hamda davlatga qarishli mulk bo'lmaydigan boshqa sub'ektlarga aylantirishdir.

Mikrofirma – kichik biznes korxonasining bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Oferta - oldi - sotdi qilish amaliyotida qo'llaniladigan iste'molchiga ma'lum shartlar asosida tovar va xizmatlarni sotish to'g'risidagi yozma taklif.

Pul daromadi – qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish oqibatida olinadigan pul tushumlaridir.

Pul tushumlari oqimi – tayyor mahsulotlarni sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish natijasida oylar, choraklar boyicha tushadigan pullar so'mmasi.

Real investitsiya – moddiylashgan asosiy va aylanma vosita (kapital) barpo etishga sarflanadigan mablag'.

Sof kapital qo'yilma – mablag' sarflash natijasida ishga tushirilgan ob'ektning yoki asosiy kapitalning qiymati.

Sof foyda - barcha pul tushumlaridan ishlab chiqarish, davr, moliyaviy va favqulodda xarajatlarni chegirgandan so'nggi so'mma.

Sug'oriladigan yerlar – qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerni sug'orilishini ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan yerlardir.

Suv resurslari bilan ta'minlanganlik – haqiqatda sarflangan suv miqdorining limit asosida berilishi kerak bo'lgan suv miqdoriga nisbatiga aytiladi.

Suv iste'molchilari uyushmasi (SIU) – bir yoki bir necha kanal atrofidagi suvdan foydalanuvchilarning xohish-irodasi bilan tuziladigan va ular tomonidan boshqariladigan nodavlat, notijorat tashkilotdir.

Selekciya – o'simlikchilikda yangi navlarni yaratish, chorvachilikda yangi zotlarni shakllantirish va yaxshilash usullari to'g'risidagi fandir, shuningdek, Selekciya deb qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi nav va gibridlarini va chorva mollarining yangi zotlarini yaratish bilan shug'ullanuvchi dehqon va fermer xo'jaliklarining bir tarmog'iga aytiladi.

Tadbirkorlik–mulkchilik sub'ektlarining amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish natijasida daromad hamda foyda olishga qaratilgan faoliyatidir.

Tayyor mahsulot - dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilib, sotishga, ayirboshlashga mo'ljallagan mahsulotlar.

Tovar mahsuloti - dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan iste'mol talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulot.

Tuproqning unumdorligi – tuproq tarkibida mavjud bo'lgan turli xildagi mikro va makro elementlarning mahsulot etishtirish maqsadida amalga oshiriladigan agro-texnik hamda texnologik tadbir yordamida mahsulot etishtirib berish qobiliyatidir.

Ustav fondi - dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini ta'minlash uchun ta'sischi tomonidan dastlab kiritiladigan va keyinchalik ko'paytirib borish mumkin bo'lgan, hajmi korxonaning ustavida belgilab qo'yiladigan mablag'. Shirkat xo'jaliklarida pay fondi va bo'linmas fondan iborat bo'ladi

O'simlikchilik yalpi mahsuloti - o'simliklarga ishlov berish, parvarish qilish natijasida etishtirilgan mahsulot miqdori.

Fermer xo'jaligi – o'ziga uzoq (30 yildan 50 yilgacha) muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektdir.

Foydalilik-- dehqon va fermer xo'jaliklari tomonidan sarflangan barcha xarajatlar evaziga olingan sof foyda so'mmasini ifodalaydi.

Fond bilan ta'minlanish – dehqon va fermer xo'jaliklarining bir birlikdagi yer maydoniga to'g'ri keladigan fondlar qiymati.

Xususiylashtirish – davlat mulkchiligiga asoslangan davlat aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalarini amaldagi qonun talablari asosida sotib olish nodavlat mulkiga aylantirishdir.

Xarajatlar - hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko‘payishi.

Chorvachilik yalpi mahsuloti - chorva hayvonlarini parvarish etish, boqish natijasida etishtirilgan mahsulot miqdori.

Shirkat xo‘jaligi - qishloq xo‘jalik tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish maqsadida fuqarolarning poychilikka asosan oilaviy pudrat asosida uyushib, erkain, mustaqil faoliyat ko‘rsatadigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yuritish sub’ektidir.

Ekinlar hosildorligi - tadbirkorlik bilan amalga oshiriladigan barcha irrigatsion, meliorativ, agro-texnik, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar natijasida ma‘lum bir yer maydonidan etishtirib olgan mahsulot miqdori.

Ekstensiv yo‘l (usul) – mehnat va mablag‘ sarflab, mavjud vositalar dan foydalanib ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish evaziga mahsulot ishlab chiqarish xajmini ko‘paytirishdir.

Yalpi kapital qoyilma – asosiy kapitalga sarflangan asosiy jami mablag‘.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs(yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan xodimlar yollash huquqsiz, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jalik yerlari – dehqon va fermer xo‘jaliklariga turli xildagi tayyor mahsulotlarni, ishlab chiqarish maqsadida ma‘lum muddat davomida foydalanish uchun berilgan haydalaniladigan yerlar, yaylovlar, pichanzorlar, ko‘p yillik daraxtlar maydoni yig‘indisi.

Xususiylashtirish – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o‘zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir.

Xarid baholari – markazlashgan holda belgilangan baholar. Tayyorlash tashkilotlari shu baholarda jamoa, davlat, dehqon xo‘jaliklari, boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari, shuningdek aholidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olishadi. Ular yagona yoki mintaqalar bo‘yicha darajalangan bo‘lishi mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2004 yil 26 avgustdagi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni, «Xalq so'zi» gazetasi, 15.10.2004 y.
2. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 maudagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash boyicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: «O'zbekiston», 2002 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», №2, 1999 y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Yer Kodeksi». O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi» va qishloq xo'jaligiga oid qonunlari, Toshkent, «Adolat», 1999 y.
5. O'zbekiston Respublikasining «Chet el invetsitsiyalari to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, Toshkent, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», №1, 1999 yil.
6. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi Qonuni, «O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari», T.: «Adolat», 1999 y.
7. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va meyoriy hujjatlar to'plami. 2-qism., Toshkent, «Sharq», 1998 y.
8. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat Kodeksi». Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va meyoriy hujjatlar to'plami. 2-qism., Toshkent, «Sharq», 1998 y.
9. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonuni. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va meyoriy hujjatlar to'plami. 1-qism, Toshkent, «Sharq», 1998 y.
10. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi, 06.06.1998 y.
11. O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi, 06.06.1998 y.
12. O'zbekiston Respublikasining «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston yangi qonunlari. Toshkent, «Adolat», 1993 y.
13. O'zbekiston Respublikasining «Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston yangi qonunlari. Toshkent, «Adolat», 1993 y.
14. O'zbekiston Respublikasining «Mulk to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. Toshkent, «Adolat», 1992 y.
15. O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksi». 25.12.2007 y. – B. 263.
16. O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi qonuni. O'zbekiston yangi qonuni. Toshkent, «Xalq so'zi» gazetasi, 2012 y, 7 yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari:

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktabrdagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 43-son, 493-modda.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 4 noyabrdagi «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash boyicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida»gi Farmoni, «Xalq so'zi», 2004 yil 5 noyabr
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni. «Xalq so'zi», 25.03.2003 y.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni, «Xalq so'zi», 28.10.2003 y.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002 yil 28 avgustdagi Farmoni, «Xalq so'zi», 30.08.2002 y.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari:

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrdagi «2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» 607-sonli qarori.
23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi 357-sonli qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'uish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiulashtirish tartibi to'g'risida NIZOM»
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 476-sonli Qarori.
25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 5 noyabrdagi «Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 486-sonli Qarori.
26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini mablag' bilan ta'minlash, moddiy-texnik ta'minlash, ularga bojxona imtyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish boyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2001 yil 10 sentabrdagi 366-sonli Qarori, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash boyicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: «O'zbekiston», 2002 y.
27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fermerlarni, xususiylar tadbirkorlarni hamda kichik va o'rta biznes boshqa sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2000 yil 4 martdagi 75-sonli Qarori, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash boyicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: «O'zbekiston», 2002 y.
28. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvar PQ-1046 son Qarori.

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2007 yilda qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaligilarga aylantirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 11.11. 2006 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

30. Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz–jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish»T.: O'zbekiston, 2005 y.- 96 b.
31. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish – taraqqiyot garovi. Saylanma asarlar. 9-tom. T-2001 y. -432 b.
32. I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 2009 y. -56 b.
33. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T., O'zbekiston, 2011 y. – 47 b.
34. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichlarga ko'taradigan yil bo'ldi. – T., Xalq so'zi, 2012 y.
35. Karimov A.I. Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // Xalq so'zi. – 19.01.2013 y.
36. Karimov I.A. Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. – 19.01.2014 y.
37. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. // Xalq so'zi. – 18.01.2015 y.
38. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz–mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir// Xalq so'zi. – 16.01.2016 y.

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari meyoriy - huquqiy hujjatlari

39. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2004 yil 6 yanvar 1295- son bilan royxatga olingan «Fermer xujaliklarining davlat extiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom»
40. «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o'tkazish to'g'risidagi 1999 yil 20 iuyldagi 776-sonli Nizom», «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash boyicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: O'zbekiston, 2002 y.
41. «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs makomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari va kichik biznesning boshka sub'ektlarini milliy va chet el valyutasida mikrokrediitlash to'g'risida»gi 903-sonli Tartib, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash boyicha qonunchilik hujjatlari to'plami», T.: O'zbekiston, 2002 y.

42. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi 424-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikasini lizingga olish tartibi.
43. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» (qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan birga).

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

44. Бородин К.С. Регулирование агропродовольственных рынков внешнеэкономический аспект. М.:ВИАПИ им.А.Р.Никонова, Энциклопедия Российских деревень., 2005 г. - С.204
45. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A., «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti», T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004 y. - 304 b.
46. Salimov B.T. va boshq., «Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi», T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004 y. - 176 b.
47. Hamdamov Q.S. «Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini boshqarish», T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi nashriyoti», 2004 y. - 191 b.
48. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. T.: O'AJBNT Markazi, 2003 y. - 456 b.
49. Минаков И., «Экономика сельскохозяйственного предприятия», Учебник, М.: Колос, 2004 г. –С.314
50. Экономика сельского хозяйства. Учебник, под. ред. Коваленко Н.Й. М.ЮРКНИГА, 2004г. - С.392
51. Петранова Г.А., «Экономика и управление в сельском хозяйстве», М.: Академия, 2003 г. -С.296
52. Савитская Г.В., «Анализ производственно-финансовой деятельности сельскохозяйственных предприятий», М.: ИНФРА, 2003г. --С. 284
53. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish boyicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.UY.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K. Tuxliev. – T.: Iqtisodiyot, 2009 y. – 120 b.
54. Umirzoqov U.P. va boshqalar «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti», Darslik. T.: «Iqtisod-moliya», 2008 y. -268 bet.
55. Umirzoqov U.P. va boshqalar «Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti», T.: «Iqtisod-moliya», 2008 y. - 276 b.
56. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. T.: «EKSTREMUM PRESS», 2011 y. -416 b.
57. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – T., «Yangi asr avlodi». 2012 y. –331 b.

Ilmiy monografiyalar, maqolalar:

58. Abdugʻaniev A. Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning aurim masalalari. «Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi» jurnali, №1, 2002y. - 8 b.
59. Abdugʻaniev A. Kadrlar – hal qiluvchi kuch. «Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi» jurnali, №2, 2002y. -6 b.
60. Abdugʻaniev A. Tadbirkorlikda xarajatlarni rejalashtirish. «Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi» jurnali, №6, 2001y. - 9 b.
61. Kudratov Gʻ.X. «Bozor iqtisodiyoti sharoitida Oʻzbekiston gʻallachiligidagi iqtisodiy munosabatlar». Monografiya. T.: «Iqtisod-moliya», 2006y. -250 b.
62. Shoxoʻjayeva Z.S. Agrar tarmoqda suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi. Monografiya. T.: «Iqtisodiyot», 2012y. -140 b.
63. Oʻzbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga moʻljallangan eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi «Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi» mavzusidagi maʼruzasini oʻrganish boʻyicha Oʻquv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2011 y. – 256 b.
64. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga koʻtaradigan yil boʻladi» mavzusidagi maʼruzasini oʻrganish boʻyicha oʻquv qoʻllanma. – T.: Iqtisodiyot. – 2012 y. – 282 b.
65. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Bosh maqsadimiz – keng koʻlamli islohotlar va modernizatsiya yoʻlini qatʼiyat bilan davom ettirish» mavzusidagi maʼruzasini oʻrganish boʻyicha oʻquv qoʻllanma. – T.: «Oʻqituvchi», NMIU. – 2013 y.–366 b.
66. Prezident Islom Karimovning xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi. «Maʼrifat» gazetasi, 2012 yil 28-sentyabr

Ilmiy-amaliy anjumanlar mashgʻulotlari toʻplami:

67. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Oʻzbekiston Respublikasi korxonalari va tashkilotlarida resurslardan samarali foydalanish masalalari mavzusidagi Ilmiy-amaliy anjuman materiallar tezisi (noyabr, 2005.). Toshkent, TDIU, 2005, 196 b.
68. Mintaqa tabiiy resurslaridan foydalanishning bozor mexanizmi va uni takomillashtirish muammolari bobidagi Ilmiy-amaliy anjuman mashgʻulotlar tezisi (fevral, 2005). Toshkent, TDIU, 2005y. -146 b.
69. «Fermar xoʻjaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi, qonunchilikni takomillashtirish va respublikada fermerlikni rivojlantirish istiqbollari» mavzusidagi respublika Ilmiy-amaliy konferensiyasi mashgʻulotlari toʻplami, 2005 yil 3 iyun. Toshkent-2005 y.-248 b.

70. «Bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida qishloqda infratuzilma obyektlarini tashkil etish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma‘ruzalari to‘plami, 2007 yil 14-15 noyabr. Toshkent -2007 y. -267 b.
71. «Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda davlatning agrar siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami, 2010 yil 28-29 may. Toshkent -2010y. - 312 b.
72. O‘zbekiston janubida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va dastlabki qayta ishlashning muammolari va istiqbollari. Respublika ilmiy-texnik anjumani maqolalari to‘plami, 2013 yil 29-30 mart. Qarshi-2013y. - 446 b.

Statistik ma‘lumotlar to‘plamlari:

73. Сельское хозяйство Республики Узбекистан 2004, Ташкент, 2005 г. -С.203
74. Основные индикаторы развития сельского хозяйства республики Узбекистан (2005-2013 гг.), Ташкент, 2014 г. -С.27
75. Qashqadaryo viloyat qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasining 2008-2014 yillardagi ma‘lumotlari
76. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2008-2014 yillardagi ma‘lumotlari

Internet sautlari:

77. Коваленко Н.Й. Экономика сельского хозяйства, М. «Юркнига». 2004
<http://shopper.h1.ru/books.html?topicq935&pageq1>
78. Экономика и управление в селском хозяйстве, 2003, <http://psbatishev.narod.ru/libraru/03762.htm>
79. Королев Ю.Б. и др. Менеджмент в АПК, 2002, учебник,
80. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. www.tsue.uz
81. www.uhh.hawaii.edu Universitu of Hawaii at Hilo – Agroecology and Environmental Qulaitu Program.
82. www.ecfak.timacad.ru Moskovskaya selskoxozyautsvennaya akademiY.
83. www.admin.ru Institut Agroekonomiki i Biznesa Priamurskiu.
84. Mardonova A.T., Isoqova S.A. Agrar sohada mulkiy munosabatlarni royobga chiqarishning dolzarb uslublari. www.ski.ilm.uz
85. Саратовская селскохозяуственная академия. www.tstu.ru
86. Rozvoj integrace a infrastruktura. www.deloitte.com
87. Ikkinchi asosiy faktor esa infrastruktura va soliq yuki. www.forum.uz
88. Recentlu Published Books. www.eastview.com
89. Московская селскохозяуственная академия. www.ecfak.timacad.ru
90. Приамурский Институт Агроэкономики и Бизнеса www.admin.ru
91. Петранева Г.А. Экономика и управление в селском хозяйстве, Академия, 2003.
<http://web.book.ru/cgi-bin/book.p1o?pageq4&bookq88899>

2014 yil 1 yanvar holatiga fermer xo'jaliklari to'g'risida ma'lumot

	Faoliyat ko'rsatayotgan xo'jaliklar soni, birlik	Biriktirilgan yer maydoni, ga	Bir xo'jalikka to'g'ri keladigan yer, ga	Ishlovchilar soni, kishi	Faoliyatini tugatgan xo'jaliklar soni, birlik
Jami	7139	744409	104,3	101845	60
shaharlar:					
Qarshi	3	25	8,3	5	1
tumanlar:					
G'uzor	383	52508	137,1	6409	15
Dehqonobod	222	26749	120,5	1015	1
Qamashi	601	78321	130,3	8970	2
Qarshi	471	51241	108,8	7315	7
Koson	592	77572	131,0	12130	-
Kitob	821	34126	41,6	9656	-
Mirishkor	755	89940	119,1	10327	2
Muborak	298	56055	188,1	4447	-
Nishon	638	66271	103,9	9815	1
Kasbi	510	44482	87,2	9740	27
Chiroqchi	855	105099	122,9	9250	-
Shahrisabz	255	25284	99,2	5326	2
Yakkabog'	735	36736	50,0	7410	2

2014 yil 1 yanvar holatiga dehqon xo'jaliklari to'g'risida ma'lumot

	Dehqon xo'jaliklari soni, birlik	ulardan yuridik shaxs maqomini olganlari, birlik	Biriktirilgan yer maydoni, ga	Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarida dehqon xo'jaliklarining ulushi, foizda
Jami	445037	28329	91213	60,4
shaharlar:				
Qarshi	26650	-	1678	84,5
tumanlar:				
G'uzor	27763	2035	4498	64,5
Dehqonobod	23923	2483	14574	95,7
Qamashi	44783	2055	6230	65,1
Qarshi	30050	313	5696	61,2
Koson	46389	990	8723	50,3
Kitob	37468	4625	8026	64,1
Mirishkor	18813	444	4449	42,2
Muborak	11058	241	2600	61,6
Nishon	20567	1751	2851	40,2
Kasbi	30300	1698	4950	49,0
Chiroqchi	52500	6013	16300	76,5
Shahrisabz	36653	4276	5055	68,9
Yakkabog'	38120	1405	5583	55,5

**Qashqadaryo viloyatidagi tuproq shoʻrlanishi haqida koʻp yillik
m a ' l u m o t**

Yillar	Nazoratda turgan sugʻoriladigan maydon ga	Shoʻrlanish darajasi boʻyicha (0-100sm)				
		Shoʻrlan- magan	Kuchsiz shoʻrlangan	Jami Shoʻrlangan maydon	Shundan	
					Oʻrtacha shoʻrlangan	Kuchli va juda kuchli shoʻrlangan
2000	497825	259114	168212	70499	54625	15874
2001	497720	255865	164138	77717	59568	18149
2002	498628	250002	166414	82212	62726	19486
2003	498376	252001	169783	76592	60358	16234
2004	499005	253241	170735	75029	59589	15440
2005	500826	260504	171359	68963	53607	15356
2006	504724	263337	174124	67263	52706	14557
2007	505769	264366	175458	65945	51693	14252
2008	507388	264706	177689	64993	51160	13833
2009	507864	264701	179172	63991	50351	13640
2010	514487	272035	180563	62239	48911	13328

Respublikada fermer xo'jaliklarining maqbullashtirilgandan keyingi holati (2009 yil)

Viloyatlar	Jami fermer xo'jaliklari soni		Shu jumladan									
			Paxtachilik-g'allachilikka ixtisoslashgan		Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan		Bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan		Chorvachilikka ixtisoslashgan		Boshqa yo'nalishga ixtisoslashgan	
	Fermer xo'jaliklari soni	1 fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni, gektar	Fermer xo'jaliklari, soni	1 fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni, gektar	Fermer xo'jaliklari, soni	1 fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni, gektar	Fermer xo'jaliklari, soni	1 fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni, gektar	Fermer xo'jaliklari, soni	1 fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni, gektar	Fermer xo'jaliklari, soni	1 fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni, gektar
Qoraqopog'iston Respublikasi	3879	79,4	2831	101,7	213	15,3	309	7,6	417	32,7	109	10,3
Andijon	7296	34,4	2686	79,5	394	8,8	1879	9,2	485	20,7	1852	3,5
Buxora	4827	151,2	3104	103,6	84	9,3	1019	9,9	577	690,2	43	18,0
Jizzax	5560	81,9	4415	94,0	158	1650	595	13,0	330	85	62	27,0
Qashqadaryo	8599	66,0	6452	77,8	197	15,1	1363	13,1	501	79,5	86	30,3
Navoiy	2310	80,1	1318	62,7	14	7,1	571	7,1	361	142,8	46	10,9
Namangan	6245	35,0	2773	67,6	241	7,0	2235	7,6	306	32,4	690	3,6
Samarqand	8804	60,5	3325	118,4	1858	29,2	2314	13,0	462	54,6	845	34,9
Surxondaryo	5527	119,0	2652	84,8	-	-	1827	11,2	761	390,6	287	29,7
Sirdaryo	4241	49,9	3159	60,7	21	7,8	495	7,2	311	27,5	255	30,5
Toshkent	7449	56,3	3679	82,8	482	11,7	2395	14,0	620	102,3	273	45,7
Farg'ona	10131	28,4	3214	71,7	362	5,3	5456	7,0	416	34,1	683	5,2
Xorazm	5760	35,7	2219	80,4	12	5,6	1701	4,8	462	31,6	1366	3,7
Respublika bo'yicha jami	80628	62,4	41827	84,5	4036	19,1	22159	9,5	6009	162,2	6597	12,5

5-ilova

Qashqadaryo viloyati fermer xo'jaliklariga ajratilgan yer maydoni ko'rsatkichlari

№		2009 yil				2010 yil				2011 yil				2012 yil				2012 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi (+ ; -)			
		Fermer xo'jaliklari soni	Ajratilgan yer maydoni (ga)	o'rtacha yer maydoni (ga)	O'rtacha ishlovchilar soni	Fermer xo'jaliklari soni	Ajratilgan yer maydoni (ga)	o'rtacha yer maydoni (ga)	O'rtacha ishlovchilar soni	Fermer xo'jaliklari soni	Ajratilgan yer maydoni (ga)	o'rtacha yer maydoni (ga)	O'rtacha ishlovchilar soni	Fermer xo'jaliklari soni	Ajratilgan yer maydoni (ga)	o'rtacha yer maydoni (ga)	O'rtacha ishlovchilar soni	Fermer xo'jaliklari soni	Ajratilgan yer maydoni (ga)	o'rtacha yer maydoni (ga)	O'rtacha ishlovchilar soni
1	G'uzor	1527	55705	36	8471	443	38541	87	8471	383	52341	137	8471	383	52104	136	6040	-1144	-3601	+100	-2431
2	Dehqonobod	724	25066	35	1769	251	15813	63	1769	251	26423	105	1769	222	26749	120	897	-502	+1683	+85	-872
3	Qarshi	2703	39067	15	18100	648	51840	80	18100	474	47274	100	18100	474	47304	100	7624	-2229	+8237	+85	-10476
4	Koson	3240	92231	29	15592	724	41992	58	15592	592	76808	130	15592	592	75955	128	12635	-2648	-16276	+99	-2957
5	Qamashi	1964	78321	40	14100	710	56090	79	14100	601	96249	160	14100	601	98277	164	8472	-1363	+19956	+124	-5658
6	Kitob	3149	32253	10	11392	883	62693	71	11392	821	33665	41	11392	821	34032	42	9085	-2328	+1779	+32	-2307
7	Mirishkor	2627	89940	34	14307	857	33423	39	14307	755	89732	119	14307	755	77307	102	10608	-1872	-12633	+68	-3699
8	Muborak	798	54496	68	5790	319	19778	62	5790	298	54126	182	5790	298	52542	176	10997	-500	-1954	+108	+5207
9	Nishon	2683	63677	24	15923	823	55964	68	15923	638	63387	99	15923	638	64820	102	5048	-2045	+1143	+78	-10875
10	Kasbi	2622	50855	20	15600	600	34200	57	15600	510	51538	101	15600	510	50370	99	9851	-2112	-485	+79	-5749
11	Chiroqchi	3015	81410	27	11860	971	100984	104	11860	855	116435	136	11860	855	116982	137	9360	-2160	+35572	+110	-2500
12	Shahrisabz	1965	25480	13	8375	485	18915	39	8375	255	22423	88	8375	255	22322	88	5519	-1710	-3158	+75	-2856
13	Yakkabog'	2762	28571	11	14653	885	40710	46	14653	735	41698	57	14653	735	43634	59	9841	-2027	+15063	+48	-4812
14	Qarshi sh	6	14	2	17	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-6	-14	-2	-17
Viloyat bo'yicha		29785	717086	24	155949	8599	717086	66	155932	7168	772099	108	155932	7139	762398	107	105977	-22646	+45312	+83	-49972

2008-2012 yillar davomida Qashqadaryo viloyatiga yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlari uchun Moliya vazirligi qoshidagi Sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash Jamg'armasi tomonidan berilgan mablag'lar

Yillar	Jami berilgan mablag'	Respublika-dagi ulushi, %	Shu jumladan					
			Qurilish va rekonstruksiya ishlariga mln.so'm	Respublika-dagi ulushi, %	Ta'mirlash va tiklash ishlariga mln.so'm	Respublikadagi ulushi, %	Meliorativ texnika xarid qilish uchun mln.so'm	Respublikadagi ulushi, %
2008	10718,7	11,9	2806,8	12,5	4044,9	10,5	3867,0	13,2
2009	12088,3	9,4	5419,2	9,5	4574,1	9,5	2095,0	9,0
2010	13374,9	8,9	6107,3	9,6	4959,6	8,4	2308,0	8,5
2011	18507,0	10,4	10685,8	13,1	5380,2	7,0	2441,0	12,2
2012	17117,8	8,3	9759,8	11,6	4689,0	4,9	2669,0	10,4
Jami	71806,6	9,5	34778,9	11,3	23647,7	7,4	13380,0	10,7
Respublika bo'yicha jami	753470		309100		318800		125570	
Viloyat ulushi, %	10		11		7		11	

**«O‘zmeliomashlizing» DLK tomonidan tashkilot va korxonalarga lizing asosida olingan texnikalar uchun
lizing to‘lovlaridan 2014 yilning 1-may holatiga kutilayotgan qarzdorlik to‘g‘risida**

MA’LUMOT

Mln. so‘m

r/p	Lizing oluvchilarning nomi	2014 yil 1-may xolatiga kutilayotgan qarzdorlik			Shundan 11-aprelgacha to‘landi, ming so‘m	2014 yil 11-aprel holatiga qarzdorlik, ming so‘m			2014 yil 11-aprel holatiga Servis xizmatidan qarzdorlik	2014 yil 11-aprel holatiga Servis bilan JAMI qarzdorlik
		15 foizli avans to‘lovlaridan	Lizing to‘lovlaridan	Umumiy qarzi		15 foizli avans to‘lovlaridan	Lizing to‘lovlari-dan	Umumiy qarzi		
1	Kasbi DSMP DUK		105,0	105,0			105,0	105,0	9,8	114,8
2	Koson DSMP DUK	20,3	22,0	42,3		20,3	22,0	42,3	20,1	62,4
3	Nishon DSMP DUK		113,9	113,9			113,9	113,9	35,6	149,5
4	Yakkabog‘ DSMP DUK	54,4	28,1	82,5		54,4	28,1	82,5	1,2	83,7
	Jami DUKlar	74,7	269,0	343,7	0	74,7	269,0	343,7	66,7	410,4
5	Amu-Qashqadaryo ITXB		3,4	3,4			3,4	3,4	8,0	11,4
6	Qarshi MK FB		102,2	102,2			102,2	102,2		102,2
7	Qarshi KMK ITB	19,7	14,8	34,5		19,7	14,8	34,5		34,5
8	Qashqadaryo ITXB qarashli NSEAB		1,3	1,3			1,3	1,3		1,3
9	Qashqadaryo MTB								0,7	0,7
10	Mirishkor ITB		1,3	1,3			1,3	1,3		1,3
11	Oksuv ITB		2,1	2,1			2,1	2,1		2,1
12	Eskianxor ITB		15,2	15,2			15,2	15,2		15,2
13	Yakkabog‘-G‘uzor ITB	21,0	10,5	31,5		21,0	10,5	31,5		31,5
	Jami	40,7	150,8	191,5	0	40,7	150,8	191,5	8,7	200,2
	Hammasi	115,4	419,8	535,2	0	115,4	419,8	535,2	75,4	610,6

Qashqadaryo viloyatida fermer xo'jaliklarining infratuzilma obyektlari bilan ta'minlanganlik darajasi

Yillar	Bitta infratuzilma obektigiga to'g'ri keladigan fermer xo'jaliklarining yer maydoni, gektar									
	MMTP	SIU	YOMM sotish shoxobchalari	Mineral o'g'it sotish shoxobchalari	Mini-banklar	Q/x maxsulotlarini sotish va tayyorlash shoxobchasi	Zooveterinariya xizmati va zotli mollarni sotish shoxobchasi	Axborot ta'minoti va konsalting xizmati	Transport xizmatlari ko'rsatish shoxobchasi	Tara idishlarini tayyorlash va qadoqlash shoxobchasi
2004	5007,1	5192,5	5007,1	5007,1	6372,6	65092,3	19527,7	117166,1	-	-
2005	3453,8	3776,6	3812,3	4540,4	4592,0	44900,0	13470,0	80820,0	-	-
2006	3313,3	35736,7	3678,8	4717,9	4719,9	17868,4	8338,6	35736,7	106025,6	212051,2
2007	3191,8	3806,3	3669,6	4642,6	4573,3	11348,5	8511,4	23569,9	87545,4	122563,6
2008	3689,6	4275,6	3928,9	5768,6	5229,1	13714,2	4689,4	21377,9	121141,8	242283,7
2009	4799,4	4878,9	4773,4	7008,6	6353,1	16662,0	3409,6	25973,1	147181,2	294362,3
2010	4204,5	4274,2	4178,8	6140,0	5565,7	14596,8	2987,0	22753,9	128938,8	257877,7
2011	4143,5	5369,0	4121,1	6050,8	6300,8	14384,9	2943,6	21782,8	127066,3	254132,7
2012	4143,5	5186,4	4121,1	6050,8	6300,8	14384,9	2943,6	21782,8	127066,3	254132,7
2012 yilda 2003 yilga nisbatan, %	82,7	99,9	82,3	120,8	98,8	22,1	15,1	18,6	-	-

**Barcha toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha meva, sabzavot, poliz va kartoshka
mahsulotlari yetishtirish va sotish**

№	Tumanlar nomi	Jami 2013 yilda ishlab chiqariladigan mahsulot (tonna)	Shundan yetishtirilgan mahsulotlar		Shu jumladan: (tonna)														
					Meva			Uzum			Sabzavot			Poliz			Kartoshka		
			jami, tonna	foiz	reja	Haqiqatda	foiz	reja	Haqiqatda	foiz	reja	Haqiqatda	foiz	reja	Haqiqatda	foiz	reja	Haqiqatda	foiz
1	G‘uzor	42749	45079	105	2375	2833	119	1070	1070	100	22170	24042	108	16900	16900	100	234	234	100
2	Dehqonobod	6955	6968	100	4375	4370	100	170	170	100	850	868	102		0		1560	1560	100
3	Qarshi	67041	67805	100	8755	8922	102	4050	4160	103	35500	41485	117	12040	12043	100	1196	1196	100
4	Koson	101785	105205	103	5005	5090	102	870	870	100	33700	36595	109	61100	61740	101	910	910	100
5	Qamashi	48400	51144	106	3380	3513	104	1080	1080	100	29900	32511	109	13000	13000	100	1040	1040	100
6	Kitob	131125	131452	100	9375	9420	100	28250	33305	118	45950	53177	116	9100	9100	100	25450	26450	104
7	Mirishkor	20560	21956	107	3250	3237	100	1840	1840	100	11050	11827	107	3770	4402	117	650	650	100
8	Muborak	13025	14126	108	1195	1309	110	1560	1560	100	6500	6898	106	3510	4098	117	260	260	100
9	Nishon	57115	57157	100	1625	1617	100	1560	1560	100	10200	12350	121	40590	40590	100	1040	1040	100
10	Kasbi	33590	36543	109	6880	6915	101	1880	1880	100	14300	17058	119	9100	9260	102	1430	1430	100
11	Chiroqchi	112260	122214	109	4310	4307	100	6000	6000	100	47800	55065	115	50050	52942	106	3900	3900	100
12	Shahrisabz	136030	131959	97	16250	15792	97	11880	13260	112	65780	67843	103	520	464	89	34600	34600	100
13	Yakkabog‘	112880	117208	104	11310	11343	100	11500	13000	113	60300	63761	106	8320	8654	104	20450	20450	100
14	Qarshi sh	815	1928	237	565	703	124	250	250	100		425			0			550	
Jami		884330	910743	103	78650	79371	101	71960	80005	111	384000	423905	110	228000	233192	102	92720	94270	102

**Barcha toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha meva, sabzavot, poliz va kartoshka
mahsulotlari yetishtirish va sotish**

№	Tumanlar nomi	Shu jumladan: sotilishi (tonna)																					
		Qayta ishlash korxonasiga			Shundan				Toshkent shahri va boshqa yarmarkalarga			shundan					Eksportga			Shundan			
		reja	Xaki-katda	foiz	meva	uzum	sabza-vot	poliz	reja	Xaki-katda	foiz	meva	uzum	sabza-vot	poliz	kar-toshka	reja	Xaki-katda	foiz	meva	uzum	sabzavot	poliz
1	G‘uzor	1300	1300	100	300	0	1000	0	4750	4910	103	300	50	2535	2000	25		0		0	0	0	0
2	Dehqonobod	0			0	0	0		825	825	100	560	10	100	0	155		0		0	0	0	0
3	Qarshi	7200	7200	100	1500	200	5500		6520	6520	100	650	160	3590	2000	120	350	174	50	74	0	0	100
4	Koson	2000	2000	100	0	0	2000		14010	14010	100	660	80	3180	10000	90		10		0	0	10	0
5	Qamashi	6000	6000	100	500	0	5500		4635	4635	100	400	100	2930	1100	105		75		0	0	0	75
6	Kitob	31800	31800	100	6000	7800	18000		12815	12815	100	100	3300	5740	1130	2545	1400	250	18	250	0	0	0
7	Mirishkor	0	0		0		0		2130	2130	100	400	200	1325	140	65		0		0	0	0	0
8	Muborak	0	0		0		0		1120	1120	100	80	130	780	100	30		0		0	0	0	0
9	Nishon	2200	2200	100	200	0	2000		7430	7430	100	160	220	950	6000	100	1000	650	65	120	0	170	360
10	Kasbi	2000	2000	100	0	0	2000		3645	3645	100	1000	200	1450	850	145		0		0	0	0	0
11	Chiroqchi	4500	4500	100	500	0	4000		9355	9355	100	1000	750	3865	3350	390	1200	478	40	0	0	0	478
12	Shahrisabz	26000	26000	100	3500	3500	19000		11430	11430	100	1500	800	5610	60	3460	450	608	135	245	0	363	0
13	Yakkabog‘	12200	12680	104	3500	2700	6480		11010	11010	100	1450	1000	6145	370	2045		0		0	0	0	0
14	Qarshi sh						0		0	0		0	0	0	0	0		0		0	0	0	0
Jami		95200	95680	101	16000	14200	65480		89675	89835	100	8260	7000	38200	27100	9275	4400	2245	51	689	0	543	1013

**Barcha toifadagi xo‘jaliklar bo‘yicha meva, sabzavot, poliz va kartoshka
mahsulotlari yetishtirish va sotish**

№	Tumanlar nomi	Shu jumladan: sotilishi (tonna)																			
		Sog‘liqni saqlash, talim muassasalari va tashkilotlarga			shundan					Ichki bozor-ga sotildi	shundan					Ichki iste’-mol uchun	shundan				
		reja	Haqi qatda	foiz	meva	uzum	sabza-vot	poliz	kar-toshka		meva	uzum	sabza-vot	poliz	kar-toshka		meva	uzum	sabza-vot	poliz	kar-toshka
1	G‘uzor	5502	4134	75	145	20	2338	1620	11	14036	960	269	7307	5429	71	20699	1128	731	10862	7851	127
2	Dehqonobod	1005	736	73	562	1	88	0	85	2151	1316	27	320	0	488	3256	1932	132	360	0	832
3	Qarshi	7030	6278	89	612	65	3691	1825	86	18709	2540	907	11213	3677	372	28924	3546	2828	17492	4440	618
4	Koson	14650	12075	82	800	24	3096	8100	55	31159	1560	185	11990	17140	284	45951	2070	581	16319	26500	481
5	Qamashi	5055	3937	78	350	20	2699	810	59	15334	982	241	9074	4715	322	21164	1281	719	12308	6301	555
6	Kitob	13145	8452	64	80	320	5890	250	1912	25230	1140	3523	9228	3290	8050	52905	1850	18362	14319	4431	13943
7	Mirishkor	2315	1645	71	325	52	1134	100	34	7409	1009	346	3813	2039	202	10772	1503	1242	5555	2123	349
8	Muborak	1225	796	65	76	30	608	70	12	4930	481	294	2104	1971	80	7279	672	1106	3406	1957	138
9	Nishon	8595	7245	84	169	85	820	6100	71	15563	386	314	3524	11011	328	24069	582	941	4886	17118	541
10	Kasbi	4420	3604	82	1320	62	1356	758	109	11462	1745	414	5368	3491	444	15831	2850	1204	6884	4161	733
11	Chiroqchi	9840	7415	75	410	160	3474	3120	251	38848	978	1288	17064	18300	1218	61618	1419	3802	26663	27694	2041
12	Shahrisabz	14605	11295	77	2578	215	5350	35	3116	29886	3316	1826	14050	170	10524	52741	4653	6919	23470	199	17500
13	Yakkabog‘	12493	9006	72	986	185	5674	168	1994	32074	2248	2010	18085	3586	6145	52438	3159	7105	27377	4530	10266
14	Qarshi sh	0	0		0	0	0	0	0	1345	300	70	425	0	550	583	403	180	0	0	0
Jami		99880	76618	77	8413	1239	36217	22956	7793	248137	18961	11713	113566	74819	29078	398228	27048	45853	169900	107304	48123

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2012-2013 yillar kuzgi-qishki mavsumda xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlarini tozalash ishlarining borishi to'g'risida 2013 yil 1 aprel holatiga ma'lumot

№	Tumanlar nomi	Mavjud xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlari uzunligi, km	Kanal va ariqlarni mexanizmida tozalash, km							Kanal va ariqlarni qo'l kuchi yordamida tozalash, km								
			Reja	Amalda	(%)	shundan yanvar-fevral			jalb etilgan ekskavator	Reja	Amalda	(%)	shundan yanvar-fevral			ishchilar soni, nafar		
						reja	amalda	(%)					reja	amalda	(%)	SIU	f/x	QFY va boshqalar
1	G'uzor	1166,9	17,4	17,7	102	7,5	7,8	104	1	634,7	638,2	101	242,8	242,8	100	33	392	34
2	Dehqonobod	40,8								26,8	26,8	100	10,5	10,5	100		5	11
3	Qarshi	2224,5	29,1	30,5	105	15,2	16,7	110	2	1218,6	1219,0	100	563,3	563,8	100	41	673	33
4	Qamashi	963,9	16,5	16,6	101	5,6	5,7	102	1	571,0	574,0	101	229,8	229,8	100	28	543	29
5	Koson	3334,6	36,4	36,4	100	18,6	18,6	100	1	2303,5	2303,9	100	1045,8	1046,2	100	91	549	69
6	Kitob	1248,2	25,0	25,0	100	10,5	10,5	100	1	961,2	961,2	100	420,4	420,4	100	109	544	86
7	Kasbi	2216,8	27,6	28,5	103	10,6	11,5	109	1	1496,5	1497,0	100	680,7	681,2	100	51	330	44
8	Mirishkor	2067,9	75,8	75,8	100	38,9	38,9	100	2	1173,3	1174,5	100	568,0	569,2	100	25	453	77
9	Muborak	881,6	37,4	37,4	100	19,6	19,6	100	1	505,1	505,1	100	197,5	197,5	100	18	256	22
10	Nishon	2135,7	28,5	29,5	104	15,3	16,3	107	3	986,3	1003,5	102	421,6	438,8	104	39	283	32
11	Chiroqchi	1380,0	33,9	34,1	101	17,8	18,0	101	1	720,0	720,0	100	374,4	374,4	100	16	312	12
12	Shahrisabz	1490,0	29,8	29,8	100	12,5	12,5	100	1	1147,2	1148,1	100	502,2	514,1	102	130	649	103
13	Yakkabog'	1298,6	27,4	27,4	100	11,5	11,5	100	2	952,7	952,8	100	408,8	418,8	102	108	262	42
	Jami:	20449,5	384,6	388,7	101	183,5	187,6	102	17	12696,7	12724,1	100	5665,8	5707,5	101	688	5251	594

**Qashqadaryo viloyat tumanlarida 2012 yilda yetishtirilgan paxta xom ashyosi
tannarxi va sarf-xarajatlari to'g'risida MA'LUMOT**

№	Tumanlar nomi	Jami ekin maydoni, ming ga	Hosildorlik s/ga	Yalpi hosil, ming tn	Jami daromad mln.so'm	Jami xarajat mln.so'm	foyda (+,-)	Rentabellik darajasi %	1 gektar yerga, ming so'm		1 tonna mahsulot ming so'm	
									jami xarajat	jami daromad	o'rtacha sotish bahosi	mahsulot tannarxi
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	G'uzor	10500	20,1	21157	16868	16581	287	1,7	1579	1606	797	784
2	Qarshi	16500	28,5	47006	39505	32989	6516	19,8	1999	2394	840	702
3	Koson	24800	31,0	76976	62975	48328	14647	30,3	1949	2539	818	628
4	Qamashi	9000	31,7	28525	21908	18661	3247	17,4	2073	2434	768	654
5	Mirishkor	23000	23,2	53385	44298	41798	2500	6,0	1817	1926	830	783
6	Muborak	10150	23,8	24203	19576	18877	699	3,7	1860	1929	809	780
7	Nishon	21850	22,5	49181	41536	40111	1425	3,6	1836	1901	845	816
8	Kasbi	22300	27,7	61714	48396	43433	4963	11,4	1948	2170	784	704
9	Chiroqchi	10300	22,3	23016	17817	17518	299	1,7	1701	1730	774	761
10	Shahrisabz	5000	35,1	17534	11854	10504	1350	12,8	2101	2371	676	599
11	Yakkabog'	7000	30,5	21325	17382	14777	2605	17,6	2111	2483	815	693
Jami		160400	26,4	424022	342115	303579	38536	12,7	1893	2133	807	716

Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2012 yilda boshqoli don ekinlaridan olingan yalpi hosil, daromad va foyda ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot

Tumanlar nomi	Jami ekin maydoni	Hosil-dorlik, s/ga	Yalpi hosil ming tonna	Jami xarajat mln.so'm	Jami daromad mln.so'm	Foyda (+) zarar(-)	Renta-bellik darajasi %	1 gektar maydonga, ming so'm		1 tonna mahsulot, ming so'm	
								Jami xarajat	Jami daromad	O'rtacha sotish bahosi	Tannarxi
G'uzor	9905	52,1	51614	21430	15633	5797	37,1	1578	2164	415	303
Dehqonobod	1789	10,1	1807	630	621	9	1,4	347	352	349	344
Qarshi	14500	61,1	88663	35757	26558	9198	34,6	1832	2466	403	300
Koson	18500	57,4	106240	45213	32582	12631	38,8	1761	2444	426	307
Qamashi	13680	43,4	59423	23372	18091	5282	29,2	1322	1708	393	304
Kitob	6854	44,1	30231	12072	9348	2724	29,1	1364	1761	399	309
Mirishkor	22700	50,5	114721	45649	34787	10862	31,2	1532	2011	398	303
Muborak	9500	51,2	48608	20103	14751	5352	36,3	1553	2116	414	303
Nishon	18700	51,5	96355	38083	29040	9043	31,1	1553	2037	395	301
Kasbi	14500	64,6	93713	37795	28182	9613	34,1	1944	2607	403	301
Chiroqchi	30155	24,8	74826	28766	23602	5164	21,9	783	954	384	315
Shahrisabz	7100	55,4	39336	16706	12610	4096	32,5	1776	2353	425	321
Yakkabog'	11600	50,0	57998	22946	17413	5533	31,8	1501	1978	396	300
Jami	179483	48,1	863535	348522	263217	85304	32,4	1467	1942	404	305

**Qashqadaryo viloyatida 2012 yil barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan
olingan go’sht mahsulotlarining xarajat va daromadlari to‘g‘risida ma’lumot**

№	Tumanlar	GO’SHT						
		tirik vaznda ming tonna	Jami xarajat mln. so‘mda	Jami daromad mln. so‘mda	Jami foyda mln. so‘mda	Renta- bellik %	1 tonna ming so‘mda	
							mahsulot tannarxi	o‘rtacha sotish bahosi
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	G‘uzor	1187	6599	8048	1449	22,0	5560	6780
2	Dehqonobod	790	4698	5593	895	19,0	5947	7080
3	Qarshi	347	1886	2387	501	26,6	5435	6880
4	Koson	266	1422	1777	355	25,0	5344	6680
5	Qamashi	302	1737	2168	432	24,8	5751	7180
6	Kitob	248	1453	1783	330	22,7	5860	7190
7	Muborak	446	2568	3113	545	21,2	5759	6980
8	Nishon	618	3542	4252	710	20,0	5731	6880
9	Mirishkor	349	2030	2440	410	20,2	5816	6990
10	Kasbi	210	1225	1466	240	19,6	5835	6980
11	Chiroqchi	715	4163	5134	970	23,3	5823	7180
12	Shahrisabz	259	1520	1865	345	22,7	5868	7200
13	Yakkabog‘	111	646	798	152	23,5	5824	7190
14	Qarshi shahri	355	2073	2584	512	24,7	5839	7280
Viloyat buyicha:		6203	35563	40824	7334	20,6	5733	6581

**Qashqadaryo viloyatida 2012 yil barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan
olingan sut mahsulotlarining xarajat va daromadlari to‘g‘risida ma’lumot**

№	Tumanlar	SUT						
		Olingan sut tonna	Jami xarajat mln. so‘mda	Jami daromad mln. so‘mda	Jami foyda mln. so‘mda	Renta- bellik %	1 tonna ming so‘mda	
							maxsulot tannarxi	o‘rtacha sotish bahosi
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	G‘uzor	2335	2010	2452	441	22,0	861	1050
2	Dehqonobod	634	477	567	91	19,0	752	895
3	Qarshi	2224	1871	2202	330	17,6	842	990
4	Koson	876	722	854	132	18,3	824	975
5	Qamashi	2119	1672	2087	415	24,8	789	985
6	Kitob	2065	1582	1941	359	22,7	766	940
7	Muborak	484	479	581	102	21,2	990	1200
8	Nishon	1800	2024	2430	406	20,0	1125	1350
9	Mirishkor	1006	919	1105	186	20,2	914	1098
10	Kasbi	1174	1178	1409	231	19,6	1003	1200
11	Chiroqchi	1986	1575	1942	367	23,3	793	978
12	Shahrisabz	1703	1305	1601	296	22,7	766	940
13	Yakkabog‘	922	665	821	156	23,5	721	890
14	Qarshi sh.	299	272	339	67	24,7	910	1135
Viloyat bo‘yicha:		19627	16751	20331	3512	21,0	853	1036

Ergashev Raxmatulla Xidirovich
Shoxo'jayeva Zebo Safoyevna
Amanov Otabek Amankulovich

Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti

Ma'ruzalar matni

Taqrizchilar:

G.Erkayeva, A.D.Ravshanov

Bosishga ruxsat etildi _____ bichimi 60x80 1/16
Shartli bosma tabog'i _____ Adadi 100 nusxa
_____sonli buyurtma

[illegible]

